

356 (046)

NI - 94

M. MUHAMMADSIDIQOV

SHARQ  
MAMLAKATLARI  
XALQARO  
MUNOSABATLARI

336 (076)

M - 94

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI


336 (076) 54530  
M - 94 Muhammad sidi  
Sharq mamlakatlarida  
xalqaro munosabatlari  
17 809  
δ/n

MUHAMMADOLIM MUHAMMADSIDIQOV

## SHARQ MAMLAKLATLARI XALQARO MUNOSABATLARI

O'quv qo'llanma

5120700 – Jahon siyosati ta'lif yo'nalishi talabalari uchun asosiy  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi



Toshkent-2017

Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari.  
O'quv qo'llanma. — T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017. —  
240 b.

Mazkur o'quv qo'llanma A-1-188-sonli "Xorijiy Sharq va G'arb davlatlari ijtimoiy-siyosiy rivojining nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratish" mavzuidagi ilmiy taddiqot loyihasi doirasida tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada Sharq mamlakatlarining xalqaro munosabatlardagi o'mini keng va atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada xalqaro munosabatlар tizimida mavjud muammolar, ularga nisbatan yangicha yondashuvlar yoritib berilgan. O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilab berilgan talablar asosida tayyorlandi.


O'quv qo'llanma jahon siyosati va xalqaro munosabatlар yo'nalişlarida tahlil olayotgan talabalar, bu borada faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va umuman mazkur soha bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**N.O'. TO'LAGANOVA**  
*siyosiy fanlar doktori, professor*

**S.A. JO'RAYEV**  
*siyosiy fanlar doktori, professor*

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashi  
tomonidan nashrqa tavsiya etilgan (Bayonnomma №11, 03.07.2017).



© Muhammadsidiqov M.M., 2017.  
©Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.

## KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi o'ziga xos o'tish davriga duch kelgan, shu bilan birga uning tizim sifatida tarkibi va ko'lami kengayib bormoqda. Bir tomonda davlatlar o'rtasidagi aloqalar, xalqaro geosiyosiy muvozanatning o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligi, yangi jahon tartibotining to'liq shakllanmaganligi, bir vaqtida ikki muqobil globallashuv va integratsion jarayonlarning avj olishi bir qator muammolar va qurollı nizolarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomonda davlatlararo harbiy mustahkamlanish yuz berayotgan davrda hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining asosiy vazifasi yuzaga kelgan davlatlar o'rtasidagi nizolar, qurollı to'qnashuvlar va boshqa global muammolarni hal etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib qoldi. Bu yo'lda an'anaviy aktorlar o'rtasidagi munosabatlarning qanday boshqarilishi, davlatlar va noan'anaviy sub'ektlar aloqalarini kuchaytirishga urinishlar kelgusi xalqaro munosabatlar tizimining qay shaklda rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev takidlab o'tganidek, "...biz mayjud rivojlanish suratlari bilan o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erisha olmaymiz. Bugun zamon o'zgarmoqda, uning talabi, oldimizga qo'yayotgan vazifalari tobora ortib bormoqda." Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va uni ijobiy, yutuqli tomonlarini O'zbekiston amaliyotida qo'llash muhim vazifalardan biri bo'ladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar arab mamlakatlarining doimiy diqqat-markazida bo'lib kelmoqda. Respublikamizning ilmiy-texnika va intellektual salohiyatining yuqoriligi, mineral xom ashyo va mehnat resurslariga ega ekanli, Evropa va Osiyoni tutashtiruvchi "Buyuk ipak yo'li"ning markaziy xalqasida joylashgani, ajodolarimizning islom dini va jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalarini arab mamlakatlarining siyosiy va ilmiy doiralari uchun katta qiziqish uyg'otadi.

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsий javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar. -Toshkent: O'zbekiston.

O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi Sharq davlatlari bilan o'zaro munosabatlari tizimida yangi davrni boshlab berdi. Bu esa barcha musulmon davlatlari bilan ko'p tomonlama manfaatdorlik asosidagi aloqalarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi.

Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari tizimi o'ziga xos o'tish davriga duch kelgan, shu bilan birga uning tizim sifatida tarkibi va ko'lami kengayib bormoqda. Bir tomonidan davlatlar o'rtasidagi aloqalar, xalqaro geosiyosiy muvozanatning o'zgaruvchan xarakteriga ega ekanligi, yangi jahon tartibotining to'liq shakllanmaganligi, bir vaqtida ikki muqobil globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayonining avj olishi bir qator muammolar va turli qurolli nizolarni yuzaga keltirsma, ikkinchi tomonidan, davlatlararo harbiy mustahkamlanish yuz berayotgan davrda hozirgi zamon xalqaro munosabatlarning asosiy vazifasi yuzaga kelgan davlatlar o'rtasidagi nizolar, qurolli to'qnashuvlar va boshqa global muammolarni hal etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib qoldi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh g'oya qilib yurt tinchligi va xalq farovonligi maqsad qilib olingen ekan, shubhasiz xalqaro maydonidagi tajribalarni o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish orqali bu maqsadlarga osonsoq va jadallik bilan erishish mumkin.

"Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari" kursida aynan Sharq mamlakatlarida zamonaviy xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keng va atroflicha yoritishni maqsad qiladi.

Ushbu o'quv kursning maqsadlaridan yana biri talabalarda mazkur fanning oliy o'quv yurtlarida zamonaviy talablar asosida o'qitish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

Qo'llanmada Sharq mamlakatlari tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda mazkur davlatlarda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar borasidagi turli zamonaviy qarashlar e'tiborga olingen.

Talabalar o'quv kursi mavzulari bo'yicha tahliliy materiallar bilan tanishtiriladi. Ular o'qish jarayonida zamonaviy siyosiy jarayonlar tendentsiyalari va bugungi kundagi ijtimoiy muammolarni tahlil etishda ko'nikmalar hosil qiladilar. Natijada talabalarda yuz berayotgan siyosiy hodisalarini muhokama etishda faollik va bashorat qilish mahorati oshib boradi. O'quv mashg'ulotlari ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning ketma ket ravishda olib borilishi shaklida amalga oshiriladi.

## O'QUV KURSINING PREDMET VA VAZIFALARI

### O'quv kursiga kirish

#### Darsning o'quv maqsadi:

- talabalar Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Sharq davlatlarining tashqi siyosati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

#### Tayanch tushuncha va iboralar:

*Tashqi siyosat, xalqaro nizolar, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi. Xalqaro to'qnashuv, doktrina, kontseptsiya, geoiqitsodiy manfaatlar, geosiyosat, Katta Yaqin Sharq tushunchasi, xalqaro xavfsizlik, milliy xavfsizlik strategiyasi.*

#### Asosiy savollar:

- 1.Sharq mintaqasining umumiyyatini tavsifi.
- 2."Xalqaro munosabatlar" tushunchasi.

*Sharq mintaqasining umumiyyatini tavsifi.* Osiyo – yunoncha "asia", ossuriycha "asu" – "Sharq" degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pincha Osiyoga sinonim sifatida "Sharq" atamasi ham qo'llaniladi. Osiyo Er sharijadi eng katta qit'a – butun quruqlik maydonining deyarli uchdan bir qismini egallaydi.

Sharq mamlakatlari shimoliy yarim sharning barcha geografik mintaqalarni o'z ichiga oladi. Malay arxipelagi qisman Janubiy yarim sharga kirib borgan. Osiyoning materikdagi eng chekka nuqtasi – shimolda Chelyuskin burni, janubda Piay burni, sharqda Dejnev burni, g'arbda Bobo burnidir. Qit'a shimoldan Shimoliy muz okeani, sharqdan Tinch okeani, Janubdan Hind okeani, Janubi-g'arbdan Atlantika okeani bilan qurshalgan. Bering dengizi Osiyonli Amerika qit'asidan ajratib turadi. Suvaysh kanali Osiyonli Afrika qit'asi bilan tutashtiradi. Osiyo va Evropa qit'alari chegarasi Ural va Mug'ojar tog'larining sharqiy qismidan o'tadi.

Osiyoning umumiyyatini maydoni 43,4 mln. kv.km. Shundan 8 mln. kv.km. yarimorollar (Yamal, Taymir, Chukotka, Kamchatka, Koreya,

Hindixitoy, Hindiston, Arabiston) 2 mln.kv.km.dan ziyodrog'i orollardir (Severnaya Zemlya, Novaya Sibir, Vrangel, Kurill, Saxalin, Yapon, Ryukyu, Tayvan, Xaynan, Malay arxipelagi, Andaman, Shri-Lanka, Kipr). Dunyodagi eng baland cho'qqi Himolay tog'laridagi Jamolungma (8848 m), eng chuqur botiqlar Baykal ko'li (1620 m), O'lik dengiz (392 m dengiz sathidan) ham Osiyo qit'asida joylashgan.

Osiyo maydonining to'rtadan uch qismi tog'lar hamda yassi tog'lardan iborat. Eng baland tog'lar Markaziy va O'rta Osiyodadir. Tibet, Tiyanshan (Tangri tog'), Pomir, Himolay, Hindikush, Qoraqurum va O'rta Osiyodagi bir qancha tog' tizmalarining balandligi 7000 m. dan oshadi. Osiyo maydonining qolgan qismi tekisliklardan iborat. G'arbiy Sibir, Turon, Buyuk Xitoy, Hind-Gang, Mesopotamiya, Qashqar, Jung'oriya, Gobi, Qaydam va Farg'ona vodiysi ana shunday eng yirik tekisliklar hamda tog'lar orasidagi baland maydonlarni tashkil etadi.

Osiyo mineral xomashyo resurslariga boy. Markaziy Osiyo, Sibir, Uzoq Sharq Xitoy, Koreya, Hindiston, Vietnam, Yaponiyada yirik ko'mir konlari bor. Kavkaz orti G'arbiy Sibir, Turkmaniston, Kaspiy bo'yи, Saxalin, Fors ko'rsazi sohilida neft quduqlari mavjud. Ulardan tashqari Xitoy, Indoneziya, Hindiston, Bruney, Yaponiya, shuningdek, O'zbekistonda ham neft qazib olinadi. Gaz konlari G'arbiy Sibir, Mang'ishloq, Yaqin va O'rta Sharq, O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istonda joylashgan. Sibir, Pokiston, Eron, Markaziy Osiyoda katta tuz konlari, Qozog'iston, Sibir, Shimoliy Koreya, Turkiya, Filippin, Eronda xrom rudasi konlari, Qozog'iston, Rossiya, Hindiston va O'zbekistonda fosforit, Rossiyada olmos konlari bor.

Quruqlik maydonining kengligi, tog' va botqlarning ko'pligi, serquyoshlik, atmosferadagi faol harakatlar iqlimning xilma-xilligini ta'minlaydi. Sharqda barcha iqlim mintaqalari – tundradan tropik iqlim mintaqalarigacha uchraydi, lekin asosan kontinental iqlim.

Sharq ya'ni Osiyo azim daryolar vatani. Uning bir qancha daryolari Shimoliy muz okeaniga, yana ayrimlari Tinch va Hind okeaniga quyuladi. Azov, Kaspiy, Orol va Balkash dengizlariga suv beradigan nisbatan kichik daryolar ham bor. Daryolarning bir qismi ko'llarga suv beradi, bir qismi esa qum va sho'rxokliklarga singib ketadi yoki sug'orishga sarflanadi. Daryo va sel suvlarini boshqarish va ulardan samarali foydalananish maqsadida suniy dengizlar – suv omborlari qurilgan. Osioning eng katta suv havzalari Kaspiy va Orol

dengizlaridir. Qit'ada daryo va ko'llar muhim transport qatnovini ham amalga oshiradi. Ko'pchilik daryolardan gidroenergiya maqsadida ham foydalniladi.

Sharqda 4 mlrd.ga yaqin inson, ya'ni Er sharining 61%dan ziyodrog'i yashaydi. Aholi nihoyatda noteks joylashgan. Ularning o'rtacha zichligi 1 kv.km.ga 878 kishini tashkil etadi. Masalan Yaponiyada 1 kv.km. ga 336 nafar kishi to'g'ri kelsa, bu ko'sratkich Yava orolida 1500 kishi, ba'zi joylarda esa undan ham ko'p. Shu bilan birga Sahroyi Kabir, Taklamakon, Gobi cho'llari va Tibet, Himolay, Hindikush tog'larining baland qismida aholi deyarli yashamaydi. O'inka demografik vaziyatning keskinligi bo'yicha Afrikadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. 2000 yillarning boshida bu erda har 1000 nafari kishi aholi hisobiga tug'ilish 22, o'lim 8, tabiiy o'sish 14 nafarni tashkil etdi.

Osiyo qit'asiga 48 ta mustaqil davlatlar kiradi. G'arbiy Osiyoga Bahrayn Isroi, Iordaniya, Iroq, Yaman, Qatar, Quvayt, Livan, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), O'mon, Falastin, Saudiya Arabistoni, Suriya, Turkiya, Eron, Afg'oniston; Shimoliy Osiyoga Rossiya, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston; Markaziy Osiyoga Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston; Janubiy Osiyoga Bangladesh, Butan, Hindiston, Maldiv, Nepal, Pokiston va Shri-Lanka; Sharqi Osiyoga Xitoy, Shimoliy va Janubiy Koreya, Mo'g'iliston va Yaponiya; Janubi-Sharqi Osiyoga Bruney, Sharqi Timor, Vietnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin mamlakatlari kiradi.

Rossiya bir vaqtning o'zida Osiyo va Evropa qit'asiga mansub. U Evrosiyo davlati hisoblanadi. Gonkong, Makao va Tayvan Xitoy hududlari deb ataladi. Keyingi paytlarda ular alohida "iqtisodiyot"lar deb ham yuritilmoqda.

**"Xalqaro munosabatlar" tushunchasi.** Bir qarashda, "xalqaro munosabatlar" tushunchasining mazmuni aniq va ravshandek bo'lib tuyulishi mumkin: bu – "davlatlar va davlatlar tizimlari o'rtasidagi, jahon maydonida ish ko'rayotgan asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar o'rtasidagi, ya'ni so'zning keng ma'nosidagi xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar yig'indisi".

Xalqaro munosabatlar tushunchasini izchilroq, ya'ni "davlatlar va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi, turli davlatlarning partiyalari, kom-

paniyalari va fuqarolari o'rtasidagi munosabatlar" sifatida ta'riflashga urinish ham masalaga kam oydinlik kiritadi. Mohiyat e'tibori bilan u ham xalqaro munosabatlar yig'indisini mazkur munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro aloqalar bilan bog'laydi. Bunday ta'riflarning eng katta kamchiligi shundaki, ular xalqaro munosabatlarning butun rang-barangligini oxir-oqibat davlatlarning o'zaro aloqasi bilan bog'laydi.

Xalqaro munosabatlarning "kishilik hamjamiyatini shakllan-  
turuvchi integratsion aloqalar yig'indisi" sifatidagi ta'rifida davlatlararo o'zaro aloqalar doirasidan chetga chiqishga urinish kuzatiladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur talqini ularning ishtirokchilari (yoki aktorlari) to'g'risidagi masalani ochiq qoldirish orqali ularni davlatlararo munosabatlar bilan bog'lash illatini chetlab o'tish imkonini beradi. Ushbu ta'rifning afzalligi yana shu bilan belgilanadiki, unda xalqaro munosabatlarning tadrijiy rivojlanish jarayonidagi asosiy tendentsiyalardan biri ifodalangan. Biroq, shunga qaramay, bu ta'rif haddan tashqari keng bo'lib, ayni hol ichki ijtimoiy va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi chegarani o'chiradi. Xalqaro munosabatlarning ishtirokchilariga emas, balki ularning bir-biri bilan o'zaro aloqasiga urg'u berish orqali u mohiyat e'tibori bilan mazkur ishtirokchilarni go'yoki "nazardan qochiradi". Holbuki, xalqaro munosabatlarning asosiy va ikkinchi darajali, qonuniy va tasodifiy ishtirokchilarini to'g'ri tushunmasdan, xuddi shuningdek ularning o'rtasidagi ierarxiyani qayd etmasdan yoki, boshqacha qilib aytganda, asosiy va ikkinchi darajali ishtirokchilarni ajratmasdan xalqaro munosabatlarning xususiyatini aniqlash qiyin.

Umuman olganda, ta'riflarga haddan tashqari katta e'tiroz bildirish ham to'g'ri bo'lmaydi: ta'riflanayotgan ob'ektning mazmunini to'liq yoritishga biron-bir ta'rif qodir emas. Uning vazifasi faqat mazkur ob'ekt haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Shu bois xalqaro munosabatlarni tahlil qilayotganda tadqiqotchilar "mukammal" ta'rif berishga emas, balki ularning mohiyati va xususiyatini tushunish imkonini beruvchi asosiy mezonlarni qayd etishga harakat qiladi.

Aksariyat tadqiqotchilar xalqaro munosabatlar xususiyatining eng muhim elementlari sifatida ularning ishtirokchilarini qayd etadi. Masalan, taniqli frantsuz sotsiolog R.Aron fikriga ko'ra, "xalqaro munosabatlar – bu siyosiy birliklar o'rtasidagi munosabatlar, shu ma'nodaki, mazkur tushuncha yunon polislарини, Rim va Misr

imperiyalarini, Evropa monarxiyalari, burjua respublikalari yoki xalq demokratiyalarini o'z ichiga oladi... Xalqaro munosabatlarning mazmuni asosan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi: chunonchi, davlatlararo shartnomalar xalqaro munosabatlarga shashubhasiz misol bo'ladi"<sup>1</sup>. O'z navbatida, davlatlararo munosabatlar ramziy personajlar – diplomat va askarning o'ziga xos xatti-harakatlarida ifodalanadi. "Faqat ikki kishi o'zi mansub bo'lgan birlik a'zolari sifatidagina emas, balki uning vakillari sifatida ham ish ko'radi: elchi o'z vazifalarini bajarayotganda o'zini vakil qilgan siyosiy birlik manfaatlarini ifoda etadi; askar jang maydonida o'zini urushga solgan siyosiy birlik nomidan o'ziga o'xshashlarni o'ldiradi". Boshqacha qilib aytganda, xalqaro munosabatlar urush va tinchlikning muqobilini o'zida ifodalaydi. Xalqaro munosabatlarning xususiyati shu bilan belgilanadiki, ular ham urush, ham tinchlik ehtimolini nazarda tutadi va shu bois xavf elementini o'z ichiga oladi.

Tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarning xususiyati haqidagi o'z tasavvuriga oydinlik kiritish maqsadida R.Aron ularni sport bilan solishtiradi. "Futbol bilan taqqoslaganda, tashqi siyosat yanada nomuayyan tus oladi, – deb yozadi u. – Bu erda ish ko'ruchchi shaxslarning maqsadi gol urishdek aniq va ravshan emas. Diplomatik o'ying qoidalari mufassal belgilanmagan va istalgan o'yinchilarni bunda o'zi uchun naf ko'rgan paytda buzadi. Hakam yo'q va hatto ishtirok etuvchi shaxslarning muayyan yig'indisi (BMT) hakamlikka da'vogar bo'lsa ham milliy ishtirok etuvchi shaxslar xolislik darajasi bahsli bo'lgan mazkur kollektiv hakamning qarorlariga bo'ysunmaydi. Agar millatlar raqobati amalda biron-bir sport turini eslatsa, u ko'pincha qoidasiz kurash – ketch shakl-shamoyilini kasb etadi..."<sup>2</sup>. Shu bois xalqaro munosabatlar – bu jamiyatning "ilk fuqarolik" yoki "tabiiy" (Gobbs ta'biri bilan aytganda, "hammaning hammaga qarshi urushi") holatidir, degan xulosaga keladi R.Aron. Xalqaro munosabatlar sohasida "suverenitetlar pluralizmi" hukm suradi, shu bois bu erda majburlash va zo'rlik ishlatishga monopoliya yo'q va xalqaro munosabatlarning har bir ishtirokchisi o'z xatti-harakatlarida boshqa ishtirokchilarining taxmin qilish mushkul bo'lgan xatti-harakatlaridan kelib chiqishga majbur.

Shunga o'xshash fikrlarni boshqa ko'pgina tadqiqotchilar ham ilgari suradi. Ular xalqaro munosabatlar ularning ishtirokchilarini

<sup>1</sup> Aron R. Paix et guerre entre les nations. – P., 1984. – P. 17.

<sup>2</sup> Aron R. Paix et guerre entre les nations. – P., 1984. – P. 22.

o'rtasida murosai madora, yuridik yoki axloqiy me'yorlar bilan kafolatlanuvchi umume'tirof etilgan qoidalar yo'qligi, markaziy hokimiyat mavjud emasligi, stixiyali jarayonlar va sub'ektiv omillar rolining kattaligi, tavakkalchilik va mavhumlik omilining kuchliligi bilan tavsiflanishini ta'kidlaydi.

Ammo R.Aronning davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqa xalqaro munosabatlarning asosiy mazmunini tashkil etadi, degan fikriga hamma ham qo'shilavermaydi. Masalan, amerikalik tadqiqotchi D. Kaporazo fikriga ko'ra, hozirgi vaqtida xalqaro munosabatlarning asosiy sub'ektlari davlatlar emas, balki sinflar, ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar va siyosiy kuchlardir. Xalqaro munosabatlar nazariyasi bixevoiristik maktabining namoyandasini D.Singer xalqaro munosabatlarning barcha ishtirokchilari (individidan tortib global hamjamiyatgacha) xulq-atvorini ularning jahon maydonidagi o'rnini va ahamiyatini aniqlash haqida o'yalamasdan o'rganishni taklif qiladi.

Umuman olganda, keltirilgan nuqtai nazarlar rang-barangligida xalqaro munosabatlarni tadqiq etishda ikki mezondan birini ustun qo'yish yoki ularning ikkalasini ham birlashtirishga urinishlar kuzatiladi. Bir holda bu ishtirokchilar xususiyati, boshqa holda esa – xalqaro munosabatlarning alohida tabiat. Ko'rib turganimizdek, ularning har biri har xil xulosalarga olib kelishi mumkin. Har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Bir yondashuv doirasida xalqaro munosabatlarni oxir-oqibat davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqa bilan yoki, aksincha, faqat nodavlat ishtirokchilarining faoliyati bilan bog'lash imkoniyati mavjudki, bu ham, bizningcha, to'g'ri emas.

Ikkinci yondashuv ham qarama-qarshi xulosalarga kelish uchun imkoniyat yaratadi. Chunonchi, xalqaro munosabatlar tabiatini faqat "tabiiy", "ilk fuqarolik" holati sifatida tushunish ularning ijtimoiylashiwi jarayonlarini inobatga olmaydi, mazkur holatdan chiqilayotgani va jahonda yangi tartib o'natilayotganidan dalolat beruvchi omillarni e'tibordan soqib etadi. Boshqa tomonidan, faqat mazkur tendentsiyadangina kelib chiqish jahoning yaxlitligi va o'zaro aloqa-dorligi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda turli davlatlar va xalqlarning hamkorligi hamda xalqaro integratsiya jarayonlari kuchayib borayotganiga qaramay, xalqaro munosabatlar hali-hanuz qarama-qarshi manfaatlar, raqobat, hatto bir-biriga qarshi kurashish va kuch ishlatish sohasi bo'lib qolayotganini inobatga olmaydigan

yanglish xulosa chiqarilishiga olib kelishi mumkin. To'g'ri, bu "jungli", "hammaning hammaga qarshi urushi" emas, lekin uni yagona qonunlarga va barcha a'zolari tomonidan e'tirof etiladigan qadriyatlar va me'yorlarga muvofiq yashovchi yagona hamjamiyat deb aytish ham mushkul. Bu jahon hamjamiyatining shakllanish jarayoni hali muqarrar tus olmagan, tartibga solish elementlari va "suverenitelar plyuralizmi", o'zaro manfaatlar asosida hamkorlikni kengaytirish va kuch ishlatish vositalarini takomillashtirish yonmayon mayjud bo'lgan, dam bir-birini muvozanatga soladigan, dam yana to'qnashadigan oraliq holat, desak, bizningcha, to'g'ri bo'ladi.

Bularning barchasi xalqaro munosabatlarning xususiyatini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan mezonlar nari borsa etarli emasligidan, ularni almashtirish yoki hech bo'lmasa yana bir mezon bilan to'ldirish zarurligidan darak beradi. Mazkur mezonni taklif qilgan frantsuz tadqiqotchisi M.Merl uni "lokallashtirish mezoni" deb nomlagan. Ushbu mezonga muvofiq, xalqaro munosabatlar xususiyati "chegarani kesib o'tuvchi yoki chegarani kesib o'tishni nazarda tutuvchi bitimlar yoki oqimlar yig'indisi"<sup>1</sup> sifatida tavsiflanadi. Jahon muayyan chegaraga ega bo'lgan o'z hududlari ustidan suverenitetni saqlab qoluvchi davlatlarga bo'linishidan kelib chiqqanda, mazkur talqin ham xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayonidagi har bir bosqichning xususiyatlarini inobatga olish, ham ularni davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar bilan bog'lamaslik imkonini beradi. Xalqaro munosabatlarning turli tasniflari ham u bilan mos keladi. Bu xususda ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirib, xalqaro munosabatlarning turli tiplari, turlari, darajalari va holatlari to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Chunonchi, yaqin vaqtgacha sobiq Ittifoq va Sharqi Evropada nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda xalqaro munosabatlar sinifiy mezonga muvofiq hukmronlik va tobelik munosabatları, hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlari hamda oraliq munosabatlarga bo'linar edi. Tegishli ravishda, birinchi turdag'i munosabatlarga feodal va kapitalistik munosabatlar, ikkinchi turdag'i munosabatlarga – sotsialistik mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar, uchinchi turdag'i munosabatlarga esa – mustamlakachilik qaramligidan xalos bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar kiritilar edi.

<sup>1</sup> Merle M. Sociologie des relations internationales. – P., 1974. – P. 137.

Amalda mayjud manzara mazkur sun'iy sxema bilan mos kelmagani bois, ayrim mualliflar sinfiy yondashuv chegarasidan chetga chiqmasdan sxemaning o'zini murakkablashtirishga harakat qilgan. Masalan, polyak olimi Yu.Kukulka bir turdagi xalqaro munosabatlarning uch tipini va oraliq xalqaro munosabatlarning uch tipini ajratgan. Amalda xalqaro hayot mazkur tipologiya bilan mos kelmagani, zero u sotsialistik mamlakatlar o'rtasida jiddiy ziddiyatlar va hatto qurolli mojarolar mavjudligini inobatga olmagan, ayni vaqtida kapitalistik davlatlar o'rtasida haqiqiy (ammo ziddiyatlarni ham istisno etmaydigan) hamkorlik munosabatlari mavjudligini rad etgan. XX asr 90-yillarining boshida Sharqiy Evropada yuz bergen, jahon sotsialistik tizimining yo'qolishiga olib kelgan voqealar aksariyat mutaxassislarni xalqaro munosabatlarni tasniflashda sinfiy mezondan butunlay voz kechish va "umumtsivilizatsion" mezonga o'tishga majbur etdi. Xususan, adabiyotlarda xalqaro munosabatlarning ikki tipini – kuchlar muvozanatiga asoslangan munosabatlар va manfaatlar muvozanatiga asoslangan munosabatlarni farqlash taklif qilindi. Ammo bir qator mualliflarning "yangi siyosiy tafakkur"ga bo'lgan qiziqishini aks ettiruvchi bu yondashuv fanda biron-bir jiddiy iz qoldirmadi va u shak-shubhasiz rad etilganidan so'ng qayta tiklanmadı.

Xalqaro munosabatlarni turlarga ajratish yo ijtimoiy hayot sohalari nuqtai nazaridan (iqtisodiy, siyosiy, harbiy-strategik, madaniy, maskuraviy munosabatlari), yo o'zaro aloqa qiluvchi ishtirokchilar nuqtai nazaridan (davlatlararo munosabatlari) amalgalash oshiriladi.

U yoki bu turdagi xalqaro munosabatlarning rivojlanish va faollik darajasiga qarab, ularning turli darajalari farqlanadi. Ammo xalqaro munosabatlarning darajalarini geosiyosiy mezonga muvofiq aniqlash ayniqsa keng tarqalgan: shu nuqtai nazardan xalqaro munosabatlarning global, mintaqaviy va submintaqaviy darajalari farqlanadi.

Nihoyat, keskinlik darajasi nuqtai nazaridan, xalqaro munosabatlarning turli holatlari to'g'risida so'z yuritish mumkin: masalan, barqarorlik va beqarorlik holatlari; o'zaro ishonch va dushmanlik, hamkorlik va konflikt, urush va tinchlik holatlari va sh.k.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib xalqaro munosabatlarni jamiyat doirasidagi o'zaro aloqalar va hududiy tuzilmalar chegarasidan chetga chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turi sifatida ta'riflash mumkin.

### **Nazorat va topshiriq savollari:**

1. Jahon xaritasida xorijiy Sharq mamlakatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering.
2. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Osiyo mamlakatlarining rolini aytib bering.
3. Bugungi kunda zamonaviy xalqaro munosabatlardagi holat qanday?
4. Nima sababdan etakchi davlatlar ko'plab Sharq mamlakatlariga iqtisodiy yordam ko'rsatadi?

### **Mustaqil ish savollari:**

1. Siyosiy xarita yordamida Yaqin Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering ?
2. Globalizatsiya jarayonining ijobiy va salbiy jihatlarini sanab o'ting?
3. Xorijiy Sharq mamlakatlarning hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rGANISH.
4. "Xorijiy Sharq mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlar" mavzusida nutq tayyorlash.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Муҳаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Fapб мамлакатларидағи ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянкова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

## **1-BOB. JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI XALQARO MUNOSABATLARDA**

### **1.1. Hindiston zamonaviy xalqaro munosabatlarda**

#### **Darsning o'quv maqsadi:**

- talabalarni Hindiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Hindiston ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch iboralar va tushunchalar:** Hindiston, Buyuk Britaniya Millatlar Hamdo'stligi, Javaharlal Neru, Maxatma Gandhi, Lal Bahodur Shastri, Indira Gandhi, Jammu, Kashmir..

#### **Asosiy savollar:**

1. Hindiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
2. Zamonaviy bosqichda Hindiston-Pokiston munosabatlari.
3. Hindiston tashqi siyosatida Janubiy Osiyo (Nepal, Butan, Maldiv, Shri-Lanka, Bangladesh va Myanma) mamlakatlari.
4. Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik tashkiloti SAARKni tashkil etilishida Hindiston tashabbuslari.

**Hindiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.** Hindiston mintaqaning qoq markazida joylashgan bo'lib qolgan oltita davlat uni o'rab turadi. Hindiston er maydoni jihatdan (3,287 ming km) mintaqada hududining 73,5%ni, mintaqaga aholisining 76,5%ni tashkil qiladi. Mintaqada ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulotning 80%ni Hindiston ulushiga to'g'ri keladi. Harbiy sohadagi ustunlik ham Hindistonning mintaqadagi dominon davlat sifatida tan olinishini ta'minlab, bunday tabiiy ustunlik mintaqaga holatiga ta'sir qiladi. Hindistonning mintaqadagi ustunlik holati unga nisbatan ishonch-sizlikni keltirib chiqarishi natijasida mintaqaning umumiy holatiga salbiy baho berishga olib keladi.

Napoleon Bonapart "Hindiston davlati kimning qo'lida bo'lsa, o'sha davlat dunyoga hukmronlik qiladi" degan edi. Bu bejiz emas

edi. Zero, qadimdan nafaqat madaniyat va san'ati yuksak darajada rivojlangan, balki o'zining tabiiy boyliklari, oltin va duru-javohirlari bilan dong taratgan. Hindiston asrlar osha dunyo hamjamiyatini o'ziga jalb etib kelgan. Yillar silsilasi hind jamiyatni uchun o'ziga xos maktab vazifasini bajardi. Maxatma Gandhi, Javoxarlal Neru, Lal Bahodur Shastri kabi buyuk siyosatchilarni tarbiyalagan yurt dunyoda o'zi tanlagan yo'li borligini ko'rsatdi.

Hindiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab tashqi siyosatda o'zining yo'liga ega ekanligini amalda isbotlashga harakat qildi. Hindiston hozirgi kunda o'zining ichki muammolarining echimini topishga harakat qilishi bilan bir qatorda, strategiyasi va oldiga qo'ygan maqsadi sari yuritayotgan ichki va tashqi siyosati orqali dunyoda yirik davlatlar orasidan keng joy egallab kelmoqda. Uning jahonda etakchi davlatlar qatoridan joy egallash g'oyasi 1947 yil, ya'ni mustaqillikka erishgan yillardan, J.Neru uch rangli Hindiston davlati bayrog'ini qabul qilgandan boshlab davlat siyosatida strategik maqsadga aylangan. Xususan, 1956 yilda Hindiston bosh vaziri J.Neru: "Hindistonning bosh strategik maqsadi - bu buyuk davlatlar maqomiga ega bo'lish va AQSh, Sovet Ittifoqi va Xitoydan keyin to'rtinchli o'rinda turish lozim", - deb aytgan so'zi bunga yaqqol dalil bo'ladi. J.Neru asos solgan "kuch ishlatmaslik" masfurasi tashqi siyosatning asoslaridan hisoblanadi. Neru tinch-totuv yashashning besh asosiy qoidasi – "panch shila" (hind tilida-besh asosiy qoida)ni ishlab chiqdiki ular quyidagilardan iborat:

- Davlatlarning hududiy yaxlitligi va suverenitetini o'zaro hurmat qilish;

- Bir-biriga hujum qilmaslik;
- Bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik;
- Tenglik va o'zaro manfaatdorlik;
- Tinch-totuv yashash.

Birinchi bor ushbu qoidalar 1954 yil Hindiston-Xitoy bitimida qayd etilgan bo'lib, o'sha vaqtidan beri xalqaro munosabatlari amaliyoti va maskurasiga singib ketgan.

Mazkur printsiplar so'zda emas, amalda Hindiston tashqi siyosatining zaminiga aylandi. Neru ishlab chiqqan bloklarga qo'shilmaslik g'oyasi yuqoridaq qoidalarning bevosita davomi sifatida ko'pchilik davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Hindiston boshqa davlatlarni o'ziga bo'ysindirishga, ularni ichki ishlariga

aralashishga hech qachon intilmadi, hamisha bosqinchilik qurbanlarini himoya qildi. Shu boisdan uning tashqi siyosiy yo'li rivojlanayotgan davlatlar uchun jozibali edi. Hindiston Bandung konferentsiyasi va Qo'shilmaslik harakati tashabbuskorlardan biri, aslida u mazkur harakatning "norasmiy rahbari" edi.

Hindiston an'anaviy tashqi siyosati Javoharlal Neruning "jahon bir oila singari" degan g'oyasiga doimo tayanib kelgan. Bu esa Hindiston tashqi siyosatining-tinchlik va barqarorlikni asrash, xalqaro hamkorlik, qo'shilmaslik harakatini taraqqiy ettirish, umumiyligini qurolsizlanish, global hamkorlik va ichki ishlariiga aralashmaslik orqali qoloq jamiyatlar va davlatlarni rivojlanish kabi asosiy g'oyalarini shakllanishiga turki bo'ldi.

Hindiston davlatchiligining shakllanishi murakkab sharoitlarda amalga oshirildi. Bu davrda Javoharlal Neru siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi:

Birinchidan, davlat apparatini hindulashtirish va mamlakatda Britaniya harbiy kuchlarini bartaraf etish;

Ikkinchidan, Mauntbeten rejasiga ko'ra knyazliklarning Hindiston tarkibiga kirishlari uchun o'zaro manfaatli shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni knyazlar o'z siyosiy hokimiyatlaridan mahrum etiladilar, biroq ular o'z mol-mulkleri saqlanib qolishi orqali davlat arboblari maqomiga ega bo'lishlari;

Uchinchidan, diniy qarama-qarshilikni tugatishga qaratilgan (bu davrda bunday qarama-qarshiliklar natijasida bir million kishi o'ldi, 12 million qochoqlar paydo bo'ldi) chora tadbirlar ishlab chiqish;

To'rtinchidan, bo'linish natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni (xom ashyo etishtirish sohalarining Pokistonda qolib ketishi, chegara oldida irrigatsiya va transport aloqalarining izdan chiqishi, qochoqlar va ishsizlar muammosi) bartaraf etish;

Beshinchidan, mamlakat ichida o'ngchilar va so'khilar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi natijasida ijtimoiy-siyosiy beqarorlikning yuzaga kelish ehtimolini tugatish.

Hindiston shuningdek dunyoga nazar solib shuni ko'rdiki, ko'pgina mamlakatlar mustamlakachilik tuzumidan xalos bo'la boshladilar. Ushbu endigina vujudga kelgan mamlakatlar dunyoga nazar solishganida ular kommunistik blok bilan nokommunistik blok o'rtaida bo'lib tashlangan olamni ko'rishdi. Bu sovuq urush davri edi. Neru, Prezident Nosir va Prezident Tito boshchiligidagi millatlar

hamjamiyati Qo'shilmaslik harakatini joriy etdi. Ma'lum bir vaqt ichida qo'shilmaslik harakati nafaqt jiddiy siyosatga ega bo'ldi, shu bilan birga jiddiy iqtisodiy mazmunni ham orttirdi. Deyarli barcha qo'shilmagan mamlakatlarni o'z ichiga olgan 77lar guruhi iqtisodiy masalalar muhokama qilinadigan hamma joyda rivojlanayotgan mamlakatlarni qabul qilish shartlari va bahosi muhokamasining muhim vositasiga aylandi.

Hindistonning mustaqilligidan keyin prezident Neru shuni ko'rgan edi, "tashqi siyosat maqsadlari – bu tinchlikni saqlab qolish va inson erkinliklarini kengaytirishdir". U shuningdek bugungi kundagi idealizmni ertangi kun realizmi kabi bayon qilgan edi. Bu Hindiston tashqi siyosatining manbai bo'ldi va 1950 va 1960-yillarda mobaynida idealizm natijasi sifatida Hindiston nafaqt o'z mustaqilligiga erishgan, shu bilan birga boshqa mamlakatlar mustaqilligi uchun ham ish yuritgan mamlakatlardan biri bo'ldi. Hindiston o'zining qo'shilmaganligi sababli xalqaro munosabatlarda ehtimol harbiy va iqtisodiy qudratga mutanosib bo'lgan rolni o'ynadi va o'ynamoqda. Tashqi siyosatdagi idealizm va axloqiylik xalqaro miqyosdagi o'sishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qoldi.

Indira Gandhi xonim Hindistonning Bosh vaziri bo'lganida u ko'proq Hindiston tashqi siyosatining realistik jihatlariga tayandi. U bevosita idealizmga tayanmadidi. Uning tuzumi davomida Hindistonning dunyo xaritasidagi o'mini aniq ifodalovchi ko'p narsalar yuz berdi. 1974 yilda yadro sinovlari o'tkazildi. Shubhasiz, tashqi siyosating iqtisodiy sohada, harbiy va himoya jihatlarida ham o'zgarishlar yuz berdi. Gandhi xonim xalqaro miqyosda o'ziga xos rol o'ynadi. U bir necha muhim xalqaro uchrashuvlarda bo'ldi va Hindistonda bir necha marta muhim xalqaro uchrashuvlarni o'tkazdi. Uning davrida qurolsizlanish, xalqaro maydonda o'ziga xos o'ringa ega bo'lish va atrof-muhit kabi masalalarga e'tibor qaratildi. Bu uning tashqi siyosatidagi asosiy jihatlardir.

Hindistonda realizmning cho'qqisi 1998 yil may oyiga to'g'ri keldi. Shunda Hindiston yadro sinovlarini boshlashga qaror qildi. Hindiston butun dunyoga bu yadro quroli quvvatining sinovi ekanligini e'lon qildi. Shu bilan birga, 90-yillarda SSSRning tarqab ketishi sababli qutublarga bo'linmagan dunyo vujudga ketdi. Xalqaro hamjamiyat shuningdek dramatik o'zgarishlari ham boshidan kechirdi. Shu bosqich davomida globalashuv hech qaysi mamlakat pisand qila

olmaydigan kuchga aylandi. Bugungi tashqi siyosat baribir realistikdir, u Hindistonning millatlar hamjamiyatidagi o'rni iqtisodiy va harbiy qudrat bilan belgilanishini anglashga asoslanadi. Bu idealizmdan voz kechish emas edi, lekin shunisi aniqliki, sof holdagi idealizmning o'zi etarli bo'lmaydi. U o'tmishda qolib ketdi va realistik ko'rinishlarga asoslangan tashqi siyosatni yaratish hamma uchun ham qiziqarlidir.

Xalqaro global jarayonda Hindiston o'zining tashqi siyosati orqali qator davlatlar bilan keng qamrovli munosabatlар olib bormoqda va ularga nisbatan mamlakatning tashqi siyosiy yo'naliishi faol amalgal oshirilmoqda. Davlatning mazkur yo'naliishdagi harakatlari ko'p qutubli dunyoning an'naviy tamoyillariga amal qilish bilan birga bir qator g'oyalarga tayanmoqda. Jumladan:

shakllanayotgan dunyoviy tartibotda mamlakat strategik maqsadlari yuzasidan harakatlarni muvofiqlashtirish;  
kollektiv xavfsizlik va harbiy harakatlarga qo'shilmaslik tamoyillariga asoslanish;

nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;  
manfaati mavjud mintaqal davlatlari bilan integratsiyalashuv jarayonlariga kirishish;  
dunyo mamlakatlari bilan do'stlik munosabatlari asosida aloqalarni shakllantirish.

Bundan tashqari mamlakatning tashqi siyosatida uzoq muddatli yadroviy qurolsizlanish tamoyili ham mavjud bo'lib, o'zining yadro quolini "dushman imkoniyatlarini ushlab turish va nazorat qilish vositasi" sifatida ko'radi.

Shu kabi tamoyillar asosida Hindiston yangi shakllanayotgan dunyoviy tartibotda faol harakat olib borar ekan, mamlakat tashqi siyosatining zamonaviy yo'naliishi 2003 yil Iraq voqealaridan so'ng shakllana boshladi. Bu holat esa quyidagilarda aks etadi:

- Hindiston-AQSH munosabatlarini yanada rivojlantirish;
- Hindiston-Rossiya strategik hamkorligini chuqurlashtirish;
- Hindiston - Xitoy munosabatlarida mintaqaviy muammolariga ko'proq ahamiyat qaratish;
- Hindiston – Pokiston munosabatlarida mavjud muammolar yuzasidan siyosiy muzokaralarni faollshtirish;
- Afg'oniston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tiklanishida faol ishtirok etish;

• O'zining tashqi siyosati strategiyasida Markaziy Osiyo respublikalarining o'mnini oshirish va mintaqal davlatlari bilan har sohadagi aloqalar ko'lalmini kengaytirish.

Hindiston tashqi siyosatining strategik maqsadi – global miyosdagi davlatga aylanish g'oyasi mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarda belgilab olingen edi. Bugungi kunda Dehli kollektiv xavfsizlik va qo'shilmaslik, ko'p qutublik tamoyillariga amal qilib, dunyoning deyarli barcha davlatlari bilan do'stona aloqalarni o'matgan holda faol, ko'pvektorlik tashqi siyosat olib bormoqda.

Hindiston tashqi siyosatining an'analari harbiy ittifoqlarda ishtirok qilmaslik va mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyillariga tayanadi. Hindiston bir tomonidan uzoq istiqbolda jahon miyosida yadroviy qurollardan voz kechish g'oyalalarini ilgari sursa, boshqa tomonidan "potentsial raqibini masofada ushlab turish" maqsadida yadro quroliga ega bo'lish fikrini bildiradi.

Shuningdek, Hindiston tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar jumladan BMT bilan aloqalarni kuchaytirish ham bugungi kunda keng ahamiyatlidir. Shu maqsadda mamlakat tomonidan BMTning qator faoliyatlarida qatnashish bilan birga tashkilotning doimiy a'zosiga maqomiga ega bo'lish, BMT etakchiligidagi olib borilayotgan tinchlikni o'matish harbiy harakatlarda, ya'ni "Xalqaro terrorizmga qarshi keng qamrovli konvensiya" loyihasini qo'llab-quvvatlash jarayonlarida faol ishtirok qilmoqda. Mazkur harakatlar mamlakatdagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonunning qabul qilinganligi va "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha qo'shma ishchi guruhini tuzish to'g'risidagi" kelishuvlarning Xitoy va Rossiya kabi yirik davlatlar bilan imzolanganligida o'z tasdig'i topdi.

Shu kabi omillar asosida mamlakatning yangi tartibdag'i hukumati ham o'zining hamkorlik dasturini ishlab chiqqan bo'lib, unda asosiy e'tibor Janubiy va Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga qaratilgan.

Hindiston Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi, Markaziy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, ya'ni Tinch Okeani mintaqasi, O'rta Osiyo va Hind Okeani mintaqasi mamlakatlari bilan aloqalarni kengaytirish kontseptsiyasiga amal qilmoqda. Misol uchun, Hindiston-Myanmar-Tailand bo'ylab yo'l qurilishi uch tomonlama loyihasi, Janubi-Sharqiy Osiyo uchun "Ochiq falaklar" loyihasi, Markaziy Osiyoga tranzit uchun Eron porti Chabahardan foydalanan haqidagi bitim, BIMSTEC

(The Bengal Initiative for Multi Sectoral Technical and Economic Cooperation) va "Mekon-Gang hamkorligi mavjud".

Shuningdek, Hindiston dunyoning etakchi davlatlari bilan yaqindan aloqalar olib borishga harakat qilmoqda. So'nggi paytlarda Hindiston va AQSh aloqalari tez sura'larda rivojlanmoqda va hamkorlikning sakkizta birlamchi sohalari ajratilgan. Ular quyidagi yo'naliш va loyihalar: kosmosni o'zlashtirish, ikki yoqlama maqsadga mo'ljallangan atom energiyasi va texnologiyasi sohalaridagi aloqalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan "Strategik hamkorlikdagi keyinagi qadamlar" tashabbusi; ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni kengaytirish; fuqarolik kosmik hamkorligi bo'yicha ishchi guruh o'rtasidagi loyihalar; rivojlanayotgan demokratiyalarga o'zaro ko'maklashish (Amerika-Hindiston global demokratiya tashabbusi); tabiiy ofat va falokatlarda yordam ko'satisht bo'yicha o'zaro tashabbus; VICHG'OITSga qarshi kurash; qishloq xo'jaligi kabilar.

Hozir Hindiston, AQSh, XXR, Janubiy Koreya va Yaponiya ishtirokidagi energetik ittifoq tuzish loyihasi mavjud. Bu kabi ittifoq energoresurslar narxini bir maromda ushlab turishga ko'maklashish shuningdek, OPEKning o'ziga xos aksi sifatida namoyon bo'lishiga mo'ljallangan.

"Sovuq urushning" tugashi bilan Hindiston va Rossiya o'rtasida davom etib kelayotgan durustgina aloqalarni saqlab qolishga erishildi. Ayniqsa, Hindistonning Rossiya qurol-yarog' bilan ta'minlash sohasidagi hamkorlikni ta'kidlash lozim. Hindiston katta hajmdagi zamonaviy qurollarni sotib olayotgan paytda Pokiston bunday imkoniyatlardan mahrum, chunki Rossiya o'zi uchun muhim bo'lgan hind qurol-yarog' bozorini ehtimoliy yo'qotishdan xavotirda.

So'ngi yillarda Hindiston va XXR o'rtasidagi aloqalar yaxshi tomonga o'zgarmoqda. Muhim yo'naliшlardan biri chegara muammo-bitimlar chegara hududlarida ishonch me'yorlarini mustahkamlashga imkon berdi. XXR 1975 yilda amalga oshirilgan, Hindistonga Sikhim knyazligini qo'shib olinishini tan oldi. Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarga chegara masalalari bo'yicha ixtilof umuman ta'sir etmasligi lozim degan qarorga kelishdi. Ikki tomonlama maslahatlar chegara muammosini hal qilishda yagona yo'l sifatida ko'rilmoxda.

Hindiston va XXR hamkorligi iqtisodiy sohada, savdo-iqtisodiy aloqalari, xavfsizlik, chegaralararo masalalarda va ilmiy-texnikaviy

sohalarda shuningdek, madaniyatlar almashinuvি jahbalarida yo'lga qo'yilmoqda. Energetika muammolari bo'yicha hamkorlik loyihalari mavjud. Axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlik eng istiqbolli hisoblanadi. 1990 yillar oxirida Rossiya, XXR va Hindistonning uch tomonlama sherikchilik rejasidagi paydo bo'ldi. Rejalarni amalga oshirish bo'yicha uch tomonlama uchrashuvlar XXI asr boshida BMT Bosh Assambleyasi doirasida, Osiyoda o'zaro aloqalar va ishonch meyorlari bo'yicha kengashida bo'lib o'tdi. Ammo, rejalarming mavjudligi davom etishiga qaramay strategik uchburchakning tuzilishi hanuz-gacha norasmiy loyihaligicha qolmoqda.

Hindiston AQSh bilan shu jumladan, yadro masalasi bo'yicha strategik hamkorlikka intilmoqda. Masalan, AQSh Hindistonning yadroviy yoqilg'i va alohida texnikalar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi, Hindiston esa o'z o'mida o'zining atom elektr stantsiyalariga xalqaro kuzatuvchilarni kelishiga yo'l qo'yib berdi.

Janubiy Osiyoda yuz berayotgan jarayonlarda o'z ishtirokini kengaytirishga harakat qilmoqda. Evropa ittifoqining bunday qarashlari mintaqada Buyuk Britaniyaning an'anaviy kuchli ta'siri bilan to'g'ri kelmoqda. Evropa Ittifoqi Janubiy Osyo davlatlariga xalqaro terrorizmga qarshi kurashda yordam bermoqda.

Evropa Ittifoqining Pokistonning siyosiy va iqtisodiy tomonidan qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etmoqda. Pokiston bilan hamkorlik odatda Afg'onistonda xavfsizlikni mustahkamlash kontekstida ko'rib chiqilmoqda. Umuman olganda EI Pokiston uchun muhim tijorat hamkorli hisoblanib, Pokistonga imkoniyat darajasida bo'lgan demokratishtirish va saylovlarini o'tkazishda yordam ko'rsatib kelmoqda.

Hindiston va Pokistonning Shanxay hamkorlik tashkilotida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi bu ikki mamlakatga yangi istiqbollar ochmoqda.

Janubiy Osiyoda XXR o'z ta'sir doirasini kengaytirmoqda. XXR uchun Pokiston qurol-yarog' sotishning asosiy bozori hisoblanadi. Shu bilan birga XXR va mintaqaning boshqa davlatlari, avvalo Hindiston bilan o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarining ko'lami tez sur'atda oshib bormoqda.

Janubiy Osiyoda odatiy holda Rossiya o'z ta'sirini saqlab kelmoqda. Mintaqada Hindiston Rossiya uchun asosiy hamkordir. Pokiston bilan aloqalarining yaxshilanishi Rossiya uchun yangi istiqbollarni ochib beradi, ammo Rossiya XXR, EI va AQShdan farqli

o'larоq SAARK (SAARC - South Asian Association for Regional Cooperation, Janubiy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy hamkorligi uyushmasi)da kuzatuvchi statusiga ega emas, shuning uchun bunday vaziyat istiqbolda uning mintaqadagi ta'sirining pasayishiga olib kelishi mumkin.

**Zamonaviy bosqichda Hindiston-Pokiston munosabatlari.** Janubiy Osiyo geosiyosiy tuzilma sifatida bir necha mamlakatni o'z ichiga oladi. Ulardan eng yiriklari Hindiston va Pokiston hisoblanadi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar ushbu mintaqaning xalqaro aloqalarini belgilab beruvchi omil sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Osiyo mamlakatlari asosan qadimiy tarix va madaniyatga ega, garchi mintaqada bu davrda yarim mustaqil mamlakatlar bo'lgan bo'lsa ham, zamonaviy davlatchilik XX asr ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Mintaqada sodir bo'lgan katta siyosiy voqeа bu Hindiston va Pokistonning mustaqillikka erishishidir.

1947 yilda Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi diniy dunyo qarashlarga ko'ra bo'lindi. Bo'linish zo'ravonlik, qurolli to'qnashuvlar va qochoqlarning ko'p sonligi bilan kechdi. Pokiston g'arbiy va sharqiy qismrlarga bo'linib qoldi. Kashmir mojarosi ham bo'linishning natijasi bo'lib, uni hanuzgacha hal qilib bo'lmadi.

Janubiy Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi, ularning bir-biri bilan bo'lgan aloqalarini yo'lga qo'yish va tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish zarurligiga olib keldi. Ulardan biri chegaralarni hal qilish masalasi edi. Mintaqada hududining kattaligi bo'yicha etakchi bo'lgan va markazga joylashgan mamlakat Hindiston bo'ldi. Shuning uchun chegaralar muammosi asosan Hindiston va qo'shi davlatlar aloqalariga qaratildi.

Har doim ham muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga muvaffaq bo'linmadi. Misol uchun, Hindiston va Pokiston o'rtasida uch marotaba keng ko'lamli harbiy harakatlar bo'lib o'tdi. Oxirgi urush (1971 yil) Sharqiy Pokistonning ajralishi va mustaqil Bangladesh davlatining tashkil topishi bilan tugadi.

Hindiston bilan Xitoyning chegara borasida hal etilmagan masalasi 1962 yil qurolli to'qnashuvga olib keldi. Ushbu vaziyatni hal qilishga qaratilgan harakatlar faqat 1980 yillarda oxirlariga kelib boshlandi.

Mustaqilligining birinchi kunlaridanoq Hindiston mintaqadagi boshqa mamlakatlar bilan tezroq aloqalarni yo'lga qo'yishga intildi.

Tegishli shartnomalar Bitimlar Butan (1949 yil), Nepal (1950 yil), Shri-Lanka (1954, 1964 yillarda), Hindistonga keyinroq qo'shib olingen Sikhim knyazligi (1949 yil) bilan imzolandi.

Hindiston boshidanoq tinchlik, betaraflik va harbiy ittifoqlarga qo'shilmaslik tarafidori ekanligini e'lon qildi.

Mustamlakachilikka qarshi kurash harakati Hindistonning tashqi siyosatida muhim omil bo'lib qoldi. Misol uchun, Hindiston mandat bilan idora qilinadigan hududlarni BMT vasiyligiga topshirish tashabbusi bilan chiqdi. Hindiston JARdagи irqiy ayrimachilikka barham berilgunicha Janubiy Afrikada irqchilik tuzumi dushmanlarini faol qo'llab-quvvatlaadi. Hindiston Qo'shilmaslik harakatining faol ishtiroychisiga ylandi.

"Sovuq urush" davrida Hindiston SSSR bilan an'anaviy tarzda do'stona aloqalarini tutib turdi. Mintaqadagi uning dushmani Pokiston esa o'sha payt AQShdan qo'llab-quvvatlash va'dasini olishga harakat qildi.

Pokistondan farqli o'larоq, Hindiston oldindan dunyoviy demokratik davlat sifatida chiqqan edi. 1950 yilda garchi Hindiston Britaniya millatlar ittifoqi tarkibida bo'lsa ham, Konstitutsiya parlament respublikasi haq-huquqlarini mamlakatga biriktirib qo'ydi. Mamlakat ichidagi dinlararo va millatlararo qarama-qarshiliklar va Pokiston bilan qurolli to'qnashuvlarga qaramasdan, Hindiston o'zining asosiy printsip (nuqtai nazar)larini saqlab qolishga erishdi (1975-1977 yillarda favqulodda vaziyat kiritilgan paytdan tashqari).

Pokiston boshidanoq diniy davlat sifatida tashkil topgan edi. M.A.Jinna Musulmonlar ligasi peshvosi sifatida ikki millat g'oyasini ishlab chiqib, uning asosida mustaqil musulmon "pok davlati"ni tuzishni talab qildi. Amalda bir madaniyatli Pokiston turli madaniyatli Hindistonning aksi sifatida namoyon bo'ldi.

Pokiston armiyaning siyosiy hayotdagi muhim roli bilan farqlanadi. Pokistonning tashkil topishi va rivojlanish xususiyatlari, davlat institutlarining zaifligi, Hindiston bilan harbiy to'qnashuvlar va qurol-yarog'ni orttirishning hayotiy zarurligi armiya rahbarlarining vaqt-i-vaqt bilan siyosiy jarayonlarga aralashishiga olib keldi. Misol uchun, 1956 yil Pokistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi, so'ng hukumat almashdi. 1958 yil esa harbiy to'ntarish natijasida hukumat tepasiga general M.Ayub-xon keldi.

1962 yil qabul qilingan Konstitutsiya Ayub-xonga 1965 yilgi prezidentlik saylovlarida ishtiroy etish va g'alaba qozonishga imkon

berdi. 1969 yil navbatdagi harbiy to'ntarish natijasida hukumat tepasiga general A.M.Yahyo-xon keldi.

1971 yil Hindiston bilan urushdagi fojia Z.Bxutto boshchiligidagi hukumatning tashkil topishi va uchinchi Konstitutsiyaning qabul qilinishiga olib keldi. Biroq, 1977 yil yangi harbiy to'ntarish o'z o'tmishdoshini qatl qilgan armiyaning navbatdagi rahbari Ziyo ul-Haqni hokimiyat tepasiga olib keldi.

Nihoyat, 1999 yil armiyaga boshchilik qilgan P.Musharraf N.Sharif o'rniga davlat boshqaruvini qo'lga oldi. Pokistonga yuklatilgan "demokratlashtirish" stsenariylarning takrorlanishiga olib keldi. Prezident P.Musharrafning Pokiston armiyasining bosh qo'mondonligidan bosh tortishi, prezidentlik va parlament saylovlarining terroristik guruhlarning faollashuvi va favqulodda holat sharoitida o'tkazilishi jarayonlarning keyingi rivojini oddiy ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingen xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) usuli bilan aytib berishga imkoniyat yaratadi.

Hindiston va Pokiston o'rtasidagi ziddiyat demokratik parlament respublikasi va avtoritar (diktatura), harbiylashgan, beqaror hokimiyatning qarama-qarshi turishini o'z ichiga oladi. Ammo Hindiston va Pokiston aloqlarida eng muhim 60 yildan beri davom etib kelayotgan hududiy da'volar va ularning asosiyalaridan biri bu – Kashmir muammosi bo'lib kelmoqda.

"Sovuq urushning" tugashi bilan Hindiston va Pokiston o'rtasidagi aloqlarda ko'p narsa o'zgarmadi. Ammo bu ikkala mamlakatning tashqi siyosati vektorini boshqa bir shaklga o'tshiga olib keldi. Pokiston sezilarli darajada AQShning moddiy yordamidan mahrum bo'ldi va doimiya aylanib ketadigan bo'hronqa duch keldi. Vaziyat 1998 yil yadroviy qurol sinoviga javoban kiritilgan sanktsiyadan so'ng og'irlashdi.

Pokiston Afg'onistondagi vaziyatning rivojiga bog'liq bo'lib goldi. Ko'p yillik fuqarolar urushi va pokiston-afg'on chegaralarining yomon nazorat qilinishi, islam radikalizmi omili Pokiston uchun, xususan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqlarni yaxshilashga jiddiy muammolar keltirib chiqardi. Shunda ham Pokiston yuzaga kelgan vaziyatni o'zining foydasi yo'lida foydalanishga harakat qildi.

Afg'onistonda "Tolibon" harakatining o'mi ortib borgani sari Pokiston toliblarning yaqin ittifoqchisi bo'lib qolishda davom etib, vaziyat ustidagi nazoratini yo'qota boshladi. Pokiston manfaatlari ko'pincha "Tolibon" harakati olib borgan siyosat bilan qarama-

qarshilikka uchardi. Bu qarama-qarshiliklar Mozori-Sharifning bosib olinishi, Pokiston nuqtai nazarida "haddan tashqari" terroristlarni tayyorlash lagerlarini kengaytirish, "Tolibon" harakatining Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi mavjud bo'lgan chegaralarni tan olmasligi bilan bog'liq. Shunga qaramasdan, Pokiston "Tolibon" harakatini tan olgan uch davlatdan biri bo'lib qolaverdi va to AQSh o'z hududida keng ko'lamli, javobgarligi "Al-Qoida" zimmasiga yuklatilgan terror bilan to'qnash kelmagunicha toliblarga har tomonlama yordam berib turdi.

"Tolibon" harakati o'z faoliyatining boshidanoq Hindiston tomoniga adovatda bo'ldi. Hindistonni nafaqat toliblarning radikalligi, balki bu masala bo'yicha Pokistonning o'mi, shuningdek, Kashmir-dagi ekstremistik faoliyatlarga harakatning ehtimoliy aloqadorligi xavotirga soldi. Natijada Hindiston AQSh va uning ittifoqchilarining Afg'oniston hududida terrorizmga qarshi olib boradigan harbiy harkatlarini qat'iy qo'llab-quvvatlovchi o'rinni egalladi.

Pokistonning terrorizmga qarshi qaratilgan harbiy harakatlarni qo'llab-quvvatlashi bu mamlakatga nafaqat sanktsiyalarning olinishi va iqtisodiy yordam, balki AQShning NATOdan tashqari asosiy hamkor maqomini olib keldi. AQSh doimo Pokistonni qo'llab-quvvatlaydi va "Al-Qoida" bilan kurashda uning ulkan hissasi va muvaffaqiyatini ta'kidlab o'tadi.

Pokiston Afg'onistondagi vaziyatni tezroq barqarorlashishiga o'z manfaatini bildirmoqda. Bunday vaziyat Pokistonga sobiq ittifoq maydoniga chiqishga va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqlarni mustahkamlashga, shuningdek, 3 mln.ga yaqin qochoqni qaytishiga imkoniyat yaratishi mumkin. Afg'onistondagi terrorizmga qarshi olib borilayotgan harbiy harakatlar Afg'oniston orqali Janubiy Osiyoga quvurlar qurish loyihalaring tiklanishiga olib keldi. Misol uchun, 2006 yil fevral oyida Turkmaniston, Afg'oniston va Pokiston quvur o'tkazish bo'yicha bayonotga imzo chekishdi. Bu loyihaga Hindiston ham o'z manfaatini bildirdi.

1990 yillarda Hindiston iqtisodiy islohotlarga kirishdi va bu bilan u eng dinamik (jo'shqin) rivojlanayotgan dunyo mamlakatlaridan biriga aylandi. Erishilgan yutuqlar bilan Hindiston mintaqada peshqadamga aylandi. Hozirgi vaqtida Hindiston yadroviy quoldan tashqari Pokistondan amaliy jihatdan ham barcha ko'rsatkichlar bo'yicha oshib ketmoqda.

1998 yil yadroviy qurol sinovi o'tkazilgandan so'ng Hindiston va Pokiston o'rtafiga strategik tutib turish tartibi haqidagi masala ko'tarildi.

Hindistonning mintaqadagi yana bir katta davlat Pokiston bilan aloqalari haqida to'xtalar ekanmiz. Bu ikki qo'shni davlat o'rtafiga aloqalar juda yaxshi yo'lga qo'yilgan deya olmaymiz. Bu aloqalarning tarixi bir necha urush va ko'plab to'qnashuvlardan iborat bo'lib, ularning o'rtafiga turuvchi eng katta muammo bu-Kashmir muammosidir. Ko'pgina tadqiqotchilarining fikricha, Pokiston davlatining har tomonlama rivojlanishiga uning qo'shni Hindiston bilan o'zaro munosabatlari salbiy ta'sir etib kelgan. Bu ikki davlatlarning vujudga kelishidan boshlab ularning munosabatlari keskin, ziddiyatli bo'lgan. Ularning o'rtafiga doimiy "sovuz urush" davom etib, aslida, ular uzlusiz quronish poygasi olib borganlar, doimiy o'zaro tahdidlar va ularni kuch ishlash harakatiga aylanishi, harbiy yadro dasturlarini rivojlantirish, juda katta harakatlar va mablag'lar evaziga o'z omnaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarishga harakat qilgan. Ularning savdo-iqtisodiy va ilmiy madaniy aloqalari juda cheklangan va ko'pincha to'xtab qolgan. Shuni aytish kerakki, Hindiston va Pokiston o'rtafiga ziddiyat, ularni jahon maydonida paydo bo'lislari bilanoq boshlangan edi. Muhibi, bu ziddiyatning nafaqat davomiyligi, balki uni yumshatishning va ijobjiy hal etishning mayjud emasligidir. Ziddiyat tashqi ta'sirda butunlay xoli bo'lib, hatto, ikki dunyoviy tizimlar qarama - qarshiligi tugallanib, "sovuz urush" tugagan bo'lsada, Hindiston-Pokiston munosabatlariiga bu hech qanday ta'sir etmadidi.

Pokiston mustaqillikka erishgandan keyin Hindiston bilan uch marta urushgan va mag'lubiyatga uchrangan. Birinchi harbiy to'qnashuvlar fuqarolik urushi tarzida bo'lib o'tgan va unda Pokiston mag'lubiyatga uchrangan va Kashmirning katta qismi Hindiston qo'lida qolgan. 1965 yilgi Kashmirni o'z nazorati ostiga olish uchun bo'lgan Pokiston harakati muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1971 yilda mart oyida sharqiy Pokistonda boshlangan tartibsizliklar tang ahvolni keskinlashtirdi. Ichki mojarol qurbanlar sonini yanada oshirdi. Qochoqlar Hindiston tomon yo'l olishdi, ularning izidan Pokiston qo'shinlari suqlib kirdilar. Hindiston armiyasi bilan to'qnashuv ikki davlat o'rtafiga haqiqiy urushga olib keldi. Oldingi urushlardan farqli o'laroq uchinchi urushda harbiy harakatlar Hindiston va Pokistonning butun chegarasi bo'yab, sharqda ham g'arbda ham olib borildi. Harbiy harakatlar 1971 yil 3 dekabrda 17 dekabrgacha davom etdi.

Natijada Hindiston yordami bilan Pokistonning sharqiy qismida Bangladesh davlati paydo bo'ldi. 1998 yilda Kashmirda musulmonlar qo'zg'alon boshlagan. Ularga yordam uchun Pokiston armiyasi kirgan va bu navbatdagi urush holatini keltirib chiqargan.

Aytish mumkinki Hindiston va Pokiston aloqalari "sovuz urush" ta'siri ostida rivojlandi. "Sovuz urush"ning tugashi va 2001 yil 11 sentyabrdan keyin vaziyatning rivoji keltirib chiqargan geosiyosiy o'zgarishlarga qaramay Hindiston va Pokiston o'rtafiga aloqalar keskinligicha qolmoqda, bu keskinlikning sababi Kashmir muammosidir.

Hindistonni Janubiy va Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan hamkorlikni mustahkmalash dasturi Hindistonning tashqi siyosiy strategiyasida bugungi kunda asosiy mavzulardan hisoblanib, shu maqsadda Pokiston bilan o'zaro muammolarni hal qilish harakatlari ham faol olib borilmoqda.

Shu maqsadda 2004 yilning yanvar oyida Islomobodda mintaqaviy hamkorlik bo'yicha Janubiy Osiyo Assotsiatsiyasi (SAARK) ning 12-sammiti o'tkazilishi Hindiston Pokiston munosabatlarining ijobiy tarafga siljishi uchun muhim asos bo'ldi. Mazkur sammit doirasidagi kengashlarda ikki davlat o'rtafiga Jammu hamda Kashmir muammosini hal qilish, o'zaro aloqalarni barqarorlashtirish kabi masalalar muhokama qilinib, Hindistonning Erondon olib kelayotgan gaz quvurlarini Pokiston hududi orqali olib o'tish masalalari kelishib olindi.

Shuningdek, Pokiston Hindiston hamkorligi doirasini kengaytirish maqsadida bir qator tashriflar amalga oshirilib, ikki davlat o'rtafiga quyidagilarga kelishildi:

- harbiy va yadro qurollari yuzasidan mutaxassislar darajasida muzokaralar olib borish va raketa sinovlari to'g'risida ogohlantirish haqida kelishuv loyihasini muhokama qilish;

- Munnabao-Xohrapor yo'nalishida temir yo'l qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha ikki davlat temir yo'l idoralari o'rtafiga muzokaralarni tashkil qilish;

- Hindiston chegara xavfsizlik qo'mondonligi va Pokiston reynjerlari o'rtafiga yilda ikki marta uchrashuv o'tkazish (birinchi uchrashuv 2004 yil oktyabr oyida bo'lib o'tdi);

- Davlatlarning o'zaro savdo sohasidagi aloqalariga to'siq bo'luvchi muammolarni hal qilish yuzasidan mitaxassislar komissiyasini tuzish;

- Sringar va Muzaffarobod viloyatlari o'rtafiga avtobus qatnovini yo'lga qo'yish;

- davlatlar o'rtasida turizm vizasi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida zarur chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- davlatlarning qator idoralari o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'matish va mutaxassislarining o'zaro tajriba almashishiga imkoniyatlar yaratish.

Umuman olganda, 50 yildan ortiqroq vaqt mobaynida Hindistonning Pokiston yo'naliishidagi tashqi siyosati markazida Jammu va Kashmir muammosini hal qilishga qaratilgan harakatlar yotadi.

Ammo, davlatlarning ushu muammolar yuzasidan o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda ilgari surayotgan takliflarining birortasi ham qabul qilinmayapti. Pokiston hukumati mojarolarni hal qilishda qator takliflarni ilgari sursa, unga hind tomoni mazkur takliflar Hindiston manfaatlariiga nafaqat hududiy, balki suv resurslari ustidan nazorat qilish masalalarida zid kelishini ta'kidlamoqda.

Bulardan ko'rindiki, tomonlar ma'lum to'xtamga kelisha olmasdan o'zaro qurollanish baxsiga kirishib, harbiy kuchlarini namoyish qilish, raketalarni sinovdan o'tkazish va yadro quroli quvvatini kuchaytirish holatlari bilan birga chegara hududlarida ziddiyatli jarayonlar va qo'poruvchilik harakatlari sodir bo'immoqda. Hindistonning Osiyo mintaqasidagi tashqi siyosiy faoliyatlar majmuasida mintaqada va bevosita davlat xavfsizligini ta'minlash harakatlari ham jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, mamlakatning shimoliy chegarasidagi hududlarda xavfsizlikni ta'minlash va bu xususda Afg'oniston nobarqarorligini bartaraf etish hamda mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tiklash ishlaridan manfaatdor bo'lib, mazkur jarayonda Hindiston faol harakat olib bormoqda.

O'z xavfsizligi nuqtai nazardan, Hindiston Afg'oniston bilan olib borayotgan munosabatlari majmuasida ikkita omil ko'zga tashlandi. Jumladan:

birinchidan, ikki davlatning ham o'zaro aloqalardan xavfsizlik omiliga katta e'tibor qaratishi. Ya'ni, hozirda Afg'oniston o'zining xavfsizligini ta'minlashda Hindiston bilan muzokaralar olib borishga manfaatdorligini bildirmoqda. Bu bo'yicha Afg'onistonning sobiq prezidenti H.Karzay hamda A.G'aniyning Hindistonga qilgan qator tashriflari davomida "tolibon" kuchlari qoldiqlariga qarshi birgalikda kurashish masalalari to'g'risida muzokaralar olib borildi;

ikkinchidan, hind-afg'on munosabatlari ikki davlatning ham kommunikatsiyasi va savdo iqtisodiy sohadagi hamkorlikdan manfaat-

dorligining yuqoriligi. Xususan: Hindiston bevosita Eronning Chox-Baxor bandargohiga chiqishi uchun Afg'oniston hududidan foydalanihga bo'lgan harakati. Bu xususda Hindiston hukumati Eron bandargohiga chiquvchi 230 km.li "Zaranj-Dilorom" avtomobil yo'lagi qurilishi uchun 70 mln. AQSh dollari miqdorida mablag' ajratdi.

Shuningdek, Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash jarayonida Hindiston Afg'onistonga 21,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi ajratgan mablag'idan ham ko'rindiki, Hindistonnинг mintaqaviy faoliyatida Afg'oniston barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Hindiston mintaqada Afg'oniston muammo-sini hal qilishdan va hind-afg'on munosabatidan manfaatdor bo'lib, quyidagilarga asoslanadi:

- birinchidan, o'zining shimoliy chegaralarida xavfsizlikni ta'minlash;
- ikkinchidan, Afg'oniston orqali Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog'lanish imkoniyatga ega bo'lish;
- uchinchidan, o'zining mintaqadagi manfaatlari yo'lidagi faoliyatlariga qulayliklar yaratish.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib aytilish mimkinki, Hindistonning Osiyo mintaqasida va umuman jahondagi faoliyatlar doirasida etakchi davlatlar, ya'ni Xitoy, Rossiya, AQSh kabilar bilan har tomonlama munosabatlarning mustahkamlanganligi va hamda ichki va xavfsizlik sohasidagi manfaatlari yuzasidan Eron, Pokiston, Afg'oniston davlatlari bilan olib borayotgan hamkorliklari uning tashqi siyosiy harakatlarida qulayliklar yaratish bilan birga buyuk davlat maqomiga ega bo'lishida keng imkoniyatlarni beradi. Shu orqali uning Markaziy Osiyodagi faoliyatining uyg'unlashuviga ham olib keladi.

Umuman, Hindiston strategiyasi nafaqat Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasida, balki jahonda o'zining keng qamroviligi bilan dunyo hamjamatiining e'tiborini qaratmoqda. Shu bilan birga mamlakatdagi jarayonlar Markaziy Osiyoda ham sezilarli ta'sir qilib, xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni amalga oshirish kabi sohalarda sezilarli turtki bo'immoqda.

Hindiston tashqi siyosatini belgilab beruvchi ma'lum bir huquqiy normativ hujjat mavjud emas. Lekin tashqi siyosatning maqsad va tamoyillari mustaqillika erishilgan paytda Hindiston Milliy Kongressi tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda Javoharlal Neruning o'mi beqiyos bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Hindiston

ma'lum bir huquqiy hujjatda belgilanmagan tashqi siyosiy tamoyillari orqali bugungi kunda etakchi davlatlar qatoridan o'rin egallashga erishdi. Tarixdan ma'lumki Hindiston ikki yuz yil davomida Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lib kelgan. Shuning uchun u erda hali-gacha Angliya ta'siri sezilib turadi. Shu o'rinda tashqi siyosatda ham. Hindiston har doim o'zining siyosiy qarashlaridan milliy manfaatlarni ustun qo'yishni uddalay olgan mamlakat hisoblanadi. Balki shu tufaylidir Hindiston hozirgi kunda barcha sohalar singari tashqi siyosatda ham o'ziga xos o'ringa ega mamlakat hisoblanadi.

Mintaqada sodir bo'lgan eng katta siyosiy voqeа bu Hindiston va Pokistonning mustaqillikka erishishidir. Mustaqillikning birinchi kunlaridan oq Hindiston mintaqadagi boshqa mamlakatlar bilan tezroq aloqalarni yo'lga qo'yishga intildi. Tegishli bitim va shartnomalar Butan (1949 yil), Nepal (1950 yil), Shri-Lanka (1954, 1964 yillarda), Hindistonga keyinchalik qo'shib olingan Sikhim knyazligi bilan imzolandi. Hindiston boshidanoq tinchlik, betaraflik va harbiy ittifoqlarga qo'shilmaslik tarafdoi ekanligini e'lon qildi. Hindiston mintaqadagi davlatlar bilan chegaralar muammosini har doim ham tinch yo'l bilan hal etishga muvaffaq bo'lmadi. Misol uchun, Hindiston va Pokiston o'rtasida uch marotaba keng ko'lamli harbiy harakatlar bo'lib o'tdi. Oxirgi urush (1971 yil) Sharqiy Pokistonning ajralishi va mustaqil Bangladesh davlatining tashkil topishi bilan tugadi.

*Hindiston tashqi siyosatida Janubiy Osiyo (Nepal, Butan, Maldiv, Shri-Lanka, Bangladesh va Myanma) mamlakatlari.* Nepal va Hindiston geografik, iqtisodiy va chegaralarni oshib o'tgan etnik va lingistik muammolar bo'lismiga qaramasdan yaqin hamkorlik qilib kelmoqdalar. 1950 yili Dehli va Katmandu o'rtasida tinchlik va do'stlik shartnomasi imzolanib unga ko'ra ikki davlat o'rtasida xavfsizlik aloqalari, ikki tomonlhma savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish belgilandi. Shuningdek, 1950 yilgi shartnomada tashqi aggressor tomonidan bo'ladigan tahdidlarga qarshi birgalikda kurash va biror qo'shni davlatlar bilan bo'ladigan jiddiy kelishmovchilik va tushunmovchiliklardan xabardor etish masalalari ham aks etgan. Mazkur bandlar Hindiston va Nepal o'rtasidagi "maxsus munosabatlar"ni mustahkamlaydi hamda Nepalga Hindiston bilan ijobji iqtisodiy kelishuvga va Hindistonda hindlar kabi nepalliklar ham iqtisodiy va ta'lif imtiyozlaridan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Nepalning eng jiddiy muammosi bu - chegara muammosi bo'lgan. 1990

yillarda Hindiston va Xitoy o'rtasidagi aloqalarning normallashishi Nepal uchun tashqi siyosiy vaziyatning yaxshilanishiga olib keldi. Bunga SAARK sekretariatining Katmanduda joylashishi imkon yaratdi. XXRning ta'siri Nepalda Mao harakatining kuchayishiga olib keldi va hukumat uchun ko'plab ichki muammolarni keltirib chiqardi. Ichki nizolar va siyosiy tizimning aniqlangan bo'shlig'i Nepaldagi vaziyatning beqarorlashuviga va mamlakatni ikki katta qo'shnilar - Hindiston va Pokiston uchun muammolar manbaiga aylanishiga sabab bo'ldi.

Tarixan, Butan va Hindiston aloqalari o'zaro yaqin bog'langanligini ko'rishimiz mumkin. Ikkala davlat ham 1949-yilda Do'stlik haqida shartnoma imzolaganlar va shunga ko'ra Hindiston Butanga xalqaro aloqalarda ko'maklashishga kelishib olishgan. 2007 yil 8-fevralda Butan podshoxi Jigme Khesar Namgel Vangchusk tomonidan Hindiston-Butan do'stlik shartnomasiga katta o'zgartirishlar kiritildi. 1949-yilgi shartnomaning 2-moddasida "Hindiston hukumati Butanning ichki ishlariiga aralashmaslikka kafolat beradi. Shu qismda Butan hukumati Hindistonning bu davlat tashqi aloqalarini hurmat qilgan holda beradigan maslahatlari asnosida boshqarishga rozilik bildirib o'tilgan.

Shartnomaning qayta yangilangan nusxasida quyidagicha aytib o'tiladi unda Butan hamda Hindistonning mustahkam do'stlik va hamkorlik aloqalarini saqlab qolgan holda Butan qirolligi hukumati va Hindiston Respublikasi hukumati milliy manfaatlariiga doir masalalar yuzasidan yaqin hamkorlik qiladilar. Hech bir hukumat o'zining hududidan milliy xavfsizligi va milliy manfaatlariiga xavf tug'diradigan harakatlarni amalga oshirishga ruxsat bermaydi. Qayta ishlangan shartnoma o'z ichiga yana quyidagilarni olgan ya'ni shartnoma boshida hukumatlar bir birlarini mustaqilligini va suverenitetini va hududiy daxlsizligiga hurmat bilan yondashishi kerakligi aytib o'tilgan. Shunisi e'tiborga molikki, bu qism oldingi shartnoma nusxasida bo'lmagan. 2007-yilgi Hindiston-Butan do'stlik shartnomalari Butanning suveren va mustaqil millat sifatida maqomini mustahkamladi.

Maldiv Respublikasi 1968 yilda Respublika maqomini qo'lga kiritgan. Bu davlat mintaqadagi xalqaro aloqalarga amalda hech qanday ta'sir o'tkaza olmaydigan kichik davlat hisoblanadi. Shu bilan birga Maldiv BMT, Britaniya millatlar ittifoqi, Osiyo rivojlanish banki va qo'shilmaslik harakati a'zosi hisoblanadi. Bu mamlakat 2007 yilga kelib rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritildi. Hindiston qo'shni davlat sifatida Maldiv bilan yaqindan aloqalar olib borishga harakat qilmoqda.

Hindiston mintaqadagi iqtisodi bo'yicha o'zidan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi yana bir davlat Shri-Lanka bilan yaqindan aloqalar olib boradi. Shri-Lanka va Hindiston ikki tomonlama aloqalari do'stona bo'lib, biroq Shri-Lankada fuqarolar urushining davom etishi va mazkur urushda Hindiston interventsiyasining mag'lubiyatga uchrashi ular munosabatlariiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hindiston Shri-Lankaning yagona qo'shnisi bo'lib ularni Palk bo'g'ozi ajratib turadi. Ikki davlat xalqlari Janubiy Osiyoda strategik o'ringa ega va Hind okeanida umumiy xavfsizlik tizimi o'rnatishtiga intiladi. Hozirgi davrga kelib Hindiston Shri-Lanka aloqalari sifat va miqdor tomonidan ancha shakllandi. Siyosiy aloqalar yaqin, savdo va investitsiyalar hajmi yuqori darajada, infratuzulmaviy aloqalar oshib bormoqda. Umuman, hamkorlikning barcha sohalarida o'sish kuzatilmoqda. Hindiston birinchilardan bo'lib Shri-Lankada 2004 yil dekabrda yuz bergan sunami oqibatlarini bartaraf etish ishlariga yordam kursatdi. 2006 yil iyulida Hindiston Shri-Lankaning 406 fuqarosini Livandan Kiprga o'zinig harbiy kemalari orqali evakuatsiya qildi va Hindiston havo yo'llari kompaniyasi orqali Dehliga va keyinchalik Kolomboga eltib berdi. Shri-Lanka siyosatining tashqi siyosiy aloqalari majmuida Hindiston alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi 10 yil ichida ikki tomonlama aloqalarning tezkor rivojlanishida Shri-Lankaning ikki yirik partiyasi: Shri-Lanka mustaqillik partiyasi va birlashgan natsionalistlar partiyasining o'mni beqiyos. Shuningdek Shri-Lanka Hindistonning BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zoligiga nomzodini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Hindiston Birma mustaqilligini qo'llab-quvvatlagan davlatlardan biri bo'lib, 1948 yil Birma mustaqillikka erishishi bilan u bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Uzoq yillar mobaynida Hindiston Birma munosabatlari madaniy, savdo, tijorat va mintaqaviy masalalarda hamfikrlilik va Birmadagi hind jamoasi ahamiyati tufayli rivojlanib kelgan.

Hindiston Birmani mintaqaviy isyonchilarga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlab keldi. Ammo, Birmada hukumat tepasiga harbiylar kelgach ular o'tasida munosabatlar yomonlashdi. Jahan hamjamiyati va ko'plab davlatlar qatorida Hindiston ham Birmadagi mavjud tuzumni qoraladi va unga taxoban Birma hind jamoasini mamlakat hududidan quvib yuborishni buyurdi. Hindiston demokratik harakatlarni qo'llab turgan davrda faqat Xitoygina Birma bilan yaqin aloqalarni saqlab qoldi.

Geosiyosiy omillarga asoslangan holda Hindiston 1993 yilda yangicha nomlangan Myanma davlatini tan oldi va u bilan qayta aloqalarni yo'lga qo'ydi. Birma shimoliy-sharqiy Hindistonning Mizoram, Manipur, Nagolan va Arunachal Pradish shtatlarining janubida joylashgan va Xitoy Xalq Respublikasining yaqinligi Hind - Birma munosabatlariiga strategik ta'sir etadi. Hind - Birma chegarasi 1,600 milgacha cho'zilgan va shimoliy sharqiy Hindiston isyonchilar Myanmadan panoh topishgan. O'z navbatida Hindiston Myanmaning isyonchilariga qarshi kurashish harakatlarida hamkorlikni kuchaytirishdan manfaatdor. 2001 yil Hindiston armiyasi Myanma bilan chegaradosh asosiy transport yo'lini qurib bitkazdi. Shuningdek Hindiston mintaqada o'z strategik ta'sirini kuchaytirish maqsadida Myanmada avtomagistrallar, quvurlar, portlar buniyod etmoqda va bu orqali Hindixitoy yarim orolida o'sib borayotgan Xitoy ta'siriga qarshi harakat qilmoqda. Hindiston kompaniyalari ham Myanmada gaz va neft qidirish ishlarida faol ishtirot etmoqda. 2007 yil fevralida Hindiston Mizoram kabi shimoliy sharqiy shtatlarni Kaldan daryosi orqali okeanga olib chiqish imkonini beruvchi Sitve portini modernizatsiya qilish loyihasini elon qildi. Hindiston Myanma neft va gazining asosiy iste'molchisi hisoblanadi. 2007 yil Hindiston Myanmaga 185 mln. AQSh dollarilik mahsulot eksport qilgan bo'lsa, Myanmadan import hajmi 810 mln. AQSh dollari atrofida bo'lib ularning asosini neft va gaz tashkil etadi. Hindiston Myanmaning transport infratuzilmasini rivojlantirish loyihibariga 100 mln. dollarlik kredit taklif qilgan bo'lib shundan 57 mln. dollari Myanma temir yo'llarini zamonaviylashtirishga ajratilgan.

Bevosita Hindiston va Bangladesh aloqalariga to'xtalar ekanmiz shu o'rinda SAARK va uning Janubiy Osiyo davlatlari integratsion jarayonlariga ta'siri haqida to'xtalib o'tish muhim hisoblanadi. Ikkala davlat ham Hindiston subkontinentining bir qismi hisoblanib, uzoq yillik umumiy bo'lgan madaniy, iqtisodiy va siyosiy tarixga egadir. Bangladeshning Pokistondan mustaqillikni qo'lga kiritish jarayonida Hindiston juda ham muhim rol o'ynagan. Oxirgi yillarda Hindiston tabiiy ofatlar vaqtida birgalikda harakat qildi va yordam ko'rsatganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Hindiston Bangladeshga eksport qiluvchi eng yirik davlat hisoblanadi. Asosiy ikki davlat o'tasidagi kelishmovchiliklar bu suv manbalari yuzasidan xususan Ganga daryosi shular jumlasidandir.

Hindiston Maldiv orollari tashqi siyosatida katta ta'sirga ega va mamlakat hududidan chiqib ketgan Tamil jangchilarini qo'liga olishga qaratilgan 1988 yilgi Kaktus operatsiyasidan keyin mazkur davlat bilan xavfsizlik sohasida keng miqyosida hamkorlik olib bormoqda. Hozirgi davrda Hindiston mazkur davlatni o'zining xavfsizlik tizimiga qo'shib olish jarayonini boshlagan. Mazkur jarayon Maldiv orollaridan birida terrorchilar tomonidan dam olish qarorgohining qo'liga olinishi bilan bog'liq. Bunga esa mazkur davlatning harbiy salohiyati va nazorat qobiliyatni sustligi sabab bo'ldi. Natijada Hindiston Maldiv orollari bilan kelishuv imzoladi. Unga ko'ra:

- Hindiston davlatining nazorat qobiliyatni rivojlantirish va tahlidlarni tezkor bartaraf etish borasida ikkita vertolyot o'rnatadi.

- Maldiv davlati 26 ta orollarining faqtgina ikkitasigina qirg'oq radarlarli mavjud. Hindiston barcha orollarda radar o'rnatish ishlariiga yordam beradi.

Maldiv qirg'oq radar tizimi Hindiston qirg'oq radar tizimi bilan birgalikda faoliyat olib boradi.

Ma'lumki, Hindiston o'zining qirg'oq bo'yli hududlariga radar o'rnatish loyihasini amalga oshirib bo'lgan. Ikki davlat radar tizimlari o'zaro bog'lanib, markaziy nazorat Hindiston Qirg'oq Qo'shinlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hindiston qirg'oq soqchilari shubhali harakat va qayiqlar ustidan doimiy nazorat olib boradi. Janubiy harbiy dengiz qo'shinlari Maldivning Hindiston xavfsizlik tizimiga qo'shilishini kuzatib boradi.

Maldiv harbiy qismlari Andaman Nikobar qo'shinlarining 3 guruh faoliyati bilan tanishadi va Hindistonning murakkab orollari zanjirini nazorat qilish va xavfsizlikni ta'minlash borasida harakatlarni kuzatadi.

*Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik tashkiloti SAARKni tashkil etilishida Hindiston tashabbuslari.* Hindiston-Pokiston o'rta-sidagi uchinchi urush tugaganidan so'ng Hindiston mintaqadagi buyuk davlatga aylandi, Pokistonning roli mintaqada keskin pasayib ketdi. Pokiston va Janubiy Osiyoning kichik davlatlari Hindiston ta'siri aksi bo'lgan tashkilot tuzishdan manfaatdorliklarini bildirishdi. 1975 yil Nepal qiroli Birenda Janubiy Osiyoda mintaqaviy tashkilot tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Bunda Hindistonning o'mi muhim ahamiyat kasb etdi va albatta bu rejani amalga oshirish Hindistonsiz mumkin bo'lmash edi. O'sha yili Nepal qiroli tashabbusini Hindiston qo'llab-quvvatlamagan bo'lsa, 1980-yillarda Bangladesh Prezidenti general Rahmonning shunga o'xshash tashabbusi ancha ma'qul bo'ldi.

1985 yil 7-8 dekabrda Bangladesh poytaxti Dakkada Janubiy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy hamkorligi uyushmasini tuzish rejasি amalga oshirilgan yuqori darajadagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Tegishli Deklaratsiya va Xartiya qabul qilindi. Tashkilotga Janubiy Osiyoning etti mamalakati – Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Nepal, Butan va Maldiv kirdi. SAARKning maqsadlari etib iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik e'lon qilindi.

Tashkilot faoliyati Hindiston va Pokiston o'rtasidagi murakkab aloqalar, 1990-yillarda Hindistonda muslimonlarga qarshi kayfiyatlar keltirib chiqqan Hindiston va Bangladesh o'rtasidagi aloqalarning keskinlashuvi, Shri-Lankadagi mojarov uni hal qilishda Hindiston tinchlikparvar kuchlarining roli bilan bog'langan edi.

Tashkilotning o'zida tabiiy peshqadam o'mida Hindiston chiqdi, Pokiston esa mintaqadagi kichik davlatlar jalb qilishi bilan Hindistonga nisbatan o'ziga xos aks bo'lib qolgan edi.

1990-yillarda mintaqaviy integratsiya jarayonlari nihoyatda sust rivojlandi. Janubiy Osiyo mamlakatlari SAARK doirasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarini, umumiy bozor tashkil qilishni tezlashtirishni taklif etdilar. Ammo, bu rejalar amalga oshirish uzoqqa cho'zildi.

1993 yil 10-11 aprelda Dakkada SAARKning ettinchi sammiti bo'lib o'tdi. Unda savdo-sotiq bo'yicha Janubiy Osiyo mamlakatlarining ramkali kelishuvlari (SAPTA) tasdiqlandi.

1998 yil 29-31 iyulda Kolomboda o'tkazilgan SAARKning o'ninchи sammitida 2001 yilga qadar Erkin savdo zonalari (SAFTA)ni tuzish tashabbusi olg'a surildi. Biroq, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi murakkab vaziyat, terrorizmga qarshi global kurashning avj olishi loyihani amalga oshirishni 2006 yilgacha qoldirdi. SAFTAni amalga oshirish Janubiy Osiyo iqtisodiy integratsiyasi yo'lida muhim qadamlardan biri sifatida ko'rilmoxda.

1998 yil SAARK doirasida tariflarni osonlashtirishni o'z ichiga olgan elektr aloqa sektorini zamonaivylashtirish rejasи ishlab chiqildi.

Afg'onistondagi terrorizmga qarshi olib borilayotgan harbiy harakatlar SAARKda birinchi o'ringa terrorizmga qarshi kurashni olib chiqdi. Terrorizmga qarshi mexanizmning ishlab chiqilishi, mintaqaviy hamkorlikning samaradorligi, Dunyo va Janubiy Osiyo bar-qarorligi uchun terrorizmning xavfi bo'yicha berilgan baho, axborotlar va kadrlar almashinuvli SAARK doirasida terrorizm bilan sistemali kurashning muhim unsurlari hisoblanadi.

Janubiy Osiyo mamlakatlari, shuningdek, chegaralararo jinoyatchilik, noqonuniy pul o'tkazish, giyohvand moddalar savdo-sotiq'i, noqonuniy ko'chish va qurol kontrabandasi bilan shug'ullanish bilan kurashish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashmoqda.

2002 yil yanvar oyida Katmanduda o'tkazilgan SAARKning o'n birinchi sammitida 2020 yilga qadar Janubiy Osiyo iqtisodiy ittifoqini tuzish rejasini qabul qilindi.

Islomoboddaga (2004 yil 2-6 yanvar) SAARKning o'n ikkinchi sammitining o'tkazilishi tinchlik muzokalaraliga qaytishga va Hindiston va Pokiston o'rtafigi aloqalarni yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin edi. Lekin keskinlikning yumshashiga qaramay siljish ro'y bermadi. Sammitda SAARK asoslari bilan muvofiqlikda mintaqaviy hamkorlik masalalari muhim o'rinn egalladi. Iqtisodiy sohada markaziy o'rinni SAFTA shartnomasining imzolanishi va uni amalga oshirish bo'yicha amaliy muammolar egalladi. 1993 yildayoq qabul qilingan savdo-sotiq (SAPTA) bo'yicha kelishuvlarni amalga oshirishda va Janubiy Osiyo mamlakatlarining energetik hamkorligi doirasida taraqqiyotga erishildi. Bundan tashqari, ilmiy-tekhnikiy, ijtimoiy tadqiqotlar, ta'limga, madaniyat, axborot texnologiyalari, mintaqadagi kichik davlatlar xavfsizligi va terrorizm bilan kurash sohalarida mintaqaviy hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Islomoboddagi sammitni SAARKning o'ziga xos tiklanishi deb hisoblash mumkin. Erkin tijorat haqidagi Janubiy Osiyo kelishuvlari, terrorizm muammosi bo'yicha SAARK bitimining qaroriga qo'shima-cha, shuningdek, Janubiy Osiyo iqtisodiy ittifoqini tuzish muddatini ko'chirish bo'yicha masalani ko'rib chiqishni boshlash va 2020 yil emas 2015 yilga qadar yagona valyutani joriy qilish oldingi qarorlarga taqqoslaganda SAARKni layoqatga ega tashkilotga aylantirdi.

Islomoboddagi sammitda Janubiy Osiyo mamlakatlari mintaqadoirasida integratsiya jarayonlarida oldinga katta qadam tashlashdi. Sammitda iqtisodiy rivojlanish va integratsiya o'rtafigi ajaralmasi aloqani tushunishda, BMT ming yillik Deklaratsiyasida bayon etilgan, Rivojlanish maqsadlariga muvofiqlikda qashshoqlikka barham berish, shuningdek, terrorizmga qarshi kurashda amaliy o'sishga erishildi.

2005 yil 12-13 noyabrda Dakkada o'tgan SAARKning o'n uchinchi sammitida mamlakatlar o'n ikki yillik rivojlanishga o'ziga xos yakun yasashdi.

Ko'pincha SAARKga ahamiyatga ega bo'lmagan masalalar muhokama qilinadigan, istiqboli hanuzgacha aniqlanmagan munozara

o'tkaziladigan forum sifatida qaralgan. Davlatlar o'rtafigi tafovut, Hindiston va Pokiston, shuningdek, Hindiston va Janubiy Osiyoning boshqa mamlakatlari o'rtafigi qarama-qarshilik SAARKning samaradorligiga to'g'anoq bo'ldi. Lekin, 2004 yil islomoboddagi sammitdan boshlab SAARKning istiqbollari tobora optimistik ruhda ko'tarila boshladi. Ehtimol, terrorizmga qarshi kurash va iqtisodiy integratsiyadan foyda ko'rish SAARKni EI yoki ASEAN kabi tashkilotga aylanishiga imkoniyat yaratmoqda.

Sammitda Afg'onistonni tashkilot a'zoligiga qabul qilish bo'yicha SAARK uchun muhim qaror qabul qilindi. 2007 yil Nyu-Delida bo'lgan navbatdagi sammitga Afg'oniston rahbari H.Karzay to'la huquqqa ega ishtirokchi sifatida tashrif buyurdi.

Afg'onistonni qabul qilish bo'yicha qaror qarama-qarshi xarakterga ega. Boshqa tomonidan esa, Janubiy Osiyo mintaqaviy jarayonlariga jalb etilishi bu mamlakatga qiyinchiliklarni engib o'tishga yordam beradi.

Lekin SAARK Janubiy Osiyo doirasidan tashqariga chiqmoqda. Boshqa tomonidan, iqtisodiy integratsiya, SAFTA va Iqtisodiy ittifoq loyihibarini amalga oshirish xavf ostiga qo'yilishi mumkin.

2007 yil 3-4 aprel Nyu-Delida bo'lib o'tgan o'n to'rtinchidagi sammitda birlamchi yo'nalish sifatida terrorizm bilan kurash muammosi belgilandi. Bu muammo Shri-Lankadagi tamil separatistlari, Nepal va umuman Janubiy Osiyo mao tuzumi targ'ibotchilariga qarshi kurashni, shuningdek, dengiz yo'llari va chegaralar xavfsizligini o'z ichiga oladi. SAARK sammitining yana bir muhim mavzusi SAFTAni qo'shganda, iqtisodiy hamkorlik faoliyatini jonlantirish masalasi bo'ldi.

Bundan tashqari, narkobisnes, noqonuniy ko'chish, uyushgan jinoyatchilik bilan kurashish sohasi bo'yicha, shuningdek, ijtimoiy va ta'limga sohalarida, xususan, Janubiy Osiyo Universitetini tashkil etish bo'yicha hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

SAARK sammitining ishida kuzatuvchi sifatida ilk bor AQSh, EI, Janubiy Koreya, Yaponiya, XXR qatnashdilar. Kuzatuvchi maqomini Eron ham oldi.

SAARK sammitida Afg'onistonni ishtiroki samarali deb e'tirof etildi. Afg'oniston birlamchi e'tiborini energetikaga qaratdi, Turkmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston bo'ylab gaz quvurini qurish loyihasini amalga oshirishni tezlashtirish rejasini taklif etdi va

Janubiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarini bog'lashga qodir bo'lgan transport va kommunikatsion loyihalarni rivojlantirishga chorladi.

Hindiston SAARKga Myanmani qabul qilishni, Pokiston esa tashkilotda XXRni to'la huquqli ishtirokini ilgari surmoqda. Shunda Pokiston, o'z navbatida, XXR uni ShHT tarkibiga kirishida qo'llab-quvvatlashiga umid bog'lamoqda.

XXR va Janubiy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish masalalarida umumiy manfaatga egalar. 2006 yilda XXR va SAARK o'tasidagi savdo hajmi 26,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Vaziyatni yaxshi tomonga o'zgarishida ahamiyatga ega bo'lgan omil – bu 2001-2002 yillarda Hindiston va Pokiston o'tasida niroyatda tarang munosabatlarni quolsiz hal etilishi, xalqaro hamjamiyat, eng avvalo BMT tomonidan mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani rag'bat-lantirilishi va terrorizm bilan dunyo miqyosidagi kurashdir.

Bundan tashqari, Hindiston SAARKga bo'lgan munosabatini qaytadan ko'rib chiqib, integratsion jarayonlarning asosiy tashabbus-chilaridan biri sifatida olg'a qadam bosdi. Endi, SAARK Hindiston ta'siriga aks sifatida emas, balki Janubiy Osiyoda mintaqaviy integratsiya tayanchiga aylandi. Hindistonga qo'shni mamlakatlar uni faqtgina gegemon (etakchi) davlat va o'zining mustaqilligi yo'lida kuch-qudratga ega bo'lgan xavf, balki iqtisodiy rivojlanishda muhim yutuqlarga erishgan hamkor sifatida qaray boshladilar.

ASEAN va Sharqiy Osiyo bilan hamkorlik masalasi bo'yicha Hindistonning faol ishtiroki Janubiy Osiyo mintaqasi uchun yangi istiqbollarni yaratmoqda. Tailand tashabbus ko'rsatgan Osiyo hamkorlik muloqoti ham Hindiston uchun o'zaro loyihalarni muhokama qilish va amalga oshirishda muhim forum hisoblanadi.

Hindiston va Pokiston ASEANning Mintaqaviy forumida ishtirok etmoqda. Boshqa loyihalar orasida dengiz xavfsizligi va xalqaro terrorizm bilan kurash sohasida hamkorlikni mustahkamlash katta ahamiyatga egadir.

1997 yildan SAARK va ASEAN vakillarining doimiy uchrasuvlari o'tkazilmoqda. SAARK mintaqalar orasidagi aloqalarni mustahkamlash va o'z statusini ko'tarishga intilish yo'lida OTOIH (APEC – Asia Pacific Economic coorperation) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab kelmoqda.

SAARK va KHShT, ShHT, EvrOsiH (EvrOsiyo Iqtisodiy Hamjamiyati - EvrAzES) kabi tashkilotlar o'tasidagi aloqalar rivoji

istiqbollari mavjud. ShHT bilan vaziyat ancha engillashmoqda, chunki Hindiston va Pokiston bu tashkilotning kuzatuvchilari hisoblanishadi.

SAARKning EI bilan hamkorligi kengaymoqda. EI Janubiy Osiyodagi integratsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlamoqda. SAARK va EI o'tasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilish, xususan, 1996 yil imzolangan tushunish va hamkorlik Memorandumida o'z ifodasini topgan. Hozirgi paytda EI SAARKda kuzatuvchi maqomiga ega. Umuman olganda, hozirgi davrda SAARK o'zida Janubiy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy hamkorligining noyob instrumenti sifatida tasavvur uyg'otadi. Tashkilot doirasida mintaqqa davlatlari ko'p tomonlama hamkorlikning umumuman barcha sohalariga tegishli keng ko'lamdagi masalalarni hal etishadi. Janubiy Osiyoning ayrim mamlakatlari SAFTA natijalaridan foydalanish imkoniyatiga egalar.

Boshqa xalqaro tashkilotlar bilan SAARK hamkorligi va Hindistonning Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarining rivoji taraqqiyot uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahon xaritasida Janubiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. Hindiston tashqi siyosat kontseptsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Janubiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Janubiy Osiyo davlatlarining AQSh va Evropa davlatlari bilan munosabatlari qanday ?
5. AQShning Hindiston-Pokiston ziddiyatlariga munosabati qanday ?
6. Janubiy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabalariga tavsif bering.
7. Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
8. Janubiy Osiyo mamlakatlarini hamkorlik tashkiloti SAARK haqida ma'lumot bering.
9. Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
10. Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlarida xavfsizlikni ta'minlashda islom omilining o'rni.
11. Hozirgi davrda Hindiston – Pokiston munosabatlari qanday holatda?

### **Mustaqil ish savollari:**

1. Janubiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
2. Hindistonning xalqaro munosabatlardagi o'mini yoritib bering.
3. Hindiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalaridan iborat?
4. Zamonaviy bosqichda Janubiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
5. "Janubiy Osiyo davlatlari – Evropa munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.
6. Evropa Ittifoqi tashqi siyosatida Janubiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
7. Hindiston tashqi siyosatida Afg'oniston muamosini yoritib bering.
8. AQSh tashqi siyosatida Janubiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Janubiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
10. "Hindiston va Pokiston yadro qurollari muammosi" mavzusida nutq tayyorlash.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Farb мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани мінтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

### **1.2. Pokiston zamonaviy xalqaro munosabatlarda**

#### **Darsning o'quv maqsadi:**

- tababalarni Pokiston Islom Respublikasining xalqaro munosabatlardagi o'rni hamda uning siyosiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- tababalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- tababalarga Pokiston tashqi siyosati hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Janubiy Osiyo, SAARK, SENTO (CENTO - The Central Treaty Organization), SEATO (SEATO - South-East Asia Treaty Organization) tashkilotlari, "Tolibon" harakati, Pokiston Islom Respublikasi, Jammu, Kashmir, Muhammad Ali Jinna, "Dyurand chizig'i", Belujiston, Pushtuniston.

#### **Asosiy savollar:**

1. Pokiston tashqi siyosatining rivojlanish bosqichlari.
2. Pokiston tashqi siyosatida islam omili.
3. Hozirgi davrda Pokiston-Afg'oniston munosabatlari.
4. Hozirgi davrda Pokistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan o'zaro munosabatlari.

**Pokiston tashqi siyosatining rivojlanish bosqichlari.** Bugungi kunda Pokiston Islom Respublikasining siyosati murakkab balansli jarayonlar ta'siriga qaysidir ma'noda asoslangandir. Uning tarixiy, diniy, me'ros bilan bog'liq va geografik joylashuvi yuqorida aytib o'tgan murakkab muvozanatli tashqi siyosatning shakllanishiga sabab bo'ldi. Siyosatning asosiy ob'ekti sifatida Pokistonning hududiy birligi va xavfsizligini davlatning o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davrdan e'tiboran ta'minlash bo'ldi. Pokiston tashqi siyosiy faoliyatidagi dastlabki va yangi davr 1947 yil uning mustaqillikni qo'lga kiritgan davrdan e'tiboran boshlandi.

Janubiy Osiyoda joylashgan va SAARK tashkilotining etakchisi sanalgan Pokiston, bugungi mintaqaviy va xalqaro siyosiy jarayonlarga o'zining etarli darajadagi ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Agar geografik jihatdan mamlakatning joylashuv hududiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning strategik muhim sanalgan mintaqada joylashganini ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, janubiy tomonidan Arab Dengizi va Ummon ko'rfazi bilan tutashganligi nafaqat Pokistonning o'ziga, balki boshqa bir qancha shimolroqda joylashgan qo'shni mamlakatlarga ham dengizga chiqish imkonini beradi. Bu esa bugungi globalizatsiyalashuv jadallik bilan rivojlanayotgan davrda muhim strategik ahamiyatni kasb etadi;

Ikkinchidan, ayni paytda jahondagi notinch va murakkab siyosiy kurash borayotgan hududlarga chegaradosh bo'lganligi, ko'pgina yirik va qudratli mamlakatlarning Pokiston bilan bo'lgan munosabatlari o'ziga xoslikni namoyon qilmoqda. Bu holatni birgina AQSh misolida olib qaraydigan bo'lsak, Pokiston bir vaqtning o'zida AQShning Afg'oniston va Eron bilan bog'liq strategik siyosatida geografik omili jihatidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning misoli sifatida 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan so'ng dasiblabki uch yil mobaynida AQSh hukumati tomonidan Pokiston harbiy holatini oshirish va yaxshilash uchun 4,2 mlrd. AQSh dollarini miqdorida harbiy yordam ko'rsatdi.

Uchinchidan, Pokistonning Janubiy Osiyoda harbiy jihatdan katta kuchga ega mamlakat sanalishi va uning yadroviy quroqla egaligi albatta nafaqat Janubiy Osiyo mamlakatlariga, balki boshqa mintaqasi davlatlariga ham ushbu mamlakat bilan ehtiyojkorona siyosat olib borishlari kerakligini bildirib turadi.

Pokistonning yadroviy quroqla ega mamlakat sanalishi Janubiy Osiyo mintaqasida uning Hindiston bilan birgalikda etakchi mamlakat bo'lishiga sabab hamdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan ayrim xususiyatlar Pokistonning jahon siyosiy maydonida nechog'lik muhim aktor ekanligini etarli darajada ko'rsatib turmoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kun zamonaviy xalqaro munosabatlarda faol aktor sifatida ishtirok etayotgan har bir mamlakat ushbu jarayonlardagi tashqi siyosiy faoliyatini o'ziga xos tamoyillar asosida shakllantirishar ekan, birinchi navbatda ikki muhim omilni hamisha asosiy faktor sifatida e'tiborga olishadi. Ular:

- mamlakat milliy-hududiy daxsizligi;
- milliy davlat manfaatidir.

Ko'p mamlakatlardagi singari Pokiston tashqi siyosatida ham xavfsizlikni ta'minlash borasidagi harakat bosh masalalardan sanaladi.

Buning eng asosiy sababi sifatida mamlakatning o'z mustaqilligini qo'liga kiritgan yildan e'tiboran aynan qo'shni bo'lgan mamlakat, Hindiston bilan hududiy masalalar bo'yicha kelisha olmasliklari bo'ldi.

Janubiy Osiyoda joylashgan bu ikki mamlakatning konfliktg'a borishi, ularning Britaniya kolonnasidan ozod bo'lgan vaqtida Jammu va Kashmir hududlariga egalik qilish bo'yicha murosaga kela olmasliklari tufayli vujudga keldi. Aynan shu omil mintaqada beqaror va ziddiyatni xavfsizlik tabiatining shakllanishiga sabab bo'ldi va hozirgi kungacha bu nizo davom etib kelmoqda.

Pokiston Islom Respublikasi<sup>1</sup> tashqi siyosatining shakllanishi va nisbatan tartibga solinishi, professor Xasan-Askari Rizvining "Pokiston tashqi siyosati: 1947-2004 yillarga nazar" nomli o'quv qo'llanmasida keltirilishicha, ettita bosqichli davr mobaynida olib borildi. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1947-53 yillar: Barcha mamlakatlarni etarlicha o'rganish va ular bilan do'stona munosabatlarni shakllantirish;
- 1953-62 yillar: G'arb mamlakatlari bilan hamkorlik;
- 1962-71 yillar: Mamlakatni xalqaro maydonda iqtisodiy tranzit hudud sifatida shakllantirish;
- 1972-79 yillar: Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va har xil muammo va harbiy harakatlarga qo'shilmaslik siyosati;
- 1980-90 yillar: Afg'oniston muammosi va AQSh bilan hamkorlik;
- 1990-2001 yillar: Sovuq urushdan keyingi davr va Pokistonning to'g'ri siyosiy pozitsiya tanlash holati;

- 2001 yildan keyingi davr: Pokiston va terrorizmga qarshi kurash.

Yuqorida keltirib o'tilgan Pokiston tashqi siyosiy faoliyatining shakllanish davriga qisqacha to'xtalib, ularga sharh bersak.

Pokiston tashqi siyosiy faoliyati shakllanishining birinchi davrida, ya'ni 1947-53 yillarda, mamlakat o'z tashqi siyosatidagi birinchi navbatda qaratilgan yo'naliш, bu qo'shni va boshqa mintaqalarda joylashgan davlatlar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatisht bo'ldi.

Pokiston davlatining asoschisi general Muhammad Ali Jinna AQSh va Avstraliya aholisiga radio orqali Pokiston haqidagi o'zining ikki muhim nutqini so'zladi. Shuningdek, 1947 yilning dekabr oyida

<sup>1</sup> Pokiston 1956 yilda yangi konstitutsiya ishlab chiqishi bilan birga "Islom Respublikasi" degan maqomni oldi.

Afg'oniston qiroli bilan bo'ladigan maxsus uchrashuv arafasida, ko'plab mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishga va rivojlantirishga kuchli istaklari borligini bildirgan edi. Bu harakatlarining dastlabki natijalari Birma (1948 yil, yanvar), Frantsiya (1948 yil, yanvar), AQSh (1948 yil, fevral), Turkiya (1948 yil, mart) va Afg'oniston (1948 yil, may) kabi davlatlar elchilarining o'z ishonch yorliqlarini Pokiston hukumatiga taqdim etib o'z faoliyatlarini boshlashlarida ko'rish mumkin edi.

Bundan tashqari Pokiston izchil ravishda xalqaro tashkilotlarga ham a'zo bo'lib ko'pgina xalqaro paktlarni imzoladi. Jumladan, mamlakatning G'arb mamlakatlari bilan yaqin munosabatlarini shakllantirishiga dastlabki muhim bo'lgan qadam, bu Bog'dod Paktiga a'zo bo'lishi, SENTO (CENTO - The Central Treaty Organization) va SEATO (SEATO - South-East Asia Treaty Organization) tashkilotlarining ham muhim a'zosи sifatida o'z faoliyatini boshlashida bo'ldi.

Pokiston otasi sifatida tilga olinuvchi general Muhammad Jinna o'sha paytda Pokiston tashqi siyosati haqida gapirar ekan quydigilarni bildirib o'tgan. "Bizning tashqi siyosatimiz jahon millatlari bilan do'stona va yaxshi munosabatlar asosidagi faoliyatga asoslangan. Biz davlat va millatga qaratilgan har qanday aggressiv munosabatlarni hurmat qilmaymiz. Shunga ishonamizki, har doim ham milliy va ham xalqaro munosabatlarda samimiylilik va to'g'rilik printsiplari asosida o'z faoliyatimizni olib boramiz va jahon xalqlari orasida rivojlanish va tinchlikni ta'minlash yo'lida har qanday kontributsiyani ayamaymiz. Pokiston hech qachon jabr zulm ko'rgan va qiynalgan jahon halqlarini va BMT nizomi printsiplarini qo'llab-quvvatlashda hech bir kamchilikka yo'l qo'yaydi", — deya ta'kidlagan edi.

Pokiston BMTning to'laqonli a'zosи sifatida 1947 yil 30 sentyabrda o'z tashqi siyosiy faoliyatini yanada rivojlantirdi. Uning ko'pgina tashkilotlar doirasida liderlik qilishi, ko'plab mamlakatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga sabab bo'ldi.

Tashqi siyosiy faoliyat shakllanish davrining ikkinchi bosqichida (1953-62 yillar) Pokiston asosiy e'tiborini G'arb davlatlari bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga qaratdi. Bu davda Pokiston ayniqsa AQSh bilan o'z munosabatlarini xavfsizlik, harbiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamladi. Buning asosiy sababi sifatida, ushbu vaqtida Pokiston milliy xavfsizligi borasida va

mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida birinchi navbatda G'arb mamlakatlari ko'magiga etaricha muhtoj edi. Chunki mamlakat bu paytda shimolda Afg'oniston, Janubiy Sharqda Hindiston bilan bog'liq muammolar ta'siri ostida edi.

Yuqoridagi holatning amalga oshishiga yana bir sabab, o'tgan asming 50-yillari boshida, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 1952 yilda jahon bozorida jut<sup>1</sup> va paxta tolasi narxining keskin tushishi, Pokiston tashqi savdo tizimiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek 1952-1953 yillarda mamlakatda bug'doy etishmovchiligining ham bo'lishi yuqorida ta'kidlab o'tgan omillarning bo'lishiga sabab bo'ldi. Albatta bunday vaziyatlarda birinchilardan bo'lib AQSh hukumatining Pokistonga katta miqdordagi beg'araz yordamini ko'rsatishi, mamlakat tashqi siyosatida G'arbg'a yo'naltirilgan vektorning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Ushbu davrga xos yana bir muhim xususiyatni aytib o'tadigan bo'lsak, bizga yaxshi ma'lumki, aynan 1950-1965 yillar Pokiston ichki va tashqi siyosatida eng asosiy qaratilgan e'tibor mamlakat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, Jammu va Kashmir hududlari ustida Hindiston bilan bo'lgan urushlarda eng asosiyi mamlakat manfaatlarini harbiy yo'l bilan bo'lsada himoyalashga qaratilgan. Pokistonning harbiy jihatdan biroz Hindistondan orqada bo'lishi, uning kuchli tashqi siyosat yuritish orqali mamlakatni qo'llab-quvvatlovchi tarafdlorni ko'proq topishga undadi.

Bu davrga kelib asosan, AQSh va Xitoy davlatlari bilan harbiy sohada qilingan hamkorlik va ushbu mamlakatlarning Pokistonga qilgan kontributsiyalari, davlatning Hindiston bilan bo'lgan nizolarida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Birgina ushbu ko'makni AQSh misolda ko'rib o'tadigan bo'lsak, quydagi ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Pokiston AQSh hukumatidan deyarli 650 mln. AQSh dollarri miqdorda harbiy holatning barqarorligini ta'minlash va harbiy sohani rivojlantirish uchun yordam olgan. Shuningdek, F-104, B-57, B-86 va C-130 harbiy va yuk tashuvchi samolyotlar, harbiy kema va jihozlar, radar va elektron asbob-uskunalar kabi bir qancha jihozlarni yordam sifatida oldi.

Demak, yuqoridagi jumlalardan ko'rinish turibdiki, Pokiston tashqi siyosatida amalga oshirilgan aniq faoliyat, davlatga juda muhim vaziyatlarda yaqin xalqaro hamkor mamlakatlarning kerakli yordamini

<sup>1</sup> Jut (en, jute) – Pokiston va Hindistonda etishtiriladigan kanop bo'lib, tolasidan mato to'qishda foydalilanadi.

berishga va Pokiston xavfsizligini ma'lum darajada himoyalanishiga sabab bo'ldi.

**Pokiston tashqi siyosatida islam omili.** 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin Pokistondagi vaziyat keskin o'zgardi. Hukumatning AQSh boshchiligidagi NATO alyansining Afg'onistonda faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlagandan so'ng, mamlakat shimoliy hududidagi terroristik guruhlar harakati ham keskin kuchayib ketdi. Pokiston hukumati tomonidan Sovuq urush davrida Afg'onistonda AQSh yordamida shakllantirilgan "Tolibon" harakatini ham o'z vaqtida qo'llab-quvvatlagan. Mamlakatning Hindiston bilan Jammu va Kashmir masalalari borasida bir necha yillik mojarosi, hududda davlatga qarashli bo'Imagan Militant harakatini kuchayishiga sabab bo'ldi. 2001 yilgacha Pokiston hukumati bilan murosada bo'lган Militant harakati vakillarining NATO tomonidan Afg'onistonda Tolibon hukumati va unga aloqador bo'lган guruhlarni, shu o'rinda Pokiston shimoliy sarhadlarini ham jangarilardan tozalashga qaratilgan faoliyatning boshlanishi bir tomondan Militant harakati guruhlarining hukumat bilan kelishmovchilikga borishlariga sabab bo'ldi va oqibatda Pokiston keyingi vaqlarda terroristik faoliyatlar kuchaygan mamlakatga aylandi.

Qisqacha qilib Pokistonda bugungi kunda faoliyat yuritayotgan terroristik tashkilotlar to'g'risida gapiradigan bo'lsak, 2008 yilning 16 yanvarida Xalqaro Tinchlik bo'yicha Karnegi Jamg'armasi tadqiqotchisi Eshli Tellis Pokistonda faoliyatda bo'lган terroristik va ekstremistik guruhlarni quyidagi yo'nalishlarga bo'lgan:

- Turli sektalarga aloqador guruhlar. (Sunni Sipoh – e-Shahaba va Shia Tehrik - e-Jafriya);
- Anti-Hind guruhlar. Mazkur guruhlar doimiy ravishda Pokiston Ichki Razvedka Xizmati tomonidan qo'llab-quvvatlangan. (Lashkar -e-Toiba (LeT), Jish-e-Muhammad (JeM) va Harakat ul Mujahidin (HuM))
- Afg'on Tolibonlari. Haqiqiy Tolibon harakati va uning Qandahordagi rahbari Mulla Muhammad Umar Pokistonda faoliyat yuritishga katta umid bog'laganlar;
- Al-Qaida va uning tarafdoirlari;
- Pokistonlik "Tolibonlar". Baytulloh Maqsud boshchiligidagi Janubiy Vaziristondagi Maqsud guruhি, Mavlono Faqir Muhammad va Mavlono Qazi Fazluloh rahbarlik qilayotgan Tehrik-e-Nafaz-e-

Shariat-e-Muhammadi (TSNM) guruhি va Mangal Box Afridi rahbarligidagi Lashkar-e-Islomiya kabilarni aytish mumkin.

Bu kabi terroristik va ekstremistik guruhlarning Pokistonda faoliyatda bo'lishi mamlakatning faqatgina ichki siyosiy muvozanatini buzibgina qolmay, balki uning tashqi siyosatidagi faoliyatiga hamma o'zining katta ta'sirini ko'rsatishi aniq. Shuning uchun ham Pokiston hukumati iloji boricha G'arb va Sharq allianslari sifatida xalqaro siyosatchilar tomonidan aytilayotgan NATO va ShHT doirasida teng pozitsion munosabatlarni olib borishga harakat qilmoqda.

AQSh sobiq Davlat Bosh Kotibi Medlin Olbrayt ta'kidlaganidek: "O'zining Yadro quroliga egaligi, terrorizm, jamiyati, korruptsiya, juda sust iqtisodiy rivojlanishi, hukumat sohasidagi notinchligi, kritik xususiyatga ega geostrategik joylashuvi bilan Pokiston Obama hukumatining asosiy e'tiborida bo'lishi aniq".

2008 yilning dekabr oyida NBS (NBC) muxbirlariga bergan intervyusida Amerika Qo'shma Shtatlarining sobiq Prezidenti Barak Obama quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Biz Afg'onistondagi vaziyatni Pokistondagi notinchlikni hal qilmay turib, bartaraf eta olmaymiz". 2008 yilning noyabrida Mumbayda bo'lган portlash natijasida Hindiston hukumatining Pokiston militant harakatini bunda ayblashi va unga nisbatan harakatni boshlashi rasmiy Dehli va Islomobod o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashuviga sabab bo'lган edi. Shuning uchun ham yangi AQSh hukumati iloji boricha Janubiy Osiyo mintaqasida ham tinchlikni o'rnatishga katta e'tiborini berishi aniq.

Umuman olganda, Pokiston tashqi siyosati bir necha yillar mobaynida shakllana borib, mamlakat oldida turgan maqsadlarga erishish jarayonida goh diplomatik gohida esa harbiy strategiyalarining amalga oshirish bilan ta'minlashga harakat qilindi. Bunday yo'nalishda davlat siyosatining olib borilishi, professor Hasan Askari Rizvi ta'kidlaganidek: "...mintaqaviy va xalqaro vaziyat dinamikasiga qarab belgilandi".

Ayni paytda Pokiston milliy xavfsizligi, tinchligi va iqtisodiy rivojlanishini inobatga olgan holda xalqaro munosabatlarning muhim ishtiroychisi sanaladi. Ayniqsa diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ham. Shu sababli Pokiston tashqi siyosatini shakllantirishda va to'g'ri olib borishda yuqorida keltirilib o'tilgan omillarni inobatga olgan holda faoliyat yuritishni muhim deb hisoblaydi.

Pokiston Islom Respublikasi siyosiy partiyalari faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ushbu siyosiy partiyalarning mamlakat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega siyosiy institutlar sifatida o'rniga katta baho bergan holda ularning Pokiston va dunyo hamjamiyati o'rtasidagi munosabatlarning bevosita yoki bilvosita ishtirokchilari ekanliklarini, mamlakatning nafaqat ichki siyosatini shakllantirlishida, balki davlatning tashqi siyosat borasidagi faoliyatida ham juda faol ishtirok etib, ushbu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsata oladigan siyosiy kuch ekanligini ko'rshimiz mumkin.

**Hozirgi davrda Pokiston-Afg'oniston munosabatlari.** Pokiston va Afg'oniston bir-biriga qo'shni bo'lgan musulmon mamlakatlaridir. Pokiston mustaqil davlat bo'lgan vaqtidan boshlab ular o'rtasida murakkab o'zaro munosabatlar vujudga kelmoqda. Ikki davlat munosabatlaridagi asosiy muammo "Buyuk Pushtuniston" va "Dyurand chizig'i" muammolaridir. Shuningdek, Pokiston Afg'onistondagi o'zaro ichki nizolarda "Toliblar harakati"ni qo'llab-quvvatlab ularga harbiy, siyosiy va iqtisodiy yordam berib kelmoqda.

Xususan, Pokiston Islom Respublikasi hamda Afg'oniston Islom Respublikasi munosabatlarda Federal boshqaruvdagi qabilalar hududi (FBQH) bilan bog'liq bo'lgan muammolar saqlanib turibdi. Mazkur mamlakatlar tashqi siyosiy strategiyalarini ishlab chiqishda pushtunlar masalasi doim kun tartibida birinchi o'rinda turgan.

Ta'kidlash kerakki, FBQH yashovchi 4 mln. aholining 90% ni pushtunlar tashkil etadi. Pushtunlarning umumiy soni 38 mln. kishini tashkil etib, ulardan 12,5 mln. Afg'oniston hududida, 25 mln. Pokistonda istiqomat qilishadi.

Ikki davlatda yashovchi pushtunlarni birlashtiruvchi yagona "Buyuk Pushtuniston" davlatini qurishga intilishlar FBQHni notinch joyligicha saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Barcha pushtunlar ya'ni, Afg'on va Pokiston pushtunlarining birlashishi, jangovor harakatlarni amalga oshirishga intilishi Pokiston Islom Respublikasining yaxlitligiga real tahdid yaratishi mumkin.

XX asrning boshlarida Qobulda Pushtuniston davlatini tuzishga bo'lgan intilishlar yuzaga kelib, "Pushtun ayirmachilik harakati" paydo bo'lgan. Keyinchalik bu harakat Pokistonning Shimoliy-g'arbiy chegara viloyati hamda Belujistonga kirib borgan va mahalliy hokimiyatga muammolar tug'dira boshlagan.

Afg'onistonning shimoliy-sharqiy viloyatlaridan Pokistonning Shimoliy-g'arbiy chegara viloyatiga qochoqlarning ommaviy chiqishi

birinchidan, pushtun aholisining ko'payishiga, ikkinchidan, uning radikallashuviga yordam bermoqda. Bu esa mujohidlarning qorli shakllanishiga va lagerlarda tayyorlanishiga hamda ular siyosiy faoliyatining faollashuviga olib kelmoqda. Bunday hatti – harakatlarning barchasi mahalliy pushtun aholisini asta-sekin o'ziga tortib ketmoqda.

Rossiyalik siyosatshunos D. Vertoxurovning fikriga ko'ra, mintaqadagi beqarorlikdagi bosh muammo pushtunlar milliy davlat-chiligi belgilanishining tugatilmaganligidir. Bu Britan siyosatining natijasi bo'lib hisoblanadi. Bu muammoni echishning uchta usulini qo'llash mumkin.

Birinchi usul Afg'onistonni to'liq pushtun davlatiga aylantirish; Ikkinci usul "Dyurand chizig'i" yonida Afg'oniston-Pokiston konfederatsiyasini yaratishdan iborat;

Uchinchi usul esa Afg'oniston-Pokiston chegarasidagi "Erkin zona"da "Pushtuniston" rahbarlarini amalda sinab ko'rishdir. Muammoni echishning ushbu usullari Afg'oniston va Pokistonni yuqori darajada zaiflashtiradi va davlatlar hududining ma'lum bir qismining qo'ldan chiqishiga olib keladi.

Ba'zi ekspertlar "Pushtun" muammosini echishning quyidagi ikki usulini ko'rsatib o'tadilar:

Birinchisi, Afg'oniston va Pokiston hududida "Dyurand chizig'i"da ikki pushtun avtonomiyasini tuzish;

Ikkinchisi, "Dyurand chizig'i"ni yo'qotish, pushtun xalqini birlashtirish va hozirgi afg'on-pokiston chegarasida yangi mustaqil Pushtuniston davlatini yaratish.

Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi asosiy muammolardan biri "Dyurand chizig'i" muammosi bo'lib, ikki tomonlarga munosabatlarning yaxshilanishiga hamda mintaqqa xavfsizligiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xususan, Pokiston va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashishi ikki davlatni ajratib turuvchi 1,5 ming km.lik chegara, ya'ni "Dyurand chizig'i"ning rasmiy Qobul tomonidan tan olinmasligi bilan boshlangan. Bu chegara to'g'risidagi shartnomani Qobulda Afg'onistonlik Abduraxmon va ingliz Hindistonining tashqi ishlar bo'yicha kotibi M.Dyurandlar 1893 yil 12 noyabrda imzolaganlar. Keyinchalik 1905, 1919, 1921 yillarda ingliz-afg'on shartnomasi bilan tasdiqlangan.

Pokiston tomonining aytishicha, Pokiston va Afg'oniston o'rtasida hech qanday chegara muammosi yo'q. Chegara 1921 yildagi

kelishuv bilan rasmiy ravishda tasdiqlangan. Pokiston hukumati Afg'oniston va Pokiston o'tasidagi "Dyurand chizig'i"ni xalqaro tan olingen chegara deb hisoblaydi.

Shuningdek, Pokiston prezidentining Nyu-Yorkda AQSh sobiq davlat kotibi K.Rays bilan uchrashuvida Afg'oniston bilan chegarasiga sim o'rnatishini aytib o'tdi.

Afg'onistonning sobiq prezidenti H.Karzay esa uning bu taklifiga qarshi chiqib, to'siq o'rnatish muammoni hal qilmasligini, balki Pokiston hududida hukumatga qarshi chiqishlarning vujudga kelishiga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tdi. Chegara hududlarida bir-biriga yaqin qabilalar yashaydi. Chegaraga to'siqning qo'yilishi nafaqat qabilalarni, balki oilalarni ajratib tashlaydi.

Bundan tashqari Afg'oniston hukumati hamda BMT Pokistonni "Toliblar harakati"ni qo'llab-quvvatlayotganlikda hamda jangarilar ning Afg'oniston hududiga kirishiga yordam berayotganlikda ayblamoqda.

Jumladan, Oxirgi vaqtida Islomobod va Qobul munosabatlari sezilarli darajada yomonlashdi. Asosiysi shundaki, Pokistonning Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan qabilalar joylashgan hududida Toliblar tarkibiga kiruvchi turli xalqaro terroristik tuzilmalar faollashishda va o'z bazalariga ega bo'lishda davom etmoqdalar.

Pokiston Afg'oniston munosabatlari 2006 yilning oxirgi bir necha oylarida keskinlashganini ko'rishimiz mumkin. Bu bevosita Afg'on-Pokiston chegaralariga "ko'chib kelgan qabila zona"laridagi beqaror vaziyat bilan bog'liqdir. "Toliblar harakati", shuningdek bir qator boshqa terrorchilik yo'nalihidagi tashkilotlar kam nazoratdagi Islomobod hududida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy imkoniyatga ega bo'lmoqdalar.

Qobul ma'muriyatni Pokistonni ommaviy ayblash bilan chiqmoqda, ya'ni uning fikricha, Afg'oniston prezidenti H.Karzay pozitsiyasiga shubha uyg'otib, Afg'oniston bilan munosabatlarda qo'poruvchilik faoliyatlarini amalga oshirishga yo'l qo'yib bermoqda. Afg'oniston hukumati "ko'chib kelgan qabilalar zonasidagi Toliblarni qo'llab-quvvatlash kayfiyatidagi kuchlarni bartaraf etish yo'nalihidagi Islomobod siyosatining natijalariga ochiqchasiga shubha bildirmoqda.

Shuningdek, 2006 yil Vashingtonda uch tomonlhma Afg'on-Pokiston-AQSh uchrashuvi o'tkazilib, Loyi Jirg'a bilan hamkorlikda

chegara xavfsizligini ta'minlashga oid savollar bo'yicha kelishuvlar imzolandi. Lekin bu amalgal oshmadi. Chunki Afg'oniston tomonining fikricha, buni amalgal oshirish uchun nafaqat pushtun etakchilari, balki boshqa qabila etakchilari ham, chegaradagi etnik guruh vakillari ham ishtirok etishi zarur.

BMTning yuqori martabali namoyondalari ham borgan sari ochiqchasiga Pokistonni afg'on hududiga o'tuvchi jangarilarga qarshi kurash olib bormaganlikda, Pokiston maxsus xizmatini esa ularga yo'l qo'yib berayotganlikda ayblamoqda. Shu bilan birgalikda ular Vaziriston kelishuvini ham tanqid ostiga olib, buni ekstremistlarga "ochiq yon bosish" deb atamoqda.

Ekspertlarning fikrlariga ko'ra, Pokiston parlamentining beshdan bir qismini islom fundamentalistlari va mamlakat armiyasining yuqori mansabdorlari tashkil etadi. Aynan ular "Toliblar harakati"ni qo'llamoqdalar. Bundan tashqari, Pokiston aholisining ko'pchilik qismi ham Toliblarga ko'mak bermoqda. Jamoatchilik fikri so'rovlar natijasiga ko'ra, AQShning terrorizmga qarshi jangga kirishini Pokistonliklarning 30%ni qo'llab-quvvatlagan.

AQSh, NATO va Afg'oniston vakillari esa "Toliblar harakati"ning qarorgohi Pokistonning Kvetta shahrida joylashgan deb hisoblamoqdalar. Pokiston prezidentining qayd etishicha, jangarilar chegarani kesib o'tib harakat qilmoqda, ularning bazasi Afg'onistonda joylashgan ammo, "Toliblar harakati" Pokistondan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda, Pokistonning Shimoliy - g'arbiy chegara provintsiyasida 20 mingta madrasa (diniy maktab) mavjud bo'lib, ular Fors ko'rfazi musulmon mamlakatlari tomonidan moliyalashtirilmoqda. U erda pushtun yoshlari Afg'oniston va Markaziy Osiyo mintaqasida ziddiyatlarni vujudga keltirish va unda ishtirok etish uchun mafkuraviy va harbiy jihaddan tayyorlanadi.

2007 yil 11 avgustda Qobulda prezident P.Musharraf Pokistonga "Toliblar harakati"ni qo'llab-quvvatlaganini tan oldi. Shu paytgacha Islomobod Toliblar harakatiga o'zining aloqadorligini qat'iy ravishda rad etib kelayotgan edi.

Pokiston sobiq prezidenti P.Musharraf CNN telekanaliga bergen intervusida aytishicha, Afg'oniston maxsus xizmati Pokistonga qarshi maxfiy operatsiya o'tkazgan. Avval Pokiston tashqi ishlar vaziri rasmiy Qobulni Pokistonning Belujiston viloyatiga quroq

yuborishda ayblagan edi. Afg'oniston esa Pokistonni quroq va terroristlarni tarqatayotganlikda ayblamoqda.

O'z o'mida Pokiston tomoni Toliblarning qurolli faolligini Afg'oniston Islom Rspublikasining o'z mamlakatida tartib o'rnata olmasligida deb, ayblamoqda. Shu bilan birgalikda Dehlini ham ayblab, Hindiston va Afg'oniston o'z bosh elchixonalari orqali pushturn va beluj qabilalarini Pokiston hukumatiga qarshi qo'yimoqda va qurollantirmoqda.

AQSh bir qancha vaqt Pokiston – Afg'oniston munosabatlarda faol vositachi, biroq betaraf davlat sifatida rol o'ynab keldi. So'nggi vaqtarda esa AQSh ma'muriyati Afg'oniston hududiga kirib kelayotgan jangarilarga nisbatan tegishli choralar ko'rishni Pokistondan talab qilmoqda.

Xususan, bu Pokistonga nisbatan nafaqat siyosiy diplomatik choralar, balki harbiy kuch xarakteridagi choralarini ko'rish to'g'risidagi ogohlantirishlarda o'z ifodasini topmoqda.

2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin Pokistonning "afg'on siyosati" o'zgardi va Afg'onistondagi xalqaro antiteroristik operatsiyalarda ishtirok eta boshladи. Pokiston va AQSh maxsus xizmatlari "Al-qoida" a'zolarini topish va "Toliblar" harakatini oldini olish borasida hamkorlik qila boshladilar.

2007 yil fevralda AQSh sobiq vitse prezidenti Dik Cheyni Islomobodga keldi va P.Musharrafnı Pokistonning Shimoliy – g'arbiy chegara viloyatlidagi ko'p sonli baza va lagerlarni yo'qotish hamda radikal islomiylarga qarshi kurashni faollashtirishga chaqirdi.

Shundan so'ng 2007 yilning may oyida Pokistonning Shimoliy Vaziriston viloyatidagi jangarilar lageri ushbu davlat armiyasi tomonidan yo'q qilindi.

Bundan tashqari, Pokiston va Afg'oniston o'rtasida o'zaro kelishuv hamda barqarorlikni ta'minlash masalalari ham ko'rib chiqilmoqda ammo hozirgi paytgacha biror natijaga erishilganicha yo'q.

2006 yil 7 sentyabrda Pokiston prezidenti P.Musharrafnı Afg'onistonga tashrifi chog'ida aytishicha, mamlakatning Afg'oniston bilan chegaradosh mintaqalarida xavfsizlikni ta'minlash uchun "Toliblar harakati" va "Al-Qoida" guruhlariga hamda terroristik tashkilotlarga qarshi kurashishda Pokiston tomoni choralarini yuqori darajada davom ettiradi. Bu Pokiston va Afg'oniston manfaatlari javob beradi.

2007 yilning aprel oyida esa Anqarada prezidentlar P.Musharraff va H.Karzaylarning navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uning natijalariga ko'ra, Turkiya ishtirokida uch tomonlama ishchi guruhni Afg'oniston Islom Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida ishonchni mustahkamlash chora – tadbirlari bo'yicha keli shuvga erishildi va Anqara deklaratsiyasi qabul qilinib, unga ko'ra ikki tomon har qanday qo'poruvchilik va terroristik akt ko'rinishlarini yo'q qilish majburiyatini olish holati qayd etildi.

2007 yil 9 avgustda esa Pokiston va Afg'oniston hududining katta qismida yashovchi pushturn qabilalari Qobulda Oliy Kengash hisoblangan Jirg'ada o'z ishini boshladi. Yig'ilishda Afg'oniston Islom Respublikasi prezidenti Hamid Karzay va Pokiston bosh vaziri Shavkat Aziz, shuningdek, 600 ga yaqin pushturn millatiga mansub obro'li shaxslar ishtirok etdilar. Qabila boshlig'i va oqsaqollarni chaqirishdan maqsad yarashtirish yo'llarini topish edi.

Bundan tashqari, Jirg'ada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar ham ko'rib chiqildi. Ma'lumotlarga qaraganda, Jirg'a ishida xalqaro kuzatuvchilar ham ishtirok etgan. Ta'kidlash joizki, ko'pchilik ishtirokchilar va kuzatuvchilar Jirg'aning amaliy natija berishiga shubha bilan qarab, uning Pokiston – Afg'oniston munosabatidagi tinchlikni bartaraf qilishiga ko'zi etmasligini bildirishdi. Bu so'z o'z navbatida, Islomobod va Qobul o'rtasida keskinlik saqlanib qolishini bildiradi.

"BBC" ma'lumotlariga qaraganda, Pokiston etakchisi ikki mamlakat hukumatlari mintaqada ekstremizmga qarshi kurash olib borishi haqida o'z fikrlarini aytib o'tdi. Bunga shubha yo'q, chunki Pokiston prezidentining aytishicha, biz bu elementlar faoliyatini hududda yo'q qilishimiz kerak. Toliblar Afg'oniston xalqining bir qismidir Qobul ularni tinch hayotga qaytishga da'vat qilishi kerak.

Afg'onistonning sobiq Prezidenti Hamid Karzayning qayd etishicha, Pokistonning "Toliblar harakati" va boshqa terroristik guruhlarga qarshi kurashga so'z berishi Afg'oniston uchun katta va yaxshi ish bo'ladi. Bu davlatlar o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatalishlari zarur.

Buyuk Britaniya mudofaa vazirining sobiq o'rinosari Kim Xauellsning ta'kidlashicha, qachonki Pokiston Tolibon jangarilarini qo'llab-quvvatlashdan o'zini tiysa va ularning lagerlarini o'z hududidan yo'qotsa, Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlik ta'min-

lanadi. Pokiston va Afg'oniston "Toliblar harakati" va "Al-Qaida"ga qarshi kurashsa, ikki davlat o'rtasida ishonchli qo'shnichilik munosabatlari faqat yaxshilanadi.

Pokistonning Afg'oniston bilan munosabatlarda ham bir qator muammolar o'z echimini topmasdan kelmoqda. Bunday muammo-larning birinchisi pushtun muammosi bo'lib, ikki davlatning chegara hududida "Buyuk Pushtuniston" davlatini tuzishga bo'Igan separatistik harakatlarni amalgalashirishga harakat qilmoqdalar. Ularning separatistik harakati mamlakatlarda ichki beqarorlikning vujudga kelishi va uning rivojlanishiga hamda millatlar o'rtasida konfliktlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, "Buyuk Pushtuniston" davlatining tuzilishi ikki davlatni ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan kuchsizlanishiga hamda Pokistonda boshqa millatlarning ham separatistik harakatlarining paydo bo'lishiga va uning kuchayishiga olib keladi.

*Hozirgi davrda Pokistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan o'zaro munosabatlari.* Bugungi kunda Pokistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan tashqi siyosatining asosini iqtisodiy yo'nalishda energetika, elektrenergiya, transport-kommunikatsiya, bank sohasi hamda siyosiy yo'nalishda xavfsizlik va mudofaa sohasi tashkil etadi.

So'ngi yillarda Pokiston Islom Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida xavfsizlik va mudofaa sohalariда siyosiy hamkorlik va kelishuvlar sekin-asta mustahkamlanib bormoqda.

Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari afg'on muammosi, u bilan bog'liq tinchlik va barqarorlik masalalarida, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, quroq va giyohvand moddalarini noqonunini tashib o'tish kabilarda Pokiston bilan munosabatlarni rivojlanirishdan manfaatdor. Bu masalalarda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekiston va Qozog'iston Pokiston bilan aloqlari ancha quyuq rivojlangan.

O'zbekiston o'zining diniy ekstremistik guruuhlar, birinchi navbatda, tolionlar tor-mor qilinganidan so'ng, Pokistonning Vaziristonida pushtun qabilalari orasida yashirinib yurgan Amir Usmon bosh-chiligidagi Turkiston Islom Harakati (TIH) faoliyatidan tashvishda ekanligini bildirdi. Pokiston O'zbekiston bilan 2001 yilda O'zbekiston Islom Harakati a'zolarini tutish, qo'lga olish va berishda o'zbek hukumatiga yordam ko'rsatish majburiyatini olgan holda bitim imzoladi.

Prezident P.Musharrafning 2005 yil 5-6 martdag'i Toshkentga qilgan safarida "xalqaro terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik qilish

to'g'risida"gi bitimni imzoladi hamda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini muhokama qildilar. Andijon voqealaridan so'ng Pokiston O'zbekiston pozitsiyasini qo'llab - quvvatladi.

Pokistonning Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlash borasidagi hamkorligining ustivorlik kasb etayotgan omillaridan biri bu iqtisodiy manfaatdorlik ekanligini ta'kidlash joiz. Bu so'nggi 5 yil davomidagi iqtisodiy o'sishining ildamligi, energiya resurslar iste'molining ortishi bilan bog'liq. Pokiston o'zining energetik xavfsizligini ta'minlash borasida energiya resurslar bilan muntazam ta'minlab turuvchi muqobil manbalarga muhtojdir.

2005 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Pokistonda uglevodorod xom ashyosi zahirasi 27 mlrd. barr.ni, tabiiy gaz zahiralari 282 trln. kub m.ni tashkil etadi. 2005 – 2006 moliyaviy yilda neft xom ashyosi va neft mahsulotlari importi 3033,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilga qiyoslaganda 62%ga yuqoridir. Har yili energiya resurslar iste'moli 10%ga o'smoqda.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, o'z konlariдан qazib olingan qazilmalar hajmi Pokistonning energiya resurslarga bo'Igan talabini qondirishga etmaydi. Shu bois kelajakda energiya resurslarning katta qismini Pokiston chetdan olishga majbur bo'ladi. Bu holat Pokiston hukumati iqtisodiy siyosatining asosiy negizi energetika jabhasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. Turkmaniston, Afg'oniston hukumati hamda AQSh Yaponiya kabi qator nufuzli xalqaro donorlar tomonidan siyosiy qo'llab-quvvatlanayotgan "Transafg'on gaz quvuri" qurilishiga Pokiston qiziqish bilan qaramoqda. Loyihaning texnik-iqtisodiy asosini tayyorlash uchun maqsadli grantni Osiyo Rivojlanish Banki ajratdi. Hozirga kelib ushbu loyihaning texnik-iqtisodiy asosi tayyor hamda loyihadagi mamlakatlar o'rtasida bitim tuzilgan (2007 yil dekabr). Biroq salohiyatli sarmoyadorlar Afg'onistondagi notinchlik hamda Markaziy Osiyo va Kavkazdagi bir necha yirik eksport quvur o'tkazgichlarning bir vaqtida ishga tushishi bilan bog'liq geo iqtisodiy ahvol va yana mintaqadagi etakchi davlatlar bilan raqobatning kuchayishi kabi sabablarga ko'ra, loyihaning amalga oshishiga ishonchszlik bilan qaramoqda.

Bir vaqtning o'zida Pokiston unga do'stona munosabatda bo'Igan Xitoy hududi orqali Markaziy Osiyodagi energetika bozoriga yo'l qidirib shimoliy-sharqiyo yo'nalishda o'z faolligini oshirmoqda.

Bu borada Qoroqurum shosseri orqali transport aloqa o'rnatishtirilish Pokiston uchun istiqbolli bo'lib ko'rinishmoqda. Bugungi kunda Pokiston Islom Respublikasining Markaziy Osiyo respublikalari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari rivojlanib bormoqda.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda transport – kommunikatsiya sohasi, xususan, avtomobil yo'llarini qurish va ishga tushirish borasidagi aloqlar asosiy o'rinni egallaydi.

Mazkur sohadagi hamkorlik munosabatlari 1995-2007 yillarda imzolangan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi:

1 «Qoroqurum shosseri orqali tranzit yuk tashish to'g'risida»gi to'rtomonlama Bitim (Xitoy, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida imzolangan);

2 «Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida»gi Memorandum (Qozog'iston va Pokiston o'rtasida imzolangan);

3 «Transport–kommunikatsiya sohasida o'zaro kelishuv to'g'risida»gi

Protokol (Tojikiston va Pokiston o'rtasida imzolangan);

4 «Karachi va Gvadar portlariga chiqish bo'yicha uch tomonlama kelishuv»

(O'zbekiston, Pokiston va Afg'oniston o'rtasida imzolangan);

5 «Karachi–O'sh–Bishkek transport koridorini yaratish to'g'risida»gi

kelishuv va boshqalar.

Hozirgi kunda Pokiston va Markaziy Osiyo davlatlarini o'zaro bog'lovchi bir qator muqobil avtomobil transport yo'laklarini barpo etishga oid loyihibar amalgaga oshirilmoqda.

Jumladan, Qozog'iston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ma'lumotiga ko'ra, 2006 yilda Qoroqurum yo'nalishida "Pak Caspion Trade Link" (Pokiston) transport kompaniyasi bilan hamkorlikda "Islomobod-Qoshg'ar-Bishkek-Almati" avtomobil yo'li qurilib bitkazildi va mazkur yo'nalishda avtomobil transporti qatnovi amalgaga oshirilmoqda.

Hozirda Pokiston va Tojikiston o'rtasida Vaxan darasi (Tojikiston) orqali o'tadigan avtomobil yo'li qurilishi loyihibar ishlab chiqilmoqda. Mazkur yo'li "Dushanbe-Xorog-Ishkashim (Tojikiston) - Barogil dovon (Afg'oniston) – Gupis – Gilgit (Hindiston) – Karachi (Pokiston)" yo'nalishida qurilishi rejalashtirilmoqda. Mutaxassislar-

ning fikricha, ushbu transport koridorining birligina "Barogil-Gilgit" qismini barpo etish uchun 200 mln. AQSh dollari miqdoridaqni mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, mazkur yo'lni Pokiston-Qirg'iziston hamkorligida "Dushanbe-O'sh-Bishkek" yo'nalishida davom ettirish bo'yicha ham loyihibar tayyorlanmoqda. Pokiston va Turkmaniston o'rtasida "Karachi-Kvetta (Pokiston)-Qandahor-Hirot (Afg'oniston) - Kushka (Turkmaniston)" avtomagistralini qurish loyihibar yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston ham "Termiz-Hirot-Qandahor (Afg'oniston)-Karachi (Pokiston)" avtomobil yo'lini qayta qurishda ishtirok etmoqda. Mazkur avtomobil yo'li Markaziy Osiyo davlatlari tranzit yuklarining Pokiston portlariga olib chiqilishi uchun eng qisqa va istiqbolli yo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, Pokiston bilan Markaziy Osiyo davlatlarini o'zaro bog'lovchi transport–kommunikatsiya tizimini barpo etish, xususan, uning tarkibiy qismi bo'lgan avtomobil yo'llarini qurish hamda modernizatsiya qilish yuzasidan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar asosida tegishli loyihibar amalgaga oshirilmoqda.

Bundan ko'zlangan maqsad esa o'zaro tovar va xom ashyolarni eksport-import qilish va shu orqali Pokiston va Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlanishiga erishishdan iborat.

Bundan tashqari, Pokistonning Xitoy orqali temir yo'li aloqasini o'rnatishtirish mavjud. Qoroqurum shosseri bo'ylab Qoshg'ar temir yo'lini qurib bitkazgandan so'ng, Pokiston Markaziy Osiyo bilan aloqa qilishda ham avtomobil yo'li infratuzilmasidan ham Xitoy temir yo'lidan foydalana oladi. Loyihaga to'sqinlik qiluvchi holat bu Pokiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy raqobat bo'lib hisoblanadi.

Pokistonning bu hududdagi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishining asosiy jihatib bu – elektroenergiya sotib olishdir.

Hozirda Pokistonning elektr energiyaga bo'lgan talabi 9 mlrd. kVtG's.da baholanib, turli ma'lumotlarga ko'ra, u har yili 6%ga oshib bormoqda. Gidroresurslarga boy bo'lgan Tojikiston va Qirg'izistondan afg'on hududi orqali elektr quvvat olib kelinishi rejalashtirilmoqda.

2006 yil fevralda Tojikiston, Afg'oniston va Eronning energetika idoralari mavjud shartnomalar doirasida Afg'oniston orqali Tojikistondan Eron va Pokistonga boruvchi yuqori voltli elektr

o'tkazgich liniyasi qurilishi haqida bitim tuzishdi. Tojikistondagi uchta GES (Rogun, Sangtudin GES-1 va 2) ishga tushgandan so'ng Afg'onistoniga yiliga 300 mVtG's. va Pokistonga 1000 mVtG's. elektr quvvati uzatilishi kutilmoqda.

2006 yil 8 mayda Islomobodda Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtaida quvvati 1 ming mVt. va uzunligi 900 km. bo'lgan elektr o'tkazgich liniyasi qurilishi to'g'risida to'rtmonloma shartnoma tuzildi. Qobil va Jalolobod orqali o'tuvchi liniya qurilishining qiymati 700 mln. dollarni tashkil qiladi.

Pokiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaida boshqa yo'nalishdagi iqtisodiy hamkorlik haqidagi ma'lumotlarga qaraganda, cheklangan savdo-sotiq aloqalarining ko'rsatkichlari ancha kichikligi seziladi.

Jumladan, Pokiston tomonining ma'lumotlariga ko'ra, 2003-2004 yillarda Pokistonning Qozog'istonga qilgan eksporti 9 mln. dollarni, Qirg'izistonga 6,6 mln. dollarni, Tojikistonga 0,3 mln. dollarni, Turkmanistonga 1,3 mln. dollarni tashkil qiladi.

Pokiston o'zbek paxtasining yirik xaridoriga aylanmoqda. Avvallari o'zbek paxtasini Eron orqali sotib olar edi. 2005 yilning 29-30 dekabrida Toshkentda bo'lib o'tgan Pokiston-O'zbekiston hukumatlari komissiyasi yig'ilishining yakuniga ko'ra, tomonlar o'zbek paxtasini Pokiston tomonidan doimiy ravishda sotib olinishi haqidagi kelishuvga erishishdi.

Bundan tashqari, Pokiston O'zbekiston uchun 5 mln. dollar qiymatida Pokistondan tekstil sanoati uchun uskunalar sotib olishi uchun kredit liniya ochishga rozi bo'ldi.

Pokiston Markaziy Osiyoga mashina uskunalar, farmokologiya mahsulotlari, tibbiy jihozlar, sport trenajyorlari, tekstil, tayyor kiyim, charm buyumlar va mevalarni sotishni mo'ljallamoqda. Pokiston hukumati mintaqadagi mamlakatlarga telekommunikatsiya, temir yo'l transporti sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga yordam berishini bildirdi..

Pokiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaida bank sohasida hamkorlik qilishga asos solinmoqda.

Jumladan, 9 mlrd. AQSh dollardan ortiq faollarga ega bo'lgan Pokistondagi eng yirik tijorat banki – Pokiston Milliy Banki (PMB) Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistonda o'z filiallarini ochdi. MDH hududidagi bank strukturalari faoliyati Olmotadagi Pokiston Milliy Banking mintaqaviy muassasasi tomonidan nazorat qilinadi.

2005 yilning 2 mayida Pokiston Milliy banki va O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki o'rtaida memorandum imzolandi. Bu hujjat Pokiston va O'zbekiston o'rtaida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda jahon moliya bozorida strategik sherikchilik va barqaror hamkorlikni davom ettirishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Pokiston Markaziy Osiyo mamlakatlariga ta'lif sohasida va kadrlar tayyorlashda, xususan o'zining harbiy o'quv yurtlarida qurolli kuchlar ofitserlari tayyorlashda o'z yordamini taklif qildi.

Markaziy Osiyo mintaqaviy siyosatiga Pokistonning qo'shilishida muhim rolni Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o'ynaydi.

Xususan, 2005 yil 5 iyulda Ostona shahrida ShHT sammitida Pokistonga Shanxay Hamkorlik Tashkilotining kuzatuvchisi maqomi berildi. Bu masalani prezident P.Musharraf 2005 yil 5-7 martda Toshkentda ko'targan edi. Barcha Markaziy Osiyo davlatlari ichida bu masalada Pokiston pozitsiyasini birgina O'zbekiston qo'llab – quvvatladi.

Pokistonning hozirgi hukumatining kutganlari ro'yobga chiqsa, ShHTga a'zolik uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. U mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni intensifikatsiyalash bilan belgilanadi. Bu tovar sotish bozorlari Markaziy Osiyo va Rossiyaning tabiiy, birinchi navbatda, energetik resurslardan transport yo'llaridan foydalanish huquqi deganidir. 2006 yil aprel ma'lumotiga ko'ra, Pokistonning ShHT mamlakatlari bilan umumiy savdo – sotig'i 2 mlrd. AQSh dollarni tashkil qiladi. Markaziy Osiyo davlatlariga esa, bor – yo'g'i 26 mln. to'g'ri keladi. Pokiston fikricha, bu hamkorlikning real salohiyatiga mos tushmaydi.

Pokistonning manfaatlari ushbu tashkilot (ShHT)ning kun tartibi hamda uning doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning rivojanish tendentsiyalariga mos tushadi. ShHT a'zolari davlat hukumatlari boshliqlari kengashining 2006 yil 15 sentyabr Dushanbe shahridagi beshinchi yig'ilishi yakuniga ko'ra, qisqa muddatda energiya resurslarni ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarini va tranziterlarini birlashtiruvchi "ShHT energetika klubi"ni shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunda Pokiston kuzatuvchi sifatida ishtiroy etmoqchi. ShHT doirasidagi transport – energetika loyihalarni kreditlashga Xitoyning tayyorligini hisobga olgan holda, Pokiston Gvadar porti bo'yicha transport – energetika loyihalari ShHT loyihasi maqomi berilishiga intilmoqda. Bu masalani Pokiston

rahbariyati 2006 yil 15 iyunda Shanxaydagi ShHT sammitida hamda 2006 yil 17 iyunda Almati shahri yig'ilishi sammitida ko'tarib chiqdi. ShHT bilan o'zaro munosabatlар darajasi G'arb va AQSh bilan munosabatlarini kengaytirishga musulmon olamida Pokistonning nufuzi ortishiga olib keladi.

Markaziy Osiyoning yangi davlatlarida savdo – sotiq o'sishi va sanoat rivojlanishi oqibatida dengizga chiqish talabi paydo bo'ladi, bunday imkoniyatni ularga Pokiston yaratib beradi. Yaqin portlar Pokiston qirg'ida joylashgan bo'lib, Karachigacha ming mil keladi. Belujistonda joylashgan Pasni va Gvadar ham shu masofada joylashgan.

Pokistonning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan faol siyosatini amalga oshirishga bir qator omillar sabab bo'lmoqda.

Jumladan, moddiy-moliyaviy qiyinchilik, ichki siyosiy barqarorlikning yo'qligi, Hindiston bilan kelishmovchilikning davom etishi va Afg'oniston bilan konfliktning o'sishi bu mintaqaga nisbatan faol siyosat olib borishga halaqt bermoqda.

Shuningdek, Afg'onistondagi hozirgi inqirozli holat Pokiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaida to'g'ridan – to'g'ri aloqalarni o'matishi yo'liga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, Pokistonning Markaziy Osiyo yo'naliishiga nisbatan tashqi siyosatini jahon hamjamiyati qo'llab-quvvatlamayapti. Bunday sharoitda Pokiston Islom Respublikasi mafkuraviy tashviqot ishlarini davom ettirishga harakat qilmoqda. Bu Pokiston uchun destruktiv omil bo'lib hisoblanmoqda.

Pokiston Islom Respublikasining Markaziy Osiyoda tashqi siyosiy faolligining muhim elementi afg'on yo'naliishi bo'lib, antihind liniyasi va Toliblar harakatining roli bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'liqidir.

Pokiston geosiyosiy manfaatlardan kelib chiqqan holda mintaqaga o'zining ta'sirini o'tkazishning asosiy va kelajakdag'i instrumenti sifatida toliblardan foydalanishni davom ettiradi.

Shuningdek, Pokistonda Toliblarni tayyorlaydigan bir qancha lagerlar mavjud bo'lib, Pokiston ularni qo'llab – quvvatlamoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarida islam – ekstremistik bosimining kuchayishi va uning saqlanib qolishi Pokistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan to'liq aloqalarning o'rnatilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bugungi kunda Pokistonda islam radikalizmi juda kuchaygan bo'lib,

bu Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Umuman olganda Pokistonning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosati ushbu mintaqadagi iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirib kelinmoqda. Markaziy Osiyoda Pokiston tashqi siyosatining asosini iqtisodiy yo'naliishda energetika, transport-kommunikatsiya va bank sohasi tashkil etadi. Siyosiy yo'naliishda xavfsizlikni ta'minlash hamda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik qilish tashkil etadi. Harbiy yo'naliishda esa mudofaa sohasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Pokiston va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari munosabatlarining quyuq rivojlanishiga Afg'onistondagi beqarorlik, ekstremizm va terrorizmnning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari xavfsizligiga tahdidi sabab bo'lmoqda.

Janubiy Osiyo mintaqasida joylashgan muhim hamkorlarimizdan biri sanaluvchi Pokiston Islom Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini birinchilar qatorida 1991 yilning 20 dekabridayoq tan oldi. Ikki davlat o'rtaсидagi diplomatik aloqalar esa 1992 yilning 10 mayida rasman o'rnatildi.

Bugungi kunda O'zbekiston hukumati mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan, xususan, Pokiston bilan yaxshi qo'shinchilik munosabatlarini izchil yo'lga qo'yib kelmoqda.

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Pokiston tashqi siyosatining asosiy yo'naliishlarini gapirib bering?
2. Janubiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
3. Janubiy Osiyo davlatlarining Rossiya va Xitoy bilan munosabatlari qanday?
4. Bugungi kunda AQShning Afg'onistondagi harbiy operatsiyalariga mintaqqa davlatlarining munosabatlari qanday?
5. Janubiy Osiyodagi Shri-Lanka, Bangladesh va Maldiv davlatlarining xalqaro munosabatlariga tavsif bering.
6. Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. Janubiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi SAARK haqida ma'lumot bering.

8. Hozirgi davrda Hindiston – Pokiston munosabatlari qanday holatda?
9. Zamonaviy bosqichda Kashmir muammosi va uning Janubiy Osiyo xavfsizligiga ta'siri qanday?
10. Hozirgi davrda Myanmadagi kofesssiyalararo ziddiyatlar haqidama'lumot bering.

**Mustaqil ish savollari:**

1. Janubiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
2. Afg'onistonning xalqaro munosabatlardagi o'mini yoritib bering.
3. Pokiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat?
4. Zamonaviy bosqichda Janubiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
5. "Janubiy Osiyo davlatlari - Xitoy munosabatlari" mavzusida ma'ruba tayyorlash.
6. Rossiya tashqi siyosatida Janubiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
7. Pokiston tashqi siyosatida Afg'oniston muammosini yoritib bering.
8. AQSh tashqi siyosatida Janubiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Janubiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
10. "Hindiston va Pokiston yadro qurollari muammosi" mavzusida nutq tayyorlash.
11. Jammu va Kashmir muammosi to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
12. Hindiston va Pokiston tashqi siyosatida Afg'on muamosini yoritib bering.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Муҳаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Farb мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.

3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянкова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

## **2-BOB. SHARQIY OSIYO DAVLATLARI XALQARO MUNOSABATLARI**

### **2.1. Hozirgi davrda Yaponiya tashqi siyosati**

#### **Darsning o'quv maqsadi:**

- talabalarni Sharqiy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Sharqiy Osiyo davlatlaridagi siyosiy jarayonlar borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch iboralar va tushunchalar:** *Sharqiy Osiyo mintaqasi, Koreys urushi, Kim Ir Sen, Kim Chen Ir, Koreya yarimoroli, KXDR, Koreya Respublikasi, Janubiy Koreya.*

#### **Asosiy savollar:**

1. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.
2. Yaponianing Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari.
3. Yaponiya - O'zbekiston munosabatlari.

**Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.** Hozirgi kunda Yaponiya tarixida chuqur iz qoldiradigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar davom etmoqda. Bugungi kunda Yaponiya jahon hamjamiyati oldida o'zining taraqqiyot modeli afzalliklarini namoyon qilmoqda. Yaponianing jahon xo'jaligidagi ulushi 10 % ni tashkil etadi. OTMdagi post-industrial mamlakatlar qatorida birinchi o'rinda turuvchi yuqori texnologiyalar ishlab chiqaruvchi mamlakat hisoblanadi. Yaponiya XX asning ikkinchi yarmida xalqining mehnatsevarligi va iqtisodiy o'sish sur'atining yuqoriligi bilan butun dunyoga namoyon bo'ldi. Yaponianing sobiq Bosh vaziri Y.Nakosone 1986-yil yanvarda shunday degan: "Yaponiya xalqaro hamjamiyatida faxrliroq o'rin egallashga da'vogarlik qiladi". Bosh vazir o'z davlatining qudratiga shubha qilmagan. Binobarin, Yaponiya hozirgi kunda nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda avtomobilsozlik, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, elektron-hisoblash mashinalari, kompyuterlar, elektr jihozlari ishlab

chiqarish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda Yaponiya rahbariyati oldida mustaqil tashqi siyosat olib borish, tashqi siyosatda ustuvor yo'nalishni belgilash imkoniyati tug'ildi. Buning uchun quyidagi omillar mavjud:

1) Dunyo miqyosidagi sabablar: Sovet ittifoqining tarqalib ketishi va shu bilan bog'liq qarama-qarshiliklar, "sovq urush" mafkurasining tugashi.

2) Mintaqqa miqyosidagi sabablar: Shimoliy Atlantika bloki (NATO)ning Sharqqa qarab kengayishi va mintaqaning Sovet ittifoqidan keying yirik davlati XXR harbiy-siyosiy mavqeining oshishi hamda Yaponianing ittifoqdoshi bo'lgan AQShni jilovlashga qaratilgan Rossiya-XXR hamkorligining mavjudligi.

Bu omillar Yaponiya hukumati oldida bir-biriga zid bo'lgan ikkita imkoniyatlarni tug'diradi.

Birinchidan, Yaponiya shu paytgacha Sovet ittifoqini to'xtatib turish maqsadida AQSh bilan hamkorlik qilgan. Binobarin, AQSh Yaponiya tashqi siyosatida ustuvorlik qilgan bo'lsa, endi Yaponiya nisbatan erkin siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ikkinchidan, Yaponiya o'z mavqeiga loyiq tashqi siyosat yuritishga intilsa-da, ayni vaqtning o'zida yapon-amerika harbiy hamkorligida ikkinchi darajali mavqeega ega.

Yaponiya tashqi siyosatini doira deb olinsa, yapon davlati nuqtayi nazaricha, ichki doira bu – turli sohalar doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyot, xavfsizlik va boshqalardagi vazifalarning bajarilishini ta'minlovchi mintaqaviy siyosat, tashqi siyosat esa, mazkur mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda yetarli shart-sharoitlar yaratuvchi dunyo miqyosidagi siyosatdir.

Albatta, har ikkisi o'rtasida o'zarbo'liqlik mavjud bo'lib, hozirgi kunda Yaponiya tashqi siyosatida mintaqaviy tendensiya ustuvorlik qilmoqda. Mazkur tendensiya mavjudligini sobiq Bosh vazir R.Hasimoto so'zlarida ham ko'rish mumkin: "soviet-amerika qarama-qarshiliklari tugagandan so'ng, dunyo iqtisod, siyosat sohasida ham yagona bo'lib qoldi. Ammo mintaqaviy nizolar xavfi mavjud. F.Fukuyama fikricha, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy o'rtasidagi nizolar, tushummovchiliklar yaqin -yillarda ham saqlanib qolgan. Bu xavfning keskinligini pasaytirishda xalqaro muloqotning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

Bunday sharoitda Yaponiya tashqi siyosatining asosiy vazifasi mamlakat xavfsizligini, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'ladi.

Yaponiya tashqi siyosatining "uch ustuni" quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Butun dunyoda barqarorlik va tinchlikni ta'minlash;
2. Rivojlanayotgan davlatlarni rivojlantirish;
3. Global jamiyatning har bir fuqarosi farovonligiga yordam berish.

Ikki tomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlari quyidagi mamlakat va mintaqalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- AQSh Yaponiya tashqi siyosatida ustuyorlik kasb etadi;
- Janubi-sharqiy Osiyo iqtisodiy jihatdan tez o'sayotgan va istiqbolli mintaq;
- Koreya Respublikasi Shimoli-sharqiy Osiyoda xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega;
- Xitoy Osiyo-Tinch okeani mintaqasida sezilarli o'ringa ega bo'lgan, mintaq kelajagiga ta'sir ko'rsatuvchi davlat;
- Rossiya yapon-rus munosabatlaridagi "shimoliy hududlar" masalasini yechish nuqtayi nazaridan muhim;
- Yevropa global dunyo markazlaridan biri sifatida ko'riladi.

1997-yil iyulida Yaponiya Bosh vaziri R. Hasimoto "Yevroosyo diplomatiyasi" ning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

"Yevroosyo diplomatiyasi"ning asosiy obyektlari sifatida Rossiya, XXR hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari nazarda tutiladi. Mazkur dastur ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1) Rossiya, XXR va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlarni mustahkamlash orqali Yaponiyaning yangi shakllanayotgan dunyo tartibotida faol ishtirok etishini ta'minlash;

2) Osiyo-Tinch okeani mintaqasida barqarorlik va xavfsizlik asosini yapon-amerika hamkorligi orqali ta'minlab, mintaq davlatlari bilan munosabatlarni kengaytirish hamda ASEAN va ATES singari mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

"Yevroosyo diplomatiyasi"ning yana bir jihat - Markaziy Osiyo hamda Rossiyadagi mavjud energiya zaxiralariiga yo'l ochilishini ta'minlash. "Yevroosyo diplomatiyasi"ning davomi sifatida Yaponiya tashqi ishlari vaziri Y.Kavaguchi tomonidan 2004-

yilda ilgari surilgan «Markaziy Osiyo Q Yaponiya» munosabatlari shaklini aytish mumkin.

2001-yil 11-sentabrda AQShda yuz bergan terroristik aktlar, Afg'oniston, Iroqda bo'lib o'tgan urushlar Markaziy Osiyoga e'tiborni yanada kuchaytirgan. Jumladan, Yaponiya hukumati ham tinchlik va barqarorlikni saqlashda Markaziy Osiyo mintaqasining muhim o'rinda turishini ta'kidlaydi.

Yaponiyaning terrorizmga qarshi kurashida asosiy omil bu - 2001-yil 29-oktabrda terrorizm bilan kurashish to'g'risida Qonun qabul qilinishidir. Ushbu qonun Yaponiyaning o'z-o'zini mudofaa kuchlarini davlat hududidan tashqaridagi aksilterror harakatlarda foydalanishiga huquqiy asos bo'lib xizmat qilib, ulardan front orti va gumanitar sohalarda foydalanish qayd etilgan. Qonun ushu kuchlarning barcha ko'rinishlardagi jangovar harakatlarga ishtirokini taqiqladi. Mazkur qonun Yaponiyaning aksilterror koalitsiyadagi pozitsiyasini mustahkamlaydi. Tabiiyki, bu mintaqada turliqa qarashlarni yuzaga keltirdi, ya'ni bu qonun o'z-o'zini mudofaa kuchlarini BMT manfaatisiz, yolg'iz Washingtonning qarori asosida aksilterror guruh tarkibida keng ko'lamli harbiy operatsiyalarda ishtirok etishi bilan ham asos yaratdi.

Sammit ishtirokchilari mintaqaviy xavfsizlik muammolarini, integratsion jarayonlarni kuchaytirish orqali Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sishini ta'minlash muammolarini qamrovli muhokama qildilar.

2002-yil oktabrda Afg'oniston tashqi ishlari vaziri A.Abdulla kun chiqar yurtga tashrif buyurganida Yaponiya tashqi ishlari vazirligida Afg'onistonga 136 mln. AQSh dollari miqdorida yordam berish to'g'risidagi shartnomani imzolashda ishtirok etdi. Yaponiya grantining katta qismi maktab, kasalxona infratuzilmalarini tiklashga sarflanishi belgilandi. Shuningdek, 48.8 mln. AQSh dollari Afg'oniston hukumatining o'z ixtiyoriga berilgan.

Yaponiya dunyodagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo hisoblanadi. Yaponiyaning xalqaro tashkilotlarda tutgan o'mi muhim hisoblanib, barcha iqtisodiy tashkilotlarda asosiy o'rin egallagan davlatlardan biri sanaladi. Urivojlangan iqtisodga egaligi tufayli ulkan xalqaro investor, katta iqtisodiy o'yinlar qatnashchisi sifatida jahon iqtisodiy darajasiga ta'sir yetkazishga qodirdir.

Bugungi kunda Yaponiya tashqi siyosatida ikkita masala yechimini topmasdan qolib ketmoqda. Birinchidan, Yaponiya hali ham BMTning Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zosi sifatida qabul qilingani yo'q. Ikkinchidan, "shimoliy hududlar" to'g'risida aniq kelishuvga kelgingani yo'q.

BMTda o'z o'mini mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlar Murayama hukumati boshqaruvi davrida faollashgan. 1994-yil 27-fevralda BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida so'zga chiqqan Y.Kono Yaponiya "Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zosi bo'lish uchun mas'uliyatni olishga tayyor" ekanligini bildirdi. 1996-yil 24-sentabrdagi sessiyada esa Hasimoto BMTning jahon siyosatidagi roli haqida gapirib, Yaponiya BMT doirasidagi dasturlar, harakatlarda ishtirok etib, uning rolini oshirishga o'z hissasini qo'shishga tayyor ekanligini bildirdi. Hasimotoning aniq ohangda gapirgan nutqi Kononing nutqidan ko'ra ta'sirli va samarali bo'lidi. Hasimoto doimiy a'zolik emas, muvaqqat a'zolikni taklif qildi. Bu esa Bosh Assambleyada ko'proq ovoz olishga olib keldi. 1997-1998-yillarda Yaponiya BMT Xavfsizlik Kengashiga sakkizinch marotaba muvaqqat a'zolikka saylandi.

Qolaversa, BMT Bosh kotibi Kofi Annan Yaponyaning BMTning Isroi tomonidan bosib olingen Golan tepaliklari va Kombodja, Mozambikda tinchlikni ta'minlashga qaratilgan operatsiyalarida faol ishtirok etganligini ta'kidlab, kun chiqar yurtning Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lishiga imkonи borligini ayтиб o'tdi.

Yaponyaning BMT Xavfsizlik Kengashiga a'zo bo'lishga intilishining yana bir sababi, shu imkoniyat orqali o'zining militaristik tarixiga aloqador masalani ijobiyl hal qilishdir. Shuning uchun Yaponiya vakili BMT Nizomidan "dushman davlatlar"ga taalluqli joyni olib tashlash harakatini qilmoqda.

BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy vakili bo'lishga intilishiда Yaponiyani AQSh ham qo'llab-quvvatlagan. Chunonchi, bu to'g'risida Bosh vazir T.Fukuda AQSh Prezidenti J.Karter bilan 1977-yili Washingtonda kelishgan edi.

Shuningdek, 1965-yilda BMTning tinchlikni saqlash operatsiyalari bo'yicha qo'mitasinng a'zosi bo'lgan bo'lsa ham, uning faoliyatida ishtirok etishni rad etib kelgan. Bunga Konstitutsiyasidagi 9-moddani asos qilib keltirgan. Bu borada Yaponiya ichida ikki xil qarashdagи guruhlar shakllangan. Bir guruh kishilar Yaponiya

chegarasidan tashqarida bo'lsa-da, harbiy xizmatchilardan foydalishni Konstitutsiyaning 9-moddasi buzilishi sifatida ko'radi. Ikkinchи guruhdagilar esa BMTning harbiy operatsiyalariga yordam berishga qatnashmasdan turib Yaponyaning jahon siyosatidagi o'mini ko'tarib bo'lmaydi deb qarashadi. Fors ko'rfazida sodir bo'lgan nizoli vaziyatlarda Yaponiya yana bir bor shu muammo bilan to'qnash keldi. 1991-yilda Iroq va Quvayt o'rtasidagi ziddiyatda Iroqqa qarshi kuchlarga yordam berishga majbur bo'lidi. Yaponiya Tashqi ishlар vazirligi koalitsion kuchlarga 13 mld. AQSh dollarlik yordam ko'rsatishni hamda qochoqlarni nizoli hududlardan olib chiqib ketish uchun o'z harbiy samolyotlarini taklif qildi. Biroq Yaponiya Parlamenti samolyotlar to'g'risidagi tadbirlarni ma'qullamadi. 1991-yilda Parlament Yaponiyani tinchlikni saqlash operatsiyalarida qatnashish prinsiplarini ifodalab berdi. 1992-yil iyunida Yaponiya parlamenti "Tinchlikni ta'minlash va boshqa operatsiyalarni o'tkazishda BMT bilan hamkorlik to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonun o'z-o'zini mudofaa qiluvchi kuchlarining BMT operatsiyalaridagi ishtirokini jiddiy chekladi:

- konfliktda ishtirok etayotgan har ikki tomon ham jangovar harakatlarni to'xtatishga rozi bo'lishlari kerak;
- konfliktda ishtirok etayotgan barcha tomonlar tinchlikni ta'minlash operatsiyasini va unda Yaponiya harbiy qo'shilmalarini qo'llab-quvvatlashi kerak;
- konfliktda BMT va Yaponiya o'zaro muvozanatni saqlashi lozim;
- ko'rsatilgan shartlar bajarilmagan taqdirda Yaponiya o'z qo'shilmalarini olib chiqib ketish huquqini saqlab qoladi;
- shaxsiy quroldan foydalanish zaruriy mudofaa doirasida chegaralanadi.

Ushbu qonunga ko'ra, tinchlikni saqlash operatsiyalarida ishtirok etayotgan qo'shilmardagi shaxsiy tarkib soni 2000 nafar kishi miqdorida chegaralangan.

Bugungi kunda bu masala yana qaytadan ko'rib chiqilyapti. Shimoliy Koreya tomonidan yadro sinovlarini o'tkazilishi davom ettirilayotganligi Yaponiya Konstitutsiyasining 9-moddasi o'zgartirilishini taqozo etmoqda. Sindzo Abe mamlakatdagi hukmon partiya

- Liberal-demokratlar partiyasining bu boradagi tashabbusini

ma'qullab, o'zgartirish kiritilgan yangi Konstitutsiyani 2020-yildan kuchga kirishini e'lon qildi.

Xalqaro tashkilotlar doirasida harbiy operatsiyalarda ishtirok etishni internatsionallashuv va konstitutsiya bo'yicha o'zgarishlarga xalq fikrini o'zgartishda muhim qadam bo'ldi. Yaponiya BMT qoshidagi boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyatida ham faol ishtirok etmoqda.

Yuqoridagi tahlillarda Yaponiya tashqi siyosatining vositalari nihoyatda xilma-xilligi hamda ko'pqirraliligi namoyon bo'ldi. Maqsad esa, o'sha-o'sha – Yaponiya dunyoning yetakchi mamlakati bo'lishiga erishish.

Hozirgi kunda bu maqsadga yetishning yana bir vositasi bu – Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturidir. Yaponiya taraqqiyotga rasmiy yordam berish hajmi bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi. Dunyoning qator davlatlari Yaponiyadan yordam oladi.

Yaponiya bu yordamni iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan davlatlarga beradi. Iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turgan Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi rivojlanmagan va rivojlanayotgan davlatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish uchun zarur mablag'ga ega.

Yaponiya tashqi siyosatida boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda ma'lum me'yoriy talablar shakllangan. Qaysi mamlakat bilan munosabat dolzarbligiga an'anaviy omillarning ikki guruhi ta'sir qiladi:

a) bo'lajak sherik davlatning "kuchlar majmui", uning jahon siyosatiga ta'siri baholanadi;

b) Yaponiya bilan bo'lgan ikki tomonlama munosabatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorlik rivoji e'tiborga olinadi (Yaponianing asosiy import qilish bo'yicha hamkorlari XXR, AQSh, EI, Saudiya Arabiston va Birlashgan Arab Amirligi hisoblansa, eksport qilish bo'yicha asosiy hamkorlari XXR, AQSh, Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong, Singapur, Tailand va Germaniya). Munosabatlarning Yaponiya xavfsizligini ta'minlashi hisobga olinib, harbiy jihatlari ajralib turadi.

Yuqoridagi omillarning har ikki guruhi Yaponianing umumiyligi tashqi siyosiyo yo'nalishi bilan taqoslanib, qaysi mamlakatda yapon elchixonasini ochish mumkinligi aniqlanadi va xodimlar soni belgilanadi.

Bu an'ana hozirgacha o'z kuchini yo'qtogani yo'q. Shu tartib asosida Yaponiya tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab kelinmoqda.

Yaponianing Rossiya bilan munosabatlari haqidagi Panovning fikriga ko'ra, so'nggi paytlardagi Ukrainadagi voqealar ikkala davlatning savdo va investitsiya aloqalariga sezilarli darajada ta'sir qilmadi. Biroq AQSh boshchiligidagi Rossiya qarshi qo'yilgan sanksiyalar Rossiyaning Yaponiya bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yaponiya yaqingacha OTMdA yetakchi davlat hisoblanar edi. Agar AQShni hisobga olmaganda, savdo-sotiq, investitsiya kapitali bo'yicha Yaponiya Osiyodagi yetakchi davlat hisoblanadi. Biroq so'nggi vaqtarda kuchlar balansi o'zgardi, ya'ni Yaponiya o'mini Xitoy egallay boshladи.

Hozirgi davrda Yaponiya Shimoliy Koreya muammosidan xavotirga tushmoqda. Shimoliy Koreyadagi yadro qurollari sinovlariga qarshi AQSh harakatlarini qo'llab-quvvatlamoqda. Bu 2017-yil fevral oyida Sindzo Abening AQShga qilgan rasmiy tashrifida ham alohida ta'kidlangan.

Yaponiya tashqi siyosati yumshoq kuch siyosatiga asoslanadi. Muammoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish, dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga ko'maklashish, hamkorlari bilan o'zaro ishonch va birdamlik g'oyalalarini olg'a suradi. Yaponiya mavjud iqtisodiy salohiyatidan o'zining siyosiy obro'sini BMT faoliyatida hamda xalqaro munosabatlarda nizolarni hal qilishda qatnashish orqali foydalanmoqda. BMT Xavfsizlik Kengashida doimiy a'zo maqomini olish yo'lida bir qator tinchlik operatsiyalarini o'tkazishda BMT bilan hamkorlikni oshirib kelmoqda. Tinchlik va barqarorlikni saqlash maqsadida 70 yil oldin qabul qilingan mamlakat Konstitutsiyasining 9-moddasiga o'zgartirishlar kiritish borasidagi amaliy ishlar boshlab yuborildi. Buni hozirgi kunda dunyoda sodir bo'layotgan tartibsizliklar bilan bog'lash mumkin. Jumladan, Shimoliy Koreya muammosi nafaqat Koreya yarim oroliga, balki butun dunyodagi barqarorlikka tahdid solayotganligining guvohi bo'lyapmiz. Ana shunday vaziyatda Yaponianing Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritilishini tabiiy hol deb hisoblash mumkin.

**Yaponianing Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari.** Oxirgi yillarda Yaponianing Markaziy Osiyoga kirib kelishi sezilarli darajada o'sib borayotgani namoyon bo'lmoqda. Yaponiya iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, energetik resurslarga ehtiyojlarning oshishida tabiiy resurlarga boy davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlanirish muhim omil bo'ldi. Mazkur jahbada Markaziy Osiyo

mintaqasi energiya resurslari bilan, xususan, tabiiy gaz, nodir metallar va boshqa strategik resurslar bilan ta'minlashda ulkan imkoniyatlarga ega.

Yangi siyosiy talablardan kelib chiqib Yaqin Sharqqa muqobil tarzda, Yaponiya iqtisodiyotining to'laqonli faoliyat yuritishida muhim bo'lgan uglevodorod xomashyosi va resurlarga boy mintaqani topish zarurati yuzaga keldi. Yaponianing yillik neft iste'moli 200 million tonnani tashkil etadi. 2011-yildagi ko'rsatkichlarga ko'ra yiliga 55 mldr. kub metr gaz iste'mol qilingan. 2020-yilgacha bu ko'rsatkich 100 mldr. kub metrga yetishi taxmin qilinmoqda. Neftning 80%dan ko'p qismi Yaqin Sharq mintaqasidan olib kelinadi. Bundan tashqari, Indoneziya, Bruney va Meksika ham neft import qiluvchi asosiy davlatlar hisoblanadi. Tabiiy gaz, asosan, Avstraliya, Malayziya va Indoneziyadan olib kelinadi.

Bundan tashqari, neft konlarini qazib chiqarish sharoitlari va muddatlar bo'yicha Yaqin Sharq mintaqasidagi ayrim davlatlar hukumatlari va Yaponiya o'tasida yuz bergan kelishmovchilik import qilinuvchi energiya manbalarini maksimal darajada xilma-xilligi siyosatini amalga oshirishga undamoqda. Bu ma'noda Yaponiya diplomatiyasi uchun boy tabiiy resurslar va geoiqitsodiy salohiyatga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasi anchayin maqsadga muvofiqroqdir. Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistondagi zaxiralarni qo'shib hisoblaganda, 5.6 mldr. tonna neft zaxiralari mayjud bo'lib, bu MDH mamlakatlarida aniqlangan zaxiralarning 34 %i va dunyo zaxiralarinining 3.5 %ini tashkil qiladi. Gaz zaxiralari esa 7.75 trln. kub metr bo'lib, MDHning 3.2 %ini, dunyo bo'yicha esa 4.3 %ni tashkil qiladi.

1991-yil Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin Yaponiya va Markaziy Osiyo respublikalari o'tasida diplomatik aloqalar o'rnatildi va o'rtadagi hamkorlik sezilarli darajada rivojiana boshladi. Yaponiya rahbariyati va hukmon doiralarining mazkur mamlakatlarga nisbatan olib borgan siyosatining aniq belgilangan bosqichlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

**Birinchi bosqich** 1992-yildan 1997-yil iyul oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr Markaziy Osiyodagi yangi davlatlarning mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan bog'liq bo'lsa, Yaponiya uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasida yetakchi davlat maqomiga ega bo'lish eng muhim masalalardan biri edi. Yaponiya birinchilardan bo'lib ularning maqomini tan oldi, diplomatik aloqalar o'rnatdi, tashqi siyosatda Yaponiya diplomatiyasi uchun yangi bo'lgan "Markaziy

Osiyo yo'nalishi"ni ishlab chiqsa boshladi. Yaponiya milliy manfaatlari uchun mintaqaning jozibador bo'lishi shundan iborat ediki, bu yerda yetarli darajada tabiiy boyliklar, jumladan uglevodorod va mineral xomashyolar, qimmatbaho metallarning ko'pligidir. Shuningdek, Osiyodagi xomashyoni qazib olish va qayta ishslashni sezilarli darajada osonlashtiradigan eng malakali va nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi yaponiyalik ishbilarmonlarni befarq qoldirmasdi.

Yaponiya hukumati tashqi siyosatida dastlabki Markaziy Osiyoga yo'naltirilgan missiya 1997-yilda 28-iyun – 9-iyul kunlari Keizo Obuchi boshchiligidagi tashkil qilingan. Mazkur 61 kishilik delegatsiya Markaziy Osiyo respublikalari va Rossiyada bo'lib qaytgan. Tashqi siyosiy faoliyatda Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan ijobjiy o'rinnarini baholagan holda, Yaponiya aloqalarni chuqurlashtirish va kengaytirishga qaror qilindi. Bunday tashabbuslarning natijasi, 1997-yil iyulida sobiq Bosh vazir Ryutaro Hasimoto tomonidan Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan tashqi siyosat yo'nalishida o'z aksini topgan. Mazkur siyosatga mintaqaga mam-lakatlari bilan aloqalarni sezilarli darajada mustahkamlashga qaratilgan "Yevroosiyo diplomatiyasi" ("Ipak yo'li diplomatiyasi") nomini olgan tashqi siyosat doktrinasini qabul qilinishi asos bo'ldi. Shu bilan o'zaro aloqalarning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu bosqich 2004-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. "Ipak yo'li diplomatiyasi" Yaponiya tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yo'nalishini amalga tadbiq etishni nazarda tutgan uchta muhim tarkibiy qismdan tashkil topadi.

– o'zaro ishonchni oshirish va hamkorlik bo'yicha siyosiy muzokaralar o'tkazish;

– imkon qadar iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida iqtisodiy va tabiiy resurslarni o'zlashtirish sohasida hamkorlikni jadallashtirish;

– yadro qurolini tarqatmaslik orqali tinchlikka, demokratiya va xavfsizlikka erishib, mintaqada barqarorlikni ta'minlash.

Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan yangi siyosatni amalga oshirish maqsadida, Yaponiya hukumati keng siyosiy aloqalarni rivojlantirishni, ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik, bozor iqtisodiga o'tishga ko'maklashishni nazarda tutadigan "Ipak Yo'li" harakat dasturini qabul qildi. U o'z ichiga keng siyosiy aloqalar, yaqin iqtisodiy hamkorlikni yaratish va bozor iqtisodiyotiga o'tishga yordamlashishni qamrab oladi. Boshqa tomonidan, Ipak yo'li siyosati

Markaziy Osiyonи geografik jihatdan yakkalanib qolishini bartaraf qilishga va uni butunjahon tizimi doirasidagi aloqalarga iqtisodiy integrasiyalashuviga ko'maklashishga qaratilgandir. Bundan tashqari, Ipak Yo'li konsepsiyasini qayta tiklanishdan manfaatdor mamlakatlarning XXI asrda iqtisodiyot, siyosat, davlatlar madaniyatni sohasida mustahkam va yaqin hamkorlikni ta'minlashdan kelib chiqqan yangi loyiha sifatida qaraladi.

Ushbu harakatlarning so'nggi tasdig'i 2002-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va Ozarbayjonga yuborilgan "energetik missiya" bo'lib, energoresurslarni ishlab chiqish va o'zlashtirish sohasida hamkorlik istiqbollarini aniqlab olishdir. Bu energetik missiyaga S.Sugiura boshchilik qilgan. Shuningdek, "Ipak yo'li diplomatiyasi" doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Qozog'istoning Xitoy bilan chegarasidan o'tgan temir yo'l bekti, "Do'stlik" bekatida tovarlarni tashish bo'yicha sharoitlar qayta tiklandi;
- Toshkent, Olmaota va Ashxobodda yo'lovchi tashuvchi poyezdlar uchun ta'mirlash zavodlari qurildi;
- Turkmanistonda temir yo'l tizimi yaratildi;
- Qozog'istondagi Semipalatinsk shahri yaqinidagi Irtish daryosi ustida katta hajmli ko'priq bunyod etildi.

Bundan tashqari, Bishkek va O'sh o'rtaida avtomobil yo'li qurilishi Yaponiyadagi sindikat va Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan moliyalashtirilgan. Qozog'iston va O'zbekistondagi aeroportlar va mintaqadagi tovarlarni tashish bo'yicha temir yo'l tarmog'i qurilishi, Kaspiy dengizi qirg'og'i va Moskvaga olib boradigan asosiy avtomobil yo'nalishini ta'mirlashda Yaponiya sezilarli hissa qo'shgan.

Iqtisodiy muammolarni hal etishda birinchi galdagi vazifalar mazkur konsepsiyanı amalga oshirishdagi bosh tamoyil hisoblanadi. Ushbu tamo-yilga muvofiq, energetika, transmintaqaviy transport tizimi va telekommunikatsiya "Buyuk Ipak yo'li" dasturining uchta tayanchi hisoblanadi. Bu mintaqani global transport tizimi va axborot kommunikatsiya tarmog'iga integratsiyalashuvini rag'batlantiradi.

Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtaida munosabatlarning uchinchi davri 2004-yil avgust oyida "Markaziy Osiyo +Yaponiya" Muloqot dasturi doirasida ko'ptomonlama hamkorlikning amalga oshirilishi bilan boshlandi.

2004-yil 28 avgust kuni Ostonada Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Kavaguchi bilan Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari

uchrashib, "Markaziy Osiyo QYaponiya" Muloqot dasturini tuzishga kelishib oldilar. Bunda Turkmaniston vakili ishtirot etmagandi. 2012-yil Yaponiya va Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtaida diplomatik munosabatlar o'matilganligiga 20 yil to'lganligi munosabati bilan Tokioda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlarini o'rtaida yig'ilishga birinchi marta Turkmaniston Tashqi ishlar vaziri va Bosh vazir o'rinosari ishtirot etgan. "Markaziy OsiyoQYaponiya" Muloqot dasturi doirasida bugungi kungacha 6 marta Tashqi ishlar vazirlari o'rtaida yig'ilish o'tkazildi. Oxirgisi 2017-yil 1 may kuni Turkmanistonning Ashxobot shahrida bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvning muhim jihatlaridan biri unda Transport va logistika sohasida o'zaro hamkorlik haqidagi "Yo'l xaritasi" bo'yicha Qo'shma bayonet imzolandi.

O'z navbatida, mintaqqa tabiyi resurslarini, birinchi navbatda, yirik neft va gaz konlarini o'zlashtirish o'zida "global, mintaqaviy va mahalliy manfaatlarni jamlovchi" loyihani ifodalaydi. Markaziy Osiyo xomashyo salohiyatidan foydalanish orqali mahalliy iqtisodning yuksalishiga turki berish bilan, yirik energiya import qiluvchi davlatlar, shu jumladan Yaponiyani barqaror xomashyo bilan ta'minlanishiga olib keladi. Yaponianing yetakchi firmalari O'zbekistonning Buxoro va Farg'ona, Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida va Qozog'istoning qator shaharlarda neftni qayta ishslash korxonalarini ta'mirlash va qurilishida ishtirot etdi.

Markaziy Osiyodagi ko'plab muammolar yolg'iz bitta davlatning o'zi tomonidan hal qilina olmaydi. Shuning uchun Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlikda ish olib borishlari kerak. Bu masalada Yaponiya mintaqadagi hamkorlini ro'yobga chiqarishda faol ishtirot etuvchi sifatida qatnashishni maqsad qilgan.

2006-yil avgust oyida Yaponiya Bosh vaziri Koidzumi ilk marta Markaziy Osiyo respublikalari – Qozog'iston va O'zbekistonga tashrif buyurgan.

Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Taro Aso 2006-yil 1-iyunda so'zlagan "Markaziy Osiyo tinchlik va barqarorlik koridori sifatida" nomli nutqida Yaponianing Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik munosabatlarining uch yo'nalishini belgilab berdi:

- 1) Mintaqqa davlatlari bilan istiqbolli hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- 2) Mintaqaviy hamkorlikni ta'minlash;

3) Umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda doimiy hamkorlikka intilish.

Yuqorida birinchi va ikkinchi yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda Afg'onistondagi vaziyatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Markaziy Osiyo barqarorligi Afg'onistonda turg'unlik holati bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Pokistonlik tadqiqotchi Lutfullah Mangi 2011-yildagi nutqida bayon etganidek, Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlariga iqtisodiy ko'mak berayotgan bo'lsa ham, lekin haligacha mintaqaga davlatlari Yaponiyaning asosiy savdo hamkoriga aylangani yo'q. Bugungi kunga kelib bu tendensiya o'zgarib bormoqda. 2016-yil Qozog'iston Prezidentining Yaponiyaga tashrifi davomida imzolangan turli sohalar doirasidagi kelishuvlardan kelib chiqib, Yaponiya savdo hamkoraga aylanib boryapti, deya fikr bildirish mumkin.

Yaponiya-Markaziy Osiyo munosabatlari haqida mutaxassislar Yaponiya Markaziy Osyoning tabiiy resurslari, shuningdek, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistondagi uglevodorod zaxiralari va ayniqsa, kompyuter ekranlari, gibriddi mashinalar va super qurilmalarda ishlatalidigan nodir metallariga qiziqish bildirishini ko'rsatib o'tadilar.

Xitoy nodir metallarga egalik qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Dunyo bo'yicha 93% kamyob metallar uning hududida joylashgan. Yaponiya esa nodir metallar iste'moli bo'yicha dunyoda eng yuqori o'rinda turadi. 2010-yilda qirg'oq bo'yini qo'riqlovchi yaponlar va Xitoy kemachilari o'tasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar tufayli Xitoy Yaponiyaga nodir metallarni eksport qilishga embargo qo'ydi. Natijada Yaponiya Xitoya muqobil variant izlashiga to'g'ri keldi. 2012-yilda Qozog'istonning Summit Atom nodir metallar ishlab chiqaruvchi kompaniyasi bilan Yaponiyaning Sumitomo korporatsiyasi o'tasida kelishuvga erishildi. Unga ko'ra, Xitoy tomonidan cheklab qo'-yilgan dunyo bozorini 1500 tonna nodir metallar bilan ta'minlash belgilab olindi.

Iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida Yaponiya hukumati tarafdan Markaziy Osiyoga navbatdagi rasmiy tashrif amalga oshirildi.

2015-yil oktabr oyida Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe Markaziy Osyoning 5 ta davlatiga tashrif buyurishi Yaponiya tarixida Bosh vazir tomonidan mazkur mintaqaning barcha davlatlariga

qilingan birinchi tashrif bo'ldi. Uchrashuvlar davomida jami 87 ta hujjat imzolanga.

Mazkur yilning 22-28-oktabr kunlari Sundzo Abening har bir Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan uchrashuvi Yaponiya siyosatchilari tomonidan katta natijalar olib kelishi rejalashtirgan edi. Bunda asosiy maqsadlar "Markaziy OsiyoQYaponiya" Muloqot dasturini yanada rivojlantirish, ushu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy aloqalarini yaxshilash ko'zda tutilgan edi. Yapon nashriyotida keltirilgan manbalarga ko'ra, tashriflardan quyidagi xulosaviy natijalar keltirildi:

- Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'tasidagi munosabatlar mustahkamlandi;

- Mintaqaning 5 ta davlatida ham Yaponiya diplomatiyasiga nisbatan yaxshi munosabat bildirilishi aniqlandi;

- Yaponiya Bosh vaziri bilan birgalikda yapon tadbirkorlarining tashrifi tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi hamkorlikni kuchaytirdi;

- Jami 50 ta tashkilot, jumladan xususiy firmalar vakillari tashrif buyurib, ular ishtirokida 3 ta davlat (Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston)da biznes forumlari o'tkazildi;

- Xususiy va ijtimoiy sohalar bo'yicha 87 ta hujjat imzolandi;

- Abening nutqlarida "biznes uchun imkoniyatlar yaratishga 3 trl. iyen ajratilishini ma'lum qilindi.

Tashrifining oxirida S.Abe Qozog'istonda Yaponiyaning Markaziy Osiyoga doir siyosati haqida ma'ruza qildi. Unga ko'ra asosan, 3 jihat ajratib ko'rsatildi:

1) Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni kuchaytirish;

2) Markaziy Osiyodagi umumiylasalarni hal qilishda Yaponiyaning faol jalb qilinishini ta'minlash;

3) Jahon maydonida Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'tasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish.

Mintaqadagi barcha davlatlar Yaponiya Bosh vazirining tashrifini yaxshi kutib oldi. Yaponiya TIV ning 2015-yil hisoboti bo'yicha chiqarilgan kitobida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Yaponiyaning tinchlikka hissa qo'shishda faol harakatini yuqori baholagan.

2015-yilgi tashrif davomida O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istondagi tabiiy gaz konlarini qidirib topishda yaponiyalik

mutaxassislar bilan hamkorlik qilish to‘g‘risida shartnomalar tuzilgan. Bu borada 2016-yilda Qozog‘iston bilan kelishuv imzolangan.

Yaponiyadagi Tsukuba Universiteti professori T.Dadaboyev Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari munosabatlarini tahlil qilib, Tokioning mintaqadagi siyosatining faollashuvida yangi omil sifatida nodir metallar importi haqida gapiradi. Buning isboti sifatida Qozog‘iston Prezidenti N.Nazarboyevning 2016-yil 6-9 noyabr kunlari Yaponiyaga tashrifi davomida ko‘rilgan masalalarga e’tibor qaratish mumkin. Ushbu tashrif davomida davlatlar o‘rtasida strategik hamkorlik to‘g‘risida kelishuvga erishildi. Qozog‘iston Rossiya va Xitoy bilan shu mazmundagi kelishuvlarni imzolagan. Bundan ko‘rinadiki, Yaponiya bugungi kunda yordam beruvchi davlat maqomidan savdo hamkorga aylanmoqda. Imzolangan hujjatlar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: Qozog‘istonda kanat ishlab chiqarish bo‘yicha «Tokio Roup» zavodini ochish, viza rejimini yengillashtirish, havo yo‘llarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlar, Kazatomprom bilan Kansai Elektr quvvati kompaniyasi o‘rtasida, uran ishlab chiqishni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha Kazatomprom va Itochu o‘rtasida shartnomalar imzolanganligi to‘g‘risidagi hujjatlar.

Boshqa tomondan, geografik yakkalanishni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar, xususan mintaqaning elektrlashtirilayotgan energoresurslariga ega bo‘lishni ta‘minlash transkontinental temiryo‘l, avtomobil va quvur yo‘llarining rivojlanishini nazarda tutadi. Yaponianing transkontinental transport tizimini rivojlanishiga yondashuvi “Markaziy Osiyon global tovar ayirboshlashga integratsiyalashuvini tezlashtiradi, shuningdek mintaqaning xomashyo resurslarini o‘zlashtirish imkonini qo‘lga kiritishni ta‘minlaydi”. Shu o‘rinda ta‘kidlash o‘rinlik, uzoq - yillarga mo‘ljallangan reja bo‘yicha Markaziy Osiyo Yevropa va Osiyo, Shimol va Janub o‘rtasida nisbatan markazda joylashgan aynan Toshkent-Yevroosiyo qit‘asida havo yo‘llari tizimida asosiy tranzit halqaga aylanishi mumkin. Hozirgi paytda Yaponiyani Markaziy Osiyo bilan bog‘laydigan 3 ta yo‘nalish mavjud. Ular: Trans-Sibir temir yo‘li, Xitoyni kesib o‘tuvchi quruqlik yo‘li va Turkmaniston-Eronning Chobahor porti yo‘nalishi. Xitoy, Koreya orqali o‘tib Yaponiyagacha boradigan yo‘nalish Markaziy Osiyoda quyidagi hududlarni o‘z ichiga oladi: Buxoro-Toshkent (O‘zbekiston), Chimkent-Jambul-Olmaota (Qozog‘iston).

Olmaotadan Xitoygacha bo‘lgan yo‘l 250 km ni tashkil etib, Markaziy Osiyo davlatlari ichidan o‘tadigan yo‘llarning jami uzunligi 2000 km ni tashkil etadi. Bundan ko‘rinadiki, Markaziy Osiyodan Yaponiyagacha uzoq masofali yo‘l orqali tovarlarni yetkazish judayam qimmatga tushadi. Xitoydan 6200 km. uzunlikdag‘i yo‘l o‘tib, uning sharqiy qир‘ог‘идан Koreyaning Mokpo hududiga, keyin Yaponianing Niigata viloyatiga borib nihoyasiga yetadi. Bu Xitoyning sharqiy qismidan boshlab 2300 km ni tashkil qiladi. Buni qurish katta mablag‘ talab qilishi oydinlashib qolgach, ikkinchi yo‘nalish Sharqiy Sibir yoki Sahalin orqali quvurlarni o‘tkazish ham ko‘p xarajat talab qilishi aniqlangan. Bu yo‘Ining uzunligi 1000-3000 km ni tashkil etgan. Keyin Afg‘oniston-Pokiston yoki Eron-Turkiya yo‘nalishini qurish loyihasi ko‘rib chiqildi. Trans-Sibir va Xitoy yo‘nalishlarida yuk tashish katta mablag‘ talab qilinishini hisobga olgan holda 2000-yildan boshlab Yaponiyaga yuklar Eron orqali tashiladigan bo‘ldi. Bu yo‘nalishda yuk tashish Trans-Sibirdagiga qaraganda 1500 AQSh dollariga arzonga tushadi. Shuningdek, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmanistondagi neft va gaz mahsulotlari quvurlarda tashilishi kerak. Buning uchun esa quvur yo‘llarini rivojlantirish talab etiladi. Bu borada Qир‘изистон Respublikasidagi Yaponiya elchixonasining ikkinchi kotibi Gosuke Horiguchi quvur transportidan foydalanishda Sibir yo‘nalishidan foydalanimish qulay imkoniyatga egaligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Umuman olganda, Yaponiya Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik bo‘lishidan manfaatdor. Chunki mintaqada osoyishtalik bo‘lsagina, o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirib borish imkoniyati kengayib boradi. Markaziy Osiyo davlatlariga ko‘rsatilayotgan iqtisodiy yordam, ya‘ni sarmoyalar kiritish, transport aloqa tizimini rivojlantirish, tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlashga ko‘maklashish orqali Yaponiya bu mintaqaga kirib keldi. Yaponianing iqtisodiy taraqqiyot tajribasini o‘rganish mazkur mintqa davlatlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda transport tarmog‘ini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

**Yaponiya - O‘zbekiston munosabatlari.** Uzoq o‘tmishga borib taqaluvchi yaqin aloqalar O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi samarali hamkorlikning muhim omili sifatida bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Yaponiya O‘zbekistonning muhim strategik

sherigi hisoblanadi. 2002-yil 29-iyul kuni imzolangan “Do’stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot” hamda 2015-yil 25-oktabrda imzolangan “Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot” asosida ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib bormoqda.

Yaponiya O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 28-dekabrdan e’tirof etdi va 1992-yil 26-yanvardan boshlab mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Yaponianing Toshkentdagi elchixonasi 1993-yilning yanvarida, O‘zbekistonning Tokiodagi elchixonasi 1996-yilda ochilgan. 2004-yilning may oyidan Osaka shahrida O‘zbekiston Respublikasining Faxriy konsulligi faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonning Yaponiyadagi Favqulodda va muxtor elchisi bo‘lib Tursunov Farrux Islomjonovich, Faxriy konsul rahbari sifatida esa Toura Toshio faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Yaponianing O‘zbekistondagi birinchi elchisi Magasoki Ukeruning ta‘kidlashicha, SSSR parchalanib, yangi davlatlar tashkil topganidan keyin Yaponianing Markaziy Osiyodagi birinchi tashrifi Yaponianing sobiq Tashqi ishlar va moliya vaziri Chino Tadao tomonidan 1992-yil fevralda O‘zbekistonga tashrif buyurgan. 1994-yil may oyida O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Yaponiyada bo‘lib qaytgan. Bu tashriflardan keyin ikki tomonlama munosabatlar rivojlana boshladi. Xalqaro Valyuta Fondining O‘zbekistonda iqtisodiy siyosatda qiyinchiliklarga duch kelayotganligi haqidagi tahillaridan keyin Yaponiya O‘zbekistonda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun ko‘mak bera boshladi.

1994-yildagi O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Yaponiyaga uyuştirgan dastlabki rasmiy tashrifi o‘zaro ishonch va ikki mamlakat xalqlarining ma’naviy qadriyatlariga nisbatan hurmatga asoslangan do’stona aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. 1997-yilda tashrif buyurgan Obuchi boshchilidagi missiyadan keyin Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni yanada rivojlantirishga qaror qilingan edi. Obuchining bergan ma’lumotlaridan keyin, Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri havo yo’llari bo‘yicha qatnovni amalga oshirish boshlandi.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidentining 2002-yil iyul oyida Yaponiyaga uyuştirgan ikkinchi tashrifi chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasida do’stlik, Strategik sheriklik va

hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma bayonot imzolandi. Hujjatda tomonlarning do’stona munosabatlar va strategik sheriklikni tenglik, o‘zaro hamjihatlik tamo-yillariga muvofiq va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlari asosida rivojlantirishga tayyorligi o‘z ifodasini topgan. Savdo-soti, sarmoyalar, ta’lim va boshqa sohalardagi aloqalarni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

Bir qator voqealardan keyin Yaponiya xalqaro xavfsizlik uchun ustuvor yo‘nalish sifatida Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurashishning muhimligini anglatdi. Jumladan, 1999-yilda bir guruhi yaponiyalik geologlarning O‘zbekiston Islom harakati guruhi tomonidan garovga olinishi va 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin AQShning Afg'onistonda boshlagan operatsiyalari Yaponiyani ham xalqaro terrorizmga qarshi kurashishga e’tiborini qaratdi. Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Kavaguchi Yoriko 2003-yilda qilgan nutqida xalqaro munosabatlar va xavfsizlik haqidagi qarashlar o‘zgarganligi, hatto, terroristlar kabi nodavlat aktorlar ham davlat xavfsizligiga tahdid solishi mumkinligiga urg‘u bergen. Yaponiya hukumati va O‘zbekiston hukumati o‘rtasidagi munosabatlarda ham Afg'oniston muammosi, terrorizmga qarshi kurashish chora-tadbirlari to‘g‘risida muhokamalar haligacha asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yaponiya bosh vaziri Dzyunichiro Koidzumining 2006-yil avgust oyida O‘zbekistonga uyuştirgan rasmiy tashrifi O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mamlakatlarimizning siyosiy sohadagi aloqalari haqida gap ketganda Yaponianing mintaqasi mamlakatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga doir tashabbuslarini aytilib o‘tish mumkin. O‘zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy ahamiyatini e’tirof etgan holda hamda mamlakatimiz bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida Yaponiya 2004-yilda “Markaziy Osiyo-Yaponiya” muloqot shaklidagi hamkorlikning yangi ko‘rinishini ilgari surdi. U quyidagi beshta yo‘nalishni: siyosiy muloqot, mintaqasi ichidagi hamkorlik, savdo va sarmoyaviy hamkorlikni rag‘batlantirish, intellektual muloqot, madaniy aloqalar va inson resurslari almashuvi kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

Terrorizm va giyohvand moddalarning tarqalishiga qarshi kurash, atrof-muhit muhofazasi, mintaqada savdo va sarmoyalar

hajmini kengaytirish bilan bog'liq masalalar qisqa va o'rta muddatli vazifalar etib belgilandi.

2010-yil 7-avgustda Toshkentda mazkur Muloqotning Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Katsuya Okada ishtirokidagi tashqi ishlar vazirlarining uchinchi yig'ilishi muvaffaqiyatlari o'tdi.

Yaponiya va O'zbekiston qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida hamkorlik ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, u jadal rivojlanmoqda. Yaponiya parlamentida "Yaponiya demokratik partiyasi - O'zbekiston" hamda "Yaponiya Liberal-demokratik partiyasi - O'zbekiston" do'stlik ligalari tashkil etilgan. O'zbekiston parlamentining Qonunchilik palatasida esa "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi - Yaponiya Parlamenti" parlamentlararo guruhi faoliyat yuritib kelmoqda.

2010-yilning dekabrida Tokioda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatinining raisi E.Sobirov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining delegatsiyasi ishtirokida birinchi parlamentlararo forum o'tkazilgan.

Ishonch, ochiqlik va o'zaro hurmatga asoslangan oliy darajadagi faol siyosiy muloqotlar ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda. Jumladan, O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yil fevral oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi hamda Yaponiya Bosh vaziri Shindzo Abening 2015-yil oktabrida mamlakatimizga qilgan rasmiy tashrifi davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada yuqori darajaga olib chiqqani barobarida ularni yangicha mazmun bilan boyitdi.

Shu bilan birga, ikki mamlakat tashqi siyosat mahkamalari o'rtasidagi maslahatlashuvlar doimiy ravishda o'tkazilib kelinadi. Mazkur maslahatlashuvlarning so'nggi 16-uchrashuvi 2016-yil 24-mart kuni Tokioda bo'lib o'tgan.

1999-2001-yillar davomida Toshkentda Yaponiyaning xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkilotining (JETRO) mintaqalararo vakolatxonalarini hamda beg'araz texnik yordam ko'rsatish, ikkala tomon ishbilarmon va ijtimoiy doiralar vakillari o'rtasida aloqalar o'rnatishtirish va gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantirish borasidagi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi O'zbekiston-Yaponiya markazi ochildi.

O'zbekistonda Yaponiya sarmoyasi ishtirokida ko'plab yirik loyihalar hayotga tadbiq qilinmoqda. "Mitsui", "Mitsubishi",

"Itochu", "Marubeni" va boshqa shu kabi yirik yapon korporatsiyalarining vakolatxonalarini ochildi. Iqtisodiyot yo'nalishidagi so'nggi muvafaqqiyatlari hamkorlikning yorqin misollaridan biri sifatida Samarqand avtomobil zavodida "Isuzu" rusumli avtobus va yuk mashinalarining ishlab chiqarilayotganligini ko'rish mumkin.

Yaponiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda bir qator infrazilmaviy loyihalar amalga oshirilib foydalanishga topshirilgan. Bu boradagi ishlar qatorida 2007-yilda qurib bitkazilgan "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" yangi temir yo'l yo'nalishini sanab o'tish mumkin.

Ikki davlat o'rtasida sarmoyalalar kiritish bo'yicha shartnomaviy-huquqiy asosni mustahkamlash ishlari davom ettirib kelinmoqda. 2009-yil sentabr oyida "Sarmoyalarni liberallashtirish va o'zaro himoya qilish hamda rag'batlantirish to'g'risidagi" hukumatlararo kelishuv kuchga kirdi.

2010-yil aprelda Tokio shahrida "Yaponiyalik hamkorlar uchun O'zbekistondagi yangi sarmoyaviy imkoniyatlar" mavzusidagi taqdimot marosimi bo'lib o'tdi va unda Yaponiya korporatsiyalari, vazirliklari, muassasalari va siyosiy doiralarining 400 nafardan ortiq vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida 2010-yil may oyida Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilishni moliyalashtirishga mo'ljallangan 300 million AQSh dollari miqdoridagi mablag' ajratish borasidagi bitimning imzolanishi issiqlik ajratish samaradorligini 30 foizdan 50 foizgacha oshirish hamda uglerodlar emissiyasini qisqartirish imkonini yaratdi.

2001-yil aprel oyidan boshlab O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aviaqatnolarning yo'lga qo'yilishi xalqlarimizning yaqinlashuvi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi sayyoohlarni almashinuvining o'sishiga xizmat qiluvchi omillardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning 8-10 fevral kunlari Yaponiyaga amalga oshiriladigan rasmiy tashrifi davomida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish va kengaytirish masalalari, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar muhokama qilingan.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Yaponiyaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli va muvaffaqiyatlari hamkorlikning yangi ufqlari ochilishiga xizmat qildi.

O'zbekiston va Yaponiya turli xalqaro ahamiyatga molik vazifalarni hal etishda yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda va dunyo

siyosatining ko'plab masalalarida o'xhash nuqtayi nazarga ega. O'zbekiston Yaponiyaning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zoligiga qabul qilinishini qo'llab-quvvatlaydi. Yaponiya o'z navbatida O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Markaziy Osiyoda yadro qorolidan holi hududni tashkil etishga oid taklifini ma'qullagan.

Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening 2015-yil 25-oktabrda mamlakatimizga rasmiy tashrifi mobaynida "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi Qo'shma bayonot" imzolangan (2-ilovada). Ikki tomonlama munosabatlar rivoji bilan birgalikda ko'p tomonlama aloqalar doirasidagi hamkorlik ham yaxshilanib bormoqda. Bunga yaqqol misol sifatida "Markaziy OsyoQYaponiya" Muloqot dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'rsatish mumkin. Tashqi ishlarni vazirlari o'ttasidagi 3-yig'ilish 2010-yil avgust oyida Toshkentda o'tkazilgan. Yuqori lavozimdagisi shaxslar o'ttasidagi 2005, 2008, 2010 -yillardagi yig'ilishlar ham Toshkent shahrida bo'lib o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Yaponiya uchun Markaziy Osiyodagi eng yaqin hamkor davlatlardan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyoga qilingan birinchi tashriflarning O'zbekistonda bo'lishi, Yapon tilini o'qitish ilk marta Toshkentda boshlanishi, davlat rahbarlari o'ttasidagi tashriflarning muvaffaqiyatlari yakunlanishi va shu doirada amalga oshirilayotgan ishlarni strategik hamkorlikni kuchayishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Toshkentda Yaponiyaning xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkilotining (JETRO) mintaqalararo vakolatxonalarini savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga hissa qo'shib kelmoqda.

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahon xaritasida Sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tafsiflab bering?
2. Yaponiya tashqi siyosat kontseptsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering?
3. Sharqiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering?
4. Sharqiy Osiyo davlatlarining AQSh va Evropa davlatlari bilan munosabatlari qanday?
5. AQShning Sharqiy Osiyodagi ziddiyatlariga munosabati qanday?

6. Sharqiy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari tafsif bering.
7. Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tafsif bering.
8. Sharqiy Osiyo mamlakatlarini hamkorligi haqida ma'lumot bering.
9. Yaponiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyligi tafsif bering.
10. Hozirgi davrda Yaponiya – Xitoy munosabatlari qanday holatda?

#### Mustaqil ish savollari:

1. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
2. Yaponiyaning xalqaro munosabatlardagi o'rnni yoritib bering.
3. KXDR tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat?
4. Zamonaviy bosqichda Sharqiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tafsif bering.
5. "Sharqiy Osiyo davlatlari – AQSh munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.
6. Rossiya tashqi siyosatida Sharqiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
7. Yaponiya tashqi siyosatida Shimoliy Koreya yadro dasturi muamosini yoritib bering.
8. AQSh tashqi siyosatida Sharqiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tafsif bering.
10. "KXDR yadro qurollari muammosi" mavzusida nutq tayyorlash.

#### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Мухаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Farb мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўкув кўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.

5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.

6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.

7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.

8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

## 2.2. Koreya Respublikasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda

### Darsning o'quv maqsadi:

- talabalarni Sharqiy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Sharqiy Osiyo davlatlaridagi siyosiy jarayonlar borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Sharqiy Osiyo mintaqasi, Koreys urushi, Kim Ir Sen, Kim Chen Ir, Koreya yarimoroli, KXDR, Koreya Respublikasi, Janubiy Koreya.

### Asosiy savollar:

1. Janubiy Koreya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.
2. Janubiy Koreya - O'zbekiston munosabatlari.

**Janubiy Koreya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.** Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Janubiy Koreya masalasiga to'xtalsaak, mintaqada mazkur mamlakat quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

– Koreya Respublikasi Koreya yarim orolida joylashgan bo'lib, ilgari yaxlit bo'lgan bir davlat ikkinchi jahon urushidan so'ng ikki qismga bo'lindi: Janub Koreya Respublikasi, Shimol esa Koreya Xalq Demokratik Respublikasiga ajralib ketdi.

– 1910 yildan 1945 yilgacha Yaponiyaga tobe bo'lgan Koreya, Yaponianing ikkinchi jahon urushidagi mag'lubiyatini o'zlarining mustaqilligi nishonasi deb hisoblagan edi, ammo buning o'miga mamlakat ikkiga bo'linib ketib, mafkuraviy qarama-qarshilik yuzaga keldi.

BMT Bosh Assambleyasi 1947 yil noyabrida BMT komissiyasi nazorati ostida Koreyada umumxalq saylovlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo Sovet Ittifoqi bu qarorga bo'ysunmasdan, BMT komissiyasini orolning Shimoliy qismiga kiritmadı. BMTning yangi qaroriga ko'ra, Koreyada bиринчи saylov 1948 yil 10 mayda BMT komissiyasi kirishi imkonи bo'lgan 38 paralleldan Janubda bo'lib o'tdi hamda 15 avgust Koreya Respublikasi tashkil topgan kun deb e'lon qilindi.

Koreya Konstitutsiyasiga ko'ra, davlat hokimiyatining uch tarmog'i: ijro, qonun chiqaruvchi, sud hokimiysi mustaqil faoliyat olib boradi. Koreya Respublikasi Konstitutsiyasi Milliy majlis tomonidan 1948 yil 12 iyulda qabul qilingan.

Koreya Respublikasi siyosiy hayotidagi muhim muammo bu Janubiy va Shimoliy Koreyani birlashtirish masalasi bo'lib, u nafaqat Koreya yarim oroli, balki butun mintaqqa hamda dunyo bo'yicha dolzarb muammo bo'lib turibdi. Muammoning dolzarbligi Koreya yarim orolidagi barqarorlik, mintaqadagi xavfsizlikni saqlab qolishda o'z aksini topgan. Ammo bu o'rinda, Koreya yarim orolidagi tinchlikni mustahkamlash qaysi vositalar asosida ta'minlanishi kerak, degan masala hal etilmay kelinmoqda. Birinchidan, Shimoliy Koreya mintaqada kommunistik tizim saqlanib qolgan davlat; ikkinchidan, yadro qurolini yaratish, ishlatish imkoniyatiga ega bo'lgan XXRdan keyingi davlat; uchinchidan, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy jihatidan rivojlanmagan davlat bo'lib, bu omillarning barchasi va alohida har biri Shimoliy Koreyaning mintaqadagi, dunyodagi siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. 1991 yil sentyabrida Janubiy va Shimoliy Koreya BMT a'zoligiga qabul qilindi.

1992 yil 19 fevralda Pxenyanda ikki Koreya muzokalarining oltinchi raundi bo'lib o'tdi. Unda har ikki davlat Bosh vazirlari - Janubiy Koreyadan Chon Von Sik, Shimoliy Koreyadan En Xen Muk asosiy bitim bo'yicha o'zaro xat almashdilar. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan uchta – yarashish, hujum qilmaslik, hamkorlik to'g'risida (Asosiy bitim); Koreya yarim orolini yadrosiz hududga aylantirish bo'yicha qo'shma bayonet; Janub va Shimol o'rtaida muzokalarlar olib boruvchi qo'mitalar tashkil qilish bo'yicha bitimga kelishildi.

O'tgan davr mobaynida ikki davlat siyosatida ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga Shimoliy Koreyada yadro quroli ustida tadqiqot ishlari olib borilayotgani sabab bo'ldi.

Shimoliy Koreya 1993 yilda o'z hududiga MAGATE ekspertlarini kiritishdan bosh tortdi hamda Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomadan chiqishini e'lon qildi. Shimoliy Koreyaning bu xatti-harakati nafaqat mintaqa, balki butun dunyoda keskinlikning kuchayishiga olib keldi.

BMT Xavfsizlik Kengashi Shimoliy Koreyani yadro masalasini hal kilishga chaqiruvchi qarorini qabul qildi. Keyinchalik AQSh va Shimoliy Koreya o'rtaqidagi bir qancha diplomatik munosabatlardan so'ng 1993 yilda Pxenyan Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomadan chiqish masalasini ma'lum muddatga kechiktirganini e'lon qildi.

Har ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlarni ijobiyl tomonga yo'naltirish bo'yicha jahon hamjamiyati, shuningdek, AQSh va XXR o'z hissalarini qo'shamoqda. Ammo shunga qaramasdan, «sovuv urush» mafkurasi, harbiy qarama-qarshilik tendentsiyalari Janubiy va Shimoliy Koreya munosabatlarda hozirgacha ustuvorlik kasb etmoqda.

«Sovuv urush» siyosati barham topgan bo'lsa-da, Koreya yarim oroli hamon uning ta'qibida yashamoqda. Shu nuqtai nazardan, Koreya muammosiga «sovuv urush» va hozirgi globallashuv davridagi yondashuvlar nimasi bilan farq qilishini bilish muhim ahamiyatga ega.

Koreya yarim orolida asosiy «o'yinchis» - Janubiy Koreya istiqbolini Shimoli-Sharqiy Osiyo mamlakatlari - AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, RF, XXR (Shimoli-Sharqiy Osiyo-5) bozor munosabatlarda, demokratik islohotlarda ko'rmoqdalar. *Shimoliy Koreya esa yadro quroliga ega davlat.*

Harbiy harakatlar yuz bergan taqdirda Pxenyanni siyosiy jihatdan u bilan harbiy shartnomaga ega bo'lgan XXRgina himoya qilishi mumkin. Ammo XXR ham Pxenyanni xitoy-amerika munosabatlarini keskinlashtirish orqali himoya qila olmaydi. Shu bilan birga, XXR rasmiy majburiyatlaridan voz kechishi orqali o'z mavqeini yo'qotishi mumkin. Boshqa tomonidan, Shimoliy Koreya rejimi inqirozga uchragan taqdirda XXR o'zining Shimoli-Sharqiy chegaralarida keng ko'lamli gumanitar halokatga yo'liqishi aniq. Shu bois, u Pxenyanni bozor islohotlariga undab, yadro inqirozini xalqaro hamkorlik orqali hal etishga intilmoqda.

2003 yil avgustda Pekinda bo'lib o'tgan olti tomonlama uchrashuv Pxenyanning murosaga bormasligini tasdiqladi. Ushbu uchrashuvda boshqa davlatlarga qaraganda, Pekin Pxenyanga nisbatan

jiddiy talablar qo'ydi. Bu talablar faqat yadro dasturigagina oid bo'lmay, balki Shimoliy Koreya iqtisodiy tizimiga ham tegishli edi. Iqtisodni harbiylashtirishni to'xtatish, oziq-ovqat bilan ta'minlash kabilar shular jumlasidandir.

Shimoliy Koreyaning bo'lib o'tgan muzokaralarda o'zini tutishida Pxenyan rejimining imkon qadar uzoqroq faoliyat olib borishini ta'minlash ekani ko'rinish turibdi.

Shimoli-Sharqiy Osiyo beshligi Shimoliy Koreyaga bo'lgan munosabatida quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Shimoliy Koreya tuzumi tarixan barbod bo'lishi muqarrar;
- Pxenyan yadro dasturi bo'yicha yadro sinovlarini amalga oshirdi, demak, sanoatning ushbu sohasi o'z faoliyatini mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan davom ettirmoqda;
- Koreyaning birlashishi faqat shimolning bozor-demokratik transformatsiyasi asosida yuz berishi mumkin;

-Bunday transformatsiya Shimoli-Sharqiy Osiyo beshligi tomonidan muvofiqlashtirilgan yakdil siyosat olib borilishini taqozo etadi.

Olti tomonlama muzokaralar shakli, ba'zi mutaxassislar fikricha, istiqbolda Shimoli-Sharqiy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik tashkilotini tuzish uchun asos bo'lishi mumkin.

Bugun Koreya yarim oroli nafaqat Koreya yoki mintaqaning yirik davlatlari bo'lmish XXR va Yaponiyaning, balki AQSh, Rossiyaning ham manfaatlari kesishgan hududga aylangan. Ushbu manfaatlarning uyg'unligi Koreya yarim orolida yagona Koreya davlatining paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligi ehtimoli mavjud. Bizning nazarmizda, Koreya yarim oroli Xitoy bilan Yaponiyani va buyuk geografik kashfiyotlar sabab (XVII asrdan boshlab) Rossiya, G'arb davlatlari, xususan, AQShni bir-biriga tortib turuvchi siyosiy magnit maydoni bo'lib kelgan. Va Koreya yarim oroli uchun bu xususiyat yaqin istiqbolda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

1993 yil Koreya Respublikasi e'lon qilingan kundan bo'yon birinchi marta hokimiyat tepasiga harbiy bo'Imagan Kim En Sam keldi. Yangi ma'muriyat birlashish muammosiga o'ziga xos tarzda yondashib, birlashishning uch bosqichdan iborat dasturini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, birlashish jarayoni o'zaro yarashish hamda hamkorlik bosqichlaridan o'tib, «Koreys birlashuvi» bosqichiga etishi

kerak. Bu dasturning amalga oshishida uch asosiy aqidaga amal qilinadi. Bular:

a) demokratiya amallariga hurmat; b) birga yashash ruhi; v) birgalikda taraqqiy etish va milliy farovonlik ruhi.

Shimoliy Koreyaning bu masalaga yondashuvi boshqacha bo'lib, u quyidagi talablarni oldinga surmoqda:

- a) «Koreya demokratik konfederativ respublikasi»ni tuzish;
- b) Janubiy Koreya hukumatining iste'foga chiqishi;
- v) AQSh harbiy qismlarining Koreyadan olib chiqib ketilishi;

Shimoliy Koreyaning bu talablari o'zaro ishonch, hamkorlik orqali tinch birlashish va taraqqiyotga qaratilgan Janubiy Koreya siyosatiga ziddir.

Bugungi Koreyaning rivojlanishida AQSh katta rol o'yndaydi va Koreyaning siyosiy, iqtisodiy, harbiy taraqqiyot manbaiga aylangan.

Ikki davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnomalar mayjud bo'lib, uning asosida ikki Koreya munosabatlariqa keskinlik ruhini berib turgan masala - 36 400 kishilik (1992 y.) AQSh qo'shining Janubiy Koreya hududida joylashganligidir.

Koreya nafaqat AQSh, shuningdek, Evropa Ittifoqi bilan ham iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yan. Koreya Respublikasi tashqi siyosati kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlarini 1993 yilda sobiq prezident Kim En Sam quyidagicha ta'riflagan edi: «XXI asrda tinch-totuv yashash va taraqqiyotga xizmat qiluvchi demokratik qadriyatlar, inson qadr-qimmati, bozor iqtisodiyoti ustuvorligini ta'minlash, xalqaro maydonda faol ishtirok etish, BMT bilan tinchlik yo'lida, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida barqarorlikni saqlash bo'yicha hamkorlik qilish Koreya Respublikasi tashqi siyosatining negizini tashkil etadi».

1994 -yil 21 oktyabrda Jenevada AQSh bilan Shimoliy Koreya o'rtasida bitim imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq, Shimoliy Koreya 1980 yillarda Sovet Ittifoqi tomonidan o'rnatilgan va harbiy sohada foydalilaniladigan plutoniyl ishlab chiqarish qobiliyatiga ega atom reaktorlaridan foydalishni to'xtatishni o'z zimmasiga oldi. Bu bitimga asosan, AQSh Shimoliy Koreyaga 4 mldr. AQSh dollarini miqdoridagi mablag' ajratdi hamda Shimoliy Koreyada ishlab chiqilgan yadro yoqilg'isini olib chiqib ketish va Pxon'yan ekologik talablarga javob beruvchi zamonaviy reaktorlar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi.

Bu munosabatlardagi Janubiy Koreyaning roli Shimoliy Koreyaga zamonaviy yuqori texnologiyali reaktorlarni etkazib berishdan iborat bo'ldi.

Shimoliy Koreya yadro dasturi haqida turli xil qarashlar mavjud. Aslida yadro inqirozining yuzaga kelishiga qanday omillar ta'sir qilgani va ular zamirida nimalar yotganini tahlil qilish asosida mavjud vaziyatni o'rganish mumkin.

2005 yil sentyabrida KXDR yadro dasturiga bag'ishlangan olti tomonlama muzokalaralar 4-raundining yakuniy yig'ilishida ishtirokchilar qo'shma bayonet qabul qildi. Bayonotda KXDR MAGATEning yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomasida o'z ishtirokini davom ettirishini, boshqacha aytganda, yadro qurolini yaratish niyatidan qaytgani e'tirof etilgan. Pxenyanning sheriklari uning tinch yadro dasturlarini rivojlantirishga bo'lgan huquqini tasdiqladilar. Shuningdek, hujjatda AQShning Koreya yarim orolida yadro qurolini saqlamasligi, Janubiy Koreya ham kelajakda o'z hududida yadro qurolini saqlash niyati yo'qligi qayd etildi. AQSh KXDRni unga yadro yoki oddiy qurol yordamida hujum qilmaslikka ishontirdi. Janubiy Koreya KXDRga 2 mln. kv. elektr energiyasi etkazib berishni va'da qildi.

2012 yil yanvarida «Assoshieyted Press» agentligining Pxenyanda ishchi guruhi ish boshladi, 2011 yil iyunida Boston va Nyu-Yorkda Shimoliy Koreya sportchilarining txevkondo bo'yicha ko'rgazmali chiqishlari bo'lib o'tdi.

2011 yil avgustida B.Obama ma'muriyati Pxon'yanga bo'lgan munosabatini o'zgartira boshladi. Ushbu mamlakatda yuz bergan suv toshqini tufayli 900 ming AQSh dollari miqdoridagi gumanitar yordam ko'rsatildi. Shu yilning oktyabrida AQShning tajribali diplomati Glin Devis Davlat kotibining Shimoliy Koreyaga oid siyosat bo'yicha maxsus vakili etib tayinladi. Shu oyda AQSh hukumati olti tomonlama muzokalarlardagi delegatsiyasining yangi rahbari Kliford Kart o'z faoliyatini boshladi. Janubiy Koreya ham bu muzokalarlardagi o'z vakilini yangiladi.

Tomonlar olti tomonlama muzokalaralmi tiklash asosida shart-sharoitlarni ishlab chiqish bo'yicha 2011 yil iyunida Nyu-Yorkda va oktyabrdida Jenevada uchrashdilar.

2012 yil 23-24-fevralida Pekinda bo'lib o'tgan uchrashuv natijasida Pxon'yan yadro sinovi, olisga uchuvchi raketalar uchirishga

moratoriyl kiritishga rozi bo'ldi va Nanbendagi yadro markaziga MAGATE inspektorlarini kiritishga va'da berdi. o'z navbatida, Washington 240 ming tonna oziq-ovqat etkazib berish majburiyatini oldi. 2011 yilda AQShdan KXDRGa oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar etkazib berish 2010 yilga qaraganda, 2 barobar oshdi (1,9 mln. AQSh dollaridan 5,1 mln. AQSh dollarigacha).

Biroq xalqaro hamjamiyatning barcha urinishlariga qaramasdan, Shimoliy Koreya o'z kuchini namoyish qilishni davom ettirmoqda. U 2012 yil 12-dekabrda «Kvanmyonson-3» nomli Erning sun'iy yo'ldoshini orbitaga chiqardi. Bu harakat, o'z navbatida, BMTning mamlakatga nisbatan salbiy munosabat bildirishiga olib keldi. 2013 yil 22-yanvarda BMT 2087-rezolyutsiyasini qabul qildi, bunda KXDR raketani uchirishda ishtirok etgan shaxslar va tashkilotlarga nisbatan ko'llaniladigan sanktsiyalar kengaytirilgan. Rasmiy Pxenyan bunga javob tariqsida 2013 yil 12-fevralda quvvati 5 kt bo'lgan uchinchi yadro sinovini o'tkazdi. 11 martda KXDR mudofaa vazirligi mamlakat 1953 yildagi yarashuv bitimidan chiqqanligini e'lon qildi.

Koreya Respublikasi siyosiy salohiyatini mustahkamlashda o'z mavqeい, tutgan o'rni, resurslaridan nihoyatda ratsional tarzda foydalanmoqda, va albatta, mintaqaviy hamda dunyo miqyosdagи resurslari bu yo'nalishda ishlatilmoqda. Bu jarayonda bir nechta yo'nalish mavjud:

a) Koreya Respublikasi BMT va xalqaro mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida astoydil ishtirok etmoqda;

b) Ikki Koreyani birlashtirish hozirgi kunda o'z dolzarbligi jihatidan mintaqada doirasidan chiqib, dunyoviy ahamiyatga ega bo'ldi va bu muammoni hal etishda Koreya Respublikasi faol ishtirok etmoqda;

v) Kommunistik tuzum mavjud bo'lgan mintaqadagi ikkinchi hamda mintaqada barqarorligiga xavf tug'dirayotgan Shimoliy Koreya bilan munosabatlarda xalqaro huquq, demokratik me'yorlarga sodiqlik;

g) o'zida mavjud bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlar, texnologiyalar, ilmiy-teknikaviy yutuqlar bilan o'zaro o'rtoqlashish;

Koreya Respublikasi 1962 yildan e'tiboran, tub iqtisodiy islohotlarni boshlab yuborgandan so'ng uning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari yuqori darajaga etdi.

Mamlakat rivojlanishida yirik ishlab chiqarish korxonalarini (Chebol) ish hajmining o'sishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Chebollar sanoatda, savdoda, xizmat ko'rsatish va moliyaviy sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan bir necha ko'p tarmoqli korxonalarni birlashtirish orqali yuzaga kelgan bo'lib, hozirgi kunda Koreya iqtisodida salmoqli rol o'ynaydi.

Aksar hollarda bu yirik korxonalar kichik va o'rtal tadbirkorlik manfaatlari hisobiga rivojlangan. Chebollar uchun moliyaviy sohada katta imtiyozlar mavjud. Moliya-bank sohasida yirik ishlab chiqarish korxonalarini bo'lgan Chebollar uchun moliyaviy imkoniyatlar kattaligi, chet el banklarining Koreya bozorida imkoniyati. cheklanmagani Koreya moliya-bank tizimi uchun raqobatsiz muhit yaratib, bozor mexanizming faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, 90-yillarda Janubiy Koreya sanoatida ishlab chiqarilayotgan yarim o'tkazgichlar, avtomobil, kimyo sanoati o'z texnik ko'rsatkichlari bo'yicha AQSh va Yaponiyadagi shunga o'xshash sohalardan 5 yil, elektronikada 6 yil, sanoat asbob-uskululari ishlab chiqarish bo'yicha kamida 10 yilga orqada qoldi. Albatta, bunday ko'rsatkichlarning mamlakatni keyingi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib berdi va bu borada keyinroq to'xtalamiz.

Yuqorida zikr etilgan iqtisodiy, bank-moliya, sanoat sohalarida yuzaga kelgan salbiy ko'rsatkichlari Janubiy Koreya xalq xo'jaligi oldiga bir qator muammolarni ko'ndalang qo'ydi.

Bank-moliya sohasida: Chebollarga nisbatan olib borilayotgan kredit siyosatini qayta ko'rib, davlat va yirik biznes o'rtasidagi munosabatlarda manfaatlari uyg'unligini ta'minlash;

Sanoat sohasida: Janubiy Koreya iqtisodining chet el texnologiyalariga tobelligini cheklash (Koreya eksporti chet el yuqori texnologiyalariga 30 %, Yaponiya esa 10 % bog'liq);

Siyosiy sohada: davlatning iqtisoddagi rolini cheklash hamda yirik biznes faoliyatini qayta ko'rib chiqish orqali kichik va o'rtalbiznesni rivojlanitish, nihoyat chet el sarmoyalariga bo'lgan cheklashlarni kamaytirish.

Moliya-bank, sanoat, iqtisod sohalarida mavjud salbiy tendentsiyalar o'z rivojini to'xtatmadı. Mamlakatdagi banklar mamlakat ichidagi o'z faoliyatini cheklab, chet eldag'i faoliyatini faollashtirdi. Bunday jarayon, asosan, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida davom etdi. Natijada Koreyadagi mavjud banklarning chet eldag'i aktivlari 53 %, ya'ni 25 mlrd. AQSh dollrlariga oshdi.

Yuzaga kelgan iqtisodiy muammolarni hal qilish maqsadida hukumat xalqaro moliyaviy tashkilotlardan yordam so'radi. Seul tez

yordam sifatida XVFdan 10 mldr. AQSh dollari miqdorida kredit olishga muvaffaq bo'ldi (1997 y. dekabrida 2 mldr. va 1998 yil yanvarida 8 mldr.).

Mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida nihoyatda tang vaziyat hukm surgan bir davrda katta siyosiy o'zgarishlar, ya'ni prezident saylovlari bo'lib o'tdi. Saylovlar natijasiga ko'ra, faoliyat davomida ko'p vaqtlar muholifatchi sifatida tanilgan Kim Te Chjun hokimiyat tepasiga keldi.

Prezident Kim Te Chjun ma'muriyati inqirozga qarshi bir qator choralar ko'rdi va ular «inqirozga qarshi sakkiz chora» nomi bilan jamiyat hayotida o'z o'mniga ega bo'ldi.

Shuningdek, Koreya hukumati qiyin bo'lsa-da, kichik va o'rta biznes muammolarini qisman zimmasiga oldi. Kichik va o'rta biznesning 15,6 mldr. AQSh dollaridan iborat qarzining bir qismini to'lash 6 oyga, 0,5 mldr. AQSh dollari miqdoridagisi esa bir yilga kechiktirildi.

Mamlakatda «qarzлarni to'lash bo'yicha milliy kampaniya» avj oldi. Banklarda dollar omonati yig'ish kampaniyalari keng tus oldi. Korxonalar valyuta xarajatlarini chekladi. Aholining yana bir qismi 10 % avtomobilarni velosipedlarga almashtirish orqali yiliga 5 mldr. AQSh dollarilik (ularning hisobiga) foydani mamlakat iqtisodiga yordam sifatida berish taklifi bilan chiqdi.

Bu vaziyatda, mamlakat rahbariyati oltin zahiralarni to'ldirish maqsadida aholini ushbu qimmatbaho metallni sotishga chaqirdi. Natijada umumiyligi qiymati 2,2 mldr. AQSh dollari bo'lgan 227 tonna atrofida oltin yig'ildi.

Janubiy Koreya hukumati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy sohadagi qator chora-tadbirlar asta-sekin o'z natijalarini ko'rsata boshladi. 2011 yil 5 dekabr kuni mamlakatning tashqi savdo balansi 1 trln. AQSh dollariga etdi, yil oxiriga kelib ko'rsatkich 1,08 trln.ga chiqdi.

Janubiy Koreyaning muvaffaqiyatga erishish yo'li o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Rossiyalik tadqiqotchi M.A. Morexodov fikricha, ular quyidagilardan iborat: 1) Janubiy Koreyaning jahon iqtisodiy makonidagi roli va ahamiyatini oshirishga erishildi. «Ernest end Yang» agentligining reytingiga (ro'yxatda hammasi bo'lib, 60 ta eng yirik va yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar kirgan) ko'ra, Janubiy Koreya – 29, Xitoy – 39, Yaponiya – 40 o'rinni egallagan. Hozir Janubiy Koreya o'zining eksport mahsulotlarining 60 %ni rivoj-

lanayotgan mamlakatlar bozorlariga yubormoqda. 2) 2011 yilda Janubiy Koreya qator mamlakatlar bilan erkin savdo bo'yicha yangi shartnomalar imzolashi tufayli ular bilan bo'lgan eksport hajmi 296,1 mldr. AQSh dollariga etdi.

Erkin savdo shartnomalari EI, ASEAN, AQSh, Chili, Peru, Singapurni qamrab olgan. AQSh bilan imzolangan shartnomaga nisbatan jamoatchilikda norozilik tug'ilganligi bois qayta ko'rib chiqildi va 2011-yil noyabrida parlament tomonidan ratifikatsiya qilindi.

3) So'nggi 50 yil mobaynida Janubiy Koreya rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslar va o'z mahsulotlari bozorini kengaytirish uchun qattiq kurash olib bordi. Hozirgi vaqtida bunday faoliyat Afrika qit'asida amalga oshirilmoqda. Chunki Afrikada butun dunyo neft zahiralarining 12 %, gaz zahiralarining 6,5 %, kobaltning 50,3 %, olmosning 60,3%, platinaning 95,5 % mavjud. Janubiy Koreya kompaniyalari bugungi kunda 10dan ortiq Afrika mamlakatlarida faoliyat yuritmoqda. Hozirda Janubiy Koreyaning Afrika iqtisodiga investitsiyasi yiliga 3 mldr. AQSh dollaridan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich Xitoy va Hindiston ulushidan kam. Lekin Janubiy Koreya hukumati 25 ta kompaniyaga maqsadli faoliyat – Afrikadagi loyihalari uchun 7 mldr. AQSh dollari miqdorida mablag' ajratdi. Birgina «Samsung» kompaniyasi 10 mldr. AQSh dollariga teng mablag' ajratishni rejalashtirmoqda. Bu borada hukumat va xususiy sarmoyaning maqsadlari umumiy va uzoq muddatlari ekanini kuzatish mumkin.

4) Iqtisodni rivojlanirish borasida qisqa va uzoq muddatli rejalarining mavjudligi. Hozirgi paytda mamlakatni rivojlanirishning 2050 yilgacha bo'lgan dasturi e'lon qilingan bo'lib, unga ko'ra mamlakat iqtisodiy ko'lami bo'yicha dunyoda 4-o'ringa chiqadi. Iqtisodiy rivojlanish yo'unalishlari quyidagilardan iborat: innovatsion texnologiyalarni rivojlanirish va energiyaning yangi manbalarini izlash, Janubiy Koreyaning xalqaro maydonda ishonchli hamkor, barqaror investor sifatidagi mavqeini mustahkamlash, tadbirkorlik uchun yanada qulay muhitni shakllantirish.

5) Mamlakatda nihoyatda qulay, barqaror investitsion muhit yaratilgan. Bunday yondashuv, o'z navbatida, investitsiyalar hajming ko'payishiga olib keldi. 2011 yilda xorijlik investorlar mahalliy kompaniyalarni rivojiga 44,49 mldr. AQSh dollari miqdorida mablag' kiritib, bu ko'rsatkich 2010 yilga qaraganda, 29,5% ko'pdir. Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanish vaziri Xong Suk Vu fikricha, hukumat

xorijlik investorlarning deyarli barcha iltimoslarini, shu jumladan, soliqlarni pasaytirish, ro'yxatdan o'tish jarayonini soddalashtirish kabilarni bajardi.

6) Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan «Milliy tahlil markazi» eksportni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'plab asosiy yo'nalishlarni ishlab chiqdi. Bular: yarim o'tkazgichlar (dunyo bozorining 53,2 % egallaydi va 2011 yildagi foydasi 52,5 mln. AQSh dollari), dengiz va daryo kemalari (2011 yilda bu soha umumiy dunyo buyurtmasining 48,2 % bajardi, mamlakatda 300 yaqin kemasozlik korxonalarini bor), avtomobillar (2011 yilda eksportdan kelgan foyda 45,3 mln. AQSh dollarni tashkil etdi. Har yili bozorga 5-7 ta yangi yoki zamonaviylashgan modellar etkazib berib, bu 3 yil vaqt talab qiladi); informatsiyaviy texnologiya mahsulotlari (mamlakat eksportining 7 % tashkil etib, ushbu turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi 2011 yilda 156,97 mln. AQSh dollaridan iborat bo'ldi. Mobil telefonlarning hozirgi turi – smartfonlarning eksport hajmi 2011 yilda 11,88 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2012 yilda «Samsung» kompaniyasining takomillashgan smartfonlari LSI va AMOLED, «aqlli telefon»ning yangi shakli GALAXY S3 savdoga qo'yildi. Planshetlarning xorijdag'i sotilishi 2011 yilda 180 % ortib 1,89 mln. AQSh dollariga teng sarmoya yig'ildi. Televizorlar eksporti 50,15 mln. AQSh dollarini tashkil etdi; ximiya va neft ximiyyasi mahsulotlari, shuningdek, metallurgiya va oziq-ovqat sanoati ham rivojlanib bormoqda.

Janubiy Koreya Respublikasi neft importi bo'yicha dunyoda 5-o'rinda turadi. Neft importi 2010 yilga qaraganda, 6,2 5 o'sib 92,7 mln. barrelga etdi va uni sotib olish uchun 100,7 mln. AQSh dollari miqdorida mablag' sarflandi. Janubiy Koreya ushbu sohalar bo'yicha dunyoning qator davlatlari, shu jumladan, Birlashgan Arab amirligi bilan hamkorlik qilmoqda. Ammo neftri chuqur qayta ishlash texnologiyasi yo'lga qo'yilgani neft xom-ashyosini sotib olishga ketgan xarajatlarning muayyan qismini qoplash imkoniyatini beradi. Tabiiy gaz sotib olish bo'yicha mamlakat ikkinchi o'rinda turib, mamlakatning etakchi kompaniyasi «Kogaz» 2011 yilda 36,72 mln. tonna gaz sotib oldi va bu ko'rsatkich 2010 yilga qaraganda 3,6 % ko'pdir.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb sohalardan hisoblanadi. Ekspertlar fikricha, mamlakat 2030- yilga borib o'zini don mahsulotlari bilan ta'minlashini 50%ga etkazishi mumkin. Bu

masalada xorijiy loyihalar ustida ishslash yo'lga qo'yilgan. Misol uchun Hyuhdai Heavy Ind. kompaniyasi Rossiyadagi makkajo'xori va soya etishtirishga ixtisoslashgan «Xorol Zerno» kompaniyasining 67,7% aktsiyasini sotib oldi. Endilikda bu erda olingan hosilning hammasi Janubiy Koreyaga jo'natiladi. Janubiy Koreyaning ushbu kompaniyasi Yangi Zelandiyada ham 6,5 mln. AQSh dollariga katta fermer xo'jaligining bir qismini sotib oldi. "Daewoo" kompaniyasi Madagaskarda 1,3 mln. hektar erni 99 yilga ijara qilganda. Shu tariqa Janubiy Koreyaning 24 kompaniyasi dunyoning 16 mamlakatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishtirok etib, ijara qilganda sotib olingan erlordan har yili 87 ming tonnagacha don mahsulotlari etishtirmoqda.

Yaqin kelajakda Koreya yarim orolidagi ikki davlatning birlashishi ro'y berishi mintaqada koreys xalqi salohiyatini nihoyatda mustahkamlaydi. Hokimiyat tepasiga kelgan har bir Koreya rahbari bu vazifani ijobji hal qilishga intilib kelgan.

Sobiq Prezident Kim Te Chjunning Shimoliy Koreyaga bo'lgan siyosati uch yo'nalishdan iborat:

- a) hech qanday harbiy ig'vegarlikka yo'l qo'ymaslik;
- b) yarashish va hamkorlik siyosatini faollashtirish;
- v) Shimoliy Koreyani o'ziga singdirishga intilmaslik;

2000 yil 26 yanvarda o'tkazilgan matbuot anjumanida Prezident Kim Te Chjun Shimoliy Koreyaga iqtisodiy hamjamiyat tuzish to'g'risidagi taklifiga javob olmaganimi aytib o'tdi. Prezident Kim Te Chjun mintaqaviy hamkorlikka baho bera turib, Koreya yarim orolida tinchlik va barqarorlikni saqlashda XXR va Koreya Respublikasining qarashlari bir xil ekani, Yaponiya bilan KXDR munosabatlarni mustahkamlash Janubiy Koreya manfaatlariga to'liq mos kelishini ta'kidlab, ushbu masalada Tokio bilan Seul o'zaro fikr almashayotganini ta'kidlab o'tdi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Kim Te Chjun Germaniyaga safari davomida (2000 yil 9-10 mart) Berlin Universitetida so'zlagan nutqida koreys davlatlari munosabatlariiga oid Deklaratsiyani ilgari surdi. Deklaratsiya 4 banddan iborat bo'lib, unda Janubiy Koreyaning Shimoliy Koreya iqtisodiyotini tiklashga yordam berishga tayyorligi, Koreya yarim orolida «sovuv urush» davridan qolgan qarama-qarshilikni tugatish, ajratilgan oilalar masalasini hal etish hamda Pxenyan va Seul o'rtasida maxsus elchilar almashuvi zarurligi bayon etilgan.

2000-yil iyunida Janubiy va Shimoliy Koreya davlatlari rahbarlarining sammiti Koreya yarim orolidagi keskinlikni yumshatish va Shimol bilan Janub o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga zamin yaratdi.

Koreya Respublikasi prezidenti Ho My Xyon Koreya yarim orolidagi muhim masala – KXDR yadro dasturiga baho berar ekan, KXDRga nisbatan «quyoshli ilqligi siyosatdan» boshqa siyosiy maqsad yo'qligini, aksincha, Shimolni muloqotga tortish hamda gumanitar va boshqa ko'rinishdagi yordamlarni berish siyosatini davom ettirishini ta'kidladi.

Shuningdek, prezident Ho My Xyon yarim oroldagi tinchlikni ta'minlash va mustahkamlash chora-tadbirlariga keng e'tobor qaratib, bundan keyin ham bu yo'lda Yaponiya, XXR, RF, AQSh, EI va boshqa do'st davlatlar bilan hamkorlik qilishini ta'kidladi.

Janubiy Koreyadagi Inxa universitetining professori Sheperd Ayverson esa ikki Koreyani birlashtirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyani taklif etmoqda. Uning fikricha xalqaro hamjamiyat 300 mldr. dollar mablas' xisobiga Shimoliy Koreya masalasini hal qilishi mumkin.

So'nggi yillarda Koreya yarim orolida Janubiy Koreyaga tegishli «Chxonan» korveti bilan bog'liq intsident va Enpxendo orolidagi tomonlarning artilleriya dueli Janub va Shimolni deyarli urush holatiga keltirdi. 2012 yil dekabrida Shimoliy Koreya tomonidan yo'ldoshli raketaning uchirilishi o'zaro munosabatlarni keskinlash-tirdi. Bu, o'z navbatida, 2002 yilda ikki tomonning birgalikda barpo etgan «Keson» sanoat hududi faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Bu hududda Janubiy Koreyaning 120 tadan ortiq firmalari faoliyat yuritib, deyarli 50 ming nafarga yaqin shimolliklar ish bilan ta'minlangan.

Munosabatlardagi keskinlik tufayli 2013 yil aprelida Pxenyan avval Janubiy Koreya fuqarolarining ushbu hududga kirishini ta'qiladi va keyin ushbu majmua faoliyatini umuman to'xtatib qo'ydi. Hozirgi kunda majmua faoliyati tiklangan. Demak, yuqorida bayon etilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Osiyo-Tinch okeani mintaqasining davlatlari iqtisodiy taraqqiyotiga mintaqadagi harbiy harakatlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

*Janubiy Koreya - O'zbekiston munosabatlari.* Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari orasida hozirgi kunda O'zbekiston bilan niyoyatda yaqindan, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilayotgan davlat bu - Koreya Respublikasidir. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik hozirgi kunda yuksak hamkorlik darajasida shakllangan.

Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilgandan so'ng 1992 yil 16 iyunida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Janubiy Koreyaga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar rivojiga katta ta'sir qildi.

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning faollashuviga Koreya Respublikasi Prezidenti Kim En Samning O'zbekistonga ikki marotaba qilgan tashrifi (4 iyun 1994 yil va 1995 yil 15 fevral) katta hissa qo'shdi.

Janubiy Koreya eksportining asosiy qismini elektrotexnika, avtomobil va engil sanoatning tayyor qismlari tashkil etsa, O'zbekistondan asosan, xom-ashyo, yarim fabrikatlar, ya'ni paxta tolasi, qimmatbaho metallar, teri, kimyo sanoati mahsulotlari va boshqalar import qilinadi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikning shakllanishiga bir qancha sabablar mavjud:

Birinchidan, sobiq Sovet Ittifoqi hududida joylashgan davlatlar orasida O'zbekiston mamlakat ichidagi barqarorlik, investitsiyalar uchun qulay muhit, huquqiy asoslar mavjudligi bilan chet ellik hamkorlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. O'zbekiston Koreyaning tashqi savdo bo'yicha MDH hududidagi yirik sherigidir. 2006 yilda Janubiy Koreyaning O'zbekistonga kiritgan sarmoyasi 1,5 mldr. AQSh dollaridan oshdi.

Ikkinchidan, ikki davlatdagi mavjud salohiyat, ya'ni O'zbekistondagi xom-ashyo zaxiralari, ishchi kuchi, rivojlangan ishlab chiqarish sohasi va Koreyaning yuqori texnologiyalari, sarmoyasi birlashsa, hamkorlik qilsa, ikkala davlat ham o'zaro manfaatdor bo'ladi. Manbalarda yozilishicha, 2006 yilda O'zbekiston aholisi 26,021 mln. nafar kishini tashkil qilib, har yili o'rtacha 300 ming nafar kishiga ko'paygan. Mehnatga layoqatli aholi 56,1 % ni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2010 yilning oxiriga borib 59,4 %ga etishi kutilgan. Shunday ekan, sotsial, iqtisodiyot infratuzilmasiga tushayotgan yuklamani kamaytirish maqsadida ham, ishga layoqatli shaxslarning sotsial mobilligini ta'minlash maqsadida ham ishchi kuchini eksport qilishning zamon talabiga mos mexanizmlarini ishlab chiqish va chetga ishga chiqishning huquqiy asoslarini liberallashtirish lozim.

2013 yil 1-aprel holati bo'yicha mamlakatimiz aholisi 30,08 mln. nafar kishidan iborat bo'lib, 2012 yilning shu davriga nisbatan 1,5 foizga o'sgan. Ushbu demografik vaziyatdan kelib chiqib, OTOM hamda dunyoning boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari

bilan ishchi kuchini import qilish bo'yicha, ta'lim olish bo'yicha siyosiy – huquqiy, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, yana bir muhim omil, bu O'zbekistonda 200 ming nafardan ortiq koreys millatiga mansub aholi yashaydi (Bu jihatdan O'zbekiston AQSh, XXR, Yaponiyadan keyin to'rtinchi o'rinda turadi). Bu uch omil ikki davlat o'tasidagi munosabatlarga alohida xususiyat kasb etadi.

O'zbekiston va Koreya o'tasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy foyda berayapti, balki sotsial sohalar - aholini ish bilan ta'minlash, ishchilarni yangi texnika va texnologiyalar asosida o'qitish kabi muammolarni ham hal qilmoqda. 1992 yildan buyon Toshkentda Koreya Respublikasi ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunga kelib Janubiy Koreya universitetining Toshkentdagi filialini ochishga kelishib olindi.

O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'tasidagi munosabatlarda quyidagi jihatlar mavjud:

Siyosiy tomoni. Koreya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 30 dekabrda tan oldi. 1992 yil 29 yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1994 yildan buyon iqtisodiy hamkorlik va savdo bo'yicha O'zbek-koreys qo'mitalari ishlab turibdi. 1994 yil kuzida Seulda «O'zbekiston havo yo'llari» MAK ning vakolatxonasi ochildi. 1994 yil dekabridan Toshkent va Seul o'tasida doimiy aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgan. Toshkentda Xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreya Agentligi (KOICA), investitsiya va savdoni rivojlantirish bo'yicha agentligi (KOTRA) vakolatxonasi ochilgan.

Hozirgi kunda ikki tomonlama hamkorlikning shartnomahuquqiy asosini hukumatlararo shartnomalar tashkil etib, ular savdo, investitsiya, soliq, havo yo'llari, ilmiy va madaniy hamkorlik sohalariga taalluqlidir. Ikki davlat parlamentlari o'tasida ham yaqindan hamkorlik mavjud. 1995 yildan buyon ikki davlat tashqi siyosiy muassasalari o'tasida siyosiy maslahatlar o'tkazib kelinmoqda.

Xalqaro tashkilotlar doirasida ham ikki tomon yaqindan hamkorlik qiladi. O'zbekiston Koreya Respublikasini BMT XK nodoimiy a'zosi bo'lib saylanishida yaqindan qo'llab-quvvatladi. Koreya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy

xavfsizlikni ta'minlashga bag'ishlangan tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi. 1997-yil Koreya Toshkentda o'tkazilgan «Markaziy Osiyo: yadro quroldan xoli hudud» mavzusidagi xalqaro konferentsiyada ishtirot etdi. O'zbekiston BMT bosh kotibi lavozimiga Koreya Respublikasi tashqi ishlar va savdo vaziri Pan Gi Munning nomzodini yoqlagani ikki tomonlama munosabatlarning ijobiy tabiatidan darak beradi.

O'zbekiston-Koreya munosabatlari ko'pqirrali ko'rinishga ega bo'lib, o'zining rivojlanish jarayonida bu munosabatlar yuqori hamkorlik darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1999 yil oktyabr oyida Koreya Respublikasiga qilgan safari va bu tashrif mobaynida ikki davlat rahbarlari XXI asrdagi yangi hamkorlik to'g'risidagi bayonotni imzolagani har ikki tomonning manfaatlari mushtarak ekanidan darak beradi.

1999 yilning aprelida avtomobilsozlik sanoatini avtomobil bo'yoqlari bilan ta'minlab beruvchi «O'zDongJU» - O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasi ishga tushdi.

2000-yil dekabrida O'zbekiston Koreya hukumati ko'magida Koreya yarim oroli iqtisodiy rivojlantirish tashkilotiga (KEDO) a'zo bo'ldi.

O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'tasidagi savdo kelishuviga muvofiq, davlatlar o'tasida mumkin qadar qulayliklar yaratish rejimi o'matilgan. 2002 yilda O'zbekiston - Koreya Respublikasi o'tasidagi tovar ayirboshlash 326 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Eksport tarkibiga paxta tolasi, xizmatlar, ipak, mevalar, rangli metall va boshqalar kiradi. Import tarkibiga esa, er ustti transport vositalari, elektr va mexanik jihozlar, qora metall, plastmassa, rezina mahsuloti va boshqalar kiradi.

Manbalarda qayd etilishicha, 2006 yilda O'zbekiston Respublikasi hududida koreys sarmoyasi ishtirokida 138 ta korxona quyidagi sohalarda faoliyat olib borgan:

- avtomobil ishlab chiqarish;
  - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash;
  - to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish;
  - xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish;
  - paxta chiqindilarini qayta ishslash;
  - radioelektronika mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Asosiy loyihalar:

- telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish;
- Respublika kollejlarini o'quv jihozlari bilan ta'minlash;
- «O'zbek ipagi» assotsiatsiyasi korxonalarini yangi texnik jihozlar bilan ta'minlash.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtaisdagi munosabatlar ham o'zaro manfaatdorlik asosida rivojlanib, O'zbekiston ayni paytda Koreya Respublikasining MDH davlatlari hududidagi yirik hamkoriga aylangan.

Ikki davlat o'rtaisdagi hamkorlik hozirgi kunda bir necha sohalarda keng rivojlanib, u quyidagi tarmoqlarni qamrab oлган:

a) ikki davlat hamkorligi natijasida O'zbekistonda sanoatning yangi turi zamonaviy avtomobilsozlik buniyod etildi.

b) avtomobilsozlik uchun kerak bo'lgan yuqori malakali muhandis-texnik xodimlarni tayyorlash natijasida mavjud ishchi kuchining umumiy saviyasi oshdi.

v) Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan bir necha yildan buyon Toshkentda Koreya Respublikasi Ta'lim markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Markaz malakali koreys tili o'qituvchi va tarjimonlarini tayyorlash, Koreyaga o'qishga, xizmat safariga ketayotgan O'zbekiston fuqarolariga koreys tilini o'rgatish kurslari bo'yicha faoliyat olib boradi. Markaz tashkil bo'lgandan buyon 3600 nafar kishi shunday tayyorgarlikdan o'tdi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bakning 2011 yil avgust oyida O'zbekistonga davlat tashrifi oliy darajadagi uchrashuvlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu tashrif chog'ida ikki davlat rahbarlari «Surgil» koni negizida o'z ko'lami va jalb etilayotgan yangi texnologiyalar bo'yicha mislsiz bo'lgan qiymati 2,6 mld. AQSh dollariga teng «Ustyurt gaz-kimyo» majmui qurilishi loyihasini amalga oshirishga ruxsat berdilar. O'tgan yilning 11 oyi davomida ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 1,5 mld. AQSh dollaridan ko'п bo'ldi. Janubiy Koreya tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoyalar hajmi 5 mld, shundan o'zlashtirilayotgani esa 2 mld. AQSh dollaridan oshdi. O'zbekistonda Janubiy Koreya sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 350 tadan ziyod korxona faoliyat yuritmoqda. Parlamentlararo hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy hududida ikki tomonlama hamkorlik rivojlanmoqda. Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududidagi

transkontinental intermodal xabni boshqarayotgan «Korean Eye» aviakompaniyasi faoliyati ham hamkorlikka xizmat qilmoqda.

#### **Nazorat va topshiriq savollari:**

1. Jahon xaritasida Sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. Janubiy Koreya tashqi siyosat kontseptsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Sharqiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Sharqiy Osiyo davlatlarining AQSh va Evropa davlatlari bilan munosabatlari qanday ?
5. AQShning Sharqiy Osiyodagi ziddiyatlariga munosabati qanday ?
6. Sharqiy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari tavsif bering.
7. Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
8. Sharqiy Osiyo mamlakatlarini hamkorligi haqida ma'lumot bering.
9. Janubiy Koreyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
10. Hozirgi davrda Janubiy Koreya – Xitoy munosabatlari qanday holatda?

#### **Mustaqil ish savollari:**

1. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
2. J.Koreyaning xalqaro munosabatlardagi o'mini yoritib bering.
3. KXDR tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat?
4. Zamonaviy bosqichda Sharqiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
5. "Sharqiy Osiyo davlatlari – AQSh munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.
6. Rossiya tashqi siyosatida Sharqiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
7. J.Koreya tashqi siyosatida Shimoliy Koreya yadro dasturi muamosini yoritib bering.
8. AQSh tashqi siyosatida Sharqiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
10. "KXDR yadro qurollari muammosi" mavzusida nutq tayyorlash.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларидаги ижтимои-сиёсий жараёнлар. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

### 2.3. Koreya Yarimorolidagi muammolarni umumjahon xavfsizligiga ta'siri

#### Darsning oquv maqsadi:

- talabalar Koreya Yarimoroli davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Koreya Yarimoroli davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Sharqiy Osiyo mintaqasi, Koreys urushi, Kim Ir Sen, Kim Chen Ir, Koreya yarimoroli, KXDR, Koreya Respublikasi, Janubiy Koreya.

#### Asosiy savollar:

1. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda KXDR muammosi.
2. Ikki koreys davlatlarining birlashishiga to'sqinlik qiluvchi ichki omillar
3. Birlashishga to'sqinlik qiluvchi tashqi omillar.

### Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda KXDR muammosi.

Koreya yarimorolining birlashish muammosi nafaqat Shimoliy-sharqiy Osiyo xavfsizlik tizimi, balki bugungi kunda butun global xavfsizlik tizimi va kuchlar muvozanati uchun juda katta muammo bo'lib qolmoqda. Bu voqealay qaynqasiga Shimoliy Koreyaning 2013-yil fevral oyidagi 3-yadro sinovini amalga oshirgandan so'ng xalqaro muammoga aylandi. Xavfsizlik bo'yicha ekspertlar Koreya yarimorolini bugungi kunda "Sharqiy Osiyoning Bolqoni" deb ta'rif berishmoqdalar. Tarixan e'tibor bersak tili va qadriyatlarini bir bo'lgan bu koreys xalqi "Sovuq urush" davrida AQSh Qo'shma Shtatlari va sobiq Sovet Ittifoqi o'rtaisdagi manfaatlar to'qnashuvi nuqtasiga aylangandi. Natijada yarimorol ikkita mustaqil suveren davlatlarga bo'linib ketgan edi. Koreyaning birlashishi bugungi kunda xalqaro masalalar qatorida juda ham dolzarb muammo sanaladi. Biroq unchalik e'tibor qaratilayotgan yo'q ushbu masalaga. Bu muammoning qanday ketishi juda muhim hodisadir. Chunki bu muammoning yechilishi dunyoda yangi kuchlar tizimini ham yaratish mumkin. Demak, bu mavzuni muhokama qilishga va uni yechimini topishga o'z hissamizni qo'shishimiz darkor. Hozirgi paytda ikkita koreys davlatlari ham birlashishni xoqlashadi, ammo bunga bir qancha to'sqlilar majud. Birinchidan, ikkala davlatda turlicha g'oya bo'lganligi sababli aholining bir qismi birlashishga uncha xayriholik bildirishmaydilar. Buni ayniqsa yoshlari orasida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ikkinchidan esa, birlashishga eng asosiy to'siq bo'lib qolayotgan tashqi omillardir.

Koreya yarimoroli "Sovuq urush"ning dastlabki "qurbanbi" bo'ldi. Biroq mayjud holatga qaramasdan koreys xalqi dastlabki davrlarda birlashishga juda qattiq harakat qilishgan. Ammo 1950-yilning 25-iyunidagi Shimolning Janubga qarshi urushga kirishi bilan birlashishga xafsalasi pir bo'lishgan. O'sha vaqtga qadar ular yarimorolni tinch yo'l bilan birlashishiga ishongan edilar. Urush koreys xalqini bir biriga dushman qilib qo'ydi. Bundan ayniqsa 38parallel yaqinida yashagan oilalar aziyat chekishdi. Aytishimiz mumkinki, ular "ikki o't orasida qolishgandilar". Urush natijasida Shimol ham, Janub ham katta talofat ko'rdi. 1953-yilning 27iyulida harbiy harakatlarni to'xtatish to'g'risidagi shartnomalar imzolaniadi. Janubiy Koreya tomonidan AQSh armiyasi generalleytinanti Uilyam Garrison, Koreys milliy armiyasi va Xitoy ko'ngilli askarlari nomidan

Shimoliy koreyalik general Nam Il harbiy harakatlarni to'xtatish to'g'risidagi shartnomaga imzo qo'yishdilar. Chegara hudud etib 38-parallel belgilandi va hudud demilitarizatsiya qilindi. 2010-yilning yanvar oyida Shimoliy Koreya AQSh bilan Koreya yarimorolida tinchlik o'rnatish to'g'risida muzokalar olib bormoqchiliginini bildirdi. Shimol bilan Janub o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida 2013-yilning 5-mart kuni Shimoliy Koreya Janubga tinchlik harakatlarini to'xtatilishi mumkinligini aytib o'tdi. 8-mart kuni esa Janubiy Koreya bilan hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani bekor qilganligini e'lon qildi. Ushbu ishda mazkur muammolar kompleks tarzda ko'rib chiqiladi.

**Ikki koreys davlatlarining birlashishiga to'sqinlik qiluvchi ichki omillar.** Bugungi kunda ikki koreys davlatlari o'rtasida ham birlashishga to'siq bo'lib turuvchi omillar ham mavjud. Bu ular o'rtasidagi raqobat hisoblalnadi. Ya'niki, ular birlashishni o'z rejimlari ostida bo'lishiga harakat qilmoqda. Janubiy Koreya oxirgi ikki dekad'da (o'nyillikda) jahon iqtisosdiy tizimida yetakchi davlatlardan biriga aylanib ulgurdi. Bu, albatta, AQSh va yapon kapitallarining janubning iqtisodiyotiga kirib kelushuvi sabablidir. Shimoliy Koreya bo'lsa jahon hamjamiyatida izolyatsiyada qolgan davlat hisoblanadi. Uning iqtisodiyoti ham ancha past bo'lib, bori ham asosan harbiy sohaga safarbar etilgan. Quyida berilgan ikki davlatlarning temir yo'l tizimlari orqali ham iqtisodiyoti o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1950-yildagi Shimolning bosqinidan keyin ikki koreys millatining birlashishga bo'lgan ishonchi yo'qoldi. Ular shu vaqtga qadar iloji boricha tezroq birlashishga harakat qilishgan edi. Koreyslar Ikkinci jahon urushidan keyin nima sababdan bunday ikki davlat manfaatlari o'rtasidagi nishon bo'lib qolganliklariga quyidagicha talqin qiladilar: "Bizlar ikkinchi jahon urushigacha o'z mustaqilligimiz va armiyamizga ega bo'lmaganmiz va shu sababdan ham bizning hududimizni boshqalar himoya qilib chiqdi. Keyinchalik bu holat bitta xalqning ikkiga bo'linib kelishiga olib keldi". Darhaqiqat, Koreya yarimorolining taqdiri 1943-yilning 1-dekabrida Qohira konferensiyasida hal qilinib bo'lingan edi. Konferensiysaning yakunlovchi shartnomasini AQSh, XXR va Buyuk Britaniya vakillari imzolagandi va ular Yaponiyaning Tinch okeani havzalaridagi baracha bosib olingen yerlarini ozod qilishga kelishib olgandilar.

Ikki davlatlar o'rtasidagi munosabatlar turg'unligicha saqlanib qolaverdi. Faqtgina 1971-yilning 15-avgustida Niksonning siyosatidan (Xitoy bilan aloqalarning yo'lga qo'yilishi) keyin aloqalar jonlandi desak bo'ladi. 1972-yilning 4-oktabrda Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya vakillari maxfiy ravishda uchrashadilar va "Shimol-Janub qo'shma Kommyunikesi"ni imzolashadilar. Ular davlatni sekin-sekin tinch yo'l bilan birlashishiga keklishib oladilar. Shartnomaga ko'ra shimol bilan janubning birlashishi quydagi prinsiplar asosida olib boriladigan bo'ldi:

**Birinchidan,** birlashish boshqa hech qanday tashqi kuchlarning aralshmasidan olib borilishi kerak;

**Ikkinchidan,** birlashish hech qanday kuch ishlatish yoki harbiy harakatlarni qo'llash asosida bo'lmasligi kerak. U faqat tinch yo'l bilan amalga oshirilmog'i zarur;

**Uchinchidan,** har ikkala davlatlar ham iloji boricha birlashish va intergratsiya jarayonlariga intilishlari kerak;

Ikki koreys davlatlarining birlashuvida 1998-yildan 2003 yilgacha Janubiy Koreyaning 15-Prezidenti bo'Igan Kim De-jun juda katta ro'l o'ynaydi. Prezident Kim Koreyaning birlashuvida shahdam qadamlar tashladi va tinchlikni o'rnatish sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Prezident Kim De-jun 2009-yilning 18-avgustida 83 yoshida vafot etdi.

Prezident Kim De-jun Shimol bilan olib borgan siyosati "Sunshine policy" deb atalgan va bu darvda haqiqatdanda ikki mamlat o'rtasidagi aloqalar har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tarilgan edi. Kim De-junning bu siyosati uchta birlashish borasidagi strategik maqsadlarni ko'zlagan edi. Bular quydagilardan iborat edi:

- Shimoliy Koreyaning harbiy provakatsiyalarini cheklash;
- Janubiy Koreyaning Shimol bilan yaxshi aloqalarini yo'lga o'yish. Bu ayniqla madaniy aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutar edi. Shu bilan birga Koreya urushi natijasida ajralgan oilar ham uchrashishlari kerak edi;
- Janubiy Koreya Shimolga imkon qadar iqtisodiy ko'mak berishi kerak edi. Keyinchalik esa ikki davlatlar ham integratsiyani kuchaytirish natijasida yagona birlashgan hukumat tuzish;

Kim De-jun olib borgan siyosatining ilk qadamlaridan biri 2000-yilning 15-iyunida Koreya urushidan keyin tarixda birinchi marta

davlat rahbarlari uchrashadilar. Ular Shimol va Janub o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va birlashishni bosqichma bosqich tinch yo'l bilan amalga oshirishga kelishib oldilar. Uchrashuv yakuniga ko'ra "ShimolJanub qo'shma deklaratsiyasi imzolandi. Unga ko'ra:

1. Ikki davlat rahbarlari birlashuv jarayonini tashqi kuchlar aralashmagan holda mustaqil hal etishga kelishib oldilar.

2. Muammosiz birlashish uchun ham Shimol, ham Janub elementlarini e'tiborga olgan holda davlatlarning birlashuvini amalga oshirish.

### 3. Shimoliy Koreya va

Janubiy Koreya birdek gumanitar masalalarni hal qilishga kelishib oldilar. Bu birinchi galda ajralib ketgan oilalarni uchratishni nazarda tutar edi.

4. Shimoliy va Janubiy Koreyalar bir birlariga o'zaro ishonch bildirishsdilar va iqtisodiy, madaniy va sport sohalarida hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

5. Shimoliy va Janubiy Koreya davlatlari yaqin kelajakda ushbu imzolangan shartnoma asosida birlashish masalasi bo'yicha ikki tomonlama muloqot o'tkazishga kelishib olishdilar.

Kim De-jun olib borgan yaqinliik siyosatining dastlabki amamliy harakatlardan biri sifatida 2002-yilda "Kimgangsan" turistik kompleksining ochilishi bo'ldi. Ushbu region Shimoliy Koreyaning janubiy-sharqiy hududida joylashgan bo'lib dastlabki davrlarda juda ko'p janubiy koreyalik turistlarning oqib kelilish makoni bo'ldi. "Sovuq urush" sababli ikki koreys davlatlari o'ttasidagi chegaradan hali hech bir fuqoro o'tmaganligi sababli janubliklar uchun bu juda qiziqarli bo'ldi. Chunki tarixan Shimoliy Koreya ham o'z vatanlarining bir qismi bo'lishgan. Biroq bu aloqalar uzoqqa cho'zilmadi. 2008-yilning iyul oyilida ushbu turistik regionda 53-yoshli janubiy koreyalik turistning shimoliy koreyalik askar tomonidan otib o'ldirilgandan keyin bu region yopib qo'yildi. Biroq Janubiy Koreya Birlashish vaziri Kim Ho-nyonning xabar berishicha, ayol Shimoliy Koreya harbiy hududiga kirgan va bir necha marta ogohlantirilgan. Orqaga qaytmaganligi tufayli otib tashlangan.

Janubiy Koreyaning Shimol bilan oliq borgan yaqinlik siyosatining amaliy tadbirlaridan biri bu Janubiy Koreya kapitali ko'magi bilan Keson iqtisodiy parkining tashkil etilishi bo'ldi. Bu orqali Shimoliy Kokreyaga katta ko'mak ko'rsatdi. 2005-yilda uning hajmi

324-million AQSh dollariga yetdi. 2013-yilning aprel holatiga kelib ushbu sanoat majmuasida 53,000 Shimoliy Koreyalik ishlashdilar. Shu bilan birga 800 janubiy koreyalik hizmatchilar ham faoliyat ko'rsatishdi. Aynan Keson sanoat majmuasi tufayli Shimoliy Koreya hukumati yiliga 90 million AQSh dollari miqdorida soliq olib turishdi.

2013-yilning boshidagi Koreya inqirozi natijasida ikki davlatli o'rtasidagi munosabatlar sovuqlashadi. 2013-yilning 8 aprelida Shimoliy Koreya hukumati iqtisodiy zonada ishlagan 53,000 barcha ishchilarini chaqirib oladi. Shu bilan Keson iqtisodiy zonasiga barcha faoliyatini to'xtatadi. Biroq ko'p o'tmasdan, 2013-yilning 15avgustida ikki davlatlar ham Keson iqtisodiy zonasini qayta ochishga kelishib oldilar.

Yuqorida amalga oshirilgan tadbirlardan shunday xulosachiqarishimiz mumkinki, har ikkala mamlakat birlashishga moyilligibor bor. Biroq ular bunga turllicha yo'llar bilan erishishni xohlashadilar. Janubiy Koreya Konstitutsiyasining 4-moddasiga muvofiq davlat birlashishga harakat qiladi. Birlashgan Koreya erkinlik va demokratik qadriyatlar prinsiplariga tayanmog'i zarurdir. Shimoliy Koreyaning birlashuvga bo'lgan munosabati shunaqaki, u birlashuvlни faqat ikki koreys davlatlari hech qanday tashqi kuchlarning aralashuvidan holi bo'lgan holda amalga oshirilishining tarafdiridir.

*Birlashishga to'sqinlik qiluvchi tashqi omillar.* Hozirgi kunda Koreya muammosida bir qancha davlatlar qatnashmoqda. Shimoliy Koreyani oladigan bo'lsak, uning an'anaviy ittifoqdoshi Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Xitoy Shimoliy Koreyaning ishonchli ittifoqdoshi desak aslo xato bo'lmagan bo'lardi. 1950-1953 yillardagi Koreya Urushida ham Shimoliy Koreyaning yengilish paytida ham Xitoy uni himoya qilib chiqqan. Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi huddi sobiq Sovet Ittifoqi olib borgan pozitsiyani qo'llammoqda, ya'ni rasman qo'llab quvvatlamasdan yashirinch qo'llab quvvatlamоqda. Janubiy Koreyaning oladigan bo'lsak, uning an'anaviy ittifoqdoshi AQSh Qo'shma Shtatlari hisoblanadi. Ikki davlatlar o'rtaida harbiy soha bo'yicha strategik hamkorlik va ittifoqdosohlik shartnomasi ham imzolangan. Garchand Yaponiya Koreya yarimorolida o'zining tarixiy huquqi borligini his qilib tursada, "katta akalari"ning gapiga qulloq solmasdan boshqa ilojisi yo'q. AQSh tarkibida bo'lgan tashkilotlar ham Janubni qo'llab chiqishi aniq hodisadir.

Agar Shimoliy Koreya bilan Janubiy Koreya yaqin orada birlashadigan bo'lsa nafaqt Uzoq Sharqdagi, balki dunyodagi kuchlar

muvozananti o'zgarib ketadi. Koreya yarimorolida bunday qudratli davlat tashkil topishi ehtimilining katta bo'lishiga yetarli asoslar mavjud. Shimoliy Koreyaning oladigan bo'lsak, u bugungi kunda harbiy jihatdan yetakchi mamlakatlaridan biri hisoblanadi. U dunyodagi qo'shnulari soni bo'yicha to'rtinchchi o'rinda turuvchi davlat hisoblanadi. Uning harbiy potensialini tahlil qiladigan bo'lsak, 1,020,000 aktiv qo'shin, 110,00 aviatsiya va 60,000dan ortiq floti bor. Bundan tashqari Shimoliy Koreyanig rezervdagi 600,000 qo'shini mayjud. Janubiy Koreyaning esa 522,000 armiyasi, 68,000 floti va 65,000 avviatsiyasi mavjud. Yuqoridagi keltirilgan kuchlar birlashsa "yangi ajdarho" tug'ilishiga shubha yo'q. Quyidagi suratda Shimoliy va Janubiy Koreyalar, shuningdek Yaponiyaning harbiy salohiyatlari tahlili berilgan.

Michael H. Armacost va Kenneth B. Pyle o'zlarining "Yaponiya va Koreya birlashuvi va uning AQSh siyosatiga ta'siri" nomli reportida Koreya yarimorolni AQSh tashqi siyosati va uning kelajakdagi strategik maqsadlari va rejalar uchun o'ta muhim geopolitik makon ekanligini aytib o'tishadi. Ular Koreya yarimorolni hattoki Yaponiyadan ham strategik muhimroq hudud ekanligini ta'kidlab o'tishadi. Koreya AQSh uchun Sharqda va butun OsiyoTinch okeani mintaqasida tartib o'matish uchun muhim. Ayniqsa, bu hududda Xitoy va Rossiyanı nazorat qilishda Koreya platforma vazifasini bajaradi. Koreyadan turib AQSh Rossianing Tinch okeaniga bemalol chiqib-kirishini nazoratga olishi mumkin. Bundan tashqari Xitoyni ham bemalol nazorat qila oladi. AQShning nima sababdan Koreya birlashuviga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida oladigan bo'lsak, Shimoliy Koreya birlashuv jarayonida Janubiy Koreyadagi barcha xorijiy qo'shnarning chiqib ketishini talab qilmoqda. AQSh esa bu hududdan chiqib ketish niyati yo'q. Mana muammo qayerda!

Janubiy Koreya hududidagi AQSh harbiy bazalari olib chiqib ketilsa, bu – AQSh uchun qimmatga tushadi. Bundan tashqari 2013-yilning fevraliga kelib Shimoliy Koreya o'zining navbatdagi yadro sinovini o'tkazgandan keyin AQSh bu muammoga yanada jiddiylik bilan qaray boshladi. O'zining tashqi siyosatida "xalqaro politsiya" prinsipini ustun olib boradigan AQSh uchun kuchlar muvozanatini o'zgartirib yuboradigan yangi kuchning tug'ilishi, unng uchun ham yangi xavfning tug'ilishi demakdir. Ayniqsa yadro potensialiga ega bo'lgan davlatning paydo bo'lishi.

Shuning uchun ham Amrika Koreya yarimorolining birlashuviga xayrihohlik bildirmaydi, ayniqsa Shimoliy Koreya tizimi ostidagi birlashuvga. So'ngi paytlarda Washington rasmiyalar Seul bilan birlashish borasida muzokalar olib bormoqda. Shuningdek, ikki davlat davlat rasmiyalari turli reja va dasturlar ham ishlab chiqmoqdalar. Ikki koreys davlatini AQSh tomonidan ishlab chiqilgan rejalar va tavsiyalari Shimoliy Koreya uchun shubhasiz ijobiy emas. Buni anglagan Pxenyan bugungi kunda keskinlik siyosatini olib bormoqda. Bu hodisalarning barchasi Shimoliy va Janubiy Koreya-larning birlashuviga katta g'ov bo'lib turibdi.

Yaponiya uchun Koreya yarimorolida bo'layotgan voqealar o'z davlati va uning siyosati uchun juda muhim hisoblanadi. Tarixan Koreya yarimoroli 35 yil davomida Yaponianing mustamlakasi bo'lib kelgan va bu yarimorolning resurslarga qanchalik boy ekanligidan xabardor. Yaponya urushdan yengilgandan keyin ham yarimorolga ta'sir o'tkazishga harakat qilgan bo'lardi agar AQSh bunga ruhsat bergenadi.

Yaponianing bu harakatini ushlab turgan davlat aynan AQSh hisoblanadi. Janubiy Koreyada 70yillarda Pak Chong-hi davrida ro'y bergan "Hangang daryosi yonidagi mo'jiza" dan keyin Yaponiyada yana Koreyada o'z ta'sirini oshirishga bo'lgan ishtiyoq tug'ildi. Bu, albatta, avvalgidek harbiysiyo emas, balki iqtisodiy ta'sir ko'rsatishsdir. Bugungi kunda Janubiy Koreya Yaponianing AQShdan keyingi ikkinchi yirik iqtisodiy hamkorি hisoblanadi. Janubiy Koreyaning iqtisodiy modeli qaysidir ma'noda AQSh va Yaponiya iqtisodiyotlari modeli asosida tashkil topdi.

Yaponianing Koreya birlashuviga to'sqinlik qilishining asosiy sababi ehtimol biqini yonida o'ziga qaraganda iqtisodiy va siyosiy kuchliroq davlat yuzaga kelishidan qo'rqqanligi sabablidir. Pekin universiteti professori Chen Fengjun Koreya yarimorolining birlashuviga eng kuchli qarshilik ko'rsatayotgan davlat bu Yaponiya deb aytib o'tadi. Birlashgan Koreya iqtisodiy va siyosiy jihatdan Yaponiyaga bemalol xavf tug'dirlishi mumkinligi sabab qilib keltiradi Pekin universiteti professori Chen Fengjun. Shuningdek, Chen Fengjun Yaponianing Koreya Xitoy bilan ittifoq tuzib Yaponiyaga qarshi "o'q otishi" mumkinligidan ham cho'chiyotganligini keltirib o'tadi.

Hammamizga ma'lumki, Shimoliy Koreya 2013-yilning fevral oyida o'zining navbatdagi yadro sinovini o'tkazgandan keyin jahon

hamjamiyati va BMT Shimoliy Koreyaga qarshi 2094 rezolyutsiya bilan sanksiysa e'lon qildi. Mamlakat xalqaro hamjamiyatdan izolyatsiyada qoldi. Barcha sohalar bo'yicha, ham iqtisodiy, ham moliyaviy, ham siyosiy sohalarda aloqalarga chek qo'yildi. Hatto Janubiy Koreya ham Shimolga oziq-ovqat va gumanitar yordam berishni to'xtatib qo'ydi. Bu holat Xitoy uchun imkoniyat tug'dirdi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xitoy Shimoliy Koreyaga turli iqtisodiy ko'maklar bera boshladi. "Pxenyan huddi Xitoyning bir provinsiyasiga aylanib qolgandek ko'rindi" deb aylib o'tilgan edi AQSh Senatining 2012-yilning 11dekabrdagi 112-Kongress 2 sessiyasida.

*Ikki Koreya muammosida Xitoyning tutgan o'rni.* Xitoyning pozitsiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, u birlashgan Koreyani unchalik "xush ko'rmaydi". Birinchidan, u Shimoldagi imkoniyatlardan voz kechish niyati yo'q. Bizga ma'lumki, Xitoy Shimoliy Koreya hududiga tarixiy da'vosi mavjud. U Shimoliy Koreya hududlarini tarixan o'ziga tegishli deb hisoblaydi. Ikkinchidan, Xitoy agar Koreya birlashadigan bo'lsa ko'proq Janubiy Koreya ostida birlashishini ham yaxshi biladi. Bu degani, o'z biqini ostiga AQSh va boshqa davlatlarning kelishi deganidir. 1950-1953 yillarda ham aynan shu sabab bilan Shimoliy Koreya tomonidan urushga kirgan edi. Shu holatlarni bartaraf etish uchun Xitoy Shimoliy Koreyani iqtisodiy qo'llab quvvatlab kelmoqda. AQSh Xitoyni Shimoliy Koreya yadro dasturini moliyalashtirishda ayblamoqda.

Umuman olganda aytish mumkinki, tili va qadriyatları bir bo'lgan Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya ichki va tashqi to'siqlarga qaramasdan huddi Germaniyadek birlashishi mumkin. Ichki muammolarni bartaraf etish unchalik qiyin bo'lmaydi, biroq birlashuvga to'siq bo'lib turuvchi tashqi muammolarni hal qilish biroz murakkab. Lekin bajarsa bo'ladi. Faqatgina biroz muddat talab qiladi. Buni Seul va Pxenyan ham yaxshi bilishadi. Shu sababdan ham Shimol bilan janubning birlashishini prognoz qilsak, u ikki xil senariyda sodir bo'lishi mumkin. **Birinchi senariy**, Shimoliy Koreya bilan Janubiy Koreyaning sekin intergratsiyalashuv jarayoni orqali birlashishdir. Bu senariy ancha sekin kechishi va ko'pgina vaqtini olish tayin. Ushbu birlashuv har ikkala davlatlar uchun ham mos keladi. Eng muhim, agar ushbu senariy sodir bo'ladigan bo'lsa Uzoq Sharqda qudratli bir davlat Birlashgan Koreya vujudga kelishi shubhasiz. **Ikkinci senariy**, Shimoliy Koreyadagi tuzumning

ag'darilishi va demokratik qadriyatlarga asoslangan Birlashgan Koreyaning vujudga kelishi. Bu ham sodir bo'lishi ehtimoli katta bo'lgan senariyidir.

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahan xaritasida Sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. KHDR tashqi siyosat kontseptsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Sharqiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aylib bering ?
4. KHDRning AQSh va Evropa davlatlari bilan munosabatlari qanday ?
5. AQShning Sharqiy Osiyodagi ziddiyatlariga munosabati qanday ?
6. Sharqiy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlariga tavsif bering.
7. Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
8. Sharqiy Osiyo mamlakatlarini hamkorligi haqida ma'lumot bering.
9. Shimoliy Koreyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyligi tavsif bering.
10. Hozirgi davrda KHDR – Xitoy munosabatlari qanday holatda?

#### Mustaqil ish savollari:

1. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
2. KHDRning xalqaro munosabatlardagi o'mini yoritib bering.
3. KXDR tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat?
4. Zamonaviy bosqichda Sharqiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
5. "Sharqiy Osiyo davlatlari – AQSh munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.
6. Rossiya tashqi siyosatida KHDR to'g'risida ma'lumotlar to'plash.

7. J.Koreya tashqi siyosatida Shimoliy Koreya yadro dasturi muamosini yoritib bering.
8. AQSh tashqi siyosatida Sharqiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
10. "KXDR yadro qurollari muammosi" mavzusida nutq tayyorlash.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Мухаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Farb мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўкув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaivi xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

### **3-BOB. JANUBI-SHARQIY OSIYO DAVLATLARI XALQARO MUNOSABATLARI**

#### **3.1. Janubi-Sharqiy Osiyoning mintaqaviy xavfsizligini ta'minlash muammolari**

##### **Darsnig o'quv maqsadi:**

- talabalarni Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** *Transmilliy tahdidlar, ASEAN, OTOIH, "Osiyo klub", Fukuyama F., Senkaku, Dyaoyuydao, "yena" integratsion guruhi, "Look East" kontsepsiysi, "wild flying geese" konsepsiysi, "ASEAN plus uch" muloqoti.*

##### **Asosiy savollar:**

1. Transmilliy tahidlarni mintaqqa xavfsizligiga ta'siri.
2. Janubi-Sharqiy Osiyo xavfsizlik tizimiga ta'sir etuvchi kuchlar.
3. Janubi-Sharqiy Osiyo xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar.

**Transmilliy tahidlarni mintaqqa xavfsizligiga ta'siri.** "Sovuq urush"ning tugashi keng ko'lamli konflikt yuz berishi ehtimolini chetga surib, xavfsizlikka tahidlarning yangi omillari paydo bo'lishiga olib keldi. Transmilliy tahidilar deb nomlangan bu omillarning aksariyati konfrontatsiyadan keyingi davrda chek-chegarasiz ko'rinish kasb etdi. Tizimlararo qarama-qarshilik yillarda mavjud bo'lgan tahidlarning aksariyatiga ular embrional holatda bo'lgani bois jiddiy e'tibor berilmas edi. XX asming 90-yillari boshida global xalqaro munosabatlarda yuz bergen tub o'zgarishlar mazkur tahidlarning rivojlanishi va jahon hamjamiyatining deyarli barcha davlatlarida barqarorlik, osoyishtalik va farovonlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi olamshumul omillarga aylanishi uchun

qulay zamin yaratdi. So'zning keng ma'nosidagi milliy xavfsizlik sohasiga taalluqli bo'lgan bu yangi tahdidlar sof harbiy, harbiy-amaliy va umumfuqarovi gumanitar jihatlarni o'z ichiga oladi.

Janubi-Sharqi Osiyoning xavfsizligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda asosiy e'tibor keng ko'lamdagi xavfsizlik sohasiga, mazkur masalalarni echishga nisbatan kompleks yondashuv-larga qaratilgan, bunda tadqiqotchilar harbiy va harbiy-amaliy ishlanmalar doirasidan chetga chiqmagan. Ekologiyaga oid fanlarni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatmaslik muammolarini hisobga olmaganda, xavfsizlikka tahdidlarning yangi ro'yxati deyarli to'liq akademik va tarmoq fanlari e'tiboridan chetda qolib kelgan.

Yapon siyosatshunosi A.Tanaka qayd etganidek, xavfsizlik muammolari doirasi kengayishi natijasida bu borada munozaralar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish qiyinlashdi. Bir tomondan, "sovuj urush"ning tugashi xavfsizlikning harbiy jihatlarini tadqiq etishga qiziqishning susayishiga sabab bo'ldi, boshqa tomondan esa, jahon tizimining boshqa sohalarida dramatik o'zgarishlar yuz bermoqda. "Shimol"dan, ya'ni sobiq Sovet Ittifoqidan chiqqan harbiy tahdid barham topgan bo'lsa-da, jahon tizimi hozirgi vaqtida klassik xalqaro tizimdan sezilarli darajada farq qiladigan shakl-shamoyil kasb etdi.

Hozirgi bosqichda Janubi-Sharqi Osiyoda xavfsizlik muammolari oid tadqiqotlarning eng muhim vazifasi sifatida global xavfsizlikning hozirgi xususiyatiga tegishli bo'lgan keng kontseptual chegarani aniqlash e'tirof etiladi. Bu xususda har xil nuqtai nazarlar mavjud. "Realistlar" ularni, "sovuj urush" tugaganiga qaramay, muqobilsiz deb baholaydi, boshqa olimlar "sovuj urush"ning tugashi ikki qutbli tizimdan iborat bo'lgan dunyoni global xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi xalqaro munosabatlар mantiqiga ko'proq mos keluvchi ko'p qutbli dunyoga aylantirdi, deb hisoblaydi. Nihoyat, optimistlar fikriga ko'ra, "sovuj urush"ning tugashi liberal demokratiya mafkurasining tantanasini namoyish etdi va jahonni liberal xalqaro tartibot yo'liga kiritdi. Ammo bu nuqtai nazarlarning birortasi ham hozirgi jahon tizimining turli qismlaridagi real voqeqlikni aniq aks ettirmaydi. Teykyo universiteti professori A.Tanaka ta'kidlaganidek, Eron va Iraq, Ruanda va Burundi, Kanada va AQSh o'rtasidagi munosabatlarni tenglashtiruvchi har qanday nazariyani uzoqni ko'zlamaydigan nazariya deb hisoblash mumkin.

Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashning hozirgi holati xalqaro munosabatlarning beqarorligini

va xavfsizlik to'g'risida yapon-amerika shartnomasi tuzilgan vaqtidan boshlab jahondagi vaziyatda printsipial o'zgarishlar yuz berGANINI hisobga olgan holda shakllanmoqda. "Sovuj urush" tugaganidan so'ng, global yadroviy konflikt tahdidi yo'qolganiga qaramay, jahonda xavfsizlik qaror topgani yo'q. Uning o'mini lokal konfliktlar egalladi. Bu konfliktlarning aksariyat qismi Osiyoda yuzaga kelayotir. Jahondagi vaziyatni tartibga solishning ilgari amal qilgan "vositalari" yangi sharoitda ish bermay qo'ydi; ayni vaqtida ko'pgina mintaqaviy markazlar o'z maqsadlariga erishish yo'lida kuch ishlatalishdan ham-qaytmaydi. XXR-KXDR mintaqaviy "sotsialistik kichik tizim" saqlanib qolgan Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyodagi xalqaro vaziyatga ham beqarorlik xos. Siyosiy-mafkuraviy konfliktlilik yuqori darajada (KXDR – Koreya Respublikasi, XXR – Tayvan, Rossiya – Yaponiya), ajratilgan xalqlar muammolari keskinlashgan.

Evropadan farqli o'laroq, Osiyoda kuchli ko'p tomonlama siyosiy institutlar deyarli mayjud emas. Xavfsizlikni ta'minlovchi Evropa tuzilmalari (EI, NATO, EXHT, Evropa Kengashi)ga Osiyoda faqat ASEAN, xavfsizlik masalalari bo'yicha RFA va qisman OTOIH forumi ma'lum darajada mos keladi. ASEANGA Xitoy hamda Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyoning boshqa yirik o'yinchilari qo'shilman, OTOIH esa asosan konsultativ funktsiyalarni bajaradi. Osiyoda xavfsizlik ko'p tomonlama bitimlar yordamida emas, balki mintaqqa mamlakatlarining AQSh bilan ikki tomonlama shartnomalari, eng avvalo, AQSh bilan Yaponiya va AQSh bilan Janubiy Koreya o'rtasida tuzilgan xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalar hisobiga ta'minlanadi.

**Janubi-Sharqi Osiyo xavfsizlik tizimiga ta'sir etuvchi kuchlar.** Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyoda xavfsizlik tizimini yaratishda asosan to'rt kuch: AQSh, Yaponiya, XXR va ma'lum darajada Rossiya ishtirot etadi. Shu bois xalqaro xavfsizlik sohasida mintaqadagi vaziyatga berilgan baholar va unda tinchlik va barqarorlik o'rnatish imkoniyatlari asosan Vashington, Tokio, Pekin va Moskvaning pozitsiyasi va siyosatiga bog'liq bo'ladi. Mazkur sub'ektlar umumiyl xavfsizlik vaziyati o'z milliy manfaatlariga qay darajada muvofiq ekanidan kelib chiqadi. Bunda, tarixiy va siyosiy omillar ta'sirida, Tokio va Vashingtonning xavfsizlik masalalari xususidagi nuqtai nazarlari asosan mos keladi. Bundan tashqari, ba'zan tadqiqotchilardan Yaponianing xavfsizlik muammolariga

nisbatan yondashuvlari "AQShning yondashuvlaridan deyarli farq qilmaydi", degan gapni eshitish mumkin<sup>1</sup>.

Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyo sharoitida mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakkantirishga nisbatan AQSh va Yaponiyaning yondashuvlariga batafsilroq to'xtalib o'tish o'rinni bo'ladi deb o'yaymiz. Avvalambor, Tokio ham, Washington ham *ikki darajali xavfsizlik tizimini* – ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajalarda yaratishni maqsadga muvofig deb hisoblaydi. Ayrim siyosatshunoslar fikriga ko'ra, mintaqada xalqaro munosabatlarni rivojlantirishning Evropa-fargidan farq qiladigan alohida shart-sharoitlari shuni taqozo qiladi. J.Xopkins universiteti (AQSh) huzuridagi Nitsshe nomidagi Istiqbol uchun mo'ljallangan xalqaro tadqiqotlar maktabining professori F.Fukuyama mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida Evropa va Osiyo o'tasida mayjud farqlarni tarixiy omillar bilan izohlaydi. Uning qayd etishicha, "Evropa mamlakatlarini bir-biri bilan o'xshash madaniy ildizlar va umumiy tarixiy tajriba birlashtiradi; ularning aloqasi shu darajada mustahkamki, davlat suverenitetining muhim elementlaridan ular EI foydasiga voz kechadi. Osiyoda esa, aksinchalik, Ularning shubhalari qisman kuchlar muvozanatidagi o'zgarishlar, xususan Xitoy liderlik pozitsiyasidan Yaponiyani siqib chiqargani, lekin birinchi navbatda Tinch okeanidagi urush haqidagi xotira hal-hanuz saqlanib qolayotgani bilan izohlanadi. Shunday qilib, Osiyoda xavfsizlik sohasida hamkorlik spitsali g'ildirakka o'xshash mexanizmni o'zida ifodalaydi, bunda mazkur g'ildirak markazida Vashington turadi va u kuchlar muvozanatini ta'minlashda bosh vositachi va vakil rolini o'ynaydi". Ammo "sovujurush" davrida yaratilgan xavfsizlik sohasidagi "o'zaro muvozanat va cheklar tizimi"ning kuni bitib bormoqda. AQSh siyosida xavfsizlik kafilining o'zi kifoya qilmayapti. Boshqa davlatlar qatori, JShO mamlakatlarining siyosiy davralarida ham Osiyo ikki tomonlama tashkilotlar bilan bir vaqtida ishlaydigan ko'p tomonlama tashkilotlarning yangi tizimini yaratishga muhtojo ekanini yaxshi anglashadi.

Yapon siyosatchilarining fikricha, yangi ko'p tomonlama tizim AQShning faol yordamisiz vujudga kelishi mumkin emas. Bu fikrga

<sup>1</sup> Алиев Р.А. Безопасность в Восточной Азии: подходы США, КНР и России // Проблемы безопасности в Азии: Монография. – М.: Европейм-Пресс, 2001. – С. 93.

Vashingtondagilar ham, Tokiodagilar va Osiyoning ayrim boshqa mamlakatlaridagilar ham qo'shiladi. Shu bois yapon-amerika harbiy ittifoqi rivojlanishda davom etmoqda. Xitoylik tadqiqotchi V.Tszinboning qayd etishicha, bu ittifoqda eng jiddiy o'zgarishlar ikki tomonlama harbiy-siyosiy hamkorlikning yangi yo'nalishlari e'lon qilingan 1990-yillarning ikkinchi yarmida yuz berdi. Hamkorlikning bosh maqsadi inqirozli vaziyat yuzaga kelgan holda tomonlarning harakatlari jadal sur'atlarda va samarali muvofiqlashtirilishini ta'minlashdan iborat edi. V.Tszinbo mazkur ahdashuvlar mohiyatini quyidagicha tavsiflaydi: 1) xavfsizlik sohasida hamkorlik doirasida "Yaponiyani himoya qilish" kontseptsiyasi "Uzoq Sharqdagi inqirozli vaziyatlarni hal qilish"ga tayyorlikka aylandi; 2) ilgari Yaponiya AQShning passiv ittifoqchisi hisoblangan bo'lsa, endi u faol hamkorga aylanadi; 3) avvalgi tizimning xavfsizlik sohasidagi asosiy vazifasi (JShOdagi vaziyatni normallashtirish)ga Osiyo-Tinch okeani mintaqasida tinchlik va barqarorlikni himoya qilish g'oyasi qo'shiladi; 4) xavfsizlik sohasida yapon-amerika hamkorligi strategiyasi "himoyadan – himoya va hujunga o'tadi". Yapon-amerika hamkorligidagi bu o'zgarishlarning oqibatlari qurollanishni kuchaytirish, Yaponiyaning harbiy xarajatlarini ko'paytirishdan iborat bo'lishi mumkinligini JShO davlatlarida yaxshi tushunishar edi. Shunga mos ravishda mintaqada Yaponiyaning hududiy va boshqa konfliktlarni hal qilishga ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida roli oshar edi, bu esa, o'z navbatida, uning xalqaro maydonidagi siyosiy ta'sirini kuchaytirar, Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyo mamlakatlarining tegishli javob harakatiga sabab bo'lardi.

Shu bilan bir vaqtida Tokio va Washington mintaqadagi xavfsizlik ko'p tomonlama tizimi g'oyasini ham rivojlantiradi. AQSh nuqtai nazaridan, xavfsizlikni ta'minlash sohasida ko'p tomonlama tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va Osiyoda mustahkam xavfsizlik tizimini yaratishda amerikaliklar faol ishtirot etishi Vashingtonga mintaqada o'z harbiy va siyosiy mayjudligini kuchaytirish imkonini beradi. Bu AQShga eng avvalo Xitoy ishtirokidagi aksilamerika ittifoqlari paydo bo'lishining oldini olish uchun mustahkam mavqega uzoq muddatli istiqbolda ega bo'lish uchun imkoniyat yaratadi. Mintaqada o'mashib qolish maqsadida AQSh bu erdag'i davlatlar bilan faol o'zaro aloqa qiladi, ularga xavfsizlikka doir turli g'oyalarni "beradi" va ularni amalga oshirishni rag'batlantiradi. Masalan, Janubi-

Sharqiy Osiyo shartnomasi tashkiloti (SEATO) va OTOIH singari institutlarni tashkil etishga aynan AQSh homiylik qildi va ularni qo'llab-quvvatladi.

Ayni vaqtida, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda vaqt-i-vaqt bilan shu jumladan Osiyo davlatlarining o'z rivojlanishi va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun alohida javobgarligi g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan aksilamerika tendentsiyalari ham yuz ko'rsatadi. Masalan, 1989 yilda Malayziya bosh vaziri M.Moxammad AQSh ishtirokisiz Sharqiy Osiyo iqtisodiy kengashini tuzishni taklif qildi. Bu tashabbus AQShning noroziligiga sabab bo'ldi: Washington bunda mintaqadan G'arbni siqib chiqarish va "Osiyo klub'i"ga AQShni qo'ymaslik niyatini ko'rdi. Shu bilan bir vaqtida, AQSh Osiyodagi nisbatan yangi ko'p tomonlama tuzilma – Koreya xavfsizligi va yadro quroli muammosi bo'yicha olti tomonlama (AQSh, Shimoliy va Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya) muzokaralarda faol ishtirok etmoqda. Bu sxemani AQSh 1994 yilgi Hadli bitim barbod bo'lidan, Pxenyan o'z yadroviy dasturlarining kelajagi xususida amerikaliklar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishni talab qila boshlaganidan keyin qabul qilgan. Shimoliy Koreya rahbariyati shu tariqa Vashingtonni uning ko'p tomonlama muzokaralar o'tkazishni talab qilayotgan ittifoqchilar – Janubiy Koreya va Yaponiyadan ajratmoqchi bo'lgan. Biroq Vashington Pxenyanning AQSh-Shimoliy Koreya muzokaralari haqidagi taklifini rad etdi va uni yadroviy muammoni olti tomonlama muzokaralar doirasida muhokama qilishga ko'ndirishga urinmoqda. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan olti tomonlama xavfsizlik tuzilmasi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama institutlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Yaponiyalik va amerikalik ekspertlar fikriga ko'ra<sup>1</sup>, unga doimiy tus berilishi Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya va AQSh o'rtaida to'g'ridan-to'g'ri aloqa kanalini yaratishi mumkin. Bu davlatlar ishtirokidagi tashkilot, Evropada EXHT singari, xavfsizlikning bir qator masalalarini echishni o'z zimmasiga olishi mumkin. Doimiy ishlaydigan forum doirasida uzoq muddatli muammolar (Osiyoda qurollanish poygasining boshlanishi, mintaqaning harbiy-

lashuvi, yadro qurolining tarqalishi xavfi)ni echish yo'llari belgilanishi mumkin.

*Janubi-Sharqiy Osiyo xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar.* Umuman olganda, JShO mamlakatlarining xavfsizlik sohasidagi siyosati mintaqadagi eng xavfli zonalarni aniqlashdan kelib chiqadi. Mintqa mamlakatlari uchun tashqi siyosiy xavflarning asosiy manbalarini ekspertlar, birinchidan, Koreya yarimorolidagi keskinlik bilan bog'laydi. Bu keskinlik yadroviy tahdid yordamida o'z qo'shnilariga bosim o'tkazayotgan Pxenyanning harakatlari bilan bir qatorda, ikki Koreyaning birlashish ehtimoli bilan ham belgilanadi, zero, so'nggi zikr etilgan omil xavfsizlik kontekstida o'zgarish yasashi, AQShning Yaponiya va XXRga nisbatan siyosatida tegishli o'zgarishlar yuz berishiga olib kelishi mumkin. Kelajakda birlashgan Koreyadek qudratli, boz ustiga yadro quroliga ega bo'lgan qo'shnining paydo bo'lishi Yaponiya uchun jiddiy xavf tug'diradi. Rossiyalik tadqiqotchi V.F.Terexov qayd etganidek, "umuman olganda Koreya uning ikkala qismi birlashishi olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarning nomuayyanligi saqlanib qolayotgani bois, tahdidlar zonasini sifatida qaraladi". Ikkinchidan, Tayvan atrofidagi vaziyat ham Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning konfliktli zonalaridan biri deb qaraladi. So'nggi vaqtida Xitoy Tayvan muammosini harbiy yo'l bilan echishga tayyor ekani haqida ko'p gapirilmoqda. Bu ko'rfazda urush boshlangan taqdirda uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish muammosini Yaponiya hamda Xitoyning boshqa qo'shnilarini uchun birinchi o'ringa chiqaradi. Shunday qilib, xavfsizlikning hozirgi vaqtidagi holatini tahlil qilish va uning kelajakdagagi holatini prognozlashtirish mintaqada o'ta xavfli "zonalar" ikkita ekanini ko'rsatadi: birinchi – Koreya yarimoroli; ikkinchi – Tayvan muammosi. Bunga Senkaku yoki Dyaoyuydao atrofidagi hududiy nizolarni (Yaponiya – XXR) hamda Janubiy Xitoy dengizidagi orollar atrofidagi hududiy nizolarni (XXR, Vietnam, Filippin, Malayziya) qo'shimcha qilish mumkin.

AQSh bilan kuchli ittifoqchilik munosabatlarini saqlab qolishdan tashqari, Yaponiya o'z xavfsizligini va o'zining atrofida barqaror muhitni ta'minlash uchun quyidagilarga tayanish niyatida:

1) Janubiy Koreya bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirishga. Hozirda amalda bo'lgan 1965 yilgi Yaponiya – Janubiy Koreya munosabatlarining asoslari to'g'risidagi shartnomasi

<sup>1</sup> Фукуяма Ф. Новый взгляд на Азию. – М.: Глобус, 2005. – 34-6.; Ёсинори Такэда. Истоки напряжённости в Северо-Восточной Азии. – М.: Московский центр Карнеги, 2004.

mamlakatning real ehtiyojlaridan ham ko'ra ko'proq "sovuj urush" merosi bilan bog'liq. Yaponiya – Janubiy Koreya munosabatlarning holati Koreya Respublikasida aksilyapon millatchiligi kayfiyatlar kuchliligi tufayli hali-hanuz barqaror emas. Tokio va Seulning "amalda yarashuv" mintaqada "ikki Koreya"ni birlashtirish uchun zarur bo'lgan yanada barqaror vaziyatni yuzaga keltirishga qo'shilgan muhim hissa bo'ladi, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtaida hamkorlik munosabatlarning kengayishiga olib keladi.

2) Xitoy bilan munosabatlarning normallashuviga. Mintaqadagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun bu omilning ahamiyatini Xitoy rahbariyati ham tan oladi. Masalan, 2004 yil 4 sentyabrda Pekingda Osiyo siyosiy partiyalarining 3-chi xalqaro konferentsiyasida ishtirok etish uchun tashrif buyurgan Yaponianing Komeyto partiyasi va Demokratik partiya delegatsiyalari bilan uchrashuv chog'ida Xitoy – Yaponiya munosabatlarning rivojlanishiga "ikkala davlat xalqlarining tub manfaatlarigina emas, balki Osyoning va butun dunyoning ravnaq topishi va barqarorligi ham bog'liq" ekani qayd etildi. Ikki tomonlama munosabatlarda mavjud muammolarga ko'proq e'tibor berish, ularni echish yo'llarini izlash va echish lozimligini Pekin ham, Tokio ham rasmiy darajada tan oladi.

3) Barqarorlikni ta'minlashning yana bir yo'li – xavfsizlik bo'yicha mintaqaviy ishonch ruhini shakllantirishga qaratilgan ko'p tomonlama tashabbuslar. Bu qo'shma harbiy mashqlar va tinchlikparvarlik operatsiyalarini tashkil etishni, kelajakda mintaqada tinchlik uchun sherikchilik tarmog'ini yaratishni nazarda tutadi.

4) Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb muammolarini echishda ishtirok etish. Xavfsizlik sohasida Tokio siyosatining mazkur yo'nalishi Yaponianing milliy qudratini oshirish fundamental muammosi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtida Yaponiyada milliy xavfsizlikni ta'minlash muammosiga yanada realistik yondashuv etakchilik qila boshladi. U faqat iqtisodiy qudratga tayanuvchi diplomatiya hozirgi voqelik bilan mos kelmaydi, degan g'oyaga asoslanadi. Yaponiya bundan buyon "o'z xavfsizligi uchun haq to'lay olmaydi". Bugungi kunda iqtisodiy qudratli Yaponiya, Z.Bjezinskiy ta'biri bilan aytganda, "AQSh tashqi siyosatining davomi bo'lishi, shu bilan bir vaqtida har qanday xalqaro siyosiy javobgarlikdan bo'yin tovashi mumkin emas. Siyosiy jihatdan obro'liroq bo'lgan, ayniqsa jahon mamlakatlari e'tirofini qozonishni mo'ljallayotgan Yaponiya

xavfsizlikning muhim masalalari bo'yicha yoki butun dunyoda tinchlik bilan bog'liq geosiyosiy masalalar bo'yicha aniq pozitsiyani egallamasligi mumkin emas"<sup>1</sup>. Biroq xalqaro ishlarda Yaponiya faol ishtirok etishiga Konstitutsiyaning 9-moddasi qoidalari monelik qilayotir. Ular Yaponiya o'z milliy chegarasidan tashqarida harbiy operatsiyalarda ishtirok etishini taqiqlaydi. Chet ellik tahlilchilarining fikricha, Yaponiya Konstitutsiyasining ayrim qoidalari qayta ko'rilganidan yoki uning butunlay yangi tahriri qabul qilinganidan keyingina mazkur davlat xalqaro maydonda "normal" o'yinchiga aylanishi mumkin. Ma'lumki, bu masala bo'yicha munozara Yaponiya parlamentida 2000 yilning fevralida boshlangan edi. Amerikalik tahlilchilar fikriga ko'ra, bu mamlakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi tashqi omillar tizimini o'zgartirishga nisbatan Tokioning munosabati o'zgorganidan, shuningdek Yaponiyani "normal" mamlakatga aylantirish jarayonida muhim bosqich boshlanganidan darak beradi. Chet ellik ekspertlarning qayd etishicha, Konstitutsiyani qayta ko'rish bo'yicha munozaralar "yaponlar tafakkurida yuz bergan dramatik o'zgarishlar"ni namoyon etadi va bu Yaponiya xalqaro harbiy tadbirlarda va tinchlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarida yanada faolroq ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari Yaponiya Osiyo-Tinch okeani mintaqasida AQShning ta'sir doirasini kengaytirish va xavfsizlik sohasida AQSh – Avstraliya munosabatlarni kuchaytirish rejasida asosiy o'rinni egallaydi. Ekspertlar AQSh – Avstraliya ikki tomonlama integratsiyasining Yaponiya ishtirokida uch tomonlama integratsiyaga aylanish tendentsiyasi kuzatilayotganini qayd etmoqdalar. Bu mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash ishiga har bir ishtirokchiningsiyosiy, iqtisodiy va harbiy hissasini nazarda tutadi.

Harbiy-siyosiy jihatlardan tashqari, o'zining xalqaro maydonidagi rolini oshirishga intilish Tokioning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari tarkibiga yana besh mamlakat bilan qo'shilishga erishish yo'lida harakat qilish ahvida namoyon bo'layotir. Yaponianing bu intilishi zamirida, albatta, jahon davlatlari qatoridan o'rin olish, jahondagi o'z siyosiy ta'sirini o'zining iqtisodiy qudrati bilan muvofiq holatga keltirish niyati yotadi.

<sup>1</sup> Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и geopolитические императивы. – М.: Международные отношения, 1998. – С. 212.

O'z-o'zidan ravshanki, Yaponiya global rivojlanish va xavfsizlikning ko'pgina muhim muammolarini echishda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi sifatida ijobji rol o'ynashga amalda qodir.

Shunday qilib, xavfsizlik sohasida JShO mamlakatlari hamkorligining asosiy printsiplariga quyidagilar kirdi:

- harbiy bloklarga qo'shilmaslik;
- tashqi siyosiy muammolarni tinch yo'l bilan echishga intilish;
- konfliktlarni kuch ishlatmasdan hal qilish;
- yadroviy quroldan va boshqa ommaviy qirg'in qurollaridan voz kechish, JShOda qurollanish poygasiga yo'l qo'ymaslik;
- kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan qo'rqtishdan voz kechish.

#### **Nazorat va topshiriq savollari:**

1. Indoneziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini gapirib bering?
2. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
3. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining Rossiya va Xitoy bilan munosabatlari qanday?
4. Bugungi kunda AQShning Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosati?
5. Janubi-Sharqiy Osiyodagi Bruney, Vietnam, Myanma davlatlarining xalqaro munosabatlardagi o'rniga tavsif bering.
6. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi ASEAN haqida ma'lumot bering.
8. Hozirgi davrda Myanma – Bangladesh munosabatlari qanday holatda?
9. Zamonaviy bosqichda mintaqadagi muammolarning Janubi-Sharqiy Osiyo xavfsizligiga ta'siri qanday ?
10. Hozirgi davrda Myanmadagi kofesssiyalararo ziddiyatlar haqidama'lumot bering.

#### **Mustaqil ish savollari:**

1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.

2. Singapurning xalqaro munosabatlardagi o'rnini yoritib bering.
3. Malayziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat ?
4. Zamonaviy bosqichda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
5. "Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari - Xitoy munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.
6. Yaponiya tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
7. Filippin tashqi siyosatini yoritib bering.
8. Janubiy Koreya tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
10. Mintaqalari tashqi siyosatida "islom omili"ni yoritib bering.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Мұхаммадсidiқов М.М. Хорижий Шарқ ва Farб мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

### **3.2. ASEAN Janubi-Sharqiy Osiyoda siyosiy muloqotning markaziy institutsional mexanizmi sifatida**

#### **Darsning o'quv maqsadi:**

- talabalarni Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining asosiy yo'naliishlari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** *Transmilliy tahdidlar, ASEAN, OTOIH, "Osiyo klubi", Fukuyama F., Senkaku, Dyaoyuydao, "yena" integratsion guruhi, "Look East" kontseptsiyasi, "wild flying geese" konsepsiysi, "ASEAN plus uch" muloqoti.*

#### **Asosiy savollar:**

1. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari.
2. ASEAN doirasida integratsiya jarayonlarining jadallahushi.
3. ASEANning mintaqqa davlatlari o'rtafiga o'zaro munosabatlarning rivojlanishidagi roli.

**Osiyo-Tinch okeani mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari.** Hozirgi nazariy tadqiqotlarda regionallashuvning ikki asosiy tipi farqlanadi. Birinchi tip mintaqaviy davlatlarning paydo bo'lishi va faol yuksalishi hamda buning natijasi o'laroq, mintaqaviy muhitni o'z manfaatlarida tashkillashtirishga, ya'ni uncha yirik bo'lmagan mintaqaviy davlatlar bilan mintaqaviy davlatning siyosiy va iqtisodiy vazifalariga mos keluvchi munosabatlarni kelishuvlar yoki norasmiy amaliyotlar vositasida o'rnatishga ularning intilishi bilan bog'liq.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mintaqaviy va submintaqaviy darajadagi savdo-iqtisodiy tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Submintaqaviy tashkilotlar jumlasiga Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi – ASEAN ham kiradi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya jarayoni ayni shu tashkilotdan boshlangan.

ASEAN siyosiy, iqtisodiy va madaniy mintaqaviy hukumatlararo tashkilot hisoblanadi. U o'z saflarida JShOda joylashgan

mamlakatlarni birlashtirgan. Uni bevosita tashkil etgan davlatlar Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayland va Filippin hisoblanadi. ASEAN tarkibiga quyidagi davlatlar kiradi: Indoneziya, Malayziya, Singapur, Filippin (1967 y.), Bruney (1984 y.), Vietnam (1995 y.), Laos (1997 y.), Myanma (1997 y.), Kamboja (1998 y.). ASEAN a'zolari egallagan umumiy maydon 4,5 mln. kv. km ga teng. Mazkur hududda 592 mln. kishidan iborat aholi yashaydi. Uyushma a'zolari 14 rasmiy tilda so'zlashadi, kamida 7 dingga e'tiqod qiladi.

Janubi-Sharqiy Osiyoda umummintaqaviy integratsion guruhi tuzish g'oyasi taniqli yapon tahlilchisi K.Kodzima Sharqiy Osiyo erkin savdo zonasini kontseptsiyasini ta'riflab bergan 1960-yillarning o'rtalarida ilgari surilgan. 1970-yillarda Tinch okeani mintaqasini shakllantirish kontseptsiyasi paydo bo'lgan. XX asr 80-yillarining oxiri – 90-yillari boshida Janubi-Sharqiy Osiyoda Avstraliya va Yangi Zelandiya ham qo'shilgan "yena" integratsion guruhibi shakllantirish imkoniyatlari muhokama qilingan. Bu stsenariy "yena valyutasi" doirasida faoliyat ko'rsatuvchi Osiyo mamlakatlari blokining vujudga kelishini nazarda tutadi. Bunda uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi siyosat emas, balki iqtisod, ya'ni mazkur blokni shakllantiruvchi keng savdo-investitsiya oqimlari hisoblanishi ko'zda tutiladi. Yaponiya bu erda bosh o'yinchi hisoblanadi (masalan, G'arbiy yarimsharda AQSh singari). Bu stsenariy jahonda uch blokning mavjudligidan kelib chiqadi: shulardan biri – Yaponiya atrofida birlashgan mamlakatlardan iborat bo'lgan, Shimoliy Amerika va Evropa bloklari bilan raqobatlashadigan blok.

O'z milliy mustaqilligi va suverenitetini himoya qilib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari 1967 yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi (ASEAN)ga birlashdi. ASEAN Bangkok deklaratsiyasida qayd etilishicha, mazkur birlashishning maqsadi mintaqada jadal iqtisodiy va madaniy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik va barqarorlikni saqlashni ta'minlovchi tashkilotni tuzishdan iborat. Mintaqo mamlakatlari tomonidan tuzilgan ASEAN tashkiloti Janubi-Sharqiy Osiyoda mintaqo doirasida davlatlararo munosabatlarni uchun zamin yaratdi. Xalqaro voqealarni baholashda kelishmovchiliklar mavjudligiga qaramay ASEAN davlatlari tashkilotning mavjudlik davri mobaynida jahonda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga nisbatan umumiy nuqtai nazarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. Bu jarayonda Evropa bilan o'zaro munosabatlarni

chetga surish va Yaponiya bilan yaqinlashish birinchi darajali ahamiyat kasb etdi. Mazkur yaqinlashish eng avvalo iqtisodiy aloqalarining rivojlanishida, shuningdek ushbu mintaqada AQSh ta'sirining cheklanishida namoyon bo'ldi.

**ASEAN doirasida integratsiya jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Preferentsial savdo zonasini tashkil etish to'g'risidagi bitimga (1977 y.) muvofiq ishtirokchi-mamlakatlarga savdoga oid imtiyozlar berish;

- AFTA (ASEAN Free Trade Arrangement) bitimiga muvofiq erkin savdo zonasini tashkil etish. Bitim 2002 yil 1 yanvardan kuchga kirgan;

- ASEAN sanoat sohasida hamkorlik sxemalari;
- ASEAN investitsiyalar zonasasi (AIA) to'g'risidagi hadli bitimiga muvofiq kapitalning harakatini liberallashtirish.

1980-yillarning oxirida Malayziya siyosiy lideri M.Moxammad "Look East" degan nom ostida "Osiyoni osiyolashtirish" kontseptsiyasini taklif qildi. Bu kontseptsiyaga binoan Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning yapon modelini qabul qilishlari, Yaponiya esa mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning markaziga aylanishi lozim edi. Shu o'rinda R.Akamatsu tomonidan ishlab chiqilgan "uchayotgan yovvoyi g'ozlar galalari" (wild flying geese) yoki quvib etuvchi rivojlanish kontseptsiyasini qayd etish mumkin. Yaponiyada e'zozlanadigan mazkur obraz Janubi-Sharqiy Osiyoning shakllanish va sanoatlashish jarayoninigina emas, balki mamlakatlari o'rtafiga kuchlar nisbatini ham namoyish etadi. Kontseptsiyaga ko'ra, gala (Janubi-Sharqiy Osiy) boshida boshlovchi (Yaponiya) uchadi, unga qolgan g'ozlar (Osyo mamlakatlari – Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Tayvan, Malayziya, Tayland, Filippin, Indoneziya va boshqalar) ergashadi.

Janubi-Sharqiy Osyo, shuningdek mazkur mintaqasi mamlakatlari so'nggi o'n yilliklar mobaynida tashqi siyosat sohasidagi tadqiqotlarning muhim ob'ektiga aylandi. Bu, eng avvalo, jahon siyosati va iqtisodiy tizimida mazkur mintaqasi va bosh mintaqaviy markaz – ASEANning ahamiyati oshgani bilan belgilanadi. 1980–90-yillarda mintaqaning etakchi mamlakatlari – Indoneziya, Malayziya, Singapur va Tayland YaIM hajmini har yili o'rtacha hisobda 7% gacha ko'paytirish va o'n yillik ichida uni ikki baravar oshirish yo'li bilan

iqtisodiy sakrashni amalga oshirdi. 2000 yilda jahon umumiy YaIMda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarning ulushi 3,9% ni tashkil etdi. Mintaqadagi aksariyat mamlakatlarning jami ichki mahsuloti miqdori 2-3 baravar o'sdi. Ayni vaqtda, 4,5 ming kv. km. maydonni egallagan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda jahon aholisining taxminan 8,3% (500 mln. kishi) yashaydi, ularning yillik jami milliy mahsuloti miqdori qariyb 800 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. 2003 yilda ASEAN aholisining jon boshiga YaIM miqdori 1266 AQSh dollarini tashkil qildi.

Shunga qaramay, Osiyoda 1997 yilda yuz bergan iqtisodiy inqiroz Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarning zaif jihatlarini namoyish etdi. Moliyaviy inqirozning oldini olish imkonini beruvchi vositalar ularda mavjud emasligi ayon bo'lib qoldi. Inqirozning mintaqasi mamlakatlari ta'siri mintaqaviy aloqalarining siyosiy jihatdan nozik tizimi buzilishi xavfini paydo qildi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari innovatsion rivojlanish modeliga amal qiladi. Mazkur model iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar yaratishni, eksportga xos ashyo ishlab chiqarishdan voz kechishni, axborot-kommunikatsiya sohasidagi yutuqlardan foydalishni, jahon darajasidagi infratuzilmani davlatning faol ishtirokida amalga joriy etishni, Janubi-Sharqiy Osiyo integratsiya jarayonlarini jadallashtirish va chuqurlashtirish uchun yangi shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari jadal sur'atlarda rivojlanishi ASEAN doirasida evroga o'xshash yagona valyutani joriy etish imkoniyatlari bilan integratsiya jarayonini olg'a siljitch uchun zamin yaratdi. Evropa komissiyasi iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining rahbari K.Regling fikriga ko'ra, "hozirgi vaqtda Osiyoda, shu jumladan Janubi-Sharqiy Osiyo yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar Evropa qit'asida birlashtirish va yagona valyutani joriy etishdan oldingi yillarda sodir bo'lgan jarayonlarga ko'p jihatdan o'xshash. Mintaqasi mamlakatlari xos bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlik, moliya vazirlari va Osiyodagi etakchi banklar rahbarlarining yaqin hamkorligi bunga misol bo'lishi mumkin". Bizningcha, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda yagona valyuta joriy etilishi mumkin, lekin bunga hali ancha vaqt bor. Ayni vaqtda,

<sup>1</sup> Чекушкин А. Куала-Лумпур. – РИА Новости. – 15 июля 2005 г.

shu narsa ayonki, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari integratsiyaning mavjud samarali modellaridan nusxa ko'chirish niyatida emas, lekin o'z mintaqasining xususiyatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlarning rivojlanish darajasi, shuningdek davlatlarning maqsad va vazifalari bilan to'qnashmaydigan elementlarni ular tanlab oladi.

ASEAN tashkil topgan paytdan boshlab keskin muammolarga duch keldi: Uyushma a'zolari harakatlarining kelishilmaganligi, ular o'rtasidagi ishonchszilik, mamlakatlarning rivojlanish darajasi va tarixiy shart-sharoitlaridagi farqlar salbiy ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy kelishmovchiliklar va millatchilik omillari "yagonalik rang-baranglikda" degan shior ostida milliy manfaatlarning ustunligiga asoslangan o'zaro aloqa jarayoniga, umumiy sa'y-harakatlar bilan o'zaro ishonch muhitini yaratishga, integratsiyani chuqurlashtirishga, "kommunizm xuruji"ni qaytarishni tashkil etishga turtki berdi.

ASEAN doirasida xavfsizlik borasida hamkorlikning asosiy yo'nalishi terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashishga qaratilgan. Shu bilan bir vaqtدا, u o'zgarayotgan vaziyatga mos ravishda rivojlanadi. Hozirgi vaqtda xavfsizlik borasida hamkorlik sohasida ASEAN uch muhim yo'nalishni belgilagan: 1) terrorizmga, 2) giyovandlikka, 3) transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

Terrorizmga qarshi kurashish ASEAN uchun azaldan muhim. Qolgan ikki yo'nalish ilgari surilganiga ancha vaqt bo'lgan, lekin ular yuqorida ko'rsatilgan darajaga yaqinda ko'tarilgan. Bu ASEAN doirasida xavfsizlik borasidagi hamkorlikning yangi tendentsiyasidir.

XXI talablariga javob berib, ASEAN mamlakatlari innovatsion rivojlanish yo'lina kirmoqdalar. Mazkur yo'lning zarurligi integratsion o'zaro aloqani, eng avvalo mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishni, chet el mamlakatlari bilan ishlab chiqarish-texnologik kooperatsiyaga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qiluvchi global ishlab chiqarishga samarali qo'shilishga intilish bilan belgilanadi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari kapitalni samarali joylashirishga, investitsiyalarning samaradorlik darajasini oshirishga intilish jarayonida jahoning turli moliya tizimlari o'rtasida o'zaro aloqani kuchaytirishga alohida e'tiborni qaratadi.

Mintaqaviy aloqalarni mintaqasi doirasidagi yoki global aloqalardan ustun qo'yish moliyaviy integratsiya ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu erda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida jiddiy farq mavjudligini ham hisobga olish zarur. Ayrim

mamlakatlarda, masalan Filippinda tashqi moliyaviy majburiyatlar hajmining kattaligi rasmiy darajada mablag'larni jalg qilish natijasi hisoblansa, boshqa mamlakatlarda, aytaylik Singapur va Gonkongda bu majburiyatlar mazkur mamlakatlarning mintaqaviy moliyaviy markazlar sifatidagi rolini va ular global moliya bozoriga qo'shilishda eng yuqori darajaga etganini aks ettiradi.

Mintaqaviy tashkilot sifatidagi ASEANning samaradorligi to'g'-risidagi masalani tahlil qilayotganda, ichki mintaqaviy omillardan tashqari, Uyushma oldiga alohida tashqi siyosiy maqsadlarni qo'ygan va qo'yayotgan keng xalqaro kontekstni hamda Janubi-Sharqiy Osiyo geosiyosiy va geostrategik holatining xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Ularning orasida yirik davlatlar (AQSh, Xitoy, Hindiston, Yaponiya)ning mintaqadagi roli va manfaatlarini muvozanatga solish, Sharqiy Osiyodagi makroregionallashuv jarayonlarida ishtirot etish va ma'lum darajada ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish bor. 1990-yillardning ikkinchi yarmida ASEANning Rossiya bilan hamkorlik doirasasi kengaygani asosan Janubi-Sharqiy Osiyoda Xitoy, Yaponiya, Hindiston va AQShning rolini muvozanatga solish zaruriyati bilan belgilangan edi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ASEAN Sharqiy Osiyodagi regionallashuv jarayonlarida yagona o'yinchili sifatida ish ko'rishga va ASEANning xavfsizlik bo'yicha Mintaqaviy forumi faoliyatiga qarorlar qabul qilishning Uyushma ruhi bilan mos keluvchi kontseptual printsipini joriy etishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur forum hozirgi vaqtida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xavfsizlik va preventiv diplomatiya muammolarini bo'yicha siyosiy muloqotni keng ishtirokchilar, shu jumladan AQSh, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va EIni jalg qilgan holda amalga oshirayotgan bordan-bir tashkilot bo'lib qolayotir.

Ayni vaqtida, ASEAN va ARF faoliyati mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda kutilgan samarani bermadi va ular asosan ko'p sonli ishtirokchilar bilan xalqaro maslahatlashuvlar uchun forum rolini bajardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari va mintaqadan tashqaridagi davlatlar o'zaro aloqalarining ikki tomonlama va uch tomonlama formatlari xavfsizlik muammolarini echish nuqtai nazaridan avvalgidek ko'proq darajada samarali bo'lib qolayotir.

ASEANni kengaytirish (beshtadan o'ntagacha davlatga) dastlabki jarayoni har bir mamlakat o'zining aniq maqsadlarini ko'zlagan, eng avvalo davlatlar siyosatda mafkuraviy yondashuvlarni yumshatishiga tayyor bo'lgan sharotlarda yuz berdi. Shu davrda munosabatlarda muayyan "ilmiliqlik" paydo bo'lgandek taassurot tug'ildi, lekin bu xom xayol ekani tez orada ayon bo'ldi.

*ASEANning mintaqasi davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanishidagi roli.* Yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy sharotlarda Sharqiy Hindixitoy davlatlari ASEAN doirasida umuman olganda samarali rivojlanayotgan qo'shni mamlakatlarga qarab mo'ljal olish zarur degan xulosaga keldi. 1987 yil dekabrda bo'lib o'tgan ASEANning olyi darajadagi Uchinchi uchrashuvida Qo'shma bayonet imzolandi va u ASEANning mintaqada birlik va hamkorlikni mustahkamlashni davom ettirish ahdini tasdiqladi. Sharqiy Hindixitoy mamlakatlari tashqi siyosatda mafkuraviy mo'ljadlardan voz kechgani va ASEAN bilan hamkorlikni o'z iqtisodiy siyosati doirasida ham rivojlantira boshlagani, bizningcha, muhim ahamiyat kasb etdi. ASEANga qo'shilish ularga xalqaro maydonda o'z manfaatlarini himoya qilish imkonini berdi.

ASEAN ular uchun inson huquqlari va tuzumlarning avtoritarligi to'g'risidagi masalalar bo'yicha AQSh va G'arbning boshqa mamlakatlari tanqididan o'ziga xos "panoh"ga aylanishi, shuningdek iqtisodiy yordam kamaygan yoki to'xtatilgan holda donor vazifasini bajarishi lozim edi.

Sharqiy Osiyo integratsiyasining o'sish jarayonida kengayish va torayish tsikllarining o'rin almashishini (ayniqsa 1990–2000 yillarda) Sharqiy Osiyo regionalizmida ikki omil – ASEAN va u bilan bog'liq formatlardan iborat Osiyo omili hamda OTOIH forumida mujassamlashgan Tinch okeani omili o'rtasidagi raqobat bilan izohlash mumkin. Birinchi omil asosan Osiyo doirasida asta-sekin, tanlab va cheklangan tarzda yaqinlashish g'oyasini ifodalaydi. Ikkinci omil Osiyodan tashqaridagi mamlakatlar ishtirokida keng integratsiyani nazarda tutadi. Bu jarayonlar sirtdan 1950–1970 yillarda G'arbiy Evropada kontinental va evroatlantik integratsiya g'oyalarining o'zaro raqobatlashuvini eslatadi. G'arbiy Evropada bo'lganidek, Sharqiy Osiyoda ham tegishli raqobatdosh g'oyalar bir-biri bilan to'qnashgani yo'q, balki bir-biriga ta'sir ko'rsatgan holda rivojlandi.

1970-yillarda jahonning etakchi davlatlari, eng avvalo Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ilg'or davlatlar bilan ASEAN muloqotlari tizimi yaratildi. Muloqot bo'yicha keng ko'lamlari hamkorlar qatoriga 9 mamlakat (Avstraliya, Hindiston, Kanada, Xitoy, Yangi Zelandiya, Koreya Respublikasi, Rossiya, AQSh, Yaponiya), shuningdek EI va BMT Taraqqiyot dasturi kiradi. Muloqot tarzidagi o'zaro aloqa Hamkorlik qo'shma qo'mitalari yordamida amalga oshiriladi. Mazkur hamkorlik Sharq "uchligi" (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya) bilan ASEANning chuqurlashtirilgan o'zaro aloqasi mexanizmini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. 10-3 formatidagi bu mexanizm 2000 yilda rasmiylashtirilgan bo'lib, ASEAN uchrashuvlari bilan bir qatorda "o'n uchlik" va 10-1 formatida sammitlar o'tkazishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtida ASEANGa a'zo mamlakatlarning ayrimlarida Washington tomonidan ilgari surilgan Tinch okeanidagi mintaqalararo hamkorlik konseptsiyasiga qiziqish paydo bo'ldi.

Shuni qayd etish lozimki, Seul, Tokio va Pekining Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan integratsion aloqalarining rivojlanishi "ASEAN plus uch" muloqoti doirasida amalga oshmoqda. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Yaponianing tashqi iqtisodiy aloqalarida muhim o'rin egallaydi. Janubi-Sharqiy Osiyoda erkin savdo zonasining paydo bo'lishi hududida 2 mldr. aholi yashaydigan mamlakatlar umumiyo bozorining shakllanishiga olib kelgan bo'lur edi. 1996 yilda yana bir xalqaro tashkilot – ASEM tuzildi. U o'z saflarida ASEAN a'zolari, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va EIni birlashtirdi.

ASEAN plus Uch (ASEAN, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya) hukumatlararo forumi tutash mintaqalardagi mamlakatlar keng ishtirok etuvchi Sharqiy Osiyo iqtisodiy integratsiya uchun o'zakka aylanmoqda. Hozirgi bosqichda mazkur forum doirasida hamkorlik shartnomaviy-huquqiy bazasining tabiatiga ko'ra ajralib turadi. U murakkab, individual-gruppaviy xususiyat kasb etadi. Bu ASEAN mamlakatlari "10-1" formatida kollektiv sub'ekt sifatida bitimlar tuzishini anglatadi. Shu sababli "o'nlik" doirasida integratsiya sur'atlari va sifati mintaqasi miqyosidagi integratsiyadan ildamroq rivojlanishi lozim.

ASEAN plus Uch forumining Sharqiy Osiyoda regionalizmni rivojlaniruvchi etakchi institut sifatidagi roliga birinchi navbatda Yaponiya e'tiroz bildiradi. 2004 yil forumning Ventyandagi sammitida Malayzii bosh vaziri Abdulla Badaviy 2005 yilda Kuala-

Lumpur shahrida Sharqiy Osiyoning birinchi sammitini o'tkazishni taklif qildi. Bu taklif Xitoy bosh vaziri Ven Tszyabao tomonidan ma'qullandi. Yangi sammit ASEAN plus Uch formatidagi uchrasuvlar o'mini egallashi va Osiyoda integratsiya uchun keng yo'l ochishi nazarda tutildi. Badaviyning taklifiiga boshqa ishtirokchilar ham qo'shildi, lekin yangi tashkilot tarkibi to'g'risida masala qizg'in bahs-munozaraga sabab bo'ldi. Tashkilotga tegishinchalum qadar yopiq va ochiq tus berishni taklif qilgan Pekin va Tokio munozaralarning qarama-qarshi qutblaridan o'rinn oldi.

Xitoyning kuchayishidan hayiqish bir qator davlatlarning harakatlari modelini belgiladi. Ular 2005 yil dekabrda Kuala-Lumpur shahrida bo'lib o'tgan Sharqiy Osiyo inaugurationsi sammitida uning tarkibiga ASEAN plus Uch forumining 13 davlatidan tashqari Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandyani kiritishni talab qildi. Sammit yakunlari bo'yicha bergen bayonotida Maxatir a'zolik yuzasidan qabul qilingan qaror uning mintaqasi haqida tasavvurini aks ettirmasligini, Rossiya va Shimoliy Koreya mazkur sammitda ishtirok etish uchun Avstraliya va Yangi Zelandyaga qaraganda ko'proq huquqqa ega ekanini qayd etdi.

Bu qaror ASEAN mamlakatlari bo'lg'usi uyushmaning o'zagi roli o'ynashi uchun ham xizmat qildi. Inaugurationsi sammitida sinashta model qo'llanildi. 1997 yilgi ASEAN sammitiga Yaponiya bilan bir qatorda, XXR va Koreya Respublikasi ham taklif qilingan, shu tariqa Tokioning haddan tashqari kuchayishiga yo'l qo'yilmagan edi. 2005 yilda ayni shu mexanizmdan foydalanildi: Malayziya ilgari surgan va Xitoy qo'llab-quvvatlagan taklif qabul qilindi, lekin JShO mamlakatlari Pekinning ustunligiga yo'l qo'ymaslik uchun tashkilot tarkibini kengaytirdi. Pekin yangi uch a'zoning qabul qilinishi bilan murosa qilishga majbur bo'ldi va sammit o'tkazilishi arafasida XXR tashqi ishlar vazirligi Sharqiy Osiyo hamjamiyatini shakllantirishda bosh rolni yangi tashkil etilayotgan sammit emas, balki ASEAN plus Uch forumi o'ynashi haqidagi taklif bilan chiqdi. Bu qoida 2005 yilgi ASEAN plus Uch forumi sammitining Deklaratsiyasida qayd etildi.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasining sammiti Uyushmaning oliy organi hisoblanadi. U tashkil topgan 1967 yildan buyon 15 sammit o'tkazildi.

Regionalizmning raqobatdosh modeli sifatida Sharqiy Osiyo sammitining tashkil etilishi keyingi ikki yil mobaynida ASEAN plus

Uch forumining rivojlanish jarayonini biroz susaytirdi. Uyushmaning integratsiyalashuviga ko'maklashish borasidagi harakatlar bilan bir qatorda, ASEAN oldida yangi vazifa – Sharqiy Osiyo yoki Osiyo-Tinch okeani mintaqasi formatidagi mintaqaviy integratsiyaga ko'maklashish turibdi.

ASEANQ6 (ASEAN plus Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, shuningdek Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiya) doirasida ham o'zaro hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Xitoy va ASEAN erkin savdo zonasini tashkil etish bo'yicha muzokalaralarga 2002 yilda kirishdi; 2004 yilda tomonlar tovarlar savdosi to'g'risidagi bitimni, 2007 yilda – xizmatlar savdosi to'g'risidagi bitimni imzoladi; hozirgi vaqtida investitsiyalar to'g'risida bitim ham tuzilgan. ASEAN bozoriga bosqichma-bosqich qo'shilish jarayonini mintaqasi mamlakatlarining eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri – Hindiston ham boshladi.

Mazkur hamkorlik tashabbuschilar fikriga ko'ra, yangi ahslashuvlar ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi darajaga ko'taradi, Janubi-Sharqiy Osiyoda va butun dunyoda iqtisodiyotni tiklash va rivojlanadirish ishiga o'z hissasini qo'shadi. Bitimlar amalda ishlayotganini Xitoy va ASEAN o'zaro investitsiyalari misolida kuzatish mumkin: ular erkin savdo zonasini tashkil etish jarayonining faollashuviga qarab o'sib bormoqda.

Shunday qilib, ASEAN faoliyatining ichki va tashqi ko'rsatkichlarini baholash Uyushma o'z faoliyatida muayyan yutuqlarga erishgan, lekin ular hali integratsiya yo'lida Evropa erishgan yutuqlar darajasida emas, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Janubi-Sharqiy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik modeli funktsiyal integratsiyaga emas, balki eng avvalo umumiy qadriyatlar (bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik va suverenitetni hurmat qilish)ni shakllantirish va saqlash vazifasini hal qilishga qaratilgan.

ASEAN faoliyati siyosiy va iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan turli omillarni o'z ichiga oluvchi Sharqiy Osiyo regionalizmining muhim jihatiga aylandi.

Quyidagilar Osiyodagi integratsiyaning markazga intiluvchi kuchlari hisoblanadi: jahon savdo yo'llari chorrahasida strategik jihatdan muhim geografik o'rinni egallaganlik; bozor iqtisodiyotini tashkil etishning chet el kapitalini kiritish va eksportga yo'naltirilgan

restrukturizatsiya qilingan iqtisodiyotni nazarda tutuvchi liberal modeliga o'tish.

Integratsiyaga monelik qilayotgan markazdan qochma kuchlar jumlasiga iqtisodiyotning rivojlanish darajasidagi, siyosiy tizimdag'i, diniy va madaniy an'analardagi farqlarni, shuningdek davlatlarning orollar bo'ylab tarqoq joylashganini kiritish mumkin.

Hozirgi bosqichda yaqin kelajakda ASEAN uchun xavfsizlik sohasida asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan bir qator omillarni qayd etish mumkin. Bu erda gap eng avvalo ASEAN faoliyatida ishlab chiqilgan normalar va printsiplar haqida boradi: ko'p tomonlama diplomatiyaga nisbatan o'z yondashuvi; Uyushmaning asosiy hujjatlarida mustahkamlangan bazaviy printsiplar; ASEANning o'ziga xos timsollarini – murosai madora printsipi hamda nuqtai nazarlarni kelishish va konfliktli vaziyatlarni hal qilish norasmiy mexanizmlarini nazarda tutuvchi "ASEAN ruhi" va "ASEAN yo'li"ni yaratganlik; mintaqaviy muammolarni mintaqaning o'zi doirasida hal qilish niyatining mavjudligi.

ASEAN xavfsizlik organlarini shakllantirishga ko'maklashishi va tashqi tahdidiga nisbatan o'ziga xos muqobilga aylanishi mumkin bo'lgan tashqi muhit omillari sifatida Xitoy keng ko'lamli rivojlanayotgan sharoitda Uyushmaning Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'zining mustaqil mavqeini saqlab qolish va mintaqaviy ishlarda ta'sir mexanizmlari o'ziga biriktirilishiga erishish yo'lidagi intilishlarini qayd etish mumkin (o'zaro aloqalarning yuqorida ko'rsatilgan formatlarini yaratish sabablarini ayni shu omillar bilan tushuntirish mumkin bo'lsa kerak).

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Malayziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini gapirib bering?
2. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering?
3. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining Rossiya va Xitoy bilan munosabatlari qanday?
4. Bugungi kunda AQShning Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosati?
5. Janubi-Sharqiy Osiyodagi Bruney, Vietnam, Myanma davlatlarining xalqaro munosabatlardagi o'miga tavsif bering.

6. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.

7. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi ASEAN haqida ma'lumot bering.

8. Hozirgi davrda Myanma – Bangladesh munosabatlari qanday holatda?

9. Zamonaviy bosqichda mintaqadagi muammolarning Janubi-Sharqiy Osiyo xavfsizligiga ta'siri qanday?

10. Hozirgi davrda Myanmadagi kofesssiyalararo ziddiyatlar haqidama'lumot bering.

#### Mustaqil ish savollari:

1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.

2. Singapurning xalqaro munosabatlardagi o'rnni yoritib bering.

3. Malayziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat?

4. Zamonaviy bosqichda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.

5. "Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari - Xitoy munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.

6. Yaponiya tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.

7. Filippin tashqi siyosatini yoritib bering.

8. Janubiy Koreya tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari.

9. Zamonaviy bosqichda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.

10. Mintaqqa davlatlari tashqi siyosatida "islom omili"ni yoritib bering.

#### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Фарб мамлакатларидағы ижтимоий-сиясий жараёнлар. Ўкув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.

2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

### **3.3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi doirasida Janubi-Sharqi Osiyonı mintaqaviy rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollari**

#### **Darsning o'quv maqsadi:**

- talabalarni Janubi-Sharqi Osiyo davlatlari tashqi siyosatining asosiy yo'naliishlari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlari uchun ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Janubi-Sharqi Osiyo davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch iboralar va tushunchalar:** *Transmilliy tahdidlar, ASEAN, OTOIH, "Osiyo klubi", Fukuyama F., Senkaku, Dyaoyuydao, "yena" integratsion guruhi, "Look East" kontseptsiyasi, "wild flying geese" konsepsiysi, "ASEAN plus uch" muloqoti.*

#### **Asosiy savollar:**

1. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari zamonaviy xalqaro munosabatlarda.

2. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining Janubi-Sharqi Osiyo davlatlari ijtimoiy-siyosiy va o'zaro munosabatlarining rivojlanishidagi o'rni.

**Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari zamonaviy xalqaro munosabatlarda.** Jahonda jo'g'rofiy o'lchamlari va davlat chegarasi bilan aniq belgilanadigan "tabiiy" mintaqalar ko'p emas. Aksariyat mintaqalar jahon davlatlari va mintaqaviy davlatlarning manfaatlariga qarab o'zgarib turadi. Ular jumlasiga bir-biridan jiddiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy-tsivilizatsion farqlar bilan ajralib turuvchi davlatlarni birlashtirgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ham kiradi. Tinch okeani havzasiga kirish belgisiga ko'ra mamlakatlarning mazkur mintaqaga kiritilishi mintaqani shakllantirishga nisbatan sof iqtisodiy yondashuvni aks ettridi. Bunda asosiy urg'u savdo, investitsiyalar va boshqa sohalarda Tinch okeani havzasida joylashgan mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarga beriladi. Bu holda Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga Sharqi, Janubi-Sharqi Osiyo mamlakatlari, shuningdek AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqalar kiradi.

Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Osiyo-Tinch okeani mintaqasini mustaqil mintaqasi sifatida ajratish jahon xalqaro munosabatlar tizimidagi vaziyatni buzadi. Shu bois ular Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tushunchasidan voz kechish va baholar berishni uning submintaqalari darajasida amalga oshirishni taklif qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar mintaqani universal geosiyosiy va geoijtisodiy asosda tuzadi va jahondagi jarayonlarning qarshi oqimlari to'rt "eski" mintaqasi – Markaziy, Janubiy, Shimoli-Sharqi va Janubi-Sharqi Osiyonı jipslashtirishini, bu esa Sharqi Evrosiyo makonida yangi geosiyosiy mintaqaviy kompleks – Katta Sharqi Osiyo paydo bo'lishiga imkoniyat yaratishini qayd etadi. Bu erda gap uning g'arbiy chegarasida Xitoy ta'sirining mustahkamlanishi, ASEAN mamlakatlari bilan integratsiya jarayonlariga XXR va Yaponianing qo'shilishi, Hindiston iqtisodiy va harbiy-siyosiy mavqeining kuchayishi, Markaziy Osiyoda AQShning faollashuvi singari jarayonlar haqida boradi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining o'zaro foydali hamkorligi manfaatlarida Tinch okeani Iqtisodiy uyushmasini tashkil etish g'oyasi havoda 60-yillardan beri kezib yurar edi. "Osiyo-Tinch okeani Iqtisodiy Hamkorligi" (OTOIH) hukumatlararo forumining

paydo bo'lishiga asosan yirik biznesning harakatlari va 1980 yilda ta'sis etilgan Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik kengashining faoliyati zamin yaratdi. Mazkur xalqaro nohukumat tashkiloti doirasida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy hamkorlik masalalari bo'yicha muloqotga ishtirokchi-mamlakatlarning hukumat, amaliy va ilmiy davralarning vakillaridan tarkib toptirilgan milliy qo'mitalari jalg qilindi. Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik kengashining sinashta institutsiyonal mexanizmlari va ko'p tomonlama xalqaro tajribasidan OTOIHni tuzishda keng foydalanildi.

OTOIH forumi, bir tomondan, Osiyo mintaqasida globallashuv jarayonining in'ikosiga, boshqa tomondan esa, Qo'shma Shtatlar tomonidan ittifoqchilar – Yaponiya va Avstraliya ko'magida ro'yobga chiqarilgan Tinch okeani regionalizmi g'oyasining amaliy ifodasiga aylandi. Yaponiya va Avstraliyaning bu boradagi harakatlariga boshqa mintaqalarda savdo bloklarining tashkil topishi, shuningdek jadal sur'atlarda rivojlanayotgan Janubi-Sharqi Osiyo mintaqasi bilan aloqalarni mustahkamlashga intilish turki berdi. Umuman olganda OTOIH forumi asoschilari unda umumiy bozorni yaratish yo'lida faol harakatlanayotgan Evropaning "qudrati"ga qarshilik ko'rsatish vositasini ko'rdiralar. Shimoliy Amerikadan tashqarida joylashgan mamlakatlar uchun esa bu mazkur qit'ada protektzionizmning kuchayishi ehtimolidan himoyalanishga urinish edi.

Shunday qilib, OTOIHning tashkil etilishi asosan iqtisodiy omillar bilan belgilanar edi. Ammo keyinchalik mazkur Forum faoliyati siyosiy xususiyat kasb etib bordi. Avstraliya, Bruney, Indoneziya, Kanada, Koreya Respublikasi, Malayziya, Yangi Zelandiya, Singapur, AQSh, Tayland, Filippin va Yaponiya OTOIH muassislariga aylandi.

Mazkur davlatlar tashqi ishlar, iqtisodiyot va savdo vazirlarining birinchi uchrashuvi 1989 yil noyabrda Kanberra shahri (Avstraliya)da bo'lib o'tdi. Keyinchalik tashkilotga 9 mamlakat: XXR, Gonkong, Tayvan, Meksika, Papua-Yangi Gvineya, Chili, Peru, Rossiya va Vietnam qo'shildi. OTOIHning jadal rivojlanishi uning faoliyati globallashuv jarayonlariga, regionalizm mezonlariga va a'zo davlatlarning rivojlanish ehtiyojlariga mos kelishidan darak berar edi. Atigi to'rt yil ichida bu hukumatlararo tashkilot vazirlar darajasidagi konferentsiyadan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi etakchi davlatlarining rahbarlari ishtirokida har yili o'tkaziladigan sammitlar darajasiga

ko'tarildi. 1993 yil Sietlda o'tkazilgan birinchi sammit AQSh prezidenti B.Klinton tashabbusi bilan tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda OTOIH forumining 21 ishtirokchisi jahon YaIMning 55% (18 trillion dollar)ni, jahon savdosining 54% (5,2 trillion dollar)ni beradi, ular hududida er kurarsi aholisining 40% dan ortig'i (2,5 milliarddan ziyod kishi) yashaydi. Konsultativ maqomga egaligiga qaramay, bu hukumatlararo tashkilot mintaqada savdo, investitsiya va moliya faoliyati qoidalari va me'yorlarini ishlab chiqadi, butun dunyoda kuzatilayotgan davlatlar xo'jalik faoliyatining internatsionallashuvi jarayonini aks ettiradi.

O'z ishida OTOIH ikki asosiy printsipga: "*ochiq regionalizm*" va "*kelishilgan bir tomonlama choralar*"ga asoslanadi.

Birinchi printsipning mohiyati shu bilan belgilanadiki, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi doirasida hamkorlikni rivojlantirish hamda tovarlar, pul va inson oqimlari harakatiga cheklashlarni bekor qilish Butunjahon savdo tashkiloti printsiplariga rioya qilish va mazkur tashkilot a'zolari hisoblanmaydigan davlatlarga nisbatan protektzionizmdan voz kechishga asoslanadi. Mazkur davlatlar bunday hamkorlikning barcha afzalliklaridan o'zarlik asosida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinci printsip ishtirokchilarga savdo va moliyaviy liberallashtirishning o'zi uchun maqbul bo'lgan sur'atlarini tanlash imkonini beradi. Natijada hukumatlararo tashkilotning internatsionallashuv yo'lida harakatlanish tezligi shu nuqtai nazardan nisbatan qoloq ishtirokchi mamlakatlarning imkoniyatlari va ehtiyojlar bilan belgilanadi va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yuqori darajada institutsiyonallashuv talab etilmaydi. Ayni shu sababli OTOIH Kotibiyyati katta emas va unga konsensus asosida qabul qilinadigan qarorlarni bajarishni tashkilot a'zolaridan talab qilish vakolati berilmagan.

OTOIHda qarorlar qabul qilish tartibi qirq yildan ortiq tarixga ega bo'lgan eng samarali hukumatlararo tashkilotlardan biri – ASEAN tajribasini hisobga olgan holda tasdiqlangan. Osiyocha yondashuv yoki "ASEAN yo'li", bir tomondan, Osiyo hukumatlararo tashkilotlarining "yashovchanligi"ni ta'minladi, boshqa tomondan esa, ular samaradorlik darajasining pastligiga sabab bo'ldi. Shu tufayli ham tashkilot faoliyatining me'yorlari OTOIH ishtirokchilarining barchasini qanoatlantiradi deb aytish mushkul va vaqtiga-vaqtiga bilan ular mazkur me'yorlarni qayta ko'rishni talab qiladi.

*"ASEAN yo'li" xulq-atvor me'yorlari zamirida indoneziyaliklarning ikki printsipi: muloqot – "mushavarax" va murosai madora – "mufvkat" yotadi. A.Acharya "ASEAN yo'li"ni "bosqichma-bosqichlikka, norasmiylikka, murosai madoraga, shaxsiy siyosiy aloqalarga, muzokaralar olib borishning nokonfrontatsion uslubiga, jarayonning natijaga qaraganda muhimligiga asoslangan mintaqaviy o'zaro aloqalar va hamkorlik jarayoni"<sup>1</sup> sifatida tavsiflaydi. Mahalliy elitalar uchun muloqot jarayonida "obro'sizlanish" imkoniyatini deyarli ististno etuvchi mazkur muloqot shakli kuchli raqobat va aniq yuridik asos bilan tavsiflanuvchi g'arb modelidan butunlay farq qiladi. "ASEAN yo'li" uchun tashkilot a'zolarining ichki ishlariiga aralashmaslik printsipi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U davlat suverenitetining daxlsizligini so'zsiz tan olishga asoslanadi.*

*Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining Janubi-Sharqiy rivojlanishidagi o'rni. O'z tuzilishiga ko'ra OTOIH – muayyan qoidalarga muvofiq ishlaydigan forumlar birlashmasi. Oliy organ qarorlari ijro etish uchun majburiy emas. Oliy organ ikki "palata": vazirlar (tashqi ishlari va savdo vazirlari) uchrashuvi va liderlar (davlat va hukumat rahbarlari)ning norasmiy sammitidan iborat. Sammit qaysi mamlakat hududida o'tkazilsa, shu mamlakat yil mobaynida Forumga raislik qiladi. U sammitni tashkil etish xarajatlarini o'z bo'yniga oladi va o'z raislik muddati (bir yil) uchun OTOIH ishining mavzularini belgilaydi. Sammit natijalariga ko'ra deklaratasiyalar qabul qilinadi va ularda o'tgan yil uchun tashkilot ishining yakunlari ko'rib chiqiladi, ishtirokchilarning mintaqqa yoki jahon iqtisodiyoti voqealari xususidagi nuqtai nazari va Forum strategiyasi ta'riflanadi.*

Katta mansabdor shaxslar uchrashuvi – vazifasi liderlar va vazirlar qabul qilgan qarorlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvoqiflashtirishdan iborat bo'lgan organ; u oliy organ bilan OTOIH tarkibiy bo'linmalari maqomiga ega bo'lgan forumlar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida ham amal qiladi. Tuzilmaning muhim elementi Amaliy maslahat kengashi bo'lib, u har bir davlatdan uchtadan vakil kiruvchi mustaqil biznes-forumni o'zida ifodalaydi.

OTOIH organlari forumlar deb ataladi. Ular jumlasiga uch qo'mita (savdo va investitsiyalar bo'yicha, iqtisodiy, byudjet va boshqaruv bo'yicha) va 11 ishchi guruh kiradi.

<sup>1</sup> Acharya A. Culture, Security, Multilateralism: The "ASEAN Way" and Regional Order // Culture and Security: Multilateralism, Arms Control and Security Building / Ed. By K. Krause. - L.: Frank Cass, 1999. - P. 78.

OTOIH Kotibiysi Singapurda joylashgan va vazifalarini joriy yilda raislik qiluvchi mamlakat vakili bajaradigan ijrochi direktor, ijrochi direktor o'rinnbosari (OTOIHa kelasi yili raislik qiladigan mamlakat vakili), professional xodimlar shtati (Forumning har bir ishtirokchisi amaldorlari) va mahalliy texnik xodimlardan iborat.

1994–1995 yillar OTOIH faolligi o'z cho'qqisiga etgan davr hisoblanadi. Bu davrda vazifalar belgilandi va mintaqada erkin savdo va investitsiyalarni shakllantirish borasidagi harakatlar rejasи e'lon qilindi. Bogor deklaratasiyasi (1994 y.)ga muvofiq erkin savdo zonasini tashkil etish iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 2010 yilgacha, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun esa – 2020 yilgacha bo'lgan davr uchun nazarda tutildi. 1995 yilda qabul qilingan Osaka harakatlar dasturida hukumatlararo tashkilot faoliyatining printsiplari mustahkamlandi va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy hamkorlikning uch asosiy yo'nalishi belgilandi: savdo va investitsion liberalallashtirish, savdo va investitsiyalarga ko'maklashish, iqtisodiy va texnik hamkorlik.

Shunga qaramay, OTOIH negizida keng ko'lamlı integratsion guruhni shakllantirish imkoniyatlari muayyan emas va bu asosan anglo-sakson va rivojlanayotgan Osiyo davlatlari manfaatlarining muvofiq emasligi bilan belgilanadi. Chunonchi, AQSh savdo va moliyaviy oqimlarni tez va to'liq liberalallashtirishdan, Sharqi Osiyo mamlakatları bozorlarining ochilishidan manfaatdor. Shu sababli Washington OTOIHning institutsionallashuv darajasini oshirishni va qabul qilinayotgan qarorlarning majburiyligi printsipini joriy etishni talab qilmoqda. Bunda AQShni Kanada, Avstraliyasi, Yangi Zelandiya va boshqa bir qator davlatlar qo'llab-quvvatlamoqda. O'z navbatida, ASEAN mamlakatlari, Yaponiya va Janubiy Koreya bu jarayonning ixtiyoriy xususiyatini himoya qilmoqda<sup>1</sup>. Janubi-Sharqi Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatları OTOIH uchun birinchi o'ringa savdo va kapitalni liberalallashtirishni emas, balki savdoga ko'maklashish hamda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni qo'yemoqda.

Pekinga kelsak, u ham OTOIH, ham Kengash faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Chunonchi, XXR Kengashning har yili o'tkaziladigan yig'ilishini Pekinda tashkil etish (1990 y.) va OTOIH sammitini Shanxayda o'tkazish (2001 y.) tashabbusi bilan chiqdi, bu

<sup>1</sup> Yaponiya va Janubiy Koreya OTOIH bu yo'lda ildam harakatlanishidan manfaatdor emas, chunki bu ularni sanoat va qishloq xo'jaligining siyosiy ta'sirchan tarmoqlarini tashqi raqobat uchun ochishga majbur etishi mumkin.

anjumanlarda mazkur tashkilot a'zolari sifatida Tayvan va Gonkong vakillari ishtirok etdi. Umuman olganda, Xitoy OTOIH ishiga eng avvalo iqtisodiy va texnik hamkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish singari yo'naliishlarda salmoqli hissa qo'shmaqda.

Osiyo moliyaviy inqirozi avjga chiqqan palla – 1998 yilda Kuala-Lumpur shahri (Malayziya)da o'tkazilgan sammitda OTOIH doirasidagi iqtisodiy va moliyaviy integratsiyaga majburiy tus berish haqida takliflar yangradi. Ammo inqiroz bartaraf etilishiga qarab ular shu jumladan Yaponiya pozitsiyasi tufayli o'z rivojinini topmadni. Tokio vakillari "Tarmoqlarni ilk ixtiyoriy liberallashtirish" dasturining amal qilish doirasiga kiruvchi ro'yxatga baliqchilik va o'rmon sanoati mahsulotlarining kiritilishiga qarshilik ko'rsatdi. Bu borada Yaponiya bilan til topa olmagan AQSh tez orada asosiy e'tiborni Osiyo-Tinch okeani mintaqasida savdoni liberallashtirishning eng muhim yo'naliishi sifatida Xitoyning BSTga qo'shilish shartlarini kelishishga qaratdi.

Tarmoqlarni ilk ixtiyoriy liberallashtirish mavzusi BSTga muhokama uchun berildi. Bu OTOIH savdo sohasida muzokalarlar olib borishga tayyor emasligidan va mazkur hukumatlararo tashkilot inqirozidan darak berar edi. Tarmoqlarni ilk ixtiyoriy liberallashtirish tashabbusining barbob bo'lishi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar taklif qilgan umummintaqaviy erkin savdo zonasini jadal sur'atlarda tashkil etish kontseptsiyasi Forumning rivojlanayotgan mamlakatlardan iborat a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganini ko'rsatdi.

Osiyo moliya inqirozi sharoitida "ochiq regionalizm" printcipiga tayanish ham jabr ko'rgan mamlakatlarga yordam bermadi. OTOIH, bir tomondan, mintaqadan tashqaridagi kuchlarning salbiy ta'siri oqibatlarini yumshata olmadi, boshqa tomondan esa, ko'p miqdorda valyuta zaxiralariga ega bo'lgan Osiyo davlatlarini mintaqaga bo'yicha qo'shnilariga tezkorlik bilan yordam ko'rsatishga majbur etuvchi mexanizmlarni yaratishga ojizlik qildi. Natijada global moliyaviy arxitekturani o'zgartirish va Osiyodan tashqaridagi aktorlarga qarshilik ko'rsatishga qodir bo'lgan Osiyo institutsional mexanizmlari (yagona valyuta, Osiyo valyuta jamg'armasi va sh.k.)ni yaratish g'oyalari keng qo'llab-quvvatlandi. Mintaqaviy va submintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga doir yangi g'oyalari va kontseptsiyalarni topish yo'lidi izlanishlar faollashdi. 1997 yilda "ASEAN+3" (ASEAN mamlakatlari, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi) paydo bo'ldi.

Umuman olganda, OTOIH faoliyatida 1990-yillarning oxiridan e'tiboran kuzatila boshlagan inqiroz asta-sekin Osiyo-Tinch okeani mintaqasining dekonstruktsiya qilinishiga olib keldi. Bunga mazkur mintaqaga mamlakatlari o'rtasida tarixiy va madaniy aloqalarning yo'qligi, norasmiy regionallashuv jarayonlari rivojlanmagani ham imkoniyat yaratdi. Amerika yoki aytaylik, Avstraliyaga xos bo'lgan zehniyat Sharqi Osiyoga xos bo'lgan zehniyatdan ancha farq qiladi, shu bois umumiyl mintaqaviy tafakkurning mavjudligi to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'lmaydi.

Shu bilan bir vaqtida, aynan ishtirokchilarning rang-barangligi va a'zolikka nisbatan keng yondashuv OTOIHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ulkan rolini belgiladi: har yili o'tkaziladigan sammitlar jahon davlatlari va mintaqaviy davlatlar – AQSh, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, shuningdek Janubi-Sharqi Osiyo mamlakatlari, Tayvan va boshqalarning liderlarini bir joyda to'playdi. Sammitlar ularga ikki tomonlama va mintaqaviy munosabatlar masalalarini muhokama qilish uchun "bir chekkada" uchrashish uchun imkoniyat ham yaratadi. Natijada OTOIH sammitlarining kun tartibi unga iqtisodiy muammolardan tashqari xavfsizlik sohasida hamkorlik masalalarining kiritilishi hisobiga sezilarli darajada kengaydi. Chunonchi, 1999 yil Oklend (Yangi Zelandiya)da o'tkazilgan sammitda BMT qo'shinlarini Sharqi Timorga yuborish to'g'risidagi qaror tezkorlik bilan kelishildi, 2001 yil Shaxnay (Xitoy)da bo'lib o'tgan sammitda terrorizmi qoralovchi rezolyutsiya qabul qilindi, bir qator sammitlarda Koreya yarimorolining xavfsizligi muammolari muhokama qilindi.

1990-yillarning oxirida BST formatida va makromintaqaviy daraja (OTOIH)da savdoni liberallashtirish g'oyasini ilgari surishda mavjud jiddiy muammolar Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ikki tomonlama savdo bitimlarining jadal o'sishiga olib keldi. Dastavval bu sohada Singapur peshqadamlik qildi – rivojlangan qishloq xo'jalik sektorining yo'qligi muzokalarlarda uni qulay hamkorga aylantirar edi. Bu jarayonga AQSh ham asta-sekin qo'shildi. Tinch okeani havzasidagi mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama savdo bitimlarini tuzishga Vashington Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'z ta'siri doirasini kengaytirish vositasi sifatida qaradi. O'z navbatida, Xitoy ASEAN mamlakatlari bilan erkin savdo to'g'risida bitimlar tuzish orqali Janubi-Sharqi Osiyoda o'z mavqeini sezilarli darajada mustahkamladi.

1997–1998 yillar moliyaviy inqirozi barham topganidan so'ng Janubi-Sharqi Osiyo mamlakatlari uchun siyosiy-iqtisodiy faoliyatda urg'u savdodan moliyaviy oqimlarga ko'chdi va mazkur omil o'z-o'zidan "ASEAN-3" tashkiloti faoliyatida birinchi darajali ahamiyat kasb etdi. Ammo bu jiddiy omil OTOIH faoliyatida o'z aksini topmadi, AQSh esa moliyaviy inqirozni bartaraf etish va mintaqada o'z tashqi siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun boshqa mexanizmlarni qo'llashni ma'qul deb topdi.

Qayd etilgan salbiy omillarning muhimligini tan olgan holda, bu erda OTOIHning institutsiional yashovchanligidan darak beruvchi ikki jihatni qayd etib o'tish, bizningcha, o'rinni bo'ladi.

*Birinchidan*, Janubi-Sharqi Osiyo mamlakatlari ikki tomonlama bitimlarni o'z qo'shnilarini bilangina emas, balki Osiyo-Tinch okeani mintaqasining boshqa qismlaridagi (masalan, Shimoliy va Janubiy Amerikadagi) davlatlar bilan ham tuzishi tendentsiyasi saqlanib qolayotir, demak, o'z a'zolariga avvalgidek foyda keltirmoqda.

*Ikkinchidan*, Janubi-Sharqi Osiyoning yangi integratsion tuzilmalarida AQSh uchun o'ren hozircha topilgani yo'q, shu bois OTOIHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan muloqotni quvvatlash vositasi sifatidagi roli Qo'shma Shtatlar uchun kelajakda oshishi mumkin.

A.Torkunov qayd etishicha, "so'nggi yillarda OTOIH Osiyo-Tinch okeani mintaqasida erkin savdo va investitsiyalar ko'p tomonlama ochiq tizimini yaratishni muvofiqlashtiruvchi organiga aylandi".

Ayni vaqtida, ko'pgina, birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlар vakillarining fikriga ko'ra, OTOIH o'z tabiatiga ko'ra savdo, investitsiyalar, iqtisodiy va texnik hamkorlikning dolzarb muammolari bo'yicha muloqot doirasidan chetga chiqish uchun mo'ljallanmagan. Ular OTOIHni mintaqaga mamlakatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirishga qaratilgan hukumatlararo tashkilot sifatida saqlab qolish foydali bo'ladi, deb hisoblaydi. 2001 yilgi Shaxxay sammitidan boshlab, iqtisodiy va texnik hamkorlik dasturi (EKOTEK) OTOIH uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etishi lozim, degan fikr tarafdarlari soni ko'payib bormoqda.

Kelajakda hukumatlararo tashkilot faoliyatining asosiy yo'nashlari – savdo va investitsiyalarni liberalallashtirish hamda EKOTEK dasturlari o'rtasida muvozanatni saqlash muammosi bo'yicha kelishmovchiliklar saqlanib qolishini kutish mumkin. So'nggi yillarda

OTOIH sammitlari jarayonida ularni o'tkazuvchi mamlakatlar ishtirokchilar e'tiborini savdoni yanada liberalallashtirish muammlariga emas, balki qo'shma tashabbuslarga, shu jumladan ekologik xususiyatga ega bo'lgan tashabbuslarga va EKOTEK dasturlarini amalga oshirishga nisbatan yangicha yondashuvlarga qaratishga harakat qilmoqdalar. So'nggi zikr etilgan dasturlar kiritilgan mablag'lar hajmiga ko'ra katta emas, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va texnikaviy rivojlanishida muhim rol o'yashga qodir. Masalan, Avstraliya OTOIH uchun nisbatan yangi muammo – dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi va "sof rivojlanish" muammosini 2007 yildagi faoliyatning asosiy yo'nashlari deb e'lon qildi. Shu bilan bir vaqtida OTOIHning 2007 yil sentyabrda bo'lib o'tgan 15-sammitining yakunlovchi Deklaratsiyasida BSTning qishloq xo'jalik mahsuloti bilan savdoni liberalallashtirishni nazarda tutuvchi Doxa raundi qo'llab-quvvatlandi.

2008 yilda sammitni Peru tashkil etdi. Uning OTOIHdagi raisligi "Osiyo-Tinch okeani mintaqasini rivojlanirish manfaatlarida yangi vazifalarni hal qilish sari" shiori ostida kechdi. Rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar o'rtasidagi farqni qisqartirish bosh vazifaga aylandi. Asosiy e'tibor globallashuvning ijtimoiy jihatlariga, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni shu jumladan xususiy sektorning korporativ javobgarligini oshirish hisobiga ta'minlashga qaratildi. OTOIHning 2008 yil 22–23 noyabr kunlari Lima shahrida bo'lib o'tgan sammitida iqtisodiyot, shaxsiy xavfsizlik, atrof muhit sohasidagi mintaqaviy muammolar ayni shu nuqtai nazardan muhokama qilindi. Sammitning yakunlovchi deklaratsiyasida quyidagilar OTOIH faoliyatining etakchi yo'nashlari deb e'tirof etildi: mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rag'batlantirish; investitsiyalar va savdo sohasida davlatning roliga tarkibiy o'zgarish yasash; oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; korporatsiyalarning ijtimoiy javobgarligini kuchaytirish; korruptsiya, terrorizmga qarshi kurashish; tabiiy ofatlar va dunyo miqyosida iqlim o'zgarishiga birgalikda qarshi turish.

Sammit ishtirokchilari yakunlovchi deklaratsiyadan tashqari global iqtisodiyot hamda jahon moliyaviy inqiroziga qarshi kurashish muammolari bo'yicha maxsus bayonet qabul qildi. Bu hujjatda ular davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan inqiroz 2010 yilning o'rtalarigacha bartaraf etilishiga ishonch bildirdi. Shunga qaramay, inqiroz sharoitida OTOIH mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari

ning pasayishi muqarrar deb e'tirof etildi. Sammit ishtirokchilari "yigirmalik" liderlarining 2008 yil 15 noyabrdagi Washington deklaratsiyasida ifodalangan moliyaviy bozorlarni isloh qilish bo'yicha harakatlar rejasini qo'llab-quvvatladi, shuningdek inqirozdan ayniqsa ko'p jabr ko'rgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'stishda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahan banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlarining o'rni va ahamiyatini ta'kidladi.

Ishtirokchi-mamlakatlar investitsiyalar, tovarlar va xizmatlar savdosi uchun yangi to'siqlar, eksportga qo'shimcha cheklashlar joriy etishdan, shuningdek BST qoidalari bilan mos kelmaydigan har qanday qadamlar tashlashdan kamida bir yil mobaynida o'zini tiyish majburiyatini oldi. Bundan tashqari, sammit BST Doxa raundini samarali yakunlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatladi va Bogor deklaratsiyasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasida erkin savdo va investitsiyalar zonasini yaratish bo'yicha perspektiv maqsadlariga sodiq ekanini tasdiqladi.

Sammitning yakunlovchi deklaratsiyasida ishtirokchilarning tashkilot institutsional tuzilmasini mustahkamlashga intilishi e'lon qilindi. OTOIH Kotibiyati tarkibida strategik rejalashtirish bo'limi ta'sis etildi, OTOIH Kotibiyatining ijrochi direktorini qayd etilgan muddatga tayinlash to'g'risidagi masalani echishda erishilgan taraqqiyot ma'qullandi.

2009 yil Forum doirasida hamkorlikning yigirma yillik yubileyi kunlarida Singapurda chaqirilgan sammit jahon moliyaviy inqirozi sharoitida o'tdi. Yangi tendentsiyalar va muammolarni hisobga olgan holda OTOIH kun tartibi kengaytirildi, chuqurlashtirildi va keng ko'lamlari xususiyat kasb etdi. Forum ishtirokchilari iqtisodiy sog'lomlashuv uchun zamin yaratgan inqirozga qarshi faol choralar ko'rilganiga qaramay, bu sog'lomlashuv mustahkam poydevorga hozircha ega emasligini qayd etdi.

Sammit yakunlari bo'yicha OTOIH davlat va hukumat rahbarlari deklaratsiya, shuningdek sammit yakunlarini ixcham shaklda aks ettiruvchi qo'shma bayonot qabul qildi.

2010 yilgi sammit shu yil 7-14 noyabrdagi Yokogama shahri (Yaponiya)da o'tkazildi va unda 2015 yilgacha Rivojlanish strategiyasi qabul qilindi.

2011 yilgi sammit 7-14 noyabrdagi Gonolulu shahri (AQSh)da o'tkazildi va "Yaxlit mintaqaviy iqtisodiyot yo'lida" shiori ostida o'tdi.

2012 yilgi sammit Vladivostok shahri (Rossiya)da o'tdi.

Umuman olganda, OTOIH faoliyatida 1990-yillarning oxiridan e'tiboran kuzatila boshlagan inqiroz asta-sekin Osiyo-Tinch okeani mintaqasining dekonstruktsiya qilinishiga olib keldi. Bunga mazkur mintaqaga mamlakatlari o'rtasida tarixiy va madaniy aloqalarning yo'qligi, norasmiy regionallashuv jarayonlari rivojlanmagani ham imkoniyat yaratdi. Amerika yoki aytaylik, Avstraliyaga xos bo'lgan zehniyat Sharqiy Osiyoga xos bo'lgan zehniyatdan ancha farq qiladi, shu bois umumiyl mintaqaviy tafakkurning mavjudligi to'g'risida so'z yuritish o'rinni bo'lmaydi.

Bir tomonidan, bugungi kunda integratsion tuzilmalarning safat va miqdor jihatidan murakkablashuvi yuz bermoqda. Boshqa tomonidan, mavjud formatlar (ularning orasida OTOIH ham bor) o'rtasida muayyan farq paydo bo'lmoqda. OTOIH o'z faoliyatining qaysidir jihatlarida eskirgan va yangilashni talab qiladi, degan fikrlar ilgari surilmoqda.

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Malayziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini gapirib bering?
2. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
3. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining Rossiya va Xitoy bilan munosabatlari qanday?
4. Bugungi kunda AQShning Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosati?
5. Janubi-Sharqiy Osiyodagi Bruney, Vietnam, Myanma davlatlarining xalqaro munosabatlardagi o'rniga tavsif bering.
6. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi ASEAN haqida ma'lumot bering.
8. Hozirgi davrda Myanma – Bangladesh munosabatlari qanday holatda?
9. Zamonaviy bosqichda mintaqadagi muammolarning Janubi-Sharqiy Osiyo xavfsizligiga ta'siri qanday ?
10. Hozirgi davrda Myanmadagi kofessiyalararo ziddiyatlar haqidama'lumot bering.

#### Mustaqil ish savollari:

1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.

2. Singapurning xalqaro munosabatlardagi o'mini yoritib bering.
3. Malayziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini nimalardan iborat?
4. Zamonaviy bosqichda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
5. "Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari - Xitoy munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlash.
6. Yaponiya tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
7. Filippin tashqi siyosatini yoritib bering.
8. Janubiy Koreya tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari.
9. Zamonaviy bosqichda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
10. Mintaqa davlatlari tashqi siyosatida "islom omili"ni yoritib bering.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Мухаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мamlakatlaridagi ijtimoiy-siёsий жараёнлар. Ўкув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани mintakaasi давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

## 4-BOB. YAQIN VA O'RTA SHARQ DAVLATLARINING XALQARO MUNOSABATLARI

### 4.1. Fors ko'rfazi mintaqasida barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlash muammolari

**Darsning o'quv maqsadi:**

- talabalar jahon mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil-qilishlariga ko'maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Osiyo, Afrika va Evropa davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** *Tashqi siyosat, xalqaro nizolar, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi. Xalqaro to'qnashuv, doktrina, kontseptsiya, geoiqitsodiy manfaatlar, geosiyosat, Katta Yaqin Sharq tushunchasi, xalqaro xavfsizlik, milliy xavfsizlik strategiyasi.*

**Asosiy savollar:**

1. Fors ko'rfazining geosiyosiy ahamiyati.
2. Fors ko'rfazining geoiqitsodiy o'rni.

**Fors ko'rfazining geosiyosiy ahamiyati.** Mustaqil davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi istiqbolli loyihibalar va tashabbuslarni amalga oshirishiga bog'liq. Chunki hozirgi milliy manfaatlarning globallashuvi sharoitida har bir davlat o'z geosiyosiy strategiyalarini amalga oshirishi va xalqaro maydonda o'z o'mniga ega bo'lishga harakat qilishni taqozo etadi. Aks holda boshqa davlatlarning siyosiy ambitsiyalari ta'siriga tushib qolishi hech gap emas. Bugungi kunda ko'pchilik davlatlar tashqi siyosiy strategiyalarida energetik resurslar xavfsizligi, energetika infrastrukturasi rivojlantirish va umumiyligi energetika tizimini shakllantirish masalalari asosiy geosiyosiy omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, Fors ko'rfazi mintaqasi xavfsizligida energetik xavfsizlikka nisbatan yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi natijasida mintaqalari siyosatida an'anaviy ustuvorlikka ega bo'lgan neft-gaz

siyosatiga nisbatan munosabat yanada markazlashtirilmoqda. Jahon mamlakatlari ichida eng katta neft eksportchilaridan hisoblangan mintaqasi davlatlari xususan, Saudiya Arabistonni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi (BAA), Iroq davlatlarida bugungi kunda dunyo miyosidagi jami neft zahiralarining uchdan ikki qismi mavjud. Mintaqada jahon neft zahiralarining 63 % va gaz zahiralarining 40 % joylashgan.

Arab olamining jahon siyosiy xaritasidagi o'rnini va ahamiyati haqida to'xtalar ekan siyosatshunos va sharqshunos olim Z.Munavvarov quyidagi tezislarni ilgari suradi:

— Hozirgi kunda, ular o'rtasida ma'lum siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy tafovutlar, hatto ixtiolog va ziddiyatlar mavjudligidan qat'iy nazar, o'zini Arab davlati, deb e'lon qilgan 21 mamlakat borligi diqqatga sazovor;

— Arab mamlakatlari hamjamiyati dunyoning uch buyuk qit'asi — Osiyo, Afrika va Evropa (O'rta Er dengizi va Turkiya orqali) tutashgan g'oyat hayotiy kommunikatsiyalar markazlashgan geografik mintaqada joylashgan;

— Arab davlatlari zaminidagi tabiiy boyliklar, xususan, bugungi taraqqiyotning asosiy tayanchlaridan bo'lgan energiya manbai — neft va gaz zaxiralarning niroyatda kattaligi ushbu mintaqaning jahon iqtisodiy xo'jaligidagi o'rnining yuqoriligini ta'minlaydi;

— Islom dinining eng mo'tabar muqaddasgohi — Makka va Madinaning ushbu mintaqada joylashishi Arab dunyosiga musulmon xalqlar va elatlarning diniy va ruhiy, ma'lum ma'noda mafkuraviyimma'naviy markaz sifatida qarashiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Arab dunyosi jahon energetika resurslarining 75%ni nazorat qilishi ham jahon siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi rolini yaqqol namoyish etadi. Arab dunyosi mamlakatlari yakdilligining dunyo miyosidagi siyosiy va iqtisodiy ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, u jahon neft bozoridagi vaziyatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Birinchi marta bu 1973-1974 yillarda "energetik tanglik" davrida namoyish etildi. Oktyabr urushi (1973) chog'ida G'arb mamlakatlari Isroidni qo'llab-quvvatlaganiga javoban OPEK mamlakatlari jahon bozoriga neft etkazib berishni to'xtatib qo'ydilar. Bundan ko'rinishdi, arab olamining siyosiy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati hozirgi kunda bir qator yirik davlatlarning milliy manfaatlari ijrosidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy davrda hech bir davlat mustaqil o'z energetik ehtiyojlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqara

olmaydi. Ayniqsa, jahon siyosatida energiya taqchilligi va xavfsizligi masalalari global muammo sifatida ko'rilib yozotgan bir davrda mintaqalar va davlatlarning bir-biriga energetik bog'liqlik darajasi yanada ortdi. Shu bois hozirgi vaqtida neft-gaz siyosati bir qator davlatlarning, xususan, jahonning yirik davlatlari tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday fenomen bir qancha omillar bilan tushuntirilishi mumkin. Jumladan, jahon neft-gaz bozori sub'ektlarining o'z energetik xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoji, neft-gaz sohasidagi samarali biznes manfaatlari, neft-gaz xom ashysini qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va boshqalar. Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy dunyoda neft-gaz jahon iqtisodiyotining dinamik rivojidagi eng asosiy unsur bo'lishi bilan birga, umumiylar xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqdi. Shu kabi bir qator umumiy xulosalar natijasida Fors ko'rfazi arab davlatlarning zamonaviy neft-gaz siyosati istiqbollari va imkoniyatlarini va global energetik siyosatga ta'sirini tahlil etish dolzarbdir. Bundan tashqari, dunyo miyosida energetik bog'liqlik va energiyaning birlamchi manbalari iste'moli hajmi oshib borayotganligi mintaqada xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar ko'lamining kengayishi xavfini tug'diradi. Shuning uchun "Arabiston oltiligi" davlatlari oldida mintaqaviy energetik xavfsizlikni ta'minlash masalasi har qachongidanda dolzarbdir.

Fors ko'rfazi neft qazib olinadigan hududlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu mintaqada neft qazib olish jarayoniga ko'p mablag' sarflanmaydi. Chunki, zahiralarning er qatlaming qulay qismida joylashganligi, yuqori bosim va asosiysi sifatlari xom ashyo mavjud bo'lib, ma'lumotlarda keltirilishicha, 1 barrel neft qazib olish uchun 2-3 AQSh dollarasi sarflanadi. Bunday imkoniyatlar mintaqadagi arab davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi va qolaversa jahon siyosatidagi o'ziga xos o'rnining oshishini ta'minlab kelmoqda.

Fors ko'rfazi mintaqasidagi barqarorlikni ta'minlashda Saudiya Arabistonning o'mini alohida ta'kidlash kerak. Saudiya Arabistonni Qirolligi farovonligi to'g'ridan-to'g'ri neft-gaz eksporti bilan bog'liq ekan, davlat tashqi siyosatida neft omili eng ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Saudiya Arabistonni dunyoda neft xom ashysosi zahirasi eng katta davlat hisoblanib, umum dunyo tekshirilgan resurslarning to'rtidan bir qismi OPEK zahiralarining 33 % ushbu mamlakat

hissasiga to‘g‘ri keladi. OPEK siyosatini asosan shu mamlakat belgilaydi. Saudiya Arabiston OPEKning etakchi a’zosi sifatida, kartel bitimining buzilishi holatlari bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ladi va zarur holda tashkilot sotuvlar umumiy hajmini oshirib yubormasligi uchun o‘z kvotasini kamaytiradi. Shuning hisobiga neft ishlab chiqaruvchi etakchi mamlakatlar nafaqat neft narxini yuqori darajada saqlab turishga, balki uni rivojlangan davlatlarda sanoatning texnologik printsiplarini o‘zgartirish va neftni energiya manbaining boshqa turiga almashtirishga kuchli rag‘bat tug‘ilmaydigan tarzda tartibga solishga muvaffaq bo‘lmoqdalar. Shu bilan birga dunyo bo‘yicha neft qazib olishning 13 % ni Saudiya Arabiston amalga oshiradi. Gaz sektori ham salmoqli o‘rin tutib, YAIM ning 15 %ni tashkil qiladi. Mamlakat sarhadlarida jahon gaz zahiralarining 6 % joylashgan bo‘lib, Rossiya, Eron va Qatardan so‘ng to‘rtinchli o‘rinda turadi.

Neft omili ahamiyatining oshishi o‘z navbatida Saudiya Arabiston va Ko‘rfaz davlatlarining, “neft barcha arablarga tegishli” tamoyili mavjud bo‘lsada, butun arab va islam olamidagi o‘rnii va mavqeini oshiradi. Shu bois Saudiya Arabiston energetik siyosatining asosiy vazifasi arablar bilan munosabatlarda muvozanatni o‘rnatish hisoblanib, bu arab olamidagi birlikni ta‘minlash, mintaqadagi diniy va g‘oyaviy keskinlikni yumshatish va fundamental kayfiyatning yanada keng quloch yoyishining oldini olish bilan bog‘liqdir.

FKADHK davlatlarining ko‘pchilik qismi OPEK a‘zolari hisoblanadi. Bu esa mintaqalardan davlatlarining bugungi kunning dolzarb masalalarini hal etishda, iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash masalalarida muhim o‘rin tutishini ta‘minlaydi. Bevosita neft-gaz masalalari dolzarb ahamiyat kasb etar ekan, mintaqadagi Quvayt, Qatar va BAA davlatlarini ham alohida e‘tiroyf etish lozim. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklar neft zahiralari bo‘yicha jahonda Saudiya Arabiston va Iroqdan keyingi uchinchi o‘rinda turadi. Uning neft zahiralari hajmi 97,8 mlrd.barrel bo‘lib, jahon neft zahiralarining deyarli 10 %ni tashkil qilmoqda. Bundan tashqari gaz zahiralari 6,6 trln. kub. m.ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich Amirlikning jahon gaz zahiralarining 4 %ga ega ekanligini ko‘rsatada. Qatarning ham energetik salohiyati yuqori bo‘lib, gaz zahiralari borasida dunyoda Rossiya va Eronidan keyingi uchinchi o‘rinda turadi. Mamlakatda jahondagi eng yirik gaz manzilgohlaridan biri “North Field” joylashgan. Mintaqadagi eng katta neft zahiraga ega bo‘lgan davlatlardan biri Quvayt hisoblanadi.

Uning jahon neft zahiralaridagi ulushi 14 %ni tashkil qiladi. Bunday imkoniyatlar samarasini o‘laroq Ko‘rfazdagi arab davlatlarining iqtisodiy o‘sish sur‘ati oshib bormoqda. Jumladan, faqatgina 2002-2006 yillarda Fors ko‘rfazi arab davlatlari neft eksportidan 1.5 trln. AQSh dollari foyda ko‘rishgan bo‘lib, bu o‘tgan oxirgi besh yillikka nisbatan ikki marta ko‘p ko‘rsatkich hisoblanadi. “Goldman Sachs” ekspertlari guruining bashoratiga ko‘ra neft eksportidan tushadigan daromad 2030 yilga borib 5.1 trln. AQSh dollarini tashkil etadi. Birgina 2010.yilning birinchi kvartalida BAA neft eksportidan 17 mlrd. AQSh dollar, Saudiya Arabiston esa 51 mlrd. AQSh dollarini foyda ko‘rgan.

*Fors ko‘rfazining geoijtisodiy o‘rni.* Arabiston otiligi davlatlarining ulkan energetik imkoniyatlari jahonning yirik davlatlari e‘tiborini tortmasdan qolmaydi. Ayniqsa global energetik iste‘mol darajasining kun sayin oshib borayotganligi, neft va gaz zahiralarining esa tobora kamayib borishi, bundan tashqari, muqobil energiya manbalarini yaratish harakatlari unchalik ham kutilgan natija bermayotganligi energetik raqobatning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ma‘lumki, jahon energetik ehtiyojlarning asosiy qismi neft va gazga boy mintaqalar hisobiga qondirilib kelinmoqda. Xususan, birinchi navbatda Fors Ko‘rfazi, Markaziy Osiyo mintaqasi va Kaspiy xavzasini jahon neft-gaz bozori sub‘eklarining faoliyat maydoni hisoblanadi. Shu bois mazkur mintaqalardagi siyosiy tanglik, bir qator tarixiy nizolarning hal etilishi va siyosiy – ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash muammolariga echim topilmayapti. FKADHK davlatlari ma‘lum ma’noda butun Yaqin Sharq mintaqasidagi nisbatan barqaror davlatlar hisoblansada, umumiy xavfsizlikni va ishonchli sherikchilik munosabatlarini ta‘minlash masalalarida umumiy xavfdan xoli emas.

Energetik bog‘liqlikning o‘sishi alohida bir davlatning o‘z milliy energetik xavfsizligini mustaqil ta‘minlash imkoniyati cheklanganligini anglatadi. Shu bois Kengash davlatlarining geoenergetik manfaatlari bevosita Eron va Iroq kabi davlatlarning mintaqada tutgan o‘rniga ham bog‘liq. Chunki Eron Islom Respublikasining mintaqadagi siyosiy – mafkuraviy o‘rnii va yuqori energetik salohiyati mintaqalari tashqi siyosatiga ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Demak, Fors ko‘rfazi mintaqasi energetik xavfsizligiga nisbatan zamonaliviy tahdidlar ko‘lamini tadqiq etganda ikki asosiy jihatga e‘tibor berish lozim. Birinchi masala mintaqaviy energetik

xavfsizlikka nisbatan ichki tahdidlar hisoblansa, ikkinchidan, yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari to'qnashuvi omilini o'rganish muhimdir.

Fors ko'rfazi mintaqasi energetik xavfsizligiga ta'sir ko'r-satuvchi ichki omillari:

- Bugungi kunda FKADHK davlatlarining siyosiy va iqtisodiy xavfsizligiga eng katta tahdid Eronning yadroviy dasturi borasidagi siyosatidir. Jalon hamjamiyatining Eronga nisbatan keskin siyosiy va iqtisodiy bosimlari Kengash davlatlarining jiddiy xavotiriga sabab bo'lmoqda;

- Iroqdag'i vaziyatning to'liq izga solinmaganligi Kengash davlatlarining istiqbolli iqtisodiy loyihalari amaliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, Iroqda jahon neft zahiralarining 11 % joylashgan. Bu ko'rsatkich mintaqaviy energetik loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

- Tobora diniy nizolarning avj olayotganligi, sunniy va shia mazhabi o'rtasidagi doimiy raqobat muhiti, natijada mintaqaga nisbatan butun bir terrorizm o'chog'i sifatida qaralishi, islam dini va madaniyatiga nisbatan radikal qarashlarning kuchayishi neft va gaz sohasiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi va istiqbolli bozorlarni egallashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda;

- Mintaqo davlatlari xavotiriga sabab bo'layotgan navbatdagi omil bu – an'anaviy resurs – neft va gaz zahiralarining cheklanganligidir. Shu jihatdan Kengash davlatlari va qolaversa butun mintaqo davlatlarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, eksport hajmini kamaytirish borasidagi yondashuvlaridagi ixtilof eng dolzarb masala hisoblanadi. Arabiston oltigli davlatlarining iqtisodiy va siyosiy barqarorligi asosan neft-gaz omiliga bog'liq bo'lib kelgan.

Fors ko'rfazi mintaqasi xavfsizligiga, xususan energetik xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Insoniyatning jahondagi tabiiy zahiralarning tugab borayotganligini anglashi va xususiy ehtiyojlarni qondirish manfaati natijasida Fors ko'rfaziga nisbatan tahidilar yanada kuchaydi. Alohida ta'kidlash joizki, ushbu mintaqo davlatlari tabiiy resurslarga qanchalik boy bo'lishmasin, doimo dunyoning quadratli davlatlari uchun nishon bo'lib kelganlar va hozirgi davrda ham nizolar, ichki kelishmovchiliklar hamda ziddiyatlar avj olgan siyosiy beqaror

mintaqa hisoblanadi. Qudratli davlatlarning mintaqadagi siyosati bevosita neft va gaz resurslarini qo'lga kiritish bilan bog'liq ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi mulohazalari muhim ahamiyatga ega: "...kimda-kim neft va gaz zaxiralariga hukmronlik qilsa, dunyoga hukmron bo'lishi mumkin degan qarashlar kuchayib bormoqda. Va aksincha – kimgaki shunday resurslar bo'lmasa, neft-gaz, umuman, uglevodorod xom ashysiga ega boshqa davlatlarga nisbatan turli harakatlar ham sodir bo'layapti. Chunki quadratli davlatlar yaxshi biladiki, mana shunday boylik kimning qo'lida bo'lsa, u boshqalarni o'z ta'siriga olishning kaliti, vositasi bo'lib xizmat qiladi".

- Jalon miqyosida energetik iste'mol darajasining oshib borayotganligi, xususan, Osiyo segmenti ulushining ortishi mintaqada keskin siyosiy raqobat muhitini yanada keskinlashtirishi mumkin. Energoresurslar iste'moli dunyo miqyosida 2030 yilgacha 60 % ga oshishi bashorat qilinmoqda. Bu jarayon ham bevosita Eron bilan bog'liq. Bugungi kunda Xitoy, Hindiston, Pokiston, Yaponiya kabi davlatlarning energetik ehtiyojlar kundan kunga ortib bormoqda. Bu davlatlar mintaqadagi energetik raqobatda ishtirok etishdan va manfaatlari tashqi energetik siyosatdan manfaatdordir. Jumladan, Eron gazining Xitoygacha tortilishi, Eron-Pokiston-Hindiston qurumi borasidagi munozaralar Kengash davlatlari tashqi energetik siyosatida alohida e'tirofga sabab bo'lmoqda. Chunki, Eron FKADHK davlatlarining asosiy energetik raqobatchisiga aylanishi mumkin.

Xulosa qilganda Fors ko'rfazi xavfsizligi, FKADHK davlatlari energetik xavfsizligi masalalari Kengash davlatlari tashqi siyosatida asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Jalon miqyosida neft va gazga bo'lgan talabning oshishi va ko'pchilik davlatlarning taraqqiyoti ushbu resurslarga bog'liq ekanligi jahon siyosatida va umuman zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida FKADHK davlatlari roli oshib borayotganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 1970-yillarning boshida Misr prezidenti Anvar Sadatning neft va siyosatning bir xil ma'no kasb etishini ta'kidlaganligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadи. Neftdan siyosiy bosim sifatida foydalanish va energetik resurslarning siyosiylashtirilishi tendentsiyalari bugungi kunda ham kuzatilmoqda.

### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jalon xaritasida Arab davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering?

2. Arab davlatlari tashqi siyosat kontseptsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Fors Ko'rfazi arab davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Saudiya Arabistonni Podshohligi AQSh va Evropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat ?
5. Bugungi kunda AQShning Iroqdagi harbiy amaliyotlariga SAP va boshqa arab davlatlarining munosabatlari qanday ?
6. FKADH davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. Fors Ko'rfazi Arab davlatlari hamkorlik tashkilotidan "Fors Ko'rfazi arab davlatlari Ittifoqi"ga aylanish istiqbollari haqida ma'lumot bering.
8. Saudiya Arabistonidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyligi tavsif bering.
9. Yamanning FKADHKga a'zoligi muammolari nimadan iborat ?
10. "Hozirgi davrda SAP" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
11. "FKADHK davlatlarida islam omili" mavzusini muhokama etish.
12. Eron Islom Respublikasining FKADHK davlatlari bilan o'zarlo munosabatlari haqida ma'lumot bering.
13. Fors ko'rfazi davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.
14. BAAning jahon hamjamiyatidagi o'miga baho bering.
15. Zamonaviy bosqichda Saudiya Arabistonni – Eron munosabatlari qanday ?

**Mustaqil ish savollari:**

1. Siyosiy xarita yordamida Arab davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering ?
2. SAPning Yaqin Sharqdagi siyosatini xarita yordamida aytib bering ?
3. Arab mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
4. Ummon Sultonligining xalqaro munosabatlardagi o'mini yoritib bering.
5. Bahrayn tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
6. Zamonaviy bosqichda Yaqin Sharq davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.

7. "FKADHK - Evropa Ittifoqi davlatlari munosabatlari" mavzusida nutq tayyorlash.
8. Evropa Ittifoqi tashqi siyosatida Yaqin Sharq davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
9. SAP tashqi siyosatida Yaqin Sharq muamosini yoritib bering.
10. Qatar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.
11. Kuvaytning ADL dagi siyosati.
12. "Yaqin Sharq davlatlari va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz" mavzusida doklad tayyorlang.
13. Qirol Abdulloh bin Abdulaziz davrida SAPdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
14. XXI asrda Arab Davlatlari Ligasi: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
15. AQSh tashqi siyosatida Yaqin Sharq davlatlari.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Мұхаммадсұдіқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamnaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

#### **4.2. Saudiya Arabiston Podshohligi tashqi siyosati shakllanishining asosiy jihatlari**

**Darsning o'quv maqsadi:**

- talabalar jahon mamlakatlaridagi xususan FKADHK davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini tushuntirib berish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** *Fors ko'rfazi, Yaqin Sharq, Xormuz bo'g'osi, FKADHK, Saudlar uyi, Fahd ibn Abdulaziz, Yo'l xaritasi, Majlis ash-Sho'ro, Ikki xaramu sharif xodimi, Ar-Riyod.*

**Asosiy savollar:**

1. Saudiya Arabiston tashqi siyosatining rivojlanish bosqichlari.
2. Saudiya Arabiston tashqi siyosatining shakllanishida energetika sohasidagi barqarorlikning ahamiyati.
3. Saudiya Arabiston tashqi siyosatida "etakchi davlatlarning" o'mni.

**Saudiya Arabiston tashqi siyosatining rivojlanish bosqichlari.** So'nggi yillarda jahonda yuz bergen voqealar dunyoning geosiyosiy strukturasi va taraqqiyot yo'nalishini tubdan o'zgartirdi, jahon siyosatiga asta-sekin yangi suveren davlatlar kirib kelishi natijasida davlatlararo munosabatlari, o'zaro siyosat va diplomatiya maydoni tubdan boshqa mohiyat va mazmun kasb etdi.

Jahon mamlakatlarini ulkan va kichik davlatlarga ajratish bugungi kunda keng tarqalgan. Ko'pchilik hollarda ular "jahoniy davlat", "mintaqaviy davlat" hamda "odatdag'i davlatlar" deb ataladi.

Harbiy-siyosiy ta'siri mintaqaviylik darajasi bilan o'lchanadigan mamlakatlar jumlasiga Saudiya Arabiston Podshohligini ham kiritish mumkin. Chunki, SAPning siyosiy ta'siri mintaqaviylik bilan chegaralanib qolmay, balki Fors ko'rfazi, Qizil dengiz va Yaqin Sharq mintaqalaridagi vaziyatlarga ham o'z ta'sirini o'tkaza olishi bilan ajralib turadi.

Xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar jahon siyosiy xaritasida muhim "qaynoq nuqta"lardan biri bo'lib

hisoblangan ushbu mintaqada ko'plab sohalarda markaziy o'rnlardan birini egallab kelayotgan Saudiya Arabiston Podshohligi jahon siyosati va iqtisodiyotida sodir bo'layotgan hozirgi sharoitda umum-jahon tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, yalpi qirg'in keltiruvchi qurollarni ta'qqlash va bartaraf etish, atrof-muhitni muhofaza etish, xalqaro terrorizm va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi kurashish kabi ko'plab global muammolarga nisbatan o'zining munosabatini belgilagan. Bu borada "Saudiya Arabiston rahbariyati mazkur dolzarb muammolarga nisbatan jahon siyosiy qarashlari va jamoatchilikning fikrlarini inobatga olgan holda tahlil etib, Saudiya Arabistonining arab dunyosi va musulmon olamidagi mavqelariga mos keladigan va ularning ham manfaatlarini o'rganib chiqqan holda o'z munosabatini bildirmoqda, – deb yozadi arab tadqiqotchisi Z.M. al-Anziy.

Hukumatning asosiy Qonunida SAPning suveren Arab Islom davlati ekanligi, davlat dini - islam, konstitutsiya esa - Qur'oni Karim va uning Rasuli Sunnat'i ekanligi e'lon qilingan. Davlatning hozirgi atributlari - bayroq va emblemasi hamda boshqaruvning monarxiya shakli saqlab qolangan. Mamlakatni Podshohlikning asoschisi Podshoh ibn Saudning o'g'illari va nabiralari boshqaradilar. Ularning "eng munosibi" muqaddas Qur'on aqidalarini va payg'ambar vasiyatlariga muvofiq ravishda qasamyod qiladi. Voris shahzoda Qirol tomonidan saylanadi va mazkur vazifadan podshoh dekreti bilan ozod etiladi. U Podshoh topshiriqlarini bajaradi, uning o'limidan so'ng esa qasamyod qabul qilgunga qadar qirolning vazifalarini ado etadi.

O'tgan asrning 90-yillarda Fahd G'arbning demokratik jamiyat qurish tazyiqini mamlakatda xalq jamoatchiligining siyosiy jarayonlarda ishtirok etishini ta'minlaydigan tashkilot tuzish haqida fikr yuritdi. U oshkor tarzda G'arb uslubidan voz kechdi. U demokratik parlament tuzumidan ham voz kechdi. U islomiy ta'limotga asoslangan Shura – sho'ra tuzdi. 1994 yilda tashkil topgan "Majlis ash-Sho'ro"ga ishbilarmonlar, texnik xodimlar, diplomatlar, jurnalistlar, islomiy olimlar, harbiylardan iborat 60 kishi a'zolikka saylandi. Majlis ash-Sho'ro mamlakatning ichki va tashqi siyosati borasida o'z taklif va mulohazalarini bera boshladi. Saudiya Arabiston siyosiy jarayoni uch xil darajada olib boriladi: qirol oilasi siyosati, milliy siyosat, byurokratik siyosat. Ularning hammasi alohida biroq, bir biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Qirol oilasi siyosati – qirollikning rasmiy siyosiy hukumati siyosatidir. Bu siyosatsiz, uning qo'llab-quvvatlashisiz hech bir qirol

hokimiyatni saqlab qololmaydi. Milliy siyosat – qirol siyosatidan tashqari vazirlarining siyosatidir. Qirol vazirlarni tayinlaydi. Hozirda Qirol oilasining yosh avlodiy yirik hukumat lavozimlarini egallay boshlagan. Ularning ko'pi G'arbda ta'lif oлganligi sababli ularning siyosatida G'arbning ta'siri seziladi.

Qirol Abdul Aziz davridan buyon hukmron oila Saudiya Arabistonini jamiyatini institutlashtirilgan, byurokratlashtirilgan hukumatga aylantirdi.

Saudiya Arabistonining tashqi va milliy xavfsizlik siyosati uch asosiy maqsadga suyanadi: mamlakatning ichki va tashqi hayoti jabhalarini islam dini ta'lifotasi asosida boshqarish; mamlakatning hududiy xavfsizligi va iqtisodiy boyligini himoya qilish; mamlakat hukmron tuzumini saqlash.

Saudiya Arabistonining tashqi siyosatining asosiyo yo'nalishlari bu boshqa davlatlarning ichki ishlari aralashmaslik, Podshohlik suverenitetini va hududlari yaxlitligini himoya etish, Podshohlikning Fors ko'rfazi, arab dunyosi va musulmon olamidagi mavqeini mustahkamlash, sanoati rivojlangan etakchi davlatlar bilan munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Saudiya Arabistonining tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- boshqa davlatlarning ichki siyosatiga aralashmaslik va Podshohlikning ichki siyosatiga boshqa davlatlarning aralashuviga yo'l qo'ymaslik;
  - SAPning jahon hamjamiyati orasidagi mavqeini oshirish;
  - davlatning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishiga jiddiy ahamiyat berish, Saudlar uyi obro'si va rolini oshirish;
  - arab mamlakatlari va musulmon olami manfaatlarini ko'zlagan holda siyosat yuritish;
  - musulmon davlatlari bilan birdamlikni mustahkamlash;
  - islam tarixi davomidagi Podshohlikning o'rnnini inobatga oлgan holda uning musulmon olamidagi etakchilik rolini saqlab qolish;
  - mintaqada tinchlik va barqarorlik qaror topishi yo'lidagi faoliyatini rivojlantirish;
  - neft qazib oluvchi va uni iste'mol qiluvchi davlatlar manfaatlarini inobatga olib, odilona neft siyosatini olib borish;
  - Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi faoliyatini yanada kengaytirish va uning rivojlanishi yo'lida ish olib borish.
- Saudiylar boshqaruvi asosida "adolat, kengash va tenglik" yotadi. Yana asosiy Qonunda shunday deyiladi: "Mamlakatning er

ostidagi, quruqlikdagi va milliy hududiy suvlaridagi barcha boyliklar qonunga ko'ra davlatga tegishlidir... Davlat xususiy mulkning erkinligi va daxlsizligini ta'minlaydi... Zakot yig'ilishi va mustahiqlarga sarf qilinishi lozim". Xuddi shu Qonun rus olimi A. Vasilev tomonidan ham ta'riflanadi va qo'shimcha quyidagicha izohlanadi: "...Davlat islonni himoya qilish, shariatga hayotga joriy etishni o'z zimmasiga oladi va shariatga rioya qilgan holda inson huquqlarini shariatga muvofiq ta'minlaydi, arab millati va musulmon ummasining birdamlikka va so'z birligiga bo'lgan umidlarining amalgal oshishiga ko'mak beradi".

Musulmon bo'limgan barcha mamlakatlar bilan munosabatlarini Saudiya Arabistonini ikki tomonlama manfaatlarni hisobga oлgan holda o'rnatadi. Bu haqida Qirol Fahd: "...biz tanglik vaziyatlarini hal qilish bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha chuqur o'ylangan, vazmin siyosatni amalgal oshiramiz", - deb bayonet bergen edi.

Saudiya Arabistonining sobiq Qiroli Fahd bin Abdulaziz SAPning tashqi va ichki siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab shunday ta'kidlagan edi: "Podshohlikning tashqi va ichki faoliyati birinchi navbatda davlatni to'la va kompleks ravishda rivojlantirishga qaratilgan. Baxtimizga tamoyillarimiz vaqtlar davomida o'zgarmas poydevorga asoslangandir. Podshohlik do'st mamlakatlarga doimo barcha yordamlarni ko'rsatishga harakat qiladi".

Fors ko'rfazida Eron, sobiq Sovet Ittifoqi va G'arb hukmron mavqeiga qarshi kurashda jumladan, Qirol Fahd shunday degan edi: "biz biror arab va musulmon davlatiga o'z ta'sirimizni o'tkazmoqchi emasmiz. Bizning musulmon dunyosiga yo'lboshchi bo'lish orzuimiz yo'q. Ammo, biz islam va musulmon dunyosining rivoji va barqarorligi yo'lida siyosat olib yuritamiz. Islam dinining markazi bo'lish Saudiya Arabistonining zimmasiga uni himoya qilish va rivojlantirish mas'uliyatini yuklaydi. Shuningdek, Qirol Fahd: "Saudiya Arabistonining arab va musulmon dunyosining huquqlarini himoya qiladi va ular bilan hamkorlikni qo'llaydi. O'zaro hamkorlik xalqlar orasidagi do'stlik va o'zaro aloqalarni mustahkamlab, islonni rivojlantiradi" – degan edi. Saudiya Arabistonining jahon iqtisodiy rivoji xususida marhum Qirol Fahd shunday deydi: "Saudiya Arabistonining jahon iqtisodiy tizimining rivojida muhim o'rin tutadi. U do'st davlatlar bilan hamkorlik qilishga tayyor".

Islam dinining o'chog'i bo'lgan Saudiya Arabistonining arab va musulmon davlatlari manfaatlarini himoya qilishni o'zining burchi

deb bildi. U hech qanday harbiy to'qnashuvda rasman ishtirok etmagan bo'lsada, u bu to'qnashuvning moddiy jihatlarini o'z bo'yning oldi (Eron-Iraq urushi, Afg'oniston, Livan).

Saudiya Arabistonida siyosiy o'zgarishlar qilish uchun tazyiq doimo mavjud edi. Monarxiyadagi davlat boshqaruv uslubini o'zgarish, reformalar o'tkazish 1962 yilda "ozod shahzodalar", 1980-1990 yillarda islomiy radikallar tomonidan talab etildi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot natijalari asosida o'zining mavqeini tez saqlab qoldi. Siyosiy islohotlarga birinchi qadam Quvayt inqirozidan keyin 1992 yilda birinchi marta Qirol Fahd tomonidan "Majlis ash-Sho'roning tashkil etish qarori edi. Bu kengash 1993 yil 29 dekabrda rasman e'lon qilinib, uning 60 a'zosi Podshoh tomonidan to'rt yil muddatga tayinlandi. 1992 yil avgustda Vazirlar Mahkamasining faoliyati xususida qaror chiqdi.

Saudiya Arabistoni o'zining resurslari va obro'-e'tiborini Afg'onistondagi qurolli muxolifatchilarni moliyaviy, moddiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga sarf qildi, jamoatchilik fikri va islom davlatlari etakchilarini Qobuldag'i sovetparast rejimiga va sovet interventsiyasiga qarshi safarbar etdi. Ar-Riyod Janubiy Yamandagi muxolifatni hamda eritreyaliklarning Addis-Abebaga qarshi qurolli kurashini qo'llab-quvvatladi.

Eron bilan raqobat qilayotgan ba'schilar boshchiligidagi Iraq ta'sirining o'sishi, Fors ko'rfazi mintaqasida gegemonlik uchun kurash Saudiya Arabistonining tashqi xavf-xatar tuyg'usini yanada kuchaytirdi.

1979 yilda Eron shohining taxtdan qulashi mintaqadagi ahvolni Efiopiya va Afg'onistondagi inqilobiylar va avtoritar hukmdorlarning marksistik mashqlaridan ko'ra ko'proq beqarorlashtirib yubordi. Tehron va Qum tomonidan ko'tarib chiqilgan "chirigan amerikaparast rejimlarni ag'darib tashlash" haqidagi shiorlar va chaqiriqlar faqat shia jamoalari mavjud bo'lgan Fors ko'rfazining sharqiy mintaqalaridagina emas, balki Saudiya Arabistoni aholisining dingga berilgan, konservativ, G'arbg'a qarshi kayfiyatdag'i keng qatlamlari orasida ham aks-sado berdi.

1980 yil sentyabr oyida Iraq va Eron o'rtasida urush boshlanganda Saudiya Arabistonini Bag'dodni qo'llab-quvvatladi. Ar-Riyod tashqi siyosatining kelajakdag'i bir necha yilga mo'ljallangan asosiy vazifasi - Iroqning g'alaba qilishiga va o'zining nizoga aralashib qolishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'ldi.

Umumarab maydonidagi o'z ta'sirini namoyish qilib, 1981 yilda SAP Livandagi tanglik vaqtida vositachilardan biri bo'ldi. Podshohlikning sa'y-harakatlari keyingi yillarda ham davom etdi. U Falastin muammosini va Arab-Isroil nizolarini hal etishga bo'lgan urinishlarini faollashtirdi. 1981 yil 7 avgustda sakkiz banddan iborat "Fahd rejası" ilgari surildi.

XX asrning 80-yillarda mintaqada yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilib, SAP rahbariyati mamlakatning asosiy ittifoqchisi AQSh bo'lib qolayotganligi haqidagi fikrga qat'iy ishonch hosil qildi. Ikki davlat siyosiy hukmron doiralari o'rtasidagi uchrashuvlarda AQShdan boshqa hech qaysi davlat Podshohlikka xavf solayotgan so'l radikal va tashqi fundamentalistik tahdidlarni bartaraf eta olmasligi ta'kidlandi va bu hol tajribada ham o'z isbotini topdi. SAP va Vashington o'rtasidagi sheriklik mustahkamlandi. Harbiy soha, AQShdan qurol sotib olish ustuvor yo'nalish bo'lib qoldi. Ana shuni hisobga olganda Yaqin Sharqdagi "beshinchi urush" - 1982 yilda Isroil Livanga bostirib kirib, Bayrutni qamal qilgan chog'da Saudiya Arabistoni rahbariyatining, garchi u Isroilni qoralagan bo'lsa ham, lekin AQShga tazyiq o'tkazish va o'z navbatida u Isroilga ta'sir ko'rsatishi uchun amaliy choralar ko'rmaganligi o'z izohini topgandek bo'ladi.

1982 yil sentyabrida Fesda bo'lib o'tgan arablarning oliy daramadagi konferentsiyasida Podshoh Fahd Yaqin Sharq tangligini tinchlik yo'li bilan hal etish bo'yicha arablarning birlashtirilgan, amalda uning avvalgi loyihasiga asoslangan rejasini ishlab chiqishda ishtirok etdi.

Saudiya Arabistonining iqtisodiy imkoniyatlari mintaqaviy yirik kuch rolini o'ynashiga imkoniyat yaratdi. Biroq, SAPning harbiy mudofaa masalasi doimo muammolar tug'dirgan. Kichik aholi, rivojlanmagan va nozik ichki siyosiy muvozanat Saudiya Arabistoni harbiy ojizligining asosiy sababchisidir. Bu ojizlik SAPning doimo tashqi siyosiy va harbiy kuchlar, mafkuralar ta'siriga nishon qildi. Sobiq Sovet Ittifoqi yirik planda, mintaqaviy kuchlar - Isroil, Nosir davrida Misr, Yaman, Iraq, inqilobiylar Eron Saudiya Arabistoni uchun ochiq muammo edi. Bu ta'sirlar vaqt o'tishi bilan o'z kuchini yo'qotgan, yangilari paydo bo'lgan bo'lsada, SAPning ojiz mudofaa tizimi muammosi saqlanib qolaverdi. Bu ojizlikni yo'qotish Podshohlikning AQSh va G'arb davlatlari bilan mustahkam aloqalarida o'z echimini topdi. Mamlakat mudofaasi to'liq G'arb vositalari, texnologiyasi bilan

ta'minlandi, G'arb mutaxassislari, maslahatchilari SAP harbiy strukturasini tashkil etilishida markaziy rolni o'ynadi.

1980 yillar boshidan AQSh Saudiya Arabistoniga tezkor harbiy kuch sifatida Fors ko'rfaziga o'rashdi va 1983 yil yanvardan boshlab AQShning Fors ko'rfazi bosh qo'mondonligi joylashdi. Marokash, Misr, Turkiya, Keniya, Ummon va Bahrayndagi harbiy bazalar AQShning Fors ko'rfazi va Yaqin Sharqdagi mavjudligini ta'minladi.

SAP ham o'z navbatida harbiy ojizligini asta-sekin bartaraf etish uchun eng zamonaviy qurol-aslahalar sotib olmoqda. Harbiy ojizlikda davom etsada, uning harbiy xarajatlari jahon miqyosida eng katta ko'rsatkichni tashkil etadi. Ikkinchisi besh yillik reja (1975-1980)ga ko'ra mamlakat bu sohaga 78, 157 mln. Saudiya riali sarfladi. Biroq, sotib olinayotgan qurollardan foydalanish uchun Saudiya Arabistoniga aholisi ozdir. Hozirgi kunda mamlakat AQSh va Buyuk Britaniyadan harbiy qurollar sotib olishda davom etmoqda.

FKADHKni tashkil topishida va uning faoliyatida SAP markaziy o'rin tutsada, u 1980-1990 yillardagi harbiy ziddiyatlar davrida kengashga a'zo davlatlarni himoya qilishga ojizligi ma'lum bo'ldi. Fors ko'rfazidagi vaziyatlar keskinlashgan sari SAPni harbiy xarajatlari miqdori ham oshib bordi. 4 besh yillik reja (1985-1990 yillar) ga ko'ra mamlakat 312, 500 mln. rial (umumiyligi davlat xarajati 1,000,000 mln. rial). 5-yillik reja (1990-1995) ko'ra 225, 500 mln. rial (umumiyligi 753, 000 mln. rial)ni tashkil etdi. SAP harbiy sanoatni rivojlanishi bo'yicha Eron va Iroqdan keyin 3 o'rinda turadi. Hozir Iroq sanoati yo'q qilindi. Biroq, SAP harbiy quradatining oshishiga doimo Isroil tomonidan qarshilik ko'satilgan.

1990-91 yillardagi Fors ko'rfazi muammosi SAP uchun qimmatga tushdi. SAP etkazib berilgan qurol aslahalarning pulini to'lashga ojizlik qilib qoldi. Natijada, Podshohlik tashqi qarz muammosini boshdan kechirdi. SAP AQSh mudofaa departamenti va Amerika mudofaa kompaniyalaridan milliardlab dollar qarz oldi. 1990 yilga qadar SAP o'zining Arab dunyosidagi mavqeい sababli AQSh bilan yaqindan hamkorlik qilmadi. Masalan, 1987-88 yil iyulida AQShning Fors ko'rfazidagi amaliyotlarida SAP hududidan foydalanishga ruxsat berilmadi. 1990 yilda SAP G'arbnинг Fors ko'rfazi inqiroziga kirib kelishiga (aralashishiga)sababchi bo'ldi. SAP doimo G'arb davlatlari manfaatlarini e'tirof etgan.

Saudiya Arabistoniga uzoq yillar davomida Falastin kurashini moddiy va ma'naviy darajada qo'llab, uning manfaatlarini turli

tashkilotlar doirasida himoya qilib keldi. Ammo, 2001 yil 11 sentyabrda AQShda va 2003 yil Ar-Riyod shahrida amalga oshirilgan terroristik harakatlardan keyin Podshohlikning Falastinga moddiy yordami miqdori keskin kamaydi. Siyosiy kuzatuvchilar bunga asosiy sabab yuqorida voqealardan keyin Saudiya Arabistoniga hukumatining mamlakat xayriya tashkilotlari moliyaviy faoliyatini qattiq nazoratga olganligini ta'kidlab o'tdilar.

Yuqoridaqiga qaramasdan, Falastin muammosi Saudiya Arabistoniga hukumati tashqi siyosatida muhim o'rinni egallaganligini e'tiborga olgan holda, uning atrofida bo'lib o'tayotgan voqealarni doimo o'z diqqat-markazida ushlab turadi. Ta'kidlash joizki, Saudiya Arabistoniga Falastin muammosini o'zining mintaqadagi manfaatini himoya qilishdagi asosiy qurol deb tushunib, ushbu mojaroni Isroil foydasiga hal qilinishi Podshohlikning ichki barqarorligi va milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, deb hisoblaydi.

Saudiya Arabistonining o'sha davrdagi Valiahdi va hozirgi podshohi Abdulloh ibn Abdulaziz tomonidan Falastin-Isroil muammosini hal etishga qaratilgan "Saudiya tashabbusi" deb nom olgan "yo'l xaritasi" tinchlik rejasi 2002 yilning fevral oyida e'lon qilingan bo'lib, uni mazkur yilning mart oyida Bayrutda bo'lib o'tgan sammitda umumarab mavqeい darajasiga ko'tarilgan. Mazkur tinchlik loyihasiga binoan, Isroil 1967 yilning 4 iyuniga qadar bo'lgan hududlarga qaytgan holda arab davlatlari uni to'la e'tirof etishlari belgilab qo'yilgan. Umuman olganda, arab mamlakatlari Isroil-Falastin mojarosiga chek qo'yishga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" loyihasini qo'llab-quvvatlagan bo'lsalarda, siyosiy kuzatuvchilar ular o'tasida ushbu masala bo'yicha hamjihatlik mayjud emasligi va ularning aksariyati mazkur loyihaning kelajagiga katta ishonchszilik bilan qarab kelayotganliklarini ta'kidlab kelmoqdalar. Jumladan, arab mamlakatlariidan Misr, Saudiya Arabistoniga, Iordaniya, Bahrayn va Qatar davlatlari rasman ushbu loyihami qo'llab-quvvatlashlarini e'lon qilgan bo'lsalar, Suriya va Livan mazkur loyiha faqat Falastin muammosini hal qilishga yo'naltirilganligini va u Yaqin Sharq mojarosini to'laligicha bartaraf qila olmasligini ta'kidlab o'tdilar.

Saudiya Arabistonining diniy kuch markazi sifatidagi yuksalishi XX asning 70-yillariga to'g'ri keladi. O'tgan asning 80-yillarining birinchi yarmida islom inqilobidan so'ng Eronning kuchayib ketgan faolligi va Eron-Iroq, Livan, afg'on mojarolarining keskinlashib

borishi munosabati bilan kuchlar nisbatining o'zgarishi oqibatida Ar-Riyodning musulmon dunyosidagi ta'siri bir muncha zaiflashdi. Ar-Riyodning din umumiyligi asosida birdamlilikka da'vat etishi kutilgan natijalarni keltirmadi. Yaqin Sharq mintaqasi va musulmon olamidagi siyosiy va maskuraviy kelishmovchilik his-hayajonli da'vatlarning o'zi bilangina bartaraf etilishi mumkin emasligi ayon bo'lib qoldi.

Saudiya Arabistonining boshchiligidagi ko'rfa neft monarxiyalari oldida turgan tahdidlar siyosiy jarayonlar davomida turli ko'rinishga kiradi. O'tgan asrning 70-yillarda bu tahdid Isroil davlatining Yaqin Sharqdagi ta'sirini kuchayishi bo'lsa, 80-yillarda Eron Islom inqilobi va bu inqilob g'oyalarining mintaqasi davlatlariga tez tarqalishi xavfi edi. 1990 yillarda mazkur tahidlarning o'mini Isroilning reaktsion tashqi siyosati egalladi.

XX asrning 80-yillarda Saudiya Arabistonining Arab va musulmon dunyosining tashqi siyosatida muhim o'rinni tutdi. U Fors ko'rfa davlatlari, xususan neft monarxiyalarning tashqi siyosatida etakchi rol o'yndi. Saudiya Arabistonining Arab-Islom muammolisidagi mavqeい, umumiyligi Arab dunyosining mavqeiga ta'sir etar edi. Biroq, 1990-91 yillardagi Fors ko'rfa hoidisalari Saudiya Arabistonining Arab va islom himoyachisi mavqeini juda yuqori baholaydi. A.H. al-Suyiyg' Afg'oniston, Livan, Falastin, Qomar orollari, Jibuti va Quvaytdagi muammolar Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida muhim o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Bundan tashqari Podshohlik Suriya-Livan, Jazoir-Marokash, Misr-Islom, Birlashgan Arab Amirliklari-Eron, Iraq-Quvayt, Suriya-Iordaniya munosabatlarda ijobjiy yutuqlarga erishishda ham muhim rolni o'yndaydi.

Ko'plab siyosatshunoslar Saudiya Arabistonining Islom Konferentsiyasi Tashkiloti (Hozirda Islom Hamkorlik tashkiloti)ni tuzishdagi rolini yuqori baholaydilar. Mazkur mamlakat ko'plab musulmon davlatlariga moddiy yordam ko'rsatgan Islom Robitasi Tashkilotining (Robita al-alam alislamiya) asoschisi sifatida obro' topgan.

XX asrning 90-yillari boshidagi siyosiy voqealar davomida esa, Saudiya Arabistonining asosiy masjurasi bo'lgan islom tamoyillari tarafdirulari mamlakat hududiga davlat suvereniteti va Fors ko'rfa xavfsizligini ta'minlash uchun taklif etilgan amerika va ingliz harbiy kuchlarini kiritmaslikni qattiq talab qildi. Ana o'sha paytga kelib, diniy guruhlar nafaqat ushbu mamlakat, balki mintaqaning boshqa davlatlari siyosatida muhim o'rinni egallaganligi ayon bo'ldi.

Saudiya Arabistonining hozirda jahon siyosiy-iqtisodiy maydonida ancha katta ta'sirga egadir. Saudiya Arabistonining umumjahon neft zaxiralaring qariyb uchdan bir qismiga egalik qilib, jahon bo'yicha neftning eng yirik qazib oluvchisi va eksporteri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1999-2003 yillarda Saudiya Arabistonining yalpi ichki mahsulot hajmi 140,9 mlrd. AQSh dollaridan 210 mlrd. dollargacha oshdi. Mamlakatning asosiy daromad manbai neft bo'lib (95 foiz), uni qazib olish darajasi hozirda kuniga 9,5 mln. barrelni tashkil etmoqda. Saudiya Arabistonining Qirol-oilasi o'z mol-mulkining mutlaq hajmi bo'yicha AQSh, Yaponiya va Evropaning eng boy moliyaviy magnatlaridan ham o'tib ketgan.

"Sovuq urush" tamom bo'lgandan keyingi qurolli nizolardan biri - Fors ko'rfa zidagi urush - faqat Iroqning Quvaytni bosib olganligi uchungina emas, balki Saudiya Arabistonining hududlariga ham tahdid uyg'otganligi tufayli yuzaga kelgan edi.

G'arb va Sharq tsivilizatsiyalari o'rtasidagi munosabatlarda murakkabliklarning ortib borishi, musulmon mamlakatlarida diniy hissiyotlarning kuchayishi ularda yuz berayotgan ko'plab ijtimoiy-siyosiy nizolarga ham, elatlararo va davlatlar o'rtasidagi to'qnashuv-larga ham diniy tus berilmoxda.

AQSh Kongressi diniy erkinliklarni tazyiq etuvchi davlatlarga qarshi AQSh Prezidentining vakolatini kuchaytirishi qarorini qabul qildi. Washington hukumati diniy targ'ibotlar olib borgani uchun qamalgan xorijlik fuqarolarni ozod etishni Ar-Riyoddan talab qildi. Arab davlatlari bu borada AQShni qo'lladi. 1997 yilda Saudiya Arabistonining ikkinchi o'rinnosari Shayx Sulton bin Abdul Aziz Ol Saud Saudiya Arabistonining hukumati xorijiy diniy targ'ibotlarga qarshi emas degan edi. Vatikanga safari davomida Amnisti Interneshnal (Amnesty International) Saudiya Arabistonining diniy tazyiq bo'yicha ilk o'rinnarni egallashini ta'kidladi. Biroq, Saudiya Arabistonining islom dini beshigi bo'lgani uchun boshqa dinlar targ'ibotiga qarshiliqi uning rasmiy siyosatidir.

Siyosatshunos olimlar va Fors ko'rfa mamlakatlarining siyosiy yo'lboshchilari "Arabiston oltiligi"ning tashqi siyosiy strategiyasini to'liq aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Biroq arab milliy jurnallarida bu to'g'ridagi bahslar hamon to'xtagani yo'q. Ular, birinchidan, dunyoda yuz bergan ulkan global o'zgarishlar tufayli, ikkinchidan, isroilliklar bilan falastinliklar o'rtasidagi qarama-qarshilikning

murosasizligi, uning mintaqasi davlatlari milliy xavfsizligiga ta'sirining kuchayib borishi bilan bog'liq.

Ular "milliy xavfsizlik sohasidagi siyosat" va uning tashkil etuvchisi bo'lgan tashqi siyosat, iqtisodiy va harbiy siyosat doirasida tegishli tarzda qo'llaniladi. Bularning hammasini faqat arab, islam dunyosida emas, balki butun xalqaro maydonda alohida o'rinn egallovchi Saudiya Arabistonni misolida kuzatish mumkin. AQShlik siyosatshunos Jeriko Anders Podshohlikni asosli ravishda arablarning muammolari hal etiladigan, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilinadigan, yordam ko'rsatiladigan katta uy deb hisoblaydi.

Saudiya Arabistonni Podshohligi (SAP) Uchinchi dunyo davlatlariiga yordam ko'rsatuvchi mamlakatlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Umuman, boshqa mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha u AQShdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

SAPning mintaqaviy va dunyo geosiyosatiga ko'rsatadigan ulkan ta'siri ham ana shundan kelib chiqadi. Podshohlik milliy xavfsizlikni mustahkamlar ekan, u davlat tuzilmasini takomillash-tirishga katta ahamiyat beradi. Chunki ichki barqarorlikni ta'minlamay turib, davlat xavfsizligini kafolatlash mumkin emas. Hozirda esa SAPda diniy fundamentalizm va ekstremizm, terroristik xurujlar avj olib, mamlakat xavfsizligi, barqaror taraqqiyotiga xavf tug'dirmoqda.

SAP ijtimoiy ta'minot tizimini qo'llab-quvvatlaydi va xayr-saxovatni rag'batlanitiradi. U islam dinini va uning ikki muqaddas joyini, jamiyat va fuqaroni himoya qilish uchun Qurolli Kuchlarni yaratadi. Davlat o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning hamda mamlakat hududida yashovchi boshqa shaxslarning xavfsizligini ta'minlash mamlakat ichki siyosatining ustuvor yo'naliishi qilib belgilagan.

Saudiya Arabistonining tashqi siyosiyo yo'naliishlari 80-90-yillarda ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslangan siyosatning davom ettirilishidan, Podshohlikning faqat xavfsizligigagina emas, balki mavjud bo'lishiga xavf solgan tahdidlardan kelib chiqqan xulosalarga bo'lgan reaktsiyasidan iborat edi. Bu yo'naliish bir vaqtning o'zida bir nechta bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mintaqaviy muammolar (Arabiston yarim oroli, Fors ko'rfazi, Qizil dengiz); Arab-Isroil nizolarida o'z roliga urg'u bergen holda umumarab darajasida; umumislom va dunyo miqyosidagi darajalarda olib borildi.

Yaqin Sharq mojarosini hal etish yarim asrdan buyon xalqaro munosabatlarning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur mojaro arab davlatlari va Isroil o'rtasidagi ziddiyatning eng murakkab va chigal nuqtalaridan biri.

Bundan tashqari geosiyosiy omil ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, Yaqin Sharq mintaqasi jahon miqyosida o'zining energetika resurslarining ulkan zaxiralariga ega bo'lgan hamda yirik davlatlar strategik manfaatlari kesishgan hudud hisoblanadi.

Ma'lumki, AQSh doimo Isroilni qo'llab kelmoqda. Washington Tel-Avivni hamma jabhalarda, boringki BMT doirasida ham qo'llab keladi. Evropa davlatlari va Rossiya arab davlatlarini qo'llab-quvvatlash orqali o'zlarini avvalgi mavqeini qayta tiklashga intilishmoqda, hamda Isroil tomonidan bosib olingan erlar qaytarilib, mustaqil Falastin davlati tashkil etilishi natijasida Yaqin Sharq muammosi o'z echimini topishi tarafdoi bo'lib kelmoqda.

Uchinchi dunyoning ko'plab mamlakatlari, birinchi navbatda, arab va musulmon davlatlari, ular o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklarga qaramasdan Falastin manfaatlarini qo'llab-quvvatlashda yakdildir. Ushbu fikr oxirgi yillar BMTda Falastin muammosi hamda Yaqin Sharqda siyosiy va harbiy inqiroz bo'yicha ovoz berish jarayonida o'z isbotini topdi. Masalan, BMTning ko'plab a'zo davlatlari Quddusda yangi yahudi turar joylarining qurilishini qoralash bilan birga Falastinning BMTdagi vakili maqomini yanada oshirish taklifini qo'llab-quvvatlashdi.

Arab-Isroil mojarosi harbiy jihatdan qudratli davlatlarning (AQSh va NATO davlatlari hamda SSSR va Varshava shartnomasi davlatlari) aralashuvidan so'ng, mintaqaviylikdan xalqaro darajaga ko'tarildi. Bu mojarolarda keskinlik avjiga chiqqanda umumjahon xalqaro munosabatlarda bir necha bor global jahon urushi boshlanib ketish xavfi yuzaga keldi (1956y, 1967y). 70-yillarda bu mojaroni hal qilishda arab davlatlari NATO davlatlariga qarshi neft xom ashyosini siyosiy ta'sir kuchi sifatida ishlatib, ularga bosim o'tkazmoqchi bo'ldilar. Ayni paytda nefting yuqori bahosi tufayli arab dunyosida moliyaviy jihatdan o'zini tiklab olgan davlatlar bilan radikal rejimdagi davlatlar o'rtasida farq kattalashib bordi. 1979 yilda Kemp Devidda (AQSh) Misrning Isroil bilan sulh tuzishi Arab davlatlarining birligiga putur etkazdi. Asosiy Arab-Isroil mojarolari endi Misr va Isroil o'rtasida emas, balki Isroil va Livan hamda Suriya davlatlarida faoliyat ko'rsatuvchi turli ekstremistik va terroristik siyosiy-harbiy guruhlar o'rtasida davom etdi.

Bu vaqt orasida Saudiya rahbariyati umummarab maydonida o'z ta'sirini namoyish qilishni davom ettirdi. 1981 yilda Saudiya Arabiston Livandagi tanglik paytida vositachilardan biri bo'ldi. Ar-Riyod Falastin muammosi va Arab-Isroil nizosini hal etish borasidagi harakatlarini yanada faollashtirdi. 1981 yil 7 avgustda o'sha vaqtdagi valiahd shahzoda bo'lgan Fahnding sakkiz banddan iborat rejasи ilgari surildi. Unda bиринчи маротаба Isroil davlatining mavjud bo'lish huquqi e'tirof etildi. Fahd rejasи ko'pchilik arablar tomonidan to'liq ma'qullanmadi, Isroil ushbu rejani rad qildi, ammo shunga qaramay bu reja ko'plab arab davlatlari uchun tashqi siyosatda vositachilik borasida tayyorlangan ilk hujjat bo'lib qoldi.

Fors ko'rfazi mamlakatlari uchun Arab-Isroil mojarosini hal etish muammosi bir nechta miqyoslarga egadir.

Isroilning hududiy jihatdan arablarga chegaradoshligi va u nazorat qilayotgan arab hududlaridagi yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar mazkur guruh mamlakatlari uchun katta xavf tug'diradi, o'zining arab va islam dini markazi sifatidagi nufuzi sababidan qo'shni arab mamlakatlari tarafini olib Saudiya Arabiston ham harbiy nizolarga bevosita aralashib qolishi ehtimolini rad etib bo'lmaydi.

1999 yilning 17 mayida Isroilda hukumat uchun saylovlar bo'lib o'tdi. Ko'plab arab davlatlari kabi Fors ko'rfazi mamlakatlari ham Isroil Bosh Vaziri Ya.Barakning (hozirda sobiq) hukumati Arab-Isroil nizolarida samarali natijalarga erishishiga ishonishgan edi. Biroq, Ya.Barakning Yaqin Sharq mojarolari xususida to'xtalib, "Ierusalim yahudiylarga qarashli" degan fikri avvalo Eron, so'ng Fors ko'rfazi davlatlari tomonidan tanqid qilindi.

1999 yil 19 mayda Falastin Ozodlik Tashkiloti Falastin davlati mustaqilligini 1999 yil oxirigacha e'lon qilinishini ta'kidlagan edi.

Fors ko'rfazi davlatlari Falastin muammosini tezroq hal etish borasida quyidagi talablarni ilgari surmoqdalar:

Birinchidan, Falastin aholisining 20 foizdan ko'prog'i Fors ko'rfazi davlatlarida yashab, qochoqlikni boshidan kechirmoqda;

Ikkinchidan, falastinliklarning neft konlari, aholisi, turar joylar, xorijiy davlatlar vakolatxonalariga, terroristik akt uyushtirishi xavfining mavjudligi;

Uchinchidan, Fors ko'rfazi davlatlari Falastin muammosini hal etishda ishtirok etish orqali o'zlarining arab va musulmon dunyosi hamda xalqaro hamjamiyatdagi obro'larini oshirishga intilishlari.

2001 yilda Arab-Isroil munosabatlarining keskinlashuvi va ikki tomon o'rtasida qurolli to'qnashuvlarning kelib chiqishi Fors ko'rfazi mintaqasida va Arabiston yarim orolida ichki vaziyatni beqarorlash-tirgani rost.

Arab-Isroil ziddiyatlari va diniy ekstremizmnинг avj olishi Fors ko'rfazi davlatlarida xavf tug'dirishi tabiiy, shuning uchun, ular chora ko'rishga majbur.

Yaqin Sharq muammosini hal etish Saudiya Arabiston va Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashiga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlar birdamlikni mustahkamlashlari zarur. Buning ustiga Al-Aqso masjidi joylashgan Sharqiy Quddus hamda bosib olingan arab hududlarini qaytarib olish ham doimo diqqat markazda.

Fors ko'rfazi mamlakatlarining Yaqin Sharq muammosini hal etishdagи qat'iy yo'li Arab Davlatlari Ligasining rasmiy hujjatlarida asoslab berilgan.

Unda, Isroil qo'shinlarini 1967 yilda bosib olgan barcha hududlarni qaytarib berish, bu erlardan isroilliklarni chiqib ketishi, barcha dinlarga ularning muqaddas joylarini erkin ziyorat etish, Falastin xalqining o'z-o'zini boshqarish va poytaxti Quddus bo'lgan o'z davlatini tuzish talablari turibdi. Fors ko'rfazi mamlakatlari urush holatidagi davlatlarga doim har tomonlama yordam ko'rsatib kelayapti.

Ko'rfazdagi siyosiy mo'tadilligi hamda Washington ta'sirida arablar uchun Tel-Aviv bilan ikki tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishda harakatlar qilish uchun shart-sharoitlar yaratdi. AQSh diplomatiyasi ham qo'llab-quvvatladi. 1994 yil sentyabr oyida Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi davlatlarining tashqi ishlар vazirlari Isroilga nisbatan e'lon qilingan bayonotida ta'qilashni ko'zda tutuvchi qator moddalarni bekor qilish haqida qaror qabul qildi.

Qirol Faysal 1962 yilda Saudiya Arabiston tomonidan ta'sis etilgan Islom Olami Uyushmasi orqali va 1964 yilda Uyushmaning Somalida o'tkazilgan ikkinchi oliy uchrashuvlari doirasida hamda 1963-64 yillardagi haj mavsumlari davomida bir necha musulmon davlatlarining rahbarlarini butun jahon musulmonlarining muammlarini muhokama etish maqsadida oliy darajada islam anjumani o'tkazish taklifini bildirdi. Ammo, Saudiya Arabistonining ushbu taklifi arab olamida ikki qutbda bo'lgan munosabatlar turlicha bo'lganligi va ba'zi arab mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro nizolar va Yaman muammosi ham keskin holatni boshdan kechirayotgan bir paytga

to'g'ri kelganligi natijasida musulmon mamlakatlaridan Eron va Somali islam uchrashuvi o'tkazilishini qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar, Iordaniya, Sudan, Pokiston, Marokash, Gana va Niger davlatlari islam birdamligi fikrini qo'llab-quvvatlashlarini, ammo oliy islam konferentsiyasi o'tkazish fikriga qo'shilmasliklarini ma'lum qildilar. Misr, Jazoir, Iroq va Suriya esa konferentsiya o'tkazilishiga qarshi ekanliklarini bildirdilar.

1967 yil iyun oyidagi Arab-Isroil urushi natijasida arablarning mag'lubiyati va 1969 yilda ba'zi yahudiy mutaassiblari tomonidan Al-Aqso masjidiga qilingan tajovuzdan so'ng qator musulmon mamlakatlarining arboblari, doimiy faoliyat yuritadigan tashkilot tuzish taklifi bilan chiqdilar. Ushbu taklif Saudiya Arabistoni tomonidan qo'llab-quvvatlandi va qo'lidan kelgan barcha ishni qildi. 1969 yili Marokashda va Makkada umummusulmon Islom Konferentsiyasi Tashkiloti ta'sis etilganligi e'lon qilindi. Saudiya Arabistoni ushbu tashkilotni qo'llab-quvvatlab unga moddiy yordam berishga qaror qildi.

Podshoh Faysalning qayd etishicha islamning uch dushmani mavjud-kommunizm, sionizm va mustamlakachilik. Sharqiy Quddus va arab davlatlarining erlari, Isroil tomonidan bosib olingenligi, vaziyatni chigallashtirayapti. Bunday vaziyatni faqat islam birdamligini kuchaytirish bilangina to'g'rilash mumkin. Musulmonlar uchun og'ir bo'lgan vaqtida, Podshoh Faysal islam davlatlari rahbarlari-prezidentlari va Podshohlari o'zaro bir-birlarini tushunishi, birdamligi hamda kelishib ish ko'rishlik nazarda tutilayapdi. Shularni nazarga olib Podshoh Faysal qator islam davlatlariga rasmiy tashriflar qildi. Natijada ularning ko'pchiligi Saudiya Arabistoni Podshohligi taklifini to'liq qo'llab-quvvatladi.

1969 yildagi isroilliklarning Al-Aqsodagi yong'inidan keyin Saudiya Arabistonining majlis tuzish haqidagi harakati yana jonlandi. 14 ta islam mamlakatlari buni qo'llab-quvvatladilar. Shundan so'ng 1969 yili Qohirada ushbu mamlakatlarning tashqi ishlari vazirlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Shunday qilib, 1969 yil 22-25 sentyabr kunlari Rabotda 25 musulmon mamlakatlari ishtirokida konferentsiya bo'lib, unda quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

birinchidan, "Islom Konferentsiyasi" tashkilotini tuzish, uning asosiy vazifasi va maqsadlarini aniqlash – unda muqaddas joylarni himoya qilish, islam birdamligini mustahkamlash, musulmonlarni o'z sha'ni, mustaqilligi, milliy huquqlarini himoya qilish, irqiy kamsitish va mustamlakachilikka barham, berishdan iborat.

ikkinchidan, Islom konferentsiyasi tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va milliy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

Saudiya Arabistoni – dunyodagi islomiy harakatlarning bosh homiyasi hisoblanadi. Shuning uchun, nochor islam mamlakatlariga yordam berish va ularni iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ko'maklashadi. Qator muassasalar borki ularda Saudiya Arabistoni Podshohligini ta'siri juda katta. Bunday tashkilotlarga, Saudiya rivojlanish Fondi, Islom Rivojlanish Banki, Arab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish Fondi, Arab Moliya Fondi, (OPEK) xalqaro rivojlanish Fondi, Afrikada iqtisodiy rivojlanish Arab Fondi, Afrika rivojlanish Banki, Afrika rivojlanish Fondi, xalqaro qishloq xo'jaligi rivojlanish Fondi, Xalqaro moliya Fondi, Xalqaro qurilish Banki, Xalqaro rivojlanish Qo'mitasi, Xalqaro investitsiyalash Assotsiatsiyasi, Xalqaro ishlab chiqaruvchilar agentligi, Arab ishlab chiqaruvchilar agentligi, BMT qoshidagi rivojlanish qo'mitalariga yordam berish bo'yicha Arab ko'rfazi mamlakatlari dasturi, Arab va Afrika davlatlariga texnikaviy xamkorlik qilish Fondi, Afrika Kongressi Tashkiloti tarkibida markazlar fondlari, Afrikada traxomaga qarshi kurashish dasturi, Afrikada qurg'oqchilikka qarshi kurashish dasturi va boshqalar.

Shunday bo'lishiga qaramasdan Arab-Isroil muammosi hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Yaqin Sharqda Isroilning yadro quroliga qarshi ba'zi arab davlatlarida kimyoqiy qurol ishlab chiqarishga harakat qildi. Ammo MAGATE (Xalqaro atom energiyasi agentligi) tomoni arab davlatlarini bu yo'ldan qaytarishga urinmoqda. 1968 yili Isroil xalqaro quronanishing oldini olish shartnomasini imzolashdan bosh tortdi. Lekin 1995 yil aprel oyida shunday bitim Isroilning ishtirokisiz AQShning ta'qibi bilan arab davlatlari tomonidan imzolandi. Shunda ham AQSh Isroilning quronanish strategik maqsadlarini davlat xafsizligini ta'minlashdan iborat deb hisobladi. Buning ustiga 1981 yil 31 noyabrida AQSh va Isroil o'rtasida "AQSh va Isroil o'rtasida strategik hamkorlik memorandumi" imzolangan. Shartnomaga binoan, AQSh Isroilning havo mudofaa tizimini mustahkamlovchi "raketa hujumlaridan himoya qilish" loyihasini ishlab chiqdi. Bu loyiha AQShning "Ballistik raketalardan himoya qilish tashkiloti" tomonidan 2 mldr. AQSh dollari sarflandi.

Arab davlatlarining bir-biriga nisbatan harbiy va strategik majburiyati Arab Davlatlari Ligasining 1980 yilda imzolangan 2-

Artikl - Hamkorlikdagi Mudofaa Shartnomasida o'z aksini topgan. Shartnomada "biror arab davlatiga tajovuz boshqa barcha mamlakatlarga tahdid sifatida qaraladi. Shuning uchun boshqa arab davlatlariga qurolli tajovuzga uchragan davlat mudofaasini ta'minlashga yordam ko'rsatishi shart" deb belgilandi. Mazkur shartnomada barcha Arab davlatlari tomonidan imzolangan bo'lsada, amalda u o'z tasdig'ini topmadi. 90-yillarda Fors ko'rfazida yuz bergan siyosiy tanglik davrida Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi davlatlari AQShdan mudofaa yordamini so'rashga majbur bo'ldi.

Fors ko'rfazidagi 1990-yillardagi harbiy operatsiyalarga qadar Saudiya Arabistonni hech bir harbiy to'qnashuvda bevosita ishtirok etmagan bo'lsa ham, biroq uning harbiy xarajatlari mutlaq holda yalpi ichki mahsulot miqdoriga nisbatan olganda Yaqin Sharq davlatlari ichida eng yuqori o'rinnlardan birini egallaydi.

1951, 1980, 1988 va 1990 yillarda AQSh va Saudiya Arabistonni Podshohligi o'tasida o'zaro yordam va mudofaa haqidagi qator bitimlar imzolandi. AQSh Saudiya Arabistonining Dahron shahrida harbiy havo kuchlari bazasini tashkil etdi va undan turib Fors ko'rfazi mintaqasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Washington va Ar-Riyod o'tasida mudofaa sohasidagi hamkorlik aloqalari Isroiil davlati tomonidan qattiq tanqidga olindi.

Ammo, sharqshunos olim Ch.Davisning fikricha, AQShning Yaqin Sharqdagi siyosatida u Isroiilning himoyachisi bo'lib qolaveradi.

Isroiilning siyosiy doiralar AQShning Arab-Isroiil muammolarida Falastin manfaatlari masalasida Ar-Riyodning ta'siri borligini qayd etmoqda. Shuning uchun Isroiil AQSh - Saudiya Arabistonni aloqalariga sovuqlik solishga harakat qilmoqda.

XX asrning 80-yillarida sovuq urush siyosati Yaqin Sharq davlatlarida qurollanish poygasini avj oldirib yubordi. Xuddi shu davrda mintaqalari davlatlarining harbiy xarajatlari 615 mlrd. AQSh dollariga etdi. Bundan tashqari Yaqin Sharq davlatlari bu borada ularni qo'llab-quvvatlagan mamlakatlarga 2 mlrd. AQSh dollarini miqdorida mablag' sarfladi. Yaqin Sharq xavfsizligini ta'minlashda Arab-Isroiil mojarolari nafaqat mintaqaviy muammoga balki umumjahon xavfsizligiga tahdid solmoqda. Falastin muammosi Arab-Isroiil ziddiyatlarining asosini tashkil etib, mazkur majoro qariyb yarim asrdan buyon dunyonи tashvishga solib kelmoqda.

Washington Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi mintaqasida har jihatdan muhim mavqega ega bo'lgan Saudiya Arabistonni bilan iliq

munosabatlar olib borishga harakat qilayapti. Ushbu mamlakatlar o'tasida turli sohalarda samarali hamkorlik aloqalari olib borilmoqda. Aloqalar orasida eng asosiysi – harbiy soha bo'lib, Ar-Riyod AQShdan zamonaviy qurollar sotib olish bo'yicha yuqori ko'rsatichlarga ega. Shunga qaramasdan Yaqin Sharqda yuz bergen ziddiyatlar, qurolli to'qnashuvlarning to'xtamayotganligi Washington va Ar-Riyod o'rasidagi munosabatlarda o'zini ta'sirini ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'tasidagi diplomatik munosabatlar yaxshi bo'lishiga qaramasdan AQShning Isroiilga yordami Ar-Riyod hukmron doirlariga yoqmayapti. Saudiya Arabistonni bu borada ya'nı Isroiil masalasida AQShga tazyiq o'tkazishga ojizlik qilayapti. Ammo AQShning Saudiya Arabistonni bilan hamkorligi joyida. Isroiil davlati bundan norozi. AQSh Saudiya Arabistonni va Misr Arab Respublikasiga zamonaviy mudofaa qurollarini etkazib berishda davom etayapdi.

Saudiya Arabistonni Falastin muammosini o'z tashqi siyosatining asosiy qaynoq nuqtasi deb hisoblab, uning atrofidagi voqealarga befarq qarab turaolmaydi. Shuning uchun, Saudiya Arabistonni Falastin mojarosiga o'zining hayot-mamot masalasi deb qaraydi. Agar ushbu mojarolari Isroiil foydasiga hal bo'lsa Podshohlikning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi tabiiy. Chunki o'z foydasiga Isroiil-Falastin muammosini hal qilganidan keyin AQShning ko'magida mintaqadagi eng asosiy dushmanlari - Saudiya Arabistonni va Eronga o'z hujumini boshlashi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, Saudiya Arabistonni rasman "yo'l xaritasi" deb nomlangan loyihani qo'llab-quvvatlagan bo'lsada, unda Falastin manfaatlari etarlicha inobatga olinmagan deb hisoblaydi va ushbu muammo bo'yicha 2002 yilda e'lon qilingan Saudiya Arabistonni tashabbusini ilgari surayapdi. "Saudiya tashabbusi" deb nom olgan mazkur loyiha 2002 yilning fevral oyida Valiahd Abdullohamonidan e'lon qilingan bo'lib, uni 2002 yilning mart oyida Bayrutda bo'lib o'tgan sammitda umumarab mavqeい darajasiga ko'tarildi.

So'nggi yillarda Saudiya Arabistonni o'zining ichki va tashqi siyosatida muammolar bo'lishiga qaramasdan, arab davlatlari ichida Falastin muammosiga nisbatan qat'iy mavqeい egallaganligi bilan ajralib turdi. Jumladan, 2003 yilning 2-3 iyun kunlari Misrda AQSh va arab davlatlari ishtirokida Falastin masalasi bo'yicha bo'lib o'tgan sammitda Washington va Ar-Riyod o'tasida jiddiy kelishmovchilik borligi ma'lum bo'lib qoldi. Falastin-Isroiil mojarosini hal qilishni

ko'zda tutgan "yo'l xaritasi" loyihasini tatbiq qilishga bag'ishlangan sammitda AQSh Yakuniy bayonotga "Arab davlatlari Isroil bilan o'z munosabatlarini darhol yaxshilashga harakat qiladilar", degan bandni kiritishni talab qilgan. O'z navbatida, Podshohlik Qiroli Abdulloh yakuniy bayonotga mazkur bandni kiritishga qarshi o'z noroziligini bildirgan holda, yig'ilishni tark etishini ma'lum qilgan. Faqat AQSh Prezidenti Bushning shaxsan aralashuvi va yuqorida zikr etilgan bandning yakuniy bayonotdan chiqarilib tashlanishi sammitni muqarrar inqirozdan saqlab qolgandi. Shunga qaramasdan, Vashington bilan Ar-Riyod ushbu masala bo'yicha bir to'xtamga kelolmayaptilar.

"AQShning Arab-Isroil nizolaridagi vositachiligi Samara bermayapti, buning asosiy sababi Vashington doimo Isroilni harbiy jihatdan quvvatlab turishidi», deb yozadi tadqiqotchi Mark O Relli. AQSh Isroilga yiliga 3 mlrd. dollar miqdorida moddiy yordam ko'rsatib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni alohida qayd etish joizki Saudiya Arabistonining Falastin muammosi bo'yicha masalasi dolzarbligicha qolaveradi. Chunki Falastin Saudiya Arabistoniga qo'shni hududdir.

Fors ko'rfazi arab davlatlari Hamkorlik Kengashi mamlakatlari jahon siyosati va iqtisodining ana shunday muhim bug'inlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mintaqqa – dunyoning rivojlangan mamlakatlari harbiy-siyosiy, tashqi iqtisodiy hamda moliyaviy faoliyatining eng asosiy markazlaridan biridir. Neft ishlab chiqaruvchi etakchi mamlakatlar (BAA, Kuvayt, Saudiya Arabiston) o'z ixtiyorida dunyo neft zahirasining 45 % ini jamlagan, hamda bu mahsulot bilan jahon bozorini 17% miqdorda ta'minlaydi. Fors ko'rfazi hududi, shuningdek, keyingi o'n yillikda jahon energetika tizimida ahamiyati keskin oshgan dunyodagi eng asosiy gaz manbalaridan biri hisoblanadi.

Ko'rfaz davlatlarining taraqqiyoti dunyoning strategik muhim mintaqasida joylashganligi bilan belgilangan. Ayni paytda, Yaqin va O'rta Sharqdagi beqarorlik, Iroq hamda neft tranziti amalga oshiriladigan asosiy transport kommunikatsiyalari atrofidagi vaziyat, ularni asosiy mintaqaviy xavfsizlik muammolarini hal qilish jarayonida faol ishtirok etishga majbur qiladi. Fors ko'rfazi arab davlatlari Hamkorlik Kengashi mamlakatlarining xavfsizlik muammolariga (mintaqaviy ziddiyatlar, beqarorlik, Yaqin Sharq mojarosi, yalpi qirg'in quollarining tarqatilishi, xalqaro terrorizm,

diniy ekstremizm va hokazolarda) yondashuvi BMTning qoidalariga hamda ko'ptomonlamalik siyosatiga amal qilishga asoslanadi.

Fors ko'rfazi arab davlatlari Hamkorlik Kengashi mamlakatlari Islom Hamkorlik Tashkilotining faol a'zolari sifatida uning boshqa mamlakatlariga iqtisodiy hamda texnik yordam ko'rsatish, shuningdek, islom dunyosidagi vaziyatning yaxshilanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur davlatlar rahbarlari nuqtai nazaridan quyidagilar, ya'ni: tabiat boyliklarining musulmon davlatlari o'rtasida notejis taqsimlanganligi, iqtisodning monokultura va monoxomashyoga tayanishi, ijtimoiy rivojlanish uchun mablag'larning etishmasligi; malakali ishchi kuchlarining va kasbga tayyorlash markazlarining etishmasligi; texnika fanlari va zamonaviy texnologiyalar sohasida orqada qolganlik, "aql sohiblarining" musulmon mamlakatlariidan ilmiy-texnik jihatdan yaxshiroq rivojlangan mamlakatlarga ketib qolishi; ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalansmaslik, iqtisodni rejalashtirish masalalarida muvofiqlashtirishning hamda iqtisodiy, savdo va moliya siyosatida puxta strategik rivojlanish ishlanmalarining yo'qligi katta muammolar sarasiga kiradi.

Arab davlatlarining umummusulmon va mintaqaviy tashkilotlari (Islom Hamkorlik tashkiloti, Islom Olami uyushmasi, Arab Davlatlari Ligasi) moliyalashtiradigan muhim markazlar sifatidagi roli ham oshmoqda. Saudiya Arabistoni eng yirik xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, MBRR hamda Xalqaro Valyuta Fondiga to'lanadigan badal hajmi bo'yicha dunyoning birinchi yigirma davlati qatoriga kiradi. Bu unga xorijda faol investitsiya faoliyati olib borishga imkon beradi. Saudiya Arabistoni tashqi iqtisodiy yordam kanali arablarniki bo'limgan mintaqaviy fondlari va tashkilotlari imkoniyatlaridan ham foydalanoqda. Bunga Islom taraqqiyot banki, OPEK fondi va boshqalarni misol qilsa bo'ladi. Biroq bunda pragmatizm qoidalariga, ikki tomonlama siyosatning transparentligiga hamda iqtisodiy munosabatlarning mafkuradan xoli qilinishiga tayanish muhim. Qayd etish kerakki, Saudiya Arabistonining ichki va tashqi siyosatida siyosiy mulohaza pragmatizmi tobora ko'proq namoyon bo'limoqda. Bunda arab-musulmon dunyosidagi ma'lum kuchlarning islomni shior qilib olib qalloblik qilish xavfini anglab etish o'z rolini o'yamoqda. Shu munosabat bilan arab davlatlarining o'z iqtisodiy va siyosiy-diplomatik imkoniyatlarini milliy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, o'z atrofida "qo'shni qardosh davlatlar" xalqasini yaratish,

shuningdek, boshqa davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni shakllantirish uchun yo'llanishi zarurligini anglashlari kuchaydi.

*Saudiya Arabistonining siyosatining shakllanishida energetika sohasidagi barqarorlikning ahaniyati.* Bugungi kunga kelib barcha davlatlarda energetika xavfsizligi masalasi paydo bo'lmoqda. Bu energetika resurslariga talabning oshib borishi, resurslarning esa tugab borayotganligi hammani tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham energetik resurlarga boy davlatlar xalqaro maydonda muhim rol o'yamoqda. Ular o'z energetik xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashqi siyosatda o'z manfaatlardan kelib chiqqan holda harakat qilmoqda.

Bizga ma'lumki, Yaqin Sharq davlatlari juda ulkan tabiiy resurlarga boy hisoblanadi. Bu davlatlar asosan neft eksport qiluvchi davlatlar hisoblanadi. Bunday ulkan tabiiy zaxiralarga ega davlatlardan biri Saudiya Arabistonining bo'lib SAP yetakchi neft ishlab chiqaruvchi mamlakat sifatida katta o'rinni egallab kelmoqda. Saudiya Arabistonining resurslardan oqilona boshqarish orqali global iqtisodiyotning beqaror davrida ham global neft bozorini barqarorlashtirishdagi harakatlari bilan taminlashga muvaffaq bo'ldi. Xalqaro valyuta jamg'armasining Saudiya Arabistoniga tashrif byurishining so'ngi natijalariga ko'ra, iqtisodiy yordam tufayli uning import va ishchilarning oylik maoshi oshib borayotganligi hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarida ta'sir ko'rsatayotganligini e'tirof etdi. Saudiya Arabistonining iqtisodiy faoliyatini kuchayib ijobjiy tomoniga rivojlanib bormoqda.

Shunga qaramay mamlakatning o'sishi 2014-yilda 7.1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda 6% ga tushib qoldi. Davlat iqtisodining asosini neft sohasi tashkil qilishi hamda muhim geosiyosi o'rni, kelajakda neft bozoridagi keskin vaziyatlar davlatni xavf ostiga qo'yadi.

2015 yil o'rtalariga kelib neft narxi ikki barobar pasayib ketgandan so'ng keragidan ortiqcha neft ishlab chiqarishni qisqartirishni ta'minlash maqsadida OPEKka a'zo bo'Imagan neft ishlab chiqaruvchilarni, xususan, Rossiyaning a'zolikka undash masalasi ko'tarildi. Lekin bu davlatlar taklifni rad etdi va OPEK ularga neft yetkazib berishni kamaytirdi. Jazoir Bosh Vaziri Abdulmalik Sellal gaz eksport qiluvchi davlatlarning Tehrondagi sammitidagi nutqida neft bozoridagi o'ylarni nazorat qilishga chaqirdi. U yana agar neft bozori nazorat qilinmasa, narxlarni kuchli o'zgarishiga guvoh bo'lishimiz mumkin deya qo'shimcha qildi.

Saudiya Arabiston "neft asrinig so'nishi" ga tayyorgarlik ko'rmoqda. Bu haqida shaxzoda Muhammad bin Salmon 2016 yil 1-aprel kuni Bloomberg nashriga bergan interviyusida aytib o'tdi. Qirollik oilasi vakili mamlakat 2 trillion dollar qiymatga ega suveren jamg'arma tashkil etishni rejalashtirganini ma'lum qildi. Ushbu pullar neftga bo'lgan tobelikdan xalos bo'lishga sarflanadi. Saudi ARAMCO davlat neft kompaniyasi 2017-yilda birjaga chiqishi mumkin. Hukumat bozorda korxonaning besh foizigacha bo'lgan aksiyalarini tadbiq etishni rejalashtirgan. 1-aprel ma'lumotlariga ko'ra, Brent markasidagi neftning bir barreli uchun 39,65 dollarlik qiymatida savdo qilinmoqda. Ishlab chiqarishni barqarorlashtirish maqsadida neftchilar 2016-yil yanvariga doir neft qazib chiqarishni to'xtatib qo'yishni rejalashtirishmoqda.

Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK) doirasida neft qazib olish hajmlari tez sur'atlarda o'smoqda. Tashkilot hisobotida aytılıshicha, o'sish asosan Saudiya Arabistonining hamda Iroqqa to'g'ri kelmoqda.

Tashkilot doirasida neft qazib olishning umumiyyatini kuniga 283 ming barrelga oshib, 31.38 million barrelni tashkil etmoqda. Tashkilotning neft qazib olishga kvotalarini iyun yakunlari bo'yicha 30 million barrelga oshirilgan. Saudiya Arabistonining neft qazib olish hajmi 230.9 ming barrelga o'sib, kuniga 10.564 million barrelni tashkil etmoqda. Mamlakatning OPEK dagi ulushi 33 % dan 33.4 % ga oshdi.

2016-yil 14-mart kuni OPEK davlatlari Venadagi dekabr yig'ilishida Saudiya Arabistonini e'tiborsiz qoldirib, iqtisodiy zaif blok a'zolari Nigeりiya va Venesuella kabi a'zolar neft narxini keskin pasayib ketishini qisqartirishga kelishishdi. Saudiya Arabistonining esa neftni hozirgi darajada ishlab chiqarishni davom ettirishni talab qildi. Ikki oy davomida Brend neft narxining bir barreli 40 dollardan 27 dollarga tushib ketdi. Shundan so'ng Saudiya Arabistonining neft narxini barqaror global narxda muzlatishga rozi bo'ldi. Ammo neft bozorini nazorat qilish harakatlari noto'g'ri hisoblashi natijasida neft narxi 30 dollarga tushib ketdi. Natijada bu neft taqchilligiga olib kelishi mumkin.

Saudiya Arabistonining tashqi ishlar vaziri Odil al-Jubayr interviyusida, "mintaqadagi neft narxining izdan chiqishi hamda iqtisodiy ittifoqchilar Yaman, Suriya, Misrdagi izchilllik bilan davom etayotgan urushga befarq qarab turmaydi" – deb aytdi. "Bizning tashqi siyosat milliy xavfsizlik manfaatlari asoslangan", - al-Jubayr

qirollikning poytaxti Ar-Riyod shahrida Tashqi ishlar bosh qaror-gohida ma'lum qildi. U yana Saudiya Arabistonni tashqi siyosatni neft narxiga qarab belgilamaydi. Mana shu o'n yillikda brent neft narxining eng past ko'rsatkichga erishdi. Saudiya Arabistonni byudjet kamomadi o'tgan yilda neft narxining keskin tushib ketgani sababli taxminan 98 mld. AQSh dollariga yetib, qirolik energetik subsidiyalar va qurilish loyihalarini qisqartirishini ma'lum qildi. Bundan tashqari, uning ulkan davlat neft kompaniyalari obligatsiya va aksiyalarini sotishni muhokama qildi. Saudiya Arabistonining mintaqaviy raqibi Eronning jahon bozoriga qaytishi qo'shimcha global neft bilan ta'minlash uchun qo'shildi.

Erondag'i sanktsiyalar yadroviy shartnoma shartlariga rozilik bildirgandagina olib tashlanishi mumkin deb ta'kidladi al-Jubayr. Bundan tashqari u neft ishlab chiqaruvchi davlatlar uchun bozorda yetarli joy borligini aytib o'tdi.

Ikki OPEK a'zolari o'tasidagi ziddiyatlar Suriyadagi urushni to'xtatish sa'y-harakatlarni yo'qqo chiqarmoqda. Bu yerda Saudiya Arabistonni Prezident Bashar al-Assad hukumatiga qarshi chiqqan asosan sunniy harbiy guruqlar harakatini qo'llab-quvvatlamoqda, Eron esa bunga qarshilik ko'rsatmoqda.

Saudiya Arabistonni eng ko'p neft eksport qiladigan mamlakat sifatida neft narxi keskin pasayib ketgan holatida ham boshqa eksportyorlarga qaraganda ko'proq neft eksport qildi.

Tarixan qaraydigan bo'lsak, neft import qiluvchi mamlakatlar Yaqin Sharqqa har doim ta'sir o'tkazib kelgan. AQShning Afg'oniston va Iroqdagi harakatlari davomida neft tushib ketgandi. 2007–2008-yildagi iqtisodiy inqiroz ham neft narxining pasayib ketishiga olib keldi. Ammo hozirgi kundagi inqiroz neft ishlab chiqaruvchi davlatlar o'tasidagi bozor raqobatini kuchaytirmoqda. Bundan tashqari Yaqin Sharqdagi tartibsizliklar neft narxining pasayishiga sabab bo'lmoqda. 2014-yildagi neft narxining ko'rsatkichi tarixiy cho'qqisiga erishgandan 60 % ga tushib ketdi. 2016-yil yanvaridagi neftning bir oylik o'sishini ko'radigan bo'lsak, AQSh neft jamg'armasi 16 % ga, Conoco Phillips (COP) 11 % ga, Anadorka Petroleum (APC) 28 % ga, Pioneer Natural Resources (PXD) 7 % ga tushib ketdi. Bu 2014-yildagi narx holatidan 50 % tushib ketganini ko'rsatadi.

Saudiya Arabistonni boshchiligidagi neft eksport qiluvchi davlatlar AQShning slantsli neft narxini belgilashda kelishmovchilik

kelib chiqmoqda. AQSh slantsli neft ishlab chiquvchilarining bozordagi ulushining ortib borishi qirolikni tashvishlantirmoqda. Slants neft ishlab chiqaruvchi davlatlar neft narxini belgilashda iqtisodiy tushkunlik kelib chiqmoqda, Saudiya Arabistonni ularni neft bozoridan butunlay tozalab tashlashga muvaffaq bo'lomadi. Qirolik iqtisodi neftga bog'liq bo'lganligi sababli, AQSh slants neft ishlab chiqaruvchilarini bozordan siqib chiqarishga qurbi yetmaydi. Slantsli neft er yuzida keng tarqalgan bo'lib, Osiyo va Evropa davlatlari neftga bo'lgan qaramlikni kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirmoqda. Slantsli neftni import qilishga nisbatan qazib olish qimmatroq bo'lsa ham, xom neftga nisbatan import uchun strategik afzalliliklarga ega.

Saudiya Arabistonida neft zaxiralarning taxminan 15.7% borligi isbotlangan. Olib borilgan statistik tadqiqotlarga ko'ra Eron va Iroqda neft zaxiralari mos ravishda 9.3% va 8.8%ini ko'rsatadi. Saudiya Arabistonni bir barrel neftni qazib olish uchun 9.9 AQSh dollari sarflaydi. Bu kapital xarajatlar va operatsion xarajatlar uchun mos ravishda 4.5 va 5.4 AQSh dollarini tashkil etadi. Quvaytda bir barrel neft qazib olish uchun boshqa davlatlarga nisbatan eng past ko'rsatkich ya'ni 8.5 dollar sarflaydi. Quvayt Saudiya Arabistonining eng yaqin ittifoqchilaridan biri hisoblanadi.

Boshqa tomonidan, Eron bir barrel neft qazib olish uchun 12.6 dollar sarflasa, Rossiya esa 17.3 dollar sarflaydi. Bu Saudiya Arabiston uchun Rossiya va Eronni raqib sifatida solishtirganda, neft narxining 30 dollarga tushib ketishi yuqori foyda beradi. Rossiyada dunyo neft zaxirasining 6.1 % joylashgan.

Saudiya Arabistonni neft ishlab chiqarishni kamaytirgani haqida xabar bergani yo'q. Bu Saudiya Arabistonni neft narxi past bo'lganda ham neft bozorida ko'proq neft ishlab chiqarishni rejalashtirishga qaratgan. Bu qirolikka ikkita afzallikni beradi. Birinchisi, neftdan foyda olish bilan birga energetika sohasidagi ishlab chiqishdagi to'siqlarga yangi texnologiyalar ta'sir qilishi mumkin. Ikkinci afzallik esa neft narxining pasayib ketishi uning yaqin raqiblari Rossiya va Eronning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Saudiya Arabistonni daromadining 85 % dan ko'prog'i neft eksportidan keladi.

AQShning o'zi xom neft importiyori sifatida neft eksport qiluvchilar uchun kichik ta'sir ko'rsatadi. Saudiya Arabistonni boshchiligidagi OPEK davlatlari o'tasidagi neft narxini belgilashdagi kurashi va AQShning

slantsli neft ishlab chiqishi xalqaro neft narxiga ta'sir qiladi. Brent neftning narxi 2014-yil o'talarida 4 barobar tushib ketdi.

Suriya va Yaman Yaqin Sharqning ichki nizolarining tayanch nuqtasiga aylanib qolgan. Eron va Rossiya boshqa tomondan, Saudiya Arabistonini boschchiligidagi Arab ittifoqiga qarshi ikki tomon vakil sifatida turadi. Eronga nisbatan sanksiyalarning qo'llanilishi Saudiya Arabistonining dunyo neft bozoridagi ayniqsa, Yevropa va Osiyodagi ulushi ortib ketdi. Rossiya Saudiya Arabistonining Osiyo va Yevropadagi asosiy raqibi hisoblanadi.

Arab dunyosi jahon energetika resurslarining 70 % dan ko'proq'ini nazorat qiladi. Neftning asosiy eksportchilarini birlashtiruvchi OPEK tashkilotining asosini aynan arab davlatlari tashkil etadi. OPEK (Organization of the Petroleum Exporting Countries) – 1960 –yil sentyabrda Bog'dod Konfrensiyasida neftga eksport kvotalari va narxlarini muvofiqlashtirish orqali jahon neft bozoridagi vaziyatni tartibga solish maqsadida tuzilgan. Hozir bu tashkilotga Jazoir, Indoneziya, Eron, Iraq, Quvayt, Liviya, Nigeriya, Qatar, Saudiya Arabiston, BAA va Venesuela a'zo. Bu davatlarda jahon neft zaxiralarning 2G'3 qismi joylashgan. 2004-yilda neft narxlarini oshib ketishi natijasida OPEK ka a'zo mamlakatlarning umumi daromadi 338 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Jahonda tekshirilgan neft zaxiralari 1250 mlrd. barrelni tashkil etadi. Shundan 565 mlrd barrel neft Fors ko'rfazi davlatlari hisobiga to'g'ri keladi. Bu dunyo neft zaxirasining 63 % ini tashkil etadi, Saudiya Arabistonining o'zida jahon neft zaxirasining to'rdan bir qismi ya'ni 263 mlrd. barrel neft mavjud. OPEK siyosatini asosan Saudiya Arabiston belgilaydi.

Energetika sohasiga ixtisoslashgan Oil Price internet nashrining yozishicha, Saudiya Arabistonining neft qazib olish darajasini muzlatish bo'yicha Dohada bo'lib o'tgan muzokalarlarda o'zini g'alati tutishini izohlash mushkul. Ekspertlar OPEK mamalakatlari va Rossiya, neft qazib olishni muzlatish xususida biron bir jiddiy kelishuvga erishilishini shubha ostiga qo'ygan bo'lsalarda, muzokara qatnashchilari ramziy bo'lsada qandaydir bitimsiz tarqalishmaydi, deb hisoblashgandi.

Saudiya Arabistonining Eronsiz, hech qanday bitimni imzolamaslikni ta'kidlaganini, quruq tahliddan boshqa narsa emas, deb baholashgandi. Bundan tashqari maqolada neft narxining hozirgi

darajada pasayib ketishiga yo'l qo'ygan OPEK tashkiloti o'ziga bo'lgan ishonchni yana bir marta suiste'mol qilishga haqqi yo'q edi, ammo, bu hol yana bir karra yuz bergenligi izohlangan. So'ngi lahzada Saudiya Arabiston o'z fikrida qat'iy turib, Eronsiz hech qanday bitimni imzolamasligini ta'kidladi. Albatta, Tehronga nisbatan sanksiyalar yaqindagina bekor qilingan, shu bois mamlakat neft qazib olishni kuniga 4 million barrelga yetkazishni maqsad qilganini tushinish mumkin. Shu jihatdan Saudiya Arabiston siyosatini izohlab bo'lmaydi.

"Saudiya Arabistonining kelishuvni chippakka chiqargani, Eron bilan ziddiyati, uning neft siyosatiga naqadar jiddiy ta'sir ko'rsatayotganining isbotidir", deydi AQSh Kolumbiya Universiteti global energetika siyosati markazi direktori Jeysen Bordoff.

Yana bir taxminga ko'ra, Dohada qanday siyosat maqbulligi borasida Saudiya Arabiston rahbariyatining o'zida yakdil fikrning mavjud bo'lmaganligidir. Xususan, Eronsiz hech qanday kelishuvni imzolamaslik tarafdoi ikkinchi valiah shahzoda Muhammad bin Salmon va muzokalarlar arafasida Ar-Riyodning bitimni imzolashini ta'kidlagan neft vaziri Ali al-Naimiy o'rtasida aniq xulosa bo'lmagan. So'ngi lahzalarda esa, Saudiya Arabiston neft vaziri fikridan qaytishga majbur bo'ldi.

2015-yil 18-aprel kuni Doha muzokalarli omadsiz yakunlangach, jahon bozorida neft narxi keskin pasayib ketdi. OPEK a'zolari esa, kelgusi safar iyun oyida Venada uchrashadi. Agar ular kelishuvga erisha olishsa, unga tashkilotga a'zo bo'lmagan Rossiya kabi davlatlar ham qo'shilishi mumkin bo'ladi.

Malumotlarga qaraganda, 2002-2006-yillarda Fors ko'rfazi arab davlatlari neft eksportidan 1.5 trln. AQSh dollari foyda ko'rishgan bo'lib, bu o'tgan oxirgi besh yillikka nisbatan ikki marta ko'p ko'rsatkich hisoblanadi. "Goldman Sachs" ekspertlari guruining bashoratiga ko'ra neft eksportidan tushadigan daromad 2030-yilga borib 5.1 trln. AQSh dollarini tashkil etadi. 2010-yilda neft eksportidan BAA 17 mlrd. AQSh dollari, Saudiya Arabiston esa 51mlrd. AQSh dollari foyda ko'rgan.

Arab davatlarning bunday ulkan energetik salohiyatga ega bo'lishi dunyoning yirik davlatlarini e'tiborini tortmasdan qo'yaydi. Ayniqsa, global energetik resurslar iste'moliga kundalik ehtiyojning oshib borayotganligi, neft va gaz zaxiralarning tobora kamayib borishi, bundan tashqari, muqobil energiya manbalarini yaratish

harakatlari kutilgan natijani bermayotganligi energetik raqobatning kuchayishiga sabab bo'limoqda. Ma'lumki, jahon energetik ehtiyojlarning asosiy qismi arab davlatlari hisobiga qondirilmoqda. Shuning uchun ham bu hudud yirik davlatlarning jahon neft-gaz sub'ektlarining asosiy kurash maydoni bo'lib qolmoqda. Shu bois bu mintaqada siyosiy tanglik, bir qancha tarixiy nizolarni hal etilishi va barqarorlikni ta'minlashning iloji bo'lmayapti. Fors ko'rfazi davlatlari Yaqin Sharqda nisbatan barqaror davlat hisoblansada, lekin umumiy xavfsizlikni taminlashda bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Bu davlatlar o'rtasidagi siyosiy, diniy, hududiy nizolar arab davlatlari iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiyotiga bir to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

Bizga ma'lumki, energetika resurslari cheklangan bu esa har bir davlatning energetika xavfsizligiga bo'lgan talabni oshiradi. Energetik bog'liqlikning kuchayib borishi alohida bir davlatning o'z milliy energetik xavfsizligini mustaqil ta'minlash imkoniyati cheklanganligini anglatadi. Shu bois arab davlatlarining geoenergetik manfaatlari bevosita Eron va Iroq kabi davlatlarning mintaqada tutgan o'miga ham bog'liq. Chunki, Eron Islom Respublikasining mintaqadagi siyosiy - mafkuraviy o'mi va yuqori energetik salohiyati mintaqada davlatlari tashqi siyosiy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Fors ko'rfazi davlatlari energetik xavfsizligiga nisbatan zamonaviy tahdidlar sifatida ikki asosiy omilga e'tibor berish lozim. Birinchidan, Fors ko'rfazi davlatlari energetik xavfsizligiga nisbatan ichki tahidlarning mavjudligi. Ikkinchidan bu mintaqaga nisbatan yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari to'qnashuv omili hisoblanadi. Bu omillar hozirgacha davom etib kelyapti va mintaqada beqarorlikni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda Fors ko'rsatuvchi bir qancha ichki tahidlarning mavjud. Bularidan biri Eronning yadroviy dasturi hisoblanadi. Jahon hamjamiyatining jiddiy xavotirga solmoqda. Bundan tashqari Iroqda siyosiy vaziyatning beqarorligi va buni izga solinmaganligi Yaqin Sharq taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bizga ma'lumki Iroqda jahon neft zaxiralaring 11% joylashgan. Bu ko'rsatkich mintaqaviy energetik lohiyalarni amalgalashda muhim ahamiyatga ega.

Bu mintaqada diniy nizolarning avj olayotganligi, sunniiy va shia mazhabni o'rasidagi doimiy raqobat, mintaqaga butun bir terrorizm

o'chog'i sifatida qaralishi, islom dini va g'oyalariga radikal qarashlarning kuchayishi ham salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bundan tashqari neft va gaz sohasiga xorijiy investitsiyalarining kiritilishi va ichki bozorlarga kirib borishi, iqtisodiy muhim nuqtalarning egallanishi salbiy holatdir.

Bugungi kunda neft narxining keskin pasayib ketishi natijasida OPEK davlatlari katta ziyon ko'rmoqdalar. Shu boisdan mintaqada davlatlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va eksport hajmini kamaytirish borasidagi yondashuvlaridagi ixtilof eng dolzar masalaga aylanib qolmoqda. Neft narxining past qiymati Saudiya Arabistonni iqtisodiga katta zarar keltirdi. Qirollik hukumati budget defitsitini qoplash uchun 24-27 mlrd. AQSh dollarilik davlat obligatsiyalarini sotuvga qo'ydi. Qirollik hukumati bunday holatning yuzaga kelishiga qisman o'zi ham aybdor. Saudiya Arabistonni neft narxini pasayitrib va neft qazib olish hajmini oshirib, AQShning slantsli neft inqilobiga zarba bermoqchi bo'lgan. Biroq neft "haddan ziyod" pastlab ketdi. Eronga nisbatan sanktsiyalarining bekor qilinishi esa neft bozoridagi og'ir vaziyatni yanada murakkablashtirdi.

Saudiya Arabistonni hukumati neftdan mamlakatning asosiy daromad manbai va energiyani ta'minlashning resursi sifatida voz kechmoqda. Saudiya Arabistonni o'z e'tiborini qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qaratmoqchi. Bu haqida Saudiya Arabistonni neft vaziri Ali al-Naimiy ma'lum qildi, deb xabar bermoqda Bloomberg agentligi. Saudiya Arabistonni bir necha bor o'z iqtisodiyotini diversifikasiya qilish va neft eksportidan bog'liqlikni kamaytirish bo'yicha katta ko'lami rejalarini e'lon qilgan.

Fors ko'rfazi mintaqasi xavfsizligiga, xususan energetik xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar ham mavjud va bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, jahonda energetik resurslarning tugab borayotganligi va energetik ehtiyojlarning qondirilishi asosan Fors ko'rfazi davlatlari hisobiga to'g'ri kelayotganligi tahidlarning darajasini yanada oshirmoqda. Ushbu mintaqada ulkan tabiiy resurslarga boyligi sababli dunyoning qudratli davlatlari markazida turadi va hozirgi kunda ham nizolar, ichki kelishmovchiliklar hamda ziddiyatlar avj olgan siyosiy beqaror hudud hisoblanadi. Qudratli davlatlarning asosiy maqsadi mintaqadagi neft va gaz resurslarini egallash ekanligi hech kimga sir emas. Bu borada I.Karimovning quyidagi mulohazalarini keltirish

o'rinnidir. "...kimda kim neft va gaz zaxiralariga egalik qilsa, dunyoga hukmronlik qilishi mumkin degan qarashlar ko'payib bormoqda. Va aksincha – kimdaki shunday resurslar bo'lmasa, neft-gaz, uglevodorod xom ashyosiga ega boshqa davlatlarga nisbatan turli harakatlar ham sodir bo'lyapti. Chunki qudratli davlatlar yaxshi biladiki, mana shunday boylik kimning qo'lida bo'lsa, u boshqalarni o'z ta'siriga olishing kaliti, vositasi bo'lib xizmat qiladi".

Fors ko'rfazi davlatlari xavfsizligi xususan energetik xavfsizlik masalasi arab davlatlari tashqi siyosatining ustuvor yo'naliishi bo'lib qolmoqda. Dunyoda neft va gaz resurslarining kamayib borayotganligi va unga bo'lgan ehtiyojning oshishi Fors ko'rfazi davlatlarini ehtiyyotkorana tashqi siyosat olib borishga va energetik resurslardan oqilona foydalanishga majbur qilmoqda. Bugungi kunda energetik resurslarga bog'liqlik Fors ko'rfazi davlatlarini jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda o'ziga xos o'ringa egaligini ko'rsatmoqda. Bu mintaqadagi uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan ichki kelishmovchiliklar, diniy nizolarning avj olishi, islam dini va madaniyatiga radikal qarashlarning mavjudligi va boshqa nizolar arab davlatlari taraqqiyoti va rivojiga jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda. Neftdan siyosiy bosim sifatida foydalanish va energetik resurslarning siyosiylashtirilishi tendensiyalari hozirda ham mavjud.

*Saudiya Arabistoniga tashqi siyosatida "etakchi davlatlarning" o'rnii.* Saudiya Arabistoniga yetakchi davlatlardan biri AQSh bilan faol tashqi siyosat olib boradi. Saudiya Arabistoniga bilan AQSh munosabatlari barqaror bo'lib, kelajakdagagi asosiy manfaatlarni davom ettirgan holda amalga oshiradi. Asosan, Saudiya Arabistoniga yetakchiligi neft tranzitida, global neft narxining pasayishi, Saudiya byudjetining pasayishi, tajavvuzkor terroristik harakatlar, oqilona tashqi siyosat, Saudiya – Eron ziddiyatlarini muhokama qilishda ko'zga tashlanadi. AQSh – Saudiya xavfsizlik hamkorligi va Saudiya Arabistonining global energiya bilan ta'minlashni davom ettirish uchun AQSh bilan ikki tomonlama munosabatlarni amalga oshirgan holda, Eronning yadroviy dasturi, Suriya, Iraq va Yamandagi mojarolar, 2015 – 2016 yilning asosiy voqealari bilan bog'liq.

Obama ma'muriyati rasmiylari muhim mintaqaviy sherik sifatida Saudiya hukumatiga murojaat qildi va AQSh qurol sotish va tegishli xavfsizlik hamkorlik dasturlari, Kongress nazorati bilan davom etmoqda. 2010- yil oktyabrdan boshlab, AQSh 100 milliard dollardan

ortiq qiymatga ega bo'lgan qiruvchi samolyotlar, vertolyotlar, harbiy kemalar, raketa mudofaa tizimlari, raketalar, bomba, zirhli transport vositalari va tegishli uskunalar va xizmatlar Saudiya Arabistoniga taklif qilgan edi. 2015 yil martdan boshlab, AQSh Saudiyaning Yamandagi harbiy harakatlarni amalga oshirish uchun AQSh qurol-yarog' yetkazib berishi, logistik yordam berish va undan oqilona foydalangan. Kongressning ayrim a'zolari AQSh siyosatining ustuvor yo'naliishlari uchun ekstremizmga qanchalik qarshi kurashish uchun Saudiya rahbarlarining sadoqatigashubha bildirdi. Shunday bo'lsada, AQSh Saudiyaning terrorizmga qarshi munosabatlari, ko'ra, Saudiya harbiy kuchlarining 2014 yildan beri Suriyadagi Islomiy davlat harakatlariga qarshi ba'zi koalitsiya hujumlarida ishtirot etdi.

Hozirgi AQSh siyosati, mintaqaviy masalalar bo'yicha Saudiya rahbarlari bilan muvofiglashtirish va ularni ichki iqtisodiy va xavfsizlik muammolarga yordam berishga intiladi. Ayni vaqtida AQSh tashabbuskorlari Saudiya rahbarlarining qarorlari barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlamoqda. AQSh – Saudiyaning birgalikda xavfsizlik muammolarini ta'minlash munosabatlarni belgilab beradi va Yaqin Sharq mintaqasidagi doimiy nizo va raqobatlar Saudiya Arabistoniga ichki va tashqi siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Eron bilan bog'liq keskin ziddiyatlar ta'siriga qarshi Saudiya rahbarlarining "Yaman, Misr, Suriya, Livan, Iraq, Eron" nisbatan tahdidilar Saudiya Arabistoniga xavfsizlik manfaatlariiga ta'sir qilishi mumkin. AQSh – Saudiya o'ttasida davom etayotgan sheriklik, qurol sotish taklifi va xavfsizlik majburiyatları doirasi hamda boshqa shartlarini ko'rib chiqishda Kongressi bu o'zgarishlarni ko'rib chiqishi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari Saudiyaning barqarorligi va kelajakdagagi rivoji bilan Saudiya Arabistoniga o'ttasidagi hamkorlik Qirollik bilan Kongress o'ttasidagi manfaatlari doimiy sub'ektlaridir. Xususan, Saudiya rahbariyati global o'tish davrida neft narxining Saudiya byudjetiga bosim, agressiv terrorchilik, Saudiya-Eron ziddiyatlarini muhokamaga qo'yish Saudiya Arabistonining tashqi siyosatdayanada talabchan bo'lishini talab qiladi. Saudiyaning energiya yetkazib berishdagi global mavjudligi, AQSh-Saudiya o'n yillar davomida rasmiy ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash davomida xavfsizlik va hamkorlik masalalari Suriya, Iraq, Eron, Eronning yadroviy dasturi va mojarolar AQShni tashvishga

solmoqda. Yamandagi 2015 va 2016-yildagi voqealar Amerika Qo'shma Shtatlari va Saudiya Arabistonini jamoatchilik e'tiborini qaratdi.

Ikki davlat orasidagi ishonchszilik kayfiyatining boshlanishining birinchi bosqichi 2001-yil 11-sentyabr voqealari bilan boshlangan. Nyu-Yorkdagi Juhon Savdo markazi binolariga urilgan samolyotlar bortidagi terroristlarning asosiy qismi Saudiya Arabistonini fuqarolari bo'lgani hamda Usama ben-Ladenning qirol oilasi bilan aloqlari, Saudiya Arabistonining islomiy radikalizmni moliyalashtiruvchi davlat ekanligi borasidagi gumanlarga asos borligini ko'rsatib berdi.

Arab bahori davomida Saudiya Arabistonining ittifoqchisi bo'lmish Husni Muborakning AQSh tashabbusi bilan hukumatdan ag'darilishi ushbu ishonchszilik kayfiyatini yangi bosqichga olib chiqqan. Keyinchalik esa Suriyadagi fuqarolar urushi davomida AQShning Rus diplomatiyasi qarshisida chekinishi va Suriyaga intervensiya uyuştirmagani Saudiyaliklar tomonidan xiyonat belgisi sifatida qarshi olindi. Hozirda Saudiya Arabistonni boshqa yadro kuchiga ega mamlakatlar bilan aloqlarni kuchaytirishga yoki har holda AQSHga ogohlantirish belgisi sifatida ular bilan yaqinlashishga harakat qilmoqda. Shunday harakatlardan biri 2014-yil boshida Saudiya Arabistonining Livan armiyasini Fransuz qurol-yarog'lari bilan zamonaviylashtirish uchun ajratgan 3 millard AQSh dollarri miqdoridagi "beg'araz" yordamidir. AQSh va Saudiya Arabistonini o'rtaida yangidan umumiy manfaatdorlik Ukrainada siyosiy inqirozning boshlanishi bilan paydo bo'ldi. Rossiya Saudiya Arabistonini uchun Suriya masalasida halaqt berishdan tashqari, u Saudiya Arabistonining birinchi raqamli dushmani Eronning eng asosiy qo'llab quvvatlovchi sherigi hamdir. Hozirda G'arb mamlakatlari Qrimning Rossiyaga qo'shib olinganidan beri, Rossiyaga qarshi turli iqtisodiy va diplomatik sanksiyalarini qo'llash yo'llarini qidirishmoqda. Hozirgacha amalda qo'llanilgan sanksiyalar Rossianing o'z pozitsiyalaridan chekinishi uchun yetarli bo'lmadi. Aynan Ravdat-Xurayim vohasida bo'lib o'tgan uchrashuvidan ko'zlangan maqsad ham Rossianing energetik imkoniyatlarini cheklash uchun bir harakat bo'lishi mumkin. Agar AQSh Saudiya Arabistonini va boshqa Fors ko'rfazidagi Arab mamlakatlarini neft va gaz bahosini pasaytirishga hamda uni G'arb mamlakatlariga yetkazilishini ko'paytirishga ko'ndira olsa, bu Rossianing iqtisodiga

katta putur yetkazishi mumkin. Lekin AQSh Saudiya Arabistonini bunga ko'ndirish uchun ko'p harakatlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi, ayniqsa Suriya va Eron masalalarida.

Rossianing tashqi siyosatini bayon qilish uchun eng yaxshi yo'1 barqaror emas, u tashqi siyosatda Rossianing global yondashuvlardan kelib chiqib amalga oshiradi. Bundan ko'rinib turiddiki, Rossianing xatti-harakatlardan uning tashqi siyosati Fors ko'rfazi mintaqasiga mos kelmasligini ko'rishimiz mumkin. Tashqi siyosatini amalga oshirishda har qanday aniq strategik rag'batlantirish orqali taktik manevralar ustunlik keladi. Rossiya tashqi siyosatining yo'naltiradigan asosiy kuch sifatida Rossiya Prezidenti Vladimir Putin hisoblanib, siyosatchi sifatida e'tirof etiladi. 2015-yil bahorida Abu Dabi shahrida Xalqaro Mudofa ko'rgazmasida (INDEX) Rossiya va Fors ko'rfazi davlatlari BAA harbiy va dengiz qurol-yarog'lari, anti-samolyot raketalar tizimini ortiqcha yetkazib berish kabi bir necha shartnomalar imzolandi. Rossiya, shuningdek, savdo, ta'lim va qurol tizimlarini texnik uzoq muddatli choralarini taklif qildi. 2015-yilda Rossiyaga Saudiya Arabistonni 10 milliard dollar investitsiya kiritgan edi. Sankt-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi (SPIEF) iyun oyida so'nggi to'rt-besh yil ichida, bunday tinch atom elektr va energiya ishlab chiqarish kabi masalalar bo'yicha olti shartnomalar (Saudiya Arabiston, Rossiya ko'magida 16 yadro reaktorlarini qurish rejalah-tirmoqda) imzolamoqchi. Bundan tashqari, Rossiya prezidenti Vladimir Putin salohiyati harbiy hamkorlikni muhokama qilish uchun Saudiya Arabiston o'rinnbosari valiahd shahzoda va Mudofa vaziri Muhammad bin Salmon al Saud bilan uchrashdi. Saudiya Arabiston ni neft va mineral resurslar vaziri Ali bin Ibrohim al Naimi va Rossiya Energetika vaziri Aleksandr Novak uchrashib, Saudiya Arabiston Podshohligi va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida neft hamkorlik shartnomasini amalga oshirish hamdarbarqarorashtirish va bozorni takomillashtirish ikki xalqaro neft bozorida manfaati uchun ijro etuvchi dastur hamraisi imzolandi mamlakatlari, shuningdek, ishlab chiqarish mamlakatlar o'rtaidagi neft ittifoqini tuzishga kelishib olindi.

Fors ko'rfazi davlatlari bilan Rossiya iqtisodiy aloqalar rivojlanmay qolgandi. Biroq, yaqinda, Moskva va Fors ko'rfazi davlatlari, ham aniq ikki tomonlama savdo va investitsiyalarni yanada yuksaltirish va rivojlantirishga qiziqish ko'rsatdi. Misol uchun, 2015-yil 25-30-mayda, Rossiya Savdo palatasi, har ikki tomon yaxshi

munosabatda ekanligini ko'rsatib, Jidda investitsiya ko'rgazmasida "Russian Road Show" tashkil etildi. 2015 yilda qirol Salmon o'rribosari qirolning o'g'li Valiahd, qirollikning mudofaa vaziri Muhammad bin Salmon boshchiligidagi yuqori darajali Saudiya Arabiston delegatsiyasi, Sankt-Peterburg shahrida Rossiya prezidenti Vladimir Putin tomonidan qabul qilingan va bir qator bitimlar va memorandumlar imzolandi, tinch yadroviy hamkorlik, infratuzilma rivojlanishi va investitsiyalar, shu jumladan. 2015- yilning 11- avgust kuni bu shartnomalar Saudiya tashqi ishlar vaziri Adel Al-Jubeirning Rossiyaga tashrifi chog'ida tasdiqlagan.

Ko'rfazi bilan iqtisodiy munosabatlarni past darajasi qisman yaqinda qadar Yaqin Sharq mintaqasi Rossiya ishbilarmon doiralari uchun kam qiziqfirgan odatda, deb aslida bilan izohlash mumkin. Ikkinchisi, asosan, Yevropa va Sharqiy Osiyo bozorlarida tomon qaratilgan edi. Bundan tashqari, Fors ko'rfazi hatto Yaqin Sharq davlatlari ichida rus tovarlar uchun ustuvor bozor sifatida ko'rilmagan edi. Binobarin, 2015 yilga kelib, Rossiya-Saudiya savdo aylanmasi 5,5 milliard dollar yoki Rus-turk savdo hajmi 31 milliard dollar, Fors ko'rfazi a'zolari o'rtasidagi tovar ayrboshlash hajmi 3,5 milliard dollarni tashkil etadi.

Xitoy hozirgi kunda iqtisodi bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Lekin, bu davlatda tabiiy resurslar tanqisligi bois bu mahsulotlarni Yaqin Sharq davlatlaridan oladi. Ayniqsa, Saudiya Arabistoni bilan iqtisodiy munosabatlari rivojlanib bormoqda. 1975 yilga qaytib Saudiya Arabistoni bilan Xitoy o'rtasida ikki tomonlama munosabatlar o'rnatiladi, shuningdek, 1990-yilda bu mamlakat bilan rasmiy munosabatlar 1985 yildan buyon ish boshladi. 1949 yildan buyon. Saudiyaliklar Tayvan bilan diplomatik munosabatlari asosida ular Paul Mazoyer neft ta'minotining asosiy sababi hisoblanadi. Bu iqtisodiyot, savdo, sarmoya va texnologik mehnat uyushmasi hisoblanadi. 1992 va 1996 yilda ikki davlat o'rtasida Paul Mazoyer davlat granti investitsiya va himoya qilish shartnomasi imzolandi: Xitoy sovuq urushdan so'ng faol tashqi siyosati, Xitoy-Saudiya munosabatlar samarali hisoblanadi. 1997 yilda mamlakatlar o'rtasidagi axborot almashish, o'zaro do'stlik birlashmalari, axborot agentliklari, neft hamkorlik shartnomasi 1999 yilda imzolanadi. 2002-yilda madaniyat va bitimlar bilan bog'liq ta'lif imzolangan. Xitoy - Saudiya Arabistoni aloqalari ayniqsa neftga talab ortib borayotganligi bilan rivojlanib bormoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 1990 yilda 290 million dollardan 2008-yilda 42 milliard dollarga ortib, tijorat aloqalari yanada rivojlandi. Xitoy Saudiya Arabistoniga kiyim, elektron mahsulotlar hamda boshqa mahsulotlar yetkazib beradi.

2010 yilda Xitoy bilan diplomatik aloqalar yilligi va 2015 yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 60 mlrd. AQSh dollarni tashkil etadi.

Saudiya-Xitoy munosabatlari neft bilan bog'liq hamda bunga ko'proq urg'u beriladi. Saudiya Arabistoni Xitoyni eng ko'p neft bilan ta'minlaydigan va dunyodagi eng katta hamkorli hisoblanadi. Saudiya Arabistoni, albatta, Xitoyning eng katta neft yetkazib beruvchisi hisoblanib, iyul oyida, saudiyaliklar Xitoya bir kunda 993 000 barrel xom neft eksport qilindi. Rossiya qisqacha Saudiya Arabistonida xomashyoning Xitoyning neft yetkazib beruvchisi sifatida, Saudiya Arabistoni yaqin o'n yil uchun eng yuqori o'rnini saqlab qoldi.

Xitoya so'nggi ikki yil davomida energetika bo'lgan talab keskin o'sdi uning iqtisodiyotida bu yaqqol ko'zga tashlandi. Xalqaro energiya agentligi hisob-kitoblariga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida slanets inqilobi sifatida 2035-yilda Yaqin Sharqdan Xitoya import hajmi taxminan ikki barobarga oshadi. Saudiya importni kamaytirish uchun ichki ishlab chiqarish ko'paytirib olib, Osiyo bozorlariga eksportni yanada ko'paytiradi. Amerika Qo'shma Shtatları Saudiya xomashyosi uchun muhim bozorlar bo'lishi davom etmoqda; Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa Osiyo mamlakatlariga Saudiya xom neft eksporti qaryb 70 foizini tashkil etadi.

Biroq, Saudiya Arabistoni - Xitoy munosabatlari energiya xomashyosi savdosini kengaytirish va Saudiya Arabistoni egasi neftni qayta ishlash zavodlari va tabiiy-gaz konlarini ishlab chiqish uchun yordam berish va Xitoy kompaniyalari Saudiya investitsiyalarni kiritishini o'z ichiga oladi. Saudiya Arabistoni o'z ichki energiya ehtiyojlarini 2000 yildan boshlab ikki barobarga oshirish davom etishi kutilmoqda so'nggi yilda elektr iste'moli hajmi tez ko'tarildi deb, siyosatchilar yana talabni qondirish uchun qirollik tabiiy gaz va neftning eksport hajmi yanada oshdi. Saudiya Arabistonida tabiiy gaz uchun qidiruv natijalari yaxshi bo'limasa ham, saudiyaliklar o'z qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishdan real o'sish bo'ldi.

Saudiya Arabistoni bozorlari Xitoyning arzon va tobora yaxshiroq sifatli elektronika, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari bilan Xitoyning yirik savdo hamkorli hisoblanadi. Ikki mamlakat

o'rtasidagi savdo hajmi izchil o'sib bormoqda va o'tgan yili savdo aylanmasi 72 milliard dollardan oshdi. Xitoy kompaniyalari Jidda port shahri orqali Makka va Madina ikki muqaddas shaharni bog'laydigan temir yo'l loyihasi "Haramain" jumladan, Saudiya Arabistonida, ba'zi yirik qurilish loyihalarida ishtirok etdi.

Saudiya Arabistoni Xitoy bozorlarida xomashyo, neft-kimyo va nozik neft mahsulotlari uchun uzoq muddatli salohiyatini qadrlashini, biroq saudiyaliklar uchun Xitoy munosabatlari real manfaatlari ular bilan mos kelmasligini ta'kidladilar. Xitoy prezident Si Szinpin xodimlari uchun Xitoy elchixonasi rasmiyilari Ar-Riyodga qilgan tashrifida Saudiya Arabistoni global energiya bozorlarida hamda Yaqin Sharq va keng musulmonlar dunyosida muhim rol o'yaydi. Ular, shuningdek, Xitoy bilan rivojlanish yo'liga Saudiya Arabistonini tanlashini hurmat qildik. Bunday hurmatni Saudiya Arabistoni keng uzoq saqlab, Islomning muqaddas joylariva islam dini vujudga kelgan zamin sifatida, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy institutlar isloh qilish yo'lidagi harakatlarini va boshqa harakatlarini qadrlaydi. Bundan tashqari, Xitoy Saudiya Arabistonining boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik siyosatini qo'llab-quvvatlaydi hamda hurmat qiladi.

Xitoy ikki yirik neft eksportchilari Saudiya va Eron o'rtasidagi taranglik ortib borayotgan kuzatib bormoqda. Pekin ham harakat va Xitoyning imtiyozli Yaqin Sharqda mazhablararo tangliklar aniq maqsadlar saqlanish uchun bo'lsa-da, Ar-Riyod va Tehronda ham bir diplomatik elchisini yuborib, vaziyatni yumshatish uchun taxminiy qadamlar etiladi.

2015-yil 2 yanvar kuni Saudiya Arabistoni taniqli shia sobiq ittifoqchisi Namir al-Namir hisoblanadi, Eronda g'azablangan namoyishchilar Saudiya elchixonasiga hujum qilib, uni olovda o'rnatib qatl qildi. Shundan so'ng, Saudiya Arabistoni (BAA ham Eron bilan munosabatlarni pog'onaga pasaytirgan) Eron va Somalida, Bahrayn, Jibuti, Qatar va Sudan bilan diplomatik aloqalar uzildi. Eron havo hujumida Yamanda o'z elchixonasi Saudiya yetakchiligidagi koalitsiya ayblanuvchi sifatida topildi.

Xitoy, Eron va Saudiya Arabistoni, bir-biriga qarama-qarshi ikki davlat o'rtasida munosabatlarning iliqlashishi qiyin masala. Har ikki davlat, masalan, a'zo sifatida Xitoy boshchiligidagi Osiyo Infratuzilmasi investitsiya banki qo'shilishga imzolangan Saudiya Arabistoni va Eron juda turli sabablarga ko'ra-da, ham oshdi va AQSh

bilan munosabatlarga foydali qarshi Xitoy bilan aloqalarni o'rnatdi. Riyoz Tehron diplomatik qo'llab-quvvatlash topish kerak esa ustidan ishonish asosiy ittifoqdoshi, boshqa joyda dushmanlik berilgan oldini olish istaydi u va Vashington o'rtasida.

Bu qisqacha 2015 doirasida Rossiya bilan almashtirilgan bo'lsada, energiya Xitoy-Saudiya munosabatlarni asosida Saudiya Arabistoni an'anaviy, neft import uchun Xitoyning eng katta manbai bo'ldi. Saudiya Arabistoni hamda Xitoy hamkorlikni kengaytirishga, shu jumladan, boshqa sohalarda o'zaro munosabatlarni amalga oshirmoqda.

Pekin Eronning atom dasturi uchun mo'ljallangan BMT jazo choralar ham tinchanib turganini ta'kidlamoqda. Ayni paytda, Xitoy har doim, Eronga do'stona bo'ldi. Harakat qo'shma kompleks rejsi muvaffaqiyatlari muzokaralar yadro qorolidan Eronning ta'qib tugatish va sanktsiyalarni bekor qilish bilan, Xitoy munosabatlari uchun ijobjiy harakterga ega bo'lishi mumkin. Xitoy, shuningdek, sanktsiyalar oxiri oldindan, u Eron neft eksport miqdorini pasaytirib yubordi. 2012-yilda, Eron Xitoy xomashyosining uchinchi yirik manbани tashkil qilgan, sanktsiyalar kuchga kirgach esa, u oltinchi o'ringa tushib ketdi.

Oxir oqibatda, joriy ziddiyatlar uchun Xitoy tomonidan sarhisob qilindi: "Eron va Saudiya Arabistoni ikkalasi Yaqin Sharqda muhim va nufuzli davlatlar hisoblanadi. Xitoy ikki tomon bilan ham yaxshi munosabatlар tarafdiri ekanligini ta'kidlab o'tdi.

#### Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahon xaritasida Arab davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. Arab davlatlari tashqi siyosat kontseptsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Fors Ko'rfazi arab davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Saudiya Arabistoni Podshohligi AQSh va Evropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat ?
5. Bugungi kunda AQShning Iroqdagagi harbiy amaliyotlariga SAP va boshqa arab davlatlarining munosabatlari qanday ?
6. FKADH davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering .
7. Fors Ko'rfazi Arab davlatlari hamkorlik tashkilotidan "Fors Ko'rfazi arab davlatlari Ittifoqi"ga aylanish istiqbollari haqida ma'lumot bering .

8. Saudiya Arabistonidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.

9. Yamanning FKADHKga a'zoligi muammolari nimadan iborat?

10. "Hozirgi davrda SAP" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

11. "FKADHK davlatlarida islam omili" mavzusini muhokama etish.

12. Eron Islom Respublikasining FKADHK davlatlari bilan o'zarlo munosabatlari haqida ma'lumot bering.

13. Fors ko'rfazi davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.

14. BAAning jahon hamjamiyatidagi o'rniga baho bering.

15. Zamonaviy bosqichda Saudiya Arabiston - Eron munosabatlari qanday?

#### Mustaqil ish savollari:

1. Siyosiy xarita yordamida Arab davlatlarini siyosiy, iqtisodiy - ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering?

2. SAPning Yaqin Sharqdagi siyosatini xarita yordamida aytib bering?

3. Arab mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.

4. Ummom Sultonligining xalqaro munosabatlardagi o'rnini yoritib bering.

5. Bahrayn tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.

6. Zamonaviy bosqichda Yaqin Sharq davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.

7. "FKADHK - Evropa Ittifoqi davlatlari munosabatlari" mavzusida nutq tayyorlash.

8. Evropa Ittifoqi tashqi siyosatida Yaqin Sharq davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.

9. SAP tashqi siyosatida Yaqin Sharq muamosini yoritib bering.

10. Qatar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.

11. Kuvaytning ADL dagi siyosati.

12. "Yaqin Sharq davlatlari va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz" mavzusida doklad tayyorlang.

13. Qirol Abdulloh bin Abdulaziz davrida SAPdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

14. XXI asrda Arab Davlatlari Ligasi: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

15. AQSh tashqi siyosatida Yaqin Sharq davlatlari.

#### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.

2. Muhammadsidiqov M.M. Zamnaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.

3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.

4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.

5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.

6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.

7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.

8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

#### 4.3. Eron Islom Respublikasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida

##### Darsning o'quv maqsadi:

•talabalar jahon mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;

•magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;

•talabalarga Osiyo, Afrika va Evropa davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni etkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Tashqi siyosat, xalqaro nizolar, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi. Xalqaro to'qnashuv, doktrina, kontseptsiya, geoiqtisodiy manfaatlar, geosiyosat, Katta Yaqin Sharq tushunchasi, xalqaro xavfsizlik, milliy xavfsizlik strategiyasi.

**Asosiy savollar:**

1. Eron va jahon hamjamiyati.
2. Eron-Fors ko'rfazi arab davlatlari.
3. Eronning - Markaziy Osiyo va Kavkaz respublikalari bilan munosabatlari.
4. Hozirgi davrda Eron – Turkiya munosabatlari.

**Eron va jahon hamjamiyati.** Bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasida yuz berayotgan jarayonlar jahonda jiddiy geosiyosiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. 2015-yil 14-iyulda Venada "oltilik" xalqaro vositachi davlatlar (AQSh, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya) va Eron tomoni bilan uzoq yillik muzokalararning yakunlanishi va Eron yadro dasturi bo'yicha kelishuvga erishilgandan so'ng xalqaro maydonda yangi "eski o'yinch" – Eron Islom Respublikasi paydo bo'lib, bu davlat istiqbolda jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarning jiddiy raqobatchisiga aylanib, mintaqaviy va xalqaro munosabatlari tizimiga sezilarli o'zgarishlar olib kirishi mumkin.

Inqilobdan keyingi ilk yillarda Eron Islom Respublikasining asosiy tashqi siyosiy mo'ljaliga aylangan – "Na G'arb na Sharq", "Amerikaga o'lim, Isroilga o'lim, Sovet ittifoqiga o'lim!", "Islom inqilobi eksporti" kabi shiorlar shakllangan. Ta'kidlash joizki, bu shiorlar qanchalik xayoliy bo'lishiga qaramay, ular muayyan davr mobaynida Eron tashqi siyosiy yo'li shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ehtimol Eron bugungi kunda ham bu merosdan batamom qutulgani yo'q. Shu bilan birga, ma'lumki, bunday siyosat yuritishning salbiy oqibatlari tez orada namoyon bo'ldi. Shunday qilib "Islom inqilobi eksporti" g'oyasi Iraq bilan bo'lgan qonli urushda muvaffaqiyasizlikka uchradi, o'z kuchiga tayangan holda siyosatni amalga oshirishga urinish esa valyuta-moliyaviy inqirozga va ijtimoiy tanglikka olib keldi. Bu holat Eron hukumatini boshqa davlatlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni tiklash bo'yicha shoshilinch qarorlar qabul qilishga majbur etdi. Xuddi shu vaqtida muvaffaqiyasizlikka uchragan siyosatni faol yoyuvchisi hisoblangan Islom inqilobi posbonlari korpusi bugungi kunda Eron Islom Respublikasi zamонавији qurolli kuchlarining ajralmas va imtiyozli qismi hisoblanadi, "Xizbulloh" harakati esa Eronning o'zida birmuncha o'z o'mini yo'qotgan bo'lsa-da, bir qator musulmon davlatlarda, xususan,

avvalo Livanda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bo'lib, Eron rahbariyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi.

Shunday qilib, Islom inqilobi g'alabasining dastlabki yillarida jiddiy ta'sir ko'rsatishni boshlagan, muayyan bosqichda esa hatto Eron tashqi siyosati shakllanishida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishni boshlagan norasmiy markaz Sharqning mayda tadbirkor va ishbilarmonlari manfaatlari shakllanishi muhiti bo'lgan "bozor" bo'lgan. 1979-yil dekabrida Eronda o'tkazilgan butunxalq referendumida yangi konstitutsiya ma'qullangan bo'lib, Xumayniy ta'biringa ko'ra u "yuz foiz Islomga mos kelishi lozim" edi. Darhaqiqat, konstitutsiyaning barcha bo'limlari orqali Eron Islom Respublikasi tashqi va ichki siyosatining barcha yo'naliislari og'ishmay Islom aqidalariga muvofiq kelishi lozimligi to'g'risida fikr mavjud. Konstitutsiya 4-moddasasi "Konstitutsiyaning boshqa moddalari hamda qonun va qarorlarga nisbatan ustuvor hisoblanuvchi" sifatida baholanib, unga ko'ra, "barcha fuqarolik, jinoiy, moliyaviy, ma'muriy, madaniy, harbiy, siyosiy va boshqa qonun va qarorlar Islom normalariga asoslanishi lozim". Shuning uchun, Eron Islom Respublikasining asosiy tashqi siyosiy vazifasi sifatida "davlat tashqi siyosati Islom mezonlari asosida ishlab chiqish, barcha musulmonlar bilan birodarona ittifoq o'rnatish va dunyoning barcha mazlumlariga beg'araz yordam ko'rsatish" belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Eron Konstitutsiyasi matni shak-shubhasiz, uning qabul qilinishi davrida davlat ichki tuzilishi va jamiyat hayotining barcha jabhalarini islomlashtirish muammolarini davlat diniy rahbariyatini tashqi siyosat muammolariga qaraganda ko'proq tashvishga solganligidan guvohlik beradi. Bu holatga hech bo'lmaganda yangi konstitutsiyaning 177 moddasidan faqat 4 ta modda (152-155-moddalar) tashqi siyosatga bag'ishlanganligi dalolat beradi. Shu bilan birga asosiy davlat hokimiyatining tarmoqlari va o'sha vaqt tuzilayotgan davlat institutlarining tashqi siyosiy vakolatlari noaniq belgilangan. Tabiiyki, mazkur holat keyinchalik ko'plab ta'sir markazlarining tashqi siyosatga faol aralashuviga hamda davlat oldida turgan tashqi siyosiy vazifalarni o'z nuqtai-nazaridan talqin etilishiga sabab bo'ldi. Bugungi

<sup>1</sup> 3-modda, 16-band. Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasi. Fors tilidan Muhammadjon Qodirov tarjimasi. [Elektron manba]– Toshkent – 2010.– Kirish usuli:[http://tashkenT.ihero.ir/uploads/228\\_156\\_alhoda2010.pdf](http://tashkenT.ihero.ir/uploads/228_156_alhoda2010.pdf)

kunda konstitutsiyaga ko'ra, davlat tashqi siyosatining ishlab chiqish va amalga oshirish vakolati Prezident, Parlament va Tashqi Ishlar Vazirligiga berilgan bo'lsa-da, bu jarayonda quyidagi sub'ektlar ham faol ishtirok etishadi: Maqsadga muvofiqlikni aniqlash kengashi, Milliy xavfsizlik oliv kengashi, Madaniy inqilob oliv kengashi, Islom fondlari, Islom inqilobi posbonlari korpusi bosh rahbariyati va boshqa ba'zi nohukumat tashkilotlar. Bu borada rossiyalik mashhur eronshunos N.Mamedovaning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin: "...Respublika hokimiyat tuzilmalarining bizga namoyish etadigan Eron rasmiy siyosati, ayniqsa xorijiy davlatlar bilan o'zaro munosabatlarida, o'zining Islom tuzilmalari siyosida faoliyat ko'rsatuvchi Islom rejimining amalga oshirayotgan xatti-harakatlari bilan muvofiq kelmasligi mumkin. Bu ziddiyatga eng yorqin misol sifatida Eronning Islom tashkilotlariga bo'lган, avvalo "Xizbulloh"ga munosabatida namoyon bo'ladi. Mazkur tashkilot bilan rasmiy aloqalar faqat siyosiy darajada amalga oshirilsa, harbiy-iqtisodiy aloqalarning mavjudligi to'g'risida esa faqat Islom tuzilmalari bilan bog'liq holda taxmin qilamiz".

Eron Islom Respublikasining siyosiy hayotida tashqi siyosiy masalalar bo'yicha shug'ullanuvchi hokimiyatning turli vakillari, jumladan boshqaruvchi ruhoniyat orasida ham ziddiyatlpozitsiyalar ochiq-oydin kuzatiladi. Zamonaviy eronshunoslarda eron isteblishmentini EIR rahbari S.A.Xomeyniy, sobiq prezidentlar M.Ahmadinajot, X.Rafsanjoni va M.Xotamiylar bilan gavdalantiriluvchi konservatorlar, radikallar, pragmatiklar va islohotchilarga bo'lish barqaror o'mashib qoldi. Haqiqatdan ham, bu eron liderlarining tashqi siyosiy bayonotlari bir-biridan ahamiyatli ravishda farq qilib, ko'p hollarda bir-biriga zid ham kelgan. Shunday qilib, M.Ahmadinajotning tashqi siyosat borasidagi quruq dabdabali nutqlari M.Xotamiyning prezidentlik chog'larida ilgari surilgan tamaddunlar muloqoti konsepsiyasiga, X.Rafsanjoniyning AQSh bilan munosabatlarni normallashtirish masalasini umumxalq referendumiga ko'tarib chiqishlar bilan ixtilofli jaranglar edi. Ammo bu o'zaro qarama-qarshiliklarni bo'rttirib yubormaslik, uning ustiga hozirgi rahbariyat orasida Islom rejimiga dissidentlarni izlamaslik lozim. Nazarimda, bu kelishmovchiliklarning mohiyati sunniylikdan farqli o'laroq, islom ta'limotini faol sharhlash imkoniyatini beruvchi shialik ta'limotidan kelib chiqadi, bundan tashqari, barcha shialarning obro'li

odamlari esa "ijtihod" qilishga, ya'ni o'zgaruvchi voqelikka muvofiq ravishda Qur'on va barcha islom qonunlarini izohlash borasida rasmiy huquqqa ega. Shuning uchun Eronning o'zida diniy liderlarning bu kabi ixtilofli mulohaza va fikrlari bu mamlakatda mavjud urf-odatlar kontekstida qabul qilinadi va zinhor islom rejimining yemirilishidan guvohlik bermaydi. O'z vaqtida, inqilob yetakchisi oyatulloh R.Xumayniy mavjud muammo va uning rejingga xavfi borasida to'xtalib o'tib, quyidagilarni yozgan edi: "yetakchi musulmon dinshunoslarning kitoblarida davlat rejimi, madaniyat, siyosat, iqtisodiyot va din masalalari bo'yicha ko'plab ixtiloflar mavjud. Ular hattoki yagona fikr (ijmo) ga ega bo'lish lozim bo'lgan masalalar borasida ham mubohasa qilishlarini ko'ramiz, eshitamiz. Ilgari bu tortishuvlar nazariy izlanishlar doirasidan chiqmas edi... Islom inqilobi tufayli esa dinshunoslardan mo'tabar din odamlarining mulohazalari tele va radioko'rsatuvlarda, gazeta sahifalarida hozirdir. Bir narsa mutlaqo aniqki, agar kimsalar yoki guruuhlar orasida qarashlar borasida farq mavjud bo'lsa, bunga, zohiran ilohiyotga oid muammo ko'rinishida, asl zamirida esa yashiringan sofiyiy sabablar mavjud bo'ladi". Shunday qilib, Eron rahbariyati a'zolarining manfaatlari va pozitsiyalari bir-biriga to'qnash kelayotgandek qanchalik tuyulmasin, Eron yuqori hokimiyatida Islom rejimiga qandaydir muxolifatni izlash unumsiz ishdir.

Shu bilan birga Eronda tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilishda shaxsning roliga ortiqcha baho berib yuborish juda qiyin. An'analarga ko'ra, Eronning oliv ruhoniyat vakillari "marja at-taqlid" nafaqat islom normalarini sharhlashga, balki dindorlar - mazkur mo'tabar hokimiyatga ergashuvchilar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan fatvolarni chiqarish huquqiga ham egadir. Islom respublikasida davlat boshqaruvining asosiy sifatida Viloyat al-Faqih (ولایة الفقيه) prinsipini kiritgan holda, oyatulloh Xumayniy markaziy hokimiyatni to'laligicha minba'd ko'rsatmalari barcha eronliklar tomonidan e'tirozsiz va muhokamasiz bajarilishi majburiy bo'lgan diniy hokimiyat qo'lida to'pladi.

Ma'lumki, Islom inqilobining g'alabasidan so'ng, Eron tashqi siyosati jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Quyida zamonaviy bosqichda Eron tashqi siyosatining asosiy mazmuni keltirilgan:

1. Davlat mustaqilligining saqlanishini ta'minlash va jahonning "etakchi" davlatlariga tobelikni inkor etish;
2. Barcha musulmonlarning huquqlarini himoya qilish va butun jahondagi mazlum xalqlarga beg'araz yordam ko'rsatish;

3. Islom inqilobini eksport qilish printsipi;
4. Falastin xalqining kurashini qo'llab-quvvatlash;
5. Tinch o'zaro mavjud bo'lish va sulhparvarlik;

Ushbu printsiplar Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasining ko'pgina qismlariga kiritilgan. Eron konstitutsiyasiida turmushning turli jabhalarida – iqtisodiy, madaniy, siyosiy va harbiy hamda boshqa shu kabi sohalarda qaramlikni inkor etishga qattiq urg'u beriladi. Shunday qilib, Eronning asosiy qonuni rivojlangan davlatlar tomonidan Eron manfaatlari va resurslari ustidan ta'sir o'matilishiga olib keladigan har qanday usullarni qo'llashni taqiqlaydi. Misol tariqasida konstitutsiyaning 153-moddasini keltirish mumkin bo'lib, unga ko'ra tabiiy va iqtisodiy resurslar, madaniyat, armiya va davlatning boshqa hayotiy jabhalarini ustidan xorijiy hukmronlikning o'matilishiga olib keladigan har qanday shartnomaning tuzilishi taqiqlanadi. Bundan tashqari, Eron tashqi siyosati konstitutsiyaning 154-moddasiga muvofiq boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik printsipini yoqlagan holda butun jahonda mazlum xalqlarning adolatli kurashini qo'llab-quvvatlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, islom rejimining tashqi siyosiy kontseptsiyalari va Eronning amaliy tashqi siyosati so'nggi yillarda sifatli o'zgarishlarga uchramoqda. "G'arb ham emas, Sharq ham emas, faqat Islom", "Islom inqilobining eksporti" kontseptsiyalari tashqi siyosatni yuritishda ochiqlik yo'lini tutishga almashdi.

Eronning zamonaviy tashqi siyosiy doktrinasi mustaqil yo'l tutish va mamlakatni nafaqat mintaqaviy etakchi davlatga balki jahon siyosatining faol sub'ektiga aylantirishni nazarda tutadi. Yadro dasturi bo'yicha kelishuvning imzolanganligidan so'ng, Eron tashqi siyosatida Evropa davlatlari bilan hamkorlikni yo'lgan qo'yish asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib, Shoh tuzumi davrida Eron tomoni mazkur taraf bilan faol savdo-iqtisodiy hamkorlik olib borgan bo'lib, va, hatto kiritilgan sanktsiyalarga qaramay, bu aloqalar butunlay to'xtatilmagan edi. Jumladan, Evropa Ittifoqining xorijiy ishlari va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliv vakili F.Mogerini "Eron bilan kelishuv – Islom davlati uchun halokat" nomli maqolasida evropaliklar qadimdan Eron bilan madaniy va iqtisodiy sohalarda hamkorlik qilish an'anasisiga ega bo'lganligini, shuningdek, EIning manfaatlari faqat biznes bilan bog'liq bo'lmay, balki xavfsizlik sohasida siyosiy muloqot va hamkorlikni ham qamrab olishini qayd etadi. Yadro kelishuviga erishilgandan so'ng Eron tomonidan amalgा

oshirilgan birinchi qadamlardan biri Buyuk Britaniya bilan diplomatik munosabatlarning qayta tiklash bo'ldi. Bundan ilgari, Eron uchun Oyatulloh Ali Xomenei ifodalaganidek, Birlashgan Qirollik – "asosiy dushman va yovuzlik manbasi" tariqasidagi tasavvur odamlar ongida o'mashgan edi. Tag'in ham ko'plab eronliklar AQSh Buyuk Britaniyaning Eronga nisbatan yuritayotgan siyosatida vosita ekanligiga ishonadilar. Eron G'arb yo'nalishida tashqi siyosiy yo'lini hozirda Yaqin Sharq mintaqasida yuz berayotgan voqealar rivojini hisobga olgan holda amalgalashmoqda. Birinchidan, Eron harbiylari ko'plab marotaba AQSh, Buyuk Britaniya va Isroilni terroristik tashkilot hisoblangan Islom davlatini yaratishda va uni qo'llab-quvvatlashda ayblab, ularni "guruhning homiyları" deb atagan. Eron rahbariyatinining fikriga qaraganda, ularning maqsadi Iraq, Suriya, Liviya va keyinchalik Erondagagi neft konlari ustidan boshqaruvni egallashdir. Bundan tashqari, AQShning ISHIDga nisbatan xattiharakatlari amerika elitasi tomonidan ilgari suriluvchi va AQShning manfaatlari yo'lida Yaqin Sharq mintaqasining turli kuchlari o'rtasida "kuchlar muvozanati" ni o'matish strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, so'nggi vaqtarda Iraq Kurdistoni hukumati va AQSh o'rtasida aloqalarning faollashuvi kuzatilmoqda. Ehtimol kurdlar o'zlarining mustaqil davlatiga ega bo'lish borasidagi ko'p yillik orzusiga yetishda AQShning yordamiga samimi ishonib unga tayanadilar. Shu vaqtning o'zida Eron, Turkiya, Suriya va Iraq davlatlari "kurd masalasi"ga bevosita daxldor davlatlar hisoblanib AQSh Prezidenti Ronald Reyganning "kurdlar Amerika istalgan vaqtda yondirishi mumkin bo'lgan gugurtdir" ta'birini va uning manfaatlarini yaxshi anglaydilar. Ehtimol aynan ushbu masala atrofidagi mushkul vaziyatni tushunib yetish Turkiya prezidenti Rajab Erdoganning 2015-yil aprelda Eronga tashrif buyurishiga sabab bo'ldi. Turk prezidenti uchun mazkur tashrif oson emas edi, negaki u bundan ilgariroq Eronni Yaqin Sharqda yetakchilik qilishga intilayotganlikda ayblab, Eron harbiy qismlarini Suriya, Iraq va Yamandan olib chiqib ketishini talab qilayotgan edi. Shunday bo'lsa ham umumiyl "kurd muammosi"ni hal etish uchun birlashish zaruratinini anglash turk tomonini Eronga tashrif buyurishiga, Eron tomonini esa Turkiya prezidentini rozilik bilan qabul qilishida muhim omil bo'ldi.

Bundan tashqari, so'nggi paytlarda Eronning Rossiya bilan aloqalarining faollashuvi kuzatilib, o'zaro hamkorlikning kengayi-

shidan har ikki tomon ham manfaatdordir. Bir tomonidan, ular qo'shni davlatlar hisoblanib, ularning hamkorligi tegishli umumiy chegara hisoblangan Kaspiyni himoyalanishini ta'minlaydi. Boshqa tomonдан esa, o'zaro madad ularga Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Kavkazda o'zlarining strategik pozitsiyalarini saqlashga imkon beradi. Buning isboti sifatida 2015-yil avgustida Moskvada Eron va Rossiyaning tashqi siyosiy muassasalari rahbarlarining uchrashuvni davomida bergen bayonotlari xizmat qilishi mumkin. Unda ikki davlatning Yaqin Sharq mintaqasida vaziyatni barqarorlashtirishga nisbatan yondashuvlarining yaqinligi e'tirof etilib, bu holat Iraq, Suriya va Yamandagi konfliktlarni hal qilishga ko'maklashish maqsadidagi tomonlarning urinishlarini muvofiqlashtirishga, hamda "Islom davlati"dan tarqalayotgan terroristik tahdid va boshqa ekstremistik guruhlarga qarshi birgalikdagi kurashni kuchaytirishga imkon berishi ta'kidlandi. Eron-Rossiya harbiy-texnik hamkorligi o'zaro munosabatlarda alohida ahamiyat kasb etib, so'nggi paytlarda faol rivojlanib bormoqda. Bu hamkorlikning istiqbollari tomonlarning faqat o'z munosabatlarini yangi sifatlari darajaga ko'tarish bilan bog'liq ichki intilishlari bilan belgilanmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Moskva va Tehronni mustahkam harbiy-siyosiy aloqalarga ega bo'lishga va harbiy-texnikaviy sohada hamkorlikni rivojlantirishga undaydigan bir qator global va mintaqaviy omillar mavjud. Ukraina krizisi sababli Moskva Tehronga zamonaviy harbiy tizimlarni sotishda bundan buyon G'arbning va ba'zi Yaqin Sharq davlatlarining fikr-mulohazalarini kamroq hisobga oladigan bo'ldi. Kaspiyning ikki yirik davlati o'zaro o'xshash G'arbning bosimida qolganligi sababli, yuzaga kelgan holat ikki davlatni yevroatlantik blok tomonidan kelayotgan mazkur bosimni bartaraf qilish maqsadida birgalikda harakat qilishga majbur etmoqda.

Eronning yana bir muhim hamkorlaridan biri Xitoydir. Bu ikki davlatning o'zaro munosabatlari pragmatizmga asoslangan. Xitoy AQShning Eronga nisbatan siyosatini amerikaliklarning o'z ustunligini ta'minlash va Eronning boy uglevodorod resurslari ustidan boshqaruvni qo'liga kiritishga ochiq-oydin intilishidir deb hisoblaydi. Xitoyning neft importiga bog'liqligi 50% dan ortiq bo'lib, boz ustiga neftning 11 % dan 14% gacha Eronдан tashib keltiriladi. Xitoy tomon yadro kelishuvi imzolanganligidan so'ng, Eron neft bozoridan Xitoy kompaniyalarini siqib chiqarishga qodir bo'lgan, hamda Xitoyning energetika xavfsizligiga tahdid bo'lishi mumkin bo'lgan yangi jiddiy

raqobatchilar paydo bo'lganligini anglagan holda Xitoy Eron bilan munosabatlarni yangi darajaga olib chiqishga qaror qildi. Xitoy rahbari Si Tszinpin 2016-yil yanvarda Tehronga tashrif buyurdi va uchrashuv davomida tomonlar o'rtasida turli sohalarni qamrab oluvchi 17 ta shartnoma imzolanib, keyingi 10 yil davomida o'zaro tovar aylanmasini 600 mlrd. AQSh dollarga yetkazish maqsadi qo'yildi. Bundan tashqari, Xitoy rahbari ikki davlat ham o'zaro manfaatlari sohalarda, jumladan energetika sohasida bir-birini qo'llab-quvvatlashni davom ettirishlarini ta'kidladi. Shunday qilib, Eron rahbariyati Xitoyni o'zining tashqi siyosiy strategik hamkorlari qatorida hisoblab, bu davlat eronliklarni avvalo, nafaqat Eron iqtisodiyoti va mudofaa qobiliyatini mustahkamlanishiga ko'mak ko'rsatuvchi, balki xalqaro maydonda Eron manfaatlarini himoya qilishga qobil bo'lgan, o'zining Osiyodagi siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida jalb etadi.

**Eron - Fors ko'rfazi arab davlatlari.** Umuman olganda Eron va "oltilik" davlatlar o'rtasida yadro kelishuvining imzolanishini Fors ko'rfazi davlatlari ijobji qabul qilishdi deyish mumkin. Shu vaqtning o'zida Saudiya Arabistonni AQShning Eronga nisbatan siyosiy munosabatining o'zgarishidan tashvishlanishini namoyish etdi. 2015-yil sentabrda Saudiya Arabistonni qiroli AQShga tashrif buyurdi. Uchrashuv davomida president B.Obama va Saudiya Arabistonni qiroli Salmon bin Abdul Aziz Suriya va Yamandagi vaziyat bo'yicha o'zaro fikr almashib, hamda Tehronning mintaqadagi beqarorlik faoliyatiga qarshi choralar ko'rishni muhokama etdilar. Siyosiy sharhlovchi, diplomatik va strategik tadqiqotlarning Parij markazining muxbir-a'zosi A.Mextiyev: Saudiya Arabistonni qirolining Vashingtonga tashrifi rossiyalik mutaxassislarning Ar-Riyod G'arbning Eron bilan "yadro kelishuvi"ni Washingtonning xoinligi sifatida qabul qilganligi taxminini voqelikka to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi. Qirol Salmon va Barak Obamaning muhokamalari yakunlanishi bo'yicha xulosalovchi bayonotda Saudiya Arabistonni tashqi ishlar vaziri Adil al-Jubayr quyidagilarni qayd etib o'tdi: "Amerika tomon bizni kelishuv shartlari Eronga yadro quroliga ega bo'lishga imkon bermasligini va o'rnatilgan nazorat mexanizmlari samarali ekanligiga va'da berishdi. Shuningdek, kelishuv Eron shartlarni bajarishdan bosh tortgan holatda tez javob sanktsiyalar qo'llashni nazarda tutishi ham ma'lum etildi. Saudiya Arabistonni ikki oydan ortiq muddat davomida o'z ittifoqchilari bilan olib borgan maslahatlardan so'ng, bu va'dalardan

qoniqqanligini e'lon qiladi". Amerikalik mutaxassis, Jeymstaun fondining Washington tahliliy markazining rahbari G.Hovard Washington va Ar-Riyod o'rtaida Eron bo'yicha murosasiga quyidagi baho berdi: "Saudiya Arabistonni Yamanga bomba yog'dirmoqda, va AQSh bunda Saudiya Arabistonining harbiy-havo kuchlariga homiylik qilmoqda. Aftidan, Washington Yamanda bo'layotgan voqealarga ko'z yumish evaziga, saudiyaliklarning Eronning G'arb bilan kelishuvini so'zsiz qo'llab-quvvatlashiga erishadi".

Eronning Ummon, Qatar, Bahrayn bilan aloqlari ko'proq muvaffaqiyatiroq kechmoqda. Savdo aylanmasi oshmoqda, manfaatlari savdo va iqtisodiy shartnomalar imzolanmoqda, turistlar qatnovi ortib bormoqda. Eron ishchilarining katta qismi shu davlatlarda joylashgan. Bu davlatlarning hukumatlari Eron bilan munosabatlarni kengaytirish va uni arab hamjamiyatiga qo'shishni yoqlaydilar. Shunga qaramay, yaqin davrgacha faol ravishda "eron inqilobi"ni arab davlatlarga eksport qilishni yoqlab kelgan Eronning tashqi siyosati borasida arablarda muayyan xavfsirash mavjud. Fors ko'rfazining aksar davlatlari Saudiya Arabistonining ta'siri ostida bo'lganligi sababli bu mintaqaga davlatlarida Eron bilan begonalarcha munosabatlар saqlanib qolmoqda.

Arab dunyosida Suriya va Livan davlatlari Eronning asosiy ittifoqdoshlari sifatida qolishda davom etmoqdalar. Suriya davlati butun Eron-Iraq urushi davomida Eronni qo'llab kelgan yagona davlat edi. Suriya uchun Eron ko'rsatayotgan moliyaviy yordam, va uning Livandagi pozitsiyalarini himoyalash bo'yicha iqtisodiy va harbiy yordami muhimdir.

*Eronning - Markaziy Osiyo va Kavkaz respublikalari bilan munosabatlari.* Markaziy Osiyo mintaqasi Eron tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishni davom etmoqda. Amalda bo'lgan sanksiyalarga qaramay, Eron so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqlarini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi.

Jumladan, Eron va Qozog'iston ko'p marotaba do'stona va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirishdan manfaatdorligi va o'zlarining siyosiy intilishlarini tasdiqlagan edilar. Tomonlar mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida birgalikda yaqindan harakat qilishadi. Ikki davlat o'rtasida har yili tovar aylanmasining o'sishi kuzatiladi (2012-yilda 678,9 mln. AQSh dollari, 2013-yilda 620,5 mln. AQSh dollari, 2014-yilda 987,1 mln. AQSh dollari). Shu vaqtning o'zida Qozog'iston bu munosabatlari o'zining Vashington,

YEI va Turkiya bilan muloqotiga ta'sir etishini hisobga olgan holda Eronga nisbatan muvozanatli siyosat yuritadi. Aynan shuning uchun Ostona ShHTga a'zo bo'lish reglamentini o'zgartirishning tashabbuskorii bo'lib chiqdi va uning natijasida xalqaro sanksiyalar ostida bo'lgan davlatlar tashkilot a'zoligiga kira olmasligi to'g'risida band kiritildi. Ko'pgina mutaxassislar bu taklifni Tehronni ShHTning to'liq a'zoligiga kirishi uchun yo'lini yopib turuvchi ko'tarma g'ovga aylanganligini ta'kidlashdi. Shu tariqa Qozog'iston G'arbning mintaqada "Eronni tiyib turish" siyosatini yoqlashini namoyish etib, ehtiyyotkorlik va sabot bilan bu masalada AQSh va YEI manfaatlarning vositachisi bo'lib chiqmoqda.

Eron va Tojikiston, shubhasiz, mushtarak tarixiy-madaniy qadriyatlar va savdo-iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni hisobga olgan holda o'zaro yaqinlashishdan manfaatdordirlar. Tehron Tojikistonni forszabon dunyoning bir qismi sifatida qabul qilganligi bois bu munosabatlarga alohida ahamiyat beradi. Eron Dushanbe bilan barcha sohalarda, jumladan, iqtisodiy sohada munosabatlarni kengaytirishga intiladi. Tojikistonda 150 dan ortiq Eron firmalari faoliyat ko'rsatadi, 2014-yil yakuniga ko'ra esa ikki davlat o'rtasida savdo aylanmasi 228 mln. AQSh dollarini tashkil etib, bu Tojikiston savdo aylanmasi umumiyoj hajmining 4,3% ni tashkil etadi. Eron Tojikistonga fuqarolik urushidan so'ng davlatni tiklashda yordam ko'rsatdi. Bundan tashqari, Eron tomoni 2008-yilda Forszabon ittifoqning iqtisodiy kengashini tuzish to'g'risidagi imzolangan kelishuv asosida Eron-Tojikiston-Afg'oniston ittifoqini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib bormoqda. Shu bilan birga Rossiya va AQShning avj olib borayotgan faoliyatini va ta'siri sababli, ham Tojikiston ham Afg'oniston bu davlatlarga bog'liqlik asosida siyosat yuritadilar. Bu vaziyat "uchlar ittifoqi" faoliyatini faol bosqichga o'tishiga yo'l qo'ymaydigan omil hisoblanadi.

Eron va Turkmaniston munosabatlarini haqli ravishda eng faol va jo'shqin deb atash mumkin. Bu ko'p jihatdan ikki davlatni umumiyoj chegaralar birlashtirishi, ko'p asrli tarixiy va konfessional yaqinligi bilan bog'liq. Eron shimolida e'tiborli darajada ko'p turkman aholisining massivi joylashganligi mustahkam yaxshi qo'shnichilik poydevori sifatida xizmat qiladi. Ikki davlatning munosabatlari o'zaro manfaatlar asosida ham barpo etilgan. Tovar aylanmasi 1992-yildagi 52 ming dollardan 2014-yildagi 3,7 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Eron prezidenti H.Ruhoniy ta'kidlaganidek "Biz 10 yil ichida bu

ko'rsatkichni 60 milliard AQSh dollariga yetkazish niyatini bildirdik". Turkmanistonda Eron ko'magida yuzlab sanoat ob'ektlari amalgalashirilgan yoki amalgalashirish bosqichida bo'lib, ular milliy iqtisodiyot uchun muhim ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Qирг'изистон respublikasi prezidenti O.Atambaevning 2015-yil sentabrda Eronga tashrifi, hamda Eron prezidenti H.Ruhoniyning 2016-yil dekabrda Bishkekka uyuşhtirgan javob tashrifi ikki davlat o'rtaşıdagi munosabatlarning do'stona ekanligini tasdiqladi. Bundan ilgariroq, dekabr oyining boshida Eron elchisi Ali Mujtob Ruzbahoniy Qирг'изистон sanoat, energetika va yer osti boyliklaridan foydalaniш qo'mitasi raisi Duyshanbek Ziloliyev bilan uchrashuv davomida ikki tomonlama munosabatlar yetarlicha rivojlanmaganligini va o'zaro savdo aylanmasi bor yo'gi 30 mln. dollarni tashkil etishini ta'kidlab o'tdi. Qирг'изистон prezidentining Tehronga tashrifi davomida eronlik hamkasbi e'tiborli bayonot berdi: "Bugungi kunda Qирг'изистон mustaqil siyosat yuritish yo'lidan bormoqda. Biz sizlar amerikaliklarning Manasdagi aviabazasini yopganligingizni guvohi bo'ldik. Bu holat bugungi kunda xalqaro va mintaqaviy masalalarda pozitsiyalarimiz va g'oyalarimiz yaqinligidan dalolat beradi. Va bizlar bu jabhada o'z munosabatlarimizni rivojlantirishimiz mumkin. Shuningdek, bizlar zo'ravonlik va terrorizmga qarshi kurash sohalarida yaqindan hamkorlik qilishimiz lozim". Bundan tashqari, tomonlar savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish yo'lidan borishda davom ettirishlarini izhor etdilar.

Ma'lumki, O'zbekiston 1990-yillarda Eronga nisbatan sanksiyalar joriy etilishini yoqlab chiqqan edi. Keyinchalik Muhammad Hotamiy prezidentlikka kelganidan so'ng munosabatlarda tiklanish kuzatildi. Oxirgi yillarda O'zbekiston va Eron o'rtaşıda iqtisodiy aloqalar ancha yaxshi rivojlanib bormoqda. Ushbu munosabatlar mahsuliga e'tibor qaratsak, u holda 2014-yil natijalariga ko'ra, o'zaro tovar ayriboshlash ko'rsatkichlari 374,9 mln. AQSh dollarari, shu jumladan eksport – 317,8 mln. AQSh dollarari, import – 57 mln. AQSh dollarini tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston va Eron munosabatlarining shartnoma-huquqiy asosini 59 dan ortiq imzolangan hujjalarni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi va Eron Islom Respublikasi o'rtaşıda savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiya

tashkil etilgan bo'lib, 2015-yilning iyun oyida Toshkent shahrida uning 11-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Eron sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 116 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan 19 tasi to'liq Eron sarmoyasi asosida ish olib bormoqda. O'zbekiston va Eron munosabatlarida transport va transport kommunikatsiyalari sohasidagi hamkorlik muhim o'rinn tutadi. Mamlakatimiz o'z mahsulotlarini Eronning Bandar-Abbos va Chobahor portlari orqali Hind okeaniga chiqaradi. Eron esa O'zbekiston hududi orqali Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlariga tovar yetkazib beradi.

2017-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida O'zbekiston-Eron vazirliklararo siyosiy maslahatlashuvlarining beshinchi raundi bo'lib o'tdi. Unda Eron Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri o'rinosbasari Ibrohim Rahimpur rahbarligidagi delegatsiya ishtirok etdi. Uchrashuvda iqtisodiy, savdo, transport va tranzit kabi sohalardagi aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – O'mon mintaqalararo transport koridorini ishga tushirish o'zaro hamkorlik rivojida alohida ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari Eron Janubiy Kavkaz davlatlari – Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya davlatlari bilan yaqin munosabatlarga ega. Bugungi kunda Eron-Ozarbayjon munosabatlari yuqori darajada sanaladi. Ikkala davlat ham xalqaro tashkilotlar doirasida chambarchas hamkorlik qiladi. Rasmiy darajada ikki davlatning munosabatlari "birodarona" deb ataladi. Eron yadro dasturi bo'yicha kelishuvga erishilgandan so'ng ozar tomoni Eron bilan munosabatlarni faollashtirib, neft-gaz sohasida bir qator takliflar bilan chiqdi. Gruziya bilan munosabatlarga Eron o'zining siyosiy rejalarini amalgalashirish, shuningdek, o'zining geostrategik va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lgan mamlakat sifatida jiddiy ahamiyat beradi. 2015-yil iyulida Eron Ozarbayjon va Gruziya fuqarolariga viza tartibini bekor qilgan bo'lib, bu Eronning mazkur davlatlar bilan ikkitomonlama yaqinlashuviga intilishidan guvohlik beradi. Eron va Armaniston o'rtaşıda munosabatlar deyarli ittifoqchilik darajasidadir. Doimiy ravishda oliv darajadagi tashriflar amalgalashirilar, madaniy aloqalar rivojlanar va shu bilan birga ikki qo'shni mamlakat o'rtaşıda savdo-iqtisodiy aloqalarning darajasi uncha katta emasdir.

Shunday qilib, "oltilik" xalqaro vositachi davlatlarning Eron tomoni bilan yadro dasturi bo'yicha bitimga kelishi Eronqa nafaqat mintaqada balki jahonda o'z mavqeini mustahkamlashga imkon bergen bo'lsa-da, ba'zi davlatlarning hanuz yetarlicha ishonchiga sazovor bo'lishga muvaffaq bo'lmadi. Bu ko'p jihatdan Eron to'g'risida shakllangan salbiy tasavvurlar bilan bog'liqidir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, islom rejimining tashqi siyosiy konsepsiyalari va Eronning amaliy tashqi siyosati so'nggi yillarda sifatli o'zgarishlarga uchramoqda. "G'arb ham emas, Sharq ham emas, balki Islom", "Islom inqilobining eksporti" konsepsiyalari tashqi siyosatni yuritishda ochiqlik yo'lini tutishga almashmoqda. Hozirgi davrda Eronning Yaqin Sharq mintaqasidagi tashqi siyosatida Islom davlatining Yaqin Sharqdagi faoliyati va kurd omili muhim ahamiyat kasb etadi. Eron tomoni mazkur ikki omillarni AQSh va Buyuk Britaniya mintaqada o'zlarining manfaatlariiga erishish maqsadida o'ziga nisbatan bosim o'tkazishda foydalanishi mumkin deb hisoblaydi. Yadro kelishuvi imzolanganidan so'ng, Yevropa davlatlari bilan aloqalarni yaxshilash va qo'shni mamlakatlar (Ozarbayjon, Afg'oniston, Iroq, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston) bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash Eron tashqi siyosatida muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Eron tashqi siyosiy yo'lida Xitoy va Rossiya alohida muhim ahamiyat kasb etib, bu davlatlar bilan munosabatlar borgan sari strategik xarakterni kasb etmoqda. Eron tomonining ba'zi Yaqin Sharq davlatlari (Falastin, Yaman, Suriya, Bahrayn), Markaziy Osiyo hamda Kavkaz davlatlariga nisbatan pozitsiyasi ilgarigidek, o'zgarhsiz qolishda davom etib, bu mintaqada davlatlarida o'z ta'sirini mustahkamlash maqsadida yaxshi va puxta rejalashtirilgan siyosiy muloqotdan vosita sifatida foydalanadi.

*Hozirgi davrda Eron – Turkiya munosabatlari.* O'z mintaqasining yirik davlatlari sifatida Turkiya va Eron ko'pgina sohalarda samarali hamkorlik qilish uchun ulkan imkoniyatlarga egadir. Ammo, ichki siyosiy tuzum hamda tashqi siyosatda tutilgan yo'llardagi tafovutlar bilan bir qatorda, mintaqaviy ta'sirga ega bo'lish borasida o'zaro raqobat Eron-Turkiya munosabatlari salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga Eron-Turkiya munosabatlari rivojiga Suriyadagi holat hamda kurd masalasi jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2002-yilda Turkiyada hokimiyatga "Adolat va taraqqiyot" partiyasining kelishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga yangicha

ma'no kasb etgan edi. Eronqa Turkiyaning islomparast partiyasi xush keladi, qolaversa ikki davlat uchun umumiyligi bo'lgan xavfsizlikka tahdid va xatarlarning yuzaga kelishi munosabatlarning yaxshilanishiga yordam berdi. 2003-yil yanvarida Washingtonning Bag'dodga qarshi qaratilgan harbiy aksiyasiga tayyorgarlik avjiga chiqqan paytida Anqara mintaqada Iroq muammossini siyosiy vositalar bilan hal qilishga qaratilgan diplomatiyani faol amalga oshirishni boshlab yubordi. Bu diplomatiya muhitiga Suriya, Jordaniya, Misr, Saudiya Arabistoni, Iroq, hamda Eron kirar edi. Iroq muammossini birgalikda hal qilishga qaratilgan tashqi ishlar vazirlari darajasida bir qator uchrashuvlar tashkil etildi. Washington Iroq qo'shinlarining bu formatdagi aloqalariga yetarli darajada ahamiyat bermadi, u yerda esa eng faol o'q Anqara-Tehron bo'lgan bo'lib, keyingi ikki yil davomida Anqara-Tehron-Damashq uchburchagiga aylandi. Eron va Turkiyaning xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorligi asta-sekin kuchayib borar edi. 2004-yil iyulda Turkiya Bosh vazirining Tehronga qilgan safarida ikki tomon hamkorlik to'g'risida kelishuvni imzolab, unda Kurdiston ishchi partiyasi (KIP) ga terroristik tashkilot sifatida ta'rif beriladi. Shu davrdan boshlab ikki davlat chegaralarni himoyalash borasida hamkorlikni boshlashdi.

Turkiya-Eron muloqoti garchi bir qator muammolarga ega bo'lgan bo'lsa ham, ammo o'sib borayotgan ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar va energetika sohasidagi hamkorligi bilan ham mustahkamlanib borar edi. 2007-yilda ikki davlat o'rtasida savdo hajmi 4,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. 2007-yilda Eronda 40 dan ortiq turk firmalari faoliyat olib borgan bo'lib, shu bilan birga turk investorlari uchun Eron bozorining jozibadorligi oshib borishni davom etar edi. Eron Turkiyaga tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha Rossiyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

Ikkitonloma aloqalardagi keyingi qadam 2007-yilda Eron va turkman gazini Yevropaga Eron va Turkiya hududi orqali o'tkazish masalasiga bag'ishlangan "Maqsadlar to'g'risida memorandum" ning imzolanishi bo'ldi. Tomonlar tabiiy gazni tashish bo'yicha turk-eron korxonasini tuzishga kelishib olishdi.

2009-yil Eron-Turkiya munosabatlari uchun yanada sermazmum bo'lib, u ikki davlat munosabatlari chuqurlashuvi nuqtai-nazaridan muhim davrga aylandi. 2009-yil yanvarda Turkiya Bosh vaziri T.Erdog'an Bryusselda agar Eron "Nabukko" gaz quvuri loyihasida ishtirok etmasa u haqida gapirishning o'zi behuda deb fikr bildirdi.

Eron Isroil yuritayotgan siyosatga qat'iy qarshi va hatto bu davlatning mavjudligi uni qoniqtirmaydi. Turkiya esa ham Falastin ham Isroil bilan munosabatlarni yuritib, xalqaro huquqqa muvofiq holda mo'tadil siyosat olib borishga harakat qiladi. Turkiya va Eron davlatlarining Falastin muammosiga yondashuvidagi bo'linish bu ikki davlatning AQShga bo'lgan turlicha munosabati bilan izohlanadi. Erondan farqli ravishda, Turkiya AQSh bilan yaqin munosabatda bo'lib, tez-tez AQSh va mintaqalari, jumladan AQSh va Eron o'rtasidagi munosabatlarda rasmiy va norasmiy visitachi vazifasini bajaradi.

Eron-Turkiya munosabatlari nafaqat G'arbda balki Yaqin Sharqda ham kuzatib boriladi va tahlil etiladi. Bunga misol sifatida 2010-yilda Misrning nufuzli haftalik "Al-Ahrom" jurnalining mulohazasini keltirish mumkin. Unda jumladan bunday deyiladi: "Arab dunyosi Turkiyaning o'sib borayotgan mintaqaviy ta'siriga guvoh bo'lmoqda. U AQSh va Isroilning strategik hamkoridan nisbatan mustaqilroq siyosiy platformaga siljidi. Muvaffaqiyatli arab raqobatining yo'qligi tufayli Turkiya va Eron Yaqin Sharq kelajagiga tadrijiy va har tomonlama nazar solish asosida shakllantirish tashabbusini o'z zimmalariga oldilar. Ushbu kelajakni ko'rish ikki davlatning nuqtai-nazarlari tafovuti darajasida bir-biridan farq qiladi". 2010-yilda Turkiya-Eron munosabatlarida Eron yadro dasturi muhim masala sifatida qolishni davom etib, bu borada Turkiya butun davr mobaynida o'zgarmas fikriga asosan yo'l tutishni davom etdi. Turk pozitsiyasi asosida kuch ishlatish imkoniyatini rad etgan holda olib turk rahbariyati tomonidan doimo yoqlab kelingan muammoni diplomatik yo'l bilan hal etish printsipi yotar edi. 2010-yilda Tehronda Eron, Turkiya va Braziliya TIV rahbarlari tomonidan uch yoqlama shartnomaning imzolanishi Eron muammosini hal etishga qaratilgan muhim urinish bo'ldi. Shartnoma Turkiya hududida kam boyitilgan Eron uranini yuqori boyitilganiga almashtirishni nazarda tutar edi. Turkiyaga saqlash uchun 1200 kg kam boyitilgan (3,5 %gacha) uranni topshirish va Eron tomonidan yiliga Tehron tadqiqotlar reaktori uchun zarur bo'lgan 120 kg. yuqori boyitilgan (20 %gacha) uranni qabul qilishga kelishib olingan edi. Ammo haqiqiy voqealar rivoji Tehron uch yoqlama shartnomasi asosan muammoni hal etish borasida siljish yuz bermaganligini va faqat ikki natijaga olib kelganini namoyish etdi. Shartnoma Eronga yangi sanksiyalarni qo'llash muhokama etilayotgan davrda paydo bo'lgani sababli Eron birmuncha vaqtidan

yutdi, Turkiya esa keskin global muammoni hal etishda o'zining tinchlikparvar imidjini mustahkamlab oldi. Turkiya BMT XKda o'zining vaqtinchalik a'zoligidan foydalangan holda 2010-yil iyunda Eronga xalqaro sanksiyalarni kiritishga qarshi ovoz berdi. Garchi bu ovoz hech narsani hal qilmagan bo'lsa-da, u Tehron bilan munosabatlarni mustahkamlash yo'lida ijobjiy rol o'ynadi.

2011-yilda boshlangan "arab bahori" voqealarini Yaqin Sharq status-kvosida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi hamda Turkiya va Eron o'rtasida raqobat ob'ektiga aylandi. Eron "arab bahori"ning dastlabki oylarida xalq ommasi chiqishlarini "islomi yug'onish" deb baholadi va yuz berayotgan voqealarini qo'llab-quvvatladi. Ammo g'alayonlar Suriyada boshlanganda, Eron rahbariyati butunlay qarama-qarshi pozitsiyani namoyish etdi, negaki Eronni qo'llab-quvvatlovchi Suriyadagi mavjud siyosiy rejimning o'zgarishi Tehron geosiyosiy manfaatlariiga putur yetkazishi mumkin edi. Islom inqilobining ma'nnaviy lideri oyatulloh A.Xomenei "arab bahori" AQSh, Isroil va arab davlatlari tomonidan tashkil etilgan va ularning manfaatlariiga xizmat qiladi, shuning uchun Eron Suriya tomonda bo'ladi" deb fikr bildirdi. O'zining strategik hamkorini saqlab qolish maqsadida Eron Suriyaga yordam ko'rsatishni boshladi. Turkiya esa Suriya rahbariyatini tanqid qilishdan boshlab, Damashqdagi rejimning o'zgarishiga umid bog'lagan holda hukumatga qarshi kuchlarni qo'llab-quvvatladi.

2013-yil avgustda Eronda yangi prezident Hasan Ruhoniyning hokimiyatga kelishidan so'ng turk-eron munosabatlari va ikkitomonlama hamkorlikda ma'lum iliqlik yuz bergani kuzatildi. 2014-yanvarda Eronga Turkiya Bosh vaziri T.Erdog'anning tashrifini "turk-eron munosabatlarida so'nggi ikki yil davomida kuzatilgan keskinlikni yengib o'tish uchun qulay imkoniyat sifatida baholash mumkin". Tashrif davomida 10 yildan ortiq davr mobaynida muzokaralari olib borilgan savdo hamkorligi to'g'risida turk-eron savdo shartnomasi imzolandi. Kelishuv Turkiyaga Erondan import qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlariga, va Eronga Turkiyadan import qilinadigan sanoat tovarlari savdosida imtiyozlar berib, bu sohada zarur bo'lgan tartibga solish mexanizmini nazarda tutadi. Erdog'an Eronni o'zining ikkinchi uyi deb atab 2015-yilga qadar davlatlar o'rtasida tovar aylanmasi 30 mlrd. AQSh dollariga yetishiga umid bog'lashini ma'lum qildi. 2014-yil iyunda prezident Ruhoni katta delegatsiya bilan Anqaraga tashrif buyurdi va bu voqealari Eron davlat rahbarining

so'nggi 18 yil ichidagi birinchi tashrifga aylandi. Muzokaralar davlatlar aloqlarni rivojlantirishni mo'ljallayotganini namoyish etdi. Shu bilan bir qatorda ular mintaqada yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlarga turlicha munosabatda edilar. Muzokaralar natijasida tomonlar strategik hamkorlikning oliy darajadagi mexanizmini yaratishga kelishib olishdi. Jami 10 ta shartnoma imzolanib asosan, iqtisodiyot, energetika, turizm va ekologiya sohalarini qamrab olar edi. Shunday qilib, o'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, Turkiya va Eron iqtisod va energetika sohalarida hamkorlikning kengayishidan o'zaro manfaatdordirlar. Eron esa G'arb kiritgan sanksiyalar ziyonini shu tariqa to'ldirishga intiladi.

Ikkala davlat uchun ham separatizm va terrorizm dolzarb muammo hisoblanadi. Anqarada bu masalada hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvga erishildi va terrorizmnинг barcha shakllari bilan kurashda birgalikda harakat qilish zaruriyati qayd etilgan edi. Harvard universiteti olimi, Eron tashqi siyosati bo'yicha mutaxassisasi va kelib chiqishiga ko'ra eron millatiga mansub doktor Majid Rafizoda Eron tashqi siyosatida Turkiyaning o'rnini quyidagicha baholaydi. "Mintaqada geosiyosat va kuchlar muvozanati masalasi ko'tarilgan paytlarda Eron liderlari Fors ko'rfazining arab davlatlarini ittifoqdosh emas, balki ko'proq o'zining raqibi deb bilishadi. Va bu holat Eron etakchilarini Turkiyani mintaqadagi asosiy va muhim strategik, geosiyosiy va iqtisodiy ittifoqchi sifatida qabul qilishga majbur etuvchi asosiy sabablardan biridir". Amerikalik tadqiqotchi eronlik liderlar Turkiya bilan savdo qilish orqali AQSh va xalqaro sanksiyalarning ta'sirini kamaytirishga muvaffaq bo'lganini ham qayd etadi. 2015-yil 2-aprelda Lozannada Eronning yadro dasturi bo'yicha muzokaralar yakunlandi. "Milliyet" nomli turk gazetasi ilgari Eron o'zining yadroviy majburiyatlar haqida ochiq gapirishni xohlamaganligini qayd qiladi. Bu safar esa Erondagи barcha yadroviy qurilmalar qat'iy va doimiy xalqaro nazorat ostida bo'lishi haqida gap bormoqda. Ammo Eronga va imzolangan shartnomaga ishonchsizlik bildirishni davom etayotganlar ham bor. Birinchi navbatda, Isroil, Saudiya Arabistoni va Fors ko'rfazi davlatlari shartnomaga "sovuq" nazar tashlamoqdalar. Bu kabi ishonchsizlik va shubhalar AQSh kongressida ham mavjud. Eron yadro dasturi bo'yicha kelishuvga erishish Yamanda urush boshlanishining sabablaridan biri bo'ldi deb ta'kidlash mumkin.

Venada 2015-yil iyulda Eron va "oltilik" o'rtasida yadro dasturi bo'yicha kelishuvning imzolishi butun jahonda, jumladan Turkiyada ham mammuniyat hissini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Va

birinchi navbatda, kelishuv Turkiyaning ishbilarmonlar doiralarida katta umid va rejalarini tug'dirdi. Turk-Eron savdo-sotiq kengashining raisi R.Eser sanktsiyalarni olib tashlash ikki yil ichida tovar aylanmasini 30 mldr. AQSh dollarigacha ko'tarish imkonini berishini ma'lum qildi. Yaqin Sharq strategik tadqiqotlar markazi mutaxassis A.Keskinning fikricha, "Turkiya va Eron Yaqin Sharqda qarama-qarshi geosiyosiy kurash holatidadir. Va bu kurash butun Yaqin Sharqni, jumladan, Suriya, Iroq va Yamanni ham o'z ichiga oladi. Eron Turkiyaning diplomatik va siyosiy tashabbuslarini o'ziga nisbatan qarshi qaratilgan faoliyat deb baholaydi va shu sababdan mintaqada turk ta'sirini va imkoniyatlari cheklashga harakat qiladi. "Arab bahori" esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda keskin o'zgarish yasagan nuqta bo'lib, ularni bir-biriga zid qo'ydi.

Anqara va Tehron Yaqin Sharqni yangidan shakllantirishda yetakchi rolni qo'lga kiritish maqsadida Suriyadagi vaziyatni hal etish borasida xalqaro tashabbuslarni ishlab chiqishda faol ishtirok eta boshladilar. Agar Turkiyada "Suriya do'stleri guruhi"ning qurultoylari bo'lib o'tgan bo'lsa, Eron 2013-yil mayida 40 dan ortiq davlat ishtirokida Suriya bo'yicha xalqaro konferensiyanı o'tkazdi. Tehron konferensiyasiga Turkiya, shuningdek, Prezident Bashar Asadning Yaqin Sharqdagi yana boshqa ikki dushmani - Saudiya Arabistoni va Qatar taklif etilmadi. Turkiya Damashq bilan urush olib borayotgan Erkin suriya armiyasiga o'z hududida bazalar tuzishga ruxsat etib, front ortida esa razvedka ma'lumotlarini yetkazish orqali ularga ko'maklashdi. O'sha vaqtning o'zida Eron qurolli kuchlarining otryadlari hukumat kuchlari tomonda Suriyadagi qurolli to'qnashuvlarda ishtirok etishar edi. Tehron Iroqdan tranzit hudud sifatida foydalanim Damashqqa qurol-yarog' va texnika yetkazib berish bilan yordam ko'rsatdi.

Shunday qilib, Eron va Turkiya Suriya muammosi bo'yicha o'z pozitsiyalarida umumiyoq bo'lgan jihatlarni topish va belgilashga urinib ko'rdilar va bu holat tomonlarning o'zaro mintaqaviy ziddiyatlarini "tamadduniy izda" saqlab qolishga va Suriyadagi krizis holatinig Turkiya va Eron o'rtasidagi ikkitomonlama munosabatlariga salbiy ta'sir etishini oldini olishga intilishlaridan guvohlik beradi.

Aytish mumkinki, Suriya krizisida Turkiya va Eron kurashayotgan boshqa-boshqa tomonlarni qo'llab-quvvatlashda davom etishlari shak-shubhasiz bo'lib, ular muammoni hal etishda o'zlarining mintaqaviy manfaatlarini eng ko'p darajada amalga oshirishga imkon beruvchi natijaga intiladilar. Shu sababdan, Suriyadagi vaziyat Anqara va Tehronning Yaqin Sharqdagi

mintaqaviy raqobati rivojining harakati va o'zgarishini belgilovchi omil sifatida eron-turk munosabatlarda o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

#### **Nazorat va topshiriq savollari:**

1. Jahon xaritasida Yaqin Sharq mamlakatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering.
2. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Eron Islom Respublikasining rolini aytib bering.
3. Bugungi kunda Eron-Rossiya munosabatlardagi holat qanday?
4. Nima sababdan AQSh ko'plab Sharq mamlakatlariga iqtisodiy yordam ko'rsatadi?

#### **Mustaqil ish savollari:**

1. Siyosiy xarita yordamida Yaqin Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering?
2. Globalizatsianing ijobiyligi va salbiy jihatlarini sanab o'ting?
3. Yaqin Sharq mamlakatlarning hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rghanish.
4. "Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlar" mavzusida nutq tayyorlash.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Мұхаммадсідиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларидаги ижтимоий-сійесій жаһаёнлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 160 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
4. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
5. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани миңтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
6. Fawcett Louise. International Relations of the Middle East, UK, Oxford University Press, 2016.
7. The Asia-Pacific Power Balance. London: Chatham House, 2015. 80 p.
8. Beeson M. Institutions of the Asia Pacific. London-New York: Routledge, 2009. 147 p.

## **GLOSSARIY**

<i>O'zbek tilida</i>	<i>Rus tilida</i>	<i>Ingliz tilida</i>	<i>Ta'rif</i>
mintaqa	регион	region	"Mintaqa" lotinchadan "qism, bo'lak" ma'nolarini anglatadi. Mintaqaga quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: umumiy tarixiy rivojanish; o'ziga xos muayyan madaniy xususiyat; yagona va birbiriga tutash geografik hudud; • iqtisodiyotining o'xshashligi; mintaqaviy xalqaro tashkilotlar doirasida birgalikda faolit yurish.
Mintaqav iylashuv	регионализация	regionalization	Mintaqav iylashuv hududiy xususiyati asosida iqtisodiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan davlatlarning bir biriga yaqinlashuv jarayoni.
Jahon regionalizmi	Мировой регионализм	World regionalism	Jahon regionalizmi globallashuv bosqichlaridan biri bo'lishi bilan birga unga qarama-qarshi tendensiyadir
Geosiyosiy mintaqav iylashuv	Геополитическая регионализация	Geopolitic regionalization	Geosiyosiy mintaqav iylashuvda "katta makonlar"ning shakllanishi va ajratilishi, ularning harbiy-siyosiy va iqtisodiy qudrati jahon gegemoniga qarama-qarshi turishi mumkin.
asosiy siyosiy jarayon-lar	первичные политические процессы	primary political processes	aholining faolligini, ya'ni harakatlarda aholining turli qatlamlarining ishtiroi
beqaror siyosiy jarayon-lar	неустойчивые и политические процессы	instability political processes	siyosiy tizimdagagi yoki siyosiy hokimiyatdagagi inqirozli vaziyatlarda paydo bo'ladi va rivojlanadi

BMT	ООН	UN	Birlashgan Millatlar Tashkiloti. 1945 yilda tuzilgan. dunyodagi 200 dan ortiq davlatlar BMT a'zosi. 1992 yil 2 martda O'zbekiston ham unga a'zo bo'lib kirdi
Boshqaruv	управление	management	turli tizimlar (biologik, ijtimoiy, texnologik) king funktsiyasi. u shu tizimlarning muayyan tuzilishini saqlab turadi, faoliyat, taribni ta'minlaydi, dasturlar, maqsadlarni amalga oshiradi
buddaviylik dini	буддизм	buddhism	dunyodagi eng ko'p tarqalgan dinlardan bo'lib, mil. avv. 6-5 asrlarda hindistonda paydo bo'ldi
Davlat	государство	state	butun xalqqa, kishilarning barcha ijtimoiy birlklari, partiylar va harakatlar, ko'ngilli uyushma va ittifoqlarga xizmat qilishi majburiy bo'lgan organ
davlat shakli	форма государства	form of state	murakkab ijtimoiy hodisa, u o'zaro bog'langan uch unsurni o'z ichiga oladi: boshqaruv shakli, davlat qurilishi shakli va davlat rejim shakli
davlatlar o'rtasida gi raqobat	соперничество между государствами	rivalry between states	bu obyektiv hodisa bo'lib, u suveren davlatlarning barchasi uchun xarakterlidir. u munosabatlar va manfaatlar yig'indisi sifatida muayyan vositalar orqali yuzaga keladi.
Demografsik resurslar	демографические ресурсы	demographic resources	hokimiyatning maxsus resurslaridir. bu resurs boshqa resurlarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali

Demokratik rejim	демократический режим	democratic regime	resursdir
Demokratiya	демократия	democracy	xalq hokimiyati. Bu xalq tomonidan idora etish bo'lib, oliv hokimiyat xalq qo'liga topshiriladi va xalq uni yo bevosita, yo erkin saylovlari yordamida o'zi saylagan vakillari (vakillik demokratiysi) orqali amalga oshiradi.
Dunyoqarash hosil qilish funksiysi	прогностическая функция	predictive function	siyosiy voqelik to'g'risida aniq tasavvurlarning shakllanishiga ko'maklashadi.
ekzogen	экзогенный	exogenous	tashqi sabab, turki natijasida vujudga kelgan ta'sirlar
elat	нация	nation	iqtisodiy aloqalarga, til, hudoj, madaniyat mushtarakligiga, o'z-o'zini anglashga, mushtarak psihologiyaga ega bo'lgan va mazkur belgililar millat bilan qiyoslaganda kamroq rivojlangan, barqaror, kamsonli birlik
elita	элита	elite	fransuzcha «elite» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u eng yaxshi, tanlangan degan ma'noni bildiradi
endogen	эндогенный	endogenous	ichki sabablar natijasida vujudga, kelgan ta'sirlar
etnik guruh	этническая группа	ethnic group	bir necha yuz yoki ming kishidan iborat bo'lgan, bir-biri bilan zaif bog'langan birlilik, birlashuv asosida etnik belgilari yotadi

etnografik guruh	этнографическая группа	ethnographic group	millat yoki elatning alohida ajralib qolgan, til, madaniyat, turmushda o'ziga xosliklarni saqlagan qismi
evolyuesiya	эволюция	evolution	siyosiy jarayonlarni astasekin, bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat bo'lib, siyosiy jarayonlarning eng asosiy va nisbatan keng tarqalgan shakli hisoblanadi.
federativ davlat	федеративное государство	federative state	davlat tuzilishining yuridik jihatdan belgilab qo'yilgan siyosiy mustaqillikka ega bo'lgan davlat birlashmalaridan tuzilgan, murakkab (ittifoq) davlatdan iborat shakli
feodalizm da avtokratiya	самодержавие в феодализме	autocracy in feudalism	avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan yakka shaxsning hukmronligi
G'arb regionalizmi	Западная регионализм	Western regionalism	<i>G'arb regionalizmi.</i> Har qanday jamiyatda shaxs manfaat va huquqlarining ustuvorligiga asoslangan Yevropa regionalizmi muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.
Amerika regionalizmi	Американская регионализм	American regionalism	<i>Amerika regionalizmi.</i> Amerika liberalizmi G'arb liberal qadriyatlaridan foydalangan holda yuqori texnologiyalar jo'g'rofik periferiyasiga aylandi.
Sharq regionalizmi	Восточная регионализм	Eastern regionalism	<i>Sharq regionalizmi</i> Xitoy va boshqa Osiyo davlatlari Sharq regionalizmidan foydalananmoqda, avtoritar davlat hokimiyati bilan bosqichma-

hokimiyat	власть	government	bosqich jahon bozoriga ochiq bo'lishga asoslanadi. odamlarning ehtiroslarini jilovlashga va ularda fuqarolik fazilatlarini tarbiyalashga qodir bo'lgan kuch
huquqiy davlat	правового государства	judicial state	siyosiy hokimiyatning o'ziga xos belgilarini, funksiyalari va rivojlanish tamoyillarini ko'zatib borishga, ularning salbiy oqibatlari va qirralarini bartaraf etishga majbur shaxs, guruh yoki qatlarmavqeining o'zgarishi bilan bog'ligjarayonlar
ijtimoiy mobillik	социальная мобилизация	social mobilization	fuqarolik jamiyatni va plyuralizmning mavjudligi
ijtimoiy omil	социальный фактор	social factory	o'zaro bog'liq va pog'onalashuv asosida tashkil topgan, qatlamlar birligidan iborat ijtimoiy tengsizlik tizimi
ijtimoiy qatlamlashuv	социальная стратификация	social stratification	shaxsga o'z ihtiyyoriga ko'ra faoliyat ko'rsatish (erkinliklar) yoki, muayyan intiyorlarga ega bo'lish (huquqlap) imkoniyatini beruvchi individ va davlat o'rtasidagi munosabatlar tamoyillari, me'yorlaridir
inson huquqlari	права человека	human rights	odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan talablari natijasida vujudga kelgan
inson jamoasi	человеческое сообщество	human community	siyosiy faoliyat subyektlarining siyosiy faoliyat mexanizmlari bilan aloqadorlikda amalga oshuvchi tadbirlarni qo'llab-quvvatlovchi, turki beruvchi, nazorat
institutlar	институты	institutes	rasmiylashgan, barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar,
institutsionallashuv	институционализация	institutionalization	

			an'ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning barqaror na'munalarning shakllanishi
iqtisodiy elita	Экономическая элита	economic elite	bu boshqaruv tizimida o'z faoliyatini xususiy mulk asosida olib boruvchi, boshqarayotgan elitaning bir qismidir
iqtisodiy omil	экономический фактор	economic factory	erkin bozor iqtisodiyotining mavjudligi
iqtisodiy resurslar	экономические ресурсы	economic resources	ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish va iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, ularning umumiy ekvivalenti sifatida pullar, texnika, unumdar erlar, er osti qazilma boyliklari va hokazolar kiradi
jamiyat elitasi	социальная элита	social elite	bu o'zlarining tug'ma ruhiy (psixologik) xususiyatlari sababli, yuqori fazilatni yoki o'z faoliyat sohalarida yuqori darajadagi qobiliyatni ko'rsata oladigan ma'lum bir kishilar guruhi
jamiyatni ng siyosiy tashkiloti	политическая организация сообщества	political organization of community	moddiy asosni vujudga keltiradigan muayyan tashkilotlar va muassasalar maj-mui, siyosiy tizim butun binosining poydevori, uning muayyan vazifalarini amalga oshiradigan ma'muriy-boshqaruv tuzilmasi
jen	жен	jen	insonni sevish, insoniylilik
kadrlar partiyala ri	партии персоналий	parties of personnels	XIX asr o'rtasida evolyusiya jarayonida elektoral qo'mitalar va parlament guruhlaridan paydo bo'lgan. ular

			nisbatan kam sonli ekanliklari, a'zolikning erkinligi bilan ajralib turadi va, eng avvalo, professional siyosat-chilarga hamda partiyani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan moliya elitasiga suyanadi
kategoriya	категория	category	narsa va hodisalarining eng muhim xususiyatlari va aloqalarini aks ettiruvchi umumiyl tushunchalar
Kompro- miss	компромисс	compromise	o'zaro yonbosishlar natijasida erishilgan bitim.
Konfede- ratsiya	Конфедера- ция	konfederati on	bu to'la mustaqil davlatlarning ko'ngilli ittifoqidir, davlatlar ittifoqining shakli bo'lib, unda a'zo davlatlar o'z suverenitetini to'liq saqlab qoladi
konflikt	конфликт	conflict	u yoki bu obyektning bir vaqtning o'zida kamida ikki va undan ortiq subyektlarning maqsad va manfaatlarini to'la qondirmasligi natijasida vujudga keladigan ijtimoiy vaziyatga aytildi
konflikt qatnashch hilari	участники конфликтов	participants of conflicts	bizularni qisqacha tarzda tomonlar deymiz
konflikt subyektlari	субъекты конфликтов	subject of conflicts	tomonlar tashkilotlar, partiyalar va hokazo shunga o'xshash siyosiy tuzilmalardan iborat bo'lishi mumkin
konfliktla rning obyekti	объекты конфликтов	object of conflicts	mavjud qadriyatlar, moddiy dunyo, hudud va hokazolardan iboratdir
konsensus (kelishuv)	консенсус	consensus	qaror ovoz berish yo'li bilan emas,

			kelishuv yo'li orqali qabo'l qilinadi.
<b>konservativizm</b>	<b>консерватизм</b>	<b>conservatism</b>	davlat va jamiyat hayotining tarixan vujudga kelgan shakllarini, uning oila, millat, din, mulkchilikda namoyon bo'lувчи qadriyatlarini saqlab qolishga qaratilgan g'oyaviy — siyosiy ta'lilot va harakat
<b>kontrelita</b>	<b>контрэлита</b>	<b>contra elite</b>	hukmron bo'lмаган elita
<b>kuch ishlatuvihi resurslar</b>	<b>ресурсы принуждения</b>	<b>resources of forcing</b>	bu qurol-yarog', jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilaridir
<b>latent bosqichi legal</b>	<b>фаза латентного легального</b>	<b>phase of latent legal</b>	konfliktlar yashirin holatda bo'lган bosqich qonuniy
<b>liberalizm</b>	<b>либерализм</b>	<b>liberalism</b>	shaxs erkinligi va boshqa fuqarolik va siyosiy huquqlarini e'tirof etuvchi va davlat faoliyati sohalarini cheklovchi ta'lilot va ijtimoiy — siyosiy harakat.
<b>lider</b>	<b>лидер</b>	<b>leader</b>	yo'l ko'rsatish xususiyatga ega inson boshqalarga ta'sir eta olish, muayyan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikda faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatiga ega
<b>liderlik</b>	<b>лидерство</b>	<b>leadership</b>	bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabo'l qilish bilan bog'liq bo'lган ijtimoiy pozitsiyadir
<b>madaniy-axborot resurslari</b>	<b>культурно-информационные ресурсы</b>	<b>cultural-information resources</b>	bilim va axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar

<b>Majburlovchi hokimiyat</b>	<b>обязательный правительство</b>	<b>compulsory government</b>	tashkil etadi majburlovchi resurslarga tayanadigan va majburiy kuch ishlatishni qo'llash yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish yordamida kishilar ustidan nazorat qilishdir
<b>majburlovchi resurslar</b>	<b>обязательные ресурсы</b>	<b>compulsory resources</b>	bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lган vositalardir. bu vositalardan, odatda, utilitar resurs ish bermay qolganda foydalaniladi
<b>manu qonunlari</b>	<b>законы Ману</b>	<b>Manu's laws</b>	insonning to'g'ri, imonli hayot kechirishini belgilab beruvchi diniy-falsafiy, siyosiy, axloqiy va huquqiy qoidalarning yig'indisidan iborat bo'lган manba
<b>marginal guruh</b>	<b>маргинальная группа</b>	<b>marginal group</b>	bir — birini istisno qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar ta'sirdagi, turli ijtimoiy guruhlar, tizimlar, madaniyatlar chegarasidagi odamlar guruhি
<b>Mazdaka'ta'lomi</b>	<b>учение Маздака</b>	<b>mazdak's doctrine</b>	barcha odamlarning teng huquqliligi to'g'risidagi ta'lilot.
<b>me'yoriy resurslar</b>	<b>нормативные ресурсы</b>	<b>regulatory resources</b>	insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar
<b>metodologik funksiya</b>	<b>методологическая функция</b>	<b>methodological function</b>	siyosatshunoslikning asosiy xulosalari alohida olingan ijtimoiy hodisalarni o'rganuvchi xususiy siyosiy nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
<b>mexanizmlar</b>	<b>механизмы</b>	<b>mechanisms</b>	an'analar, urf-odatlar, qoidalar, qonunlar siyosiy faoliyat subyektlariga ta'sir etish uslublari.

millat	нация	nation	hudud, iqtisodiy aloqalar, til, ruhiy o'ziga xoslik, madaniyat va o'z o'zini anglashning umumiy jihatlariga ko'ra ajralib turuvchi ijtimoiy guruh
Millatchilik	национализм	nationalism	mafkura va siyosat bo'lib, uning asosida milliy mustaqillik va ustunlik g'oyasi, boshqa xalqlar vakillariga bepisandlik bilan qarash yotadi
milliy guruh	национальная группа	national group	mazkur mamlakat (mintaqa)da tub aholi bo'limgan millat, xalq-elatning bir qismi
milliy munosabatlar	Национальные отношения	national relationship	milliy etnik rivojlanish subyektlari; millatlar – elatlari, etnik guruhlar va ularning davlat birlashmalari o'rtasidagi munosabatlardir
Monarchiya	монархия	monarchy	bu shunday boshqaruv shakliki, unda oliv hokimiyat yakka bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi va, odatda, meros bo'lib o'tadi
Monoteistik	монотеистик	monotheistic	yakka xudolikka asoslangan diniy qarash
mutlaq monarxiya	абсолютная монархия	absolute monarchy	boshqaruvning shunday shakliki, unda oliv davlat hokimiyati qonun bo'yicha to'yaligicha bitta shaxsga bo'ysunadi
nazariy bilish funksiyasi	функция теоретических знаний	theoretical knowledge function	siyosatshunoslik siyosat to'g'risida, uning jamiyatdagi roli to'g'risida bilimlar hosil qiladi.
neokonservatism	неоконсерватизм	neoconservatism	mumtoz konservativizm va liberalizm g'oyalarini uyg'unlashtiruvchi mafkura.

nomzodlarни ilgari surish, ularni olish bosqichi	фаза номинации	nomination phase	turli tashkiliy, siyosiy axborot-yashviqiy tadbirlarni o'z ichiga oluvchi bosqich
obyekt	обект	object	subyektning bilish va boshqa faoliyati nimaga qaratilgan bo'lsa, ana shuni anglatadi.
Parlament	парламент	parliament	qonun chiqaruvchi organ. o'zbekiston parlamenti ikki palata: qonunchilik palatasi va senatdan iborat
parlamentar respublika	парламентская Республика	parliamentary republic	parlamentning roli katta. u prezidentni, ya'ni davlat boshlig'ini saylaydi. Hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida javob beradi
politeistik	политеистик	Polytheistic	ko'p xudolikka asoslangan diniy qarash
pragmatizm	прагматизм	pragmatism	(yun. ish, faoliyat), faqat, amaliy foydali natijalarni beruvchi bilimnigina xaqiqiy, deb bilishga asoslangan yo'nalish
presidentlik respublikasi	президентская Республика	presidential republic	president parlament yo'li bilan emas, balki maxsus tartib, ya'ni xalq tomonidan saylanadi
qadriyat	значение	value	borliqdagi narsa, hodisalarning jamiyat, guruh shaxs ehtiyojlariha muvofiq kelishi yoki kelmasligi nuqtai nazaridan ahamiyati.
qonun	закон	law	empirik va nazariy jihatdan asoslangan juda umumiy yoki universal qaydar
quyi darajada	низко степень	low degree political	mahalliy doirada faoliyat olib boruvchi siyosatchilar

gi elita	политическо й элиты	elite	tashkil qiladi (rahbarlar va mahalliy boshqaruv organlari deputatlari, regional doiradagi partiya a'zolari)
ratsional- oshqora liderlik	рационально е прозрачное лидерство	rational- transparent leadership	liderlikni saylashning tartibi, unga muayyan hokimlik vakolatlarining oqilligi, qonuniyligi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi
reformat orlar	реформаторы	reformers	hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohotlar vosisida tubdan o'zgartirishga intiladilar
Regulya- tiv funksiya	функция регулирован ия	regulatory function	siyosiy bilimlarni egallash kishining siyosiy xattiharakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
Revolyu- siya	революция	revolution	jamiyat hayotini tubdan va keskin o'zgartiradi va u davlat to'ntarilishi sodir bo'lishi bilan bog'liq
shaxslar	индивидуид	individuals	siyosiy faoliyat subyektlari
Shovi- nizm	шовинизм	chauvinism	o'ta urishqoq millatchilik bo'lib, bir millatning boshqasiga, odatda, kichik millatning katta millatga bo'yusunishini bildiradi
sinflar	классы	classes	daromad miqdori, kasbinnig nufo'zliligi, bilimi, hokimiyatga ta'siri darajasiga ko'ra belgilanuvchi, ijtimoiy maqomi taxminan bir xil bo'lgan odamlar guruhi

siyosat	политика	politics	an'anaviy ravishda davlat va jamoat ishlarini, odamlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, davlatlar o'rasisidagi munosabatlar bilan bog'liq faoliyat sohasi. Sinflar, ijtimoiy guruhlar o'rasisidagi hokimiyat va jamiyatni boshqarishga oid munosabatlar, faoliyat, xattiharakat va kommunikatsion aloqlarning ko'p qirrali olami.
siyosiy elita	политическа я элита	political elite	bu hokimiyatga erishgan, jamiyat hayotining turli sohalarida buyruq beruvchi o'rirlarni egallagan odamlar to'dasi emas, balki barcha siyosiy tizimlarda bo'ladigan, mukammal tashkil etilgan hamkorlik asosidagi ijtimoiy guruhlardir
siyosiy inqiroz	Политичес- кий кризис	political crisis	qarama-qarshilik, kelishmovchilik, to'qnashuv va ziddiyatlar natijasida hokimiyat stukturasini nazorat qilishning yo'qolishidir
siyosiy konflikt	Политичес- кий конфликт	political conflict	davlat, ijtimoiy va etnik guruhlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, ma'lum shaxslarning siyosiy manfaatlari, maqsadlari va qarashlarining to'qnashuvidan iboratdir
siyosiy millat	политическа я нация	political nation	siyosiy tizimning rivojlanishi, ustivor qadriyatlar, me'yorlariga doir yakdil bo'lgan fuqarolar birligi
siyosiy muloqot	Политичес- кий контакт	political communicat	tegishli axborotning tarqalishini o'z ichiga oladi

		<b>ion</b>	
siyosiy munosabatlar	политические отношения	<b>political relationships</b>	siyosiy hokimiyatni qo'lg'a kiritish va amalga oshirish bilan bog'liq holda jamiyatda qaror topadigan munosabatlar
siyosiy omil	Политический фактор	<b>political factory</b>	fugorolar siyosiy madaniyatning yuqori darajasi
siyosiy rejim	политический режим	<b>political regime</b>	davlatning alohida shakli uchun xos bo'lgan siyosiy munosabatlar, hokimiyat organlari tomonidan qo'llanadigan usul va vositalar, davlat hokimiyati va jamiyatning qaror topgan munosabatlari, mafkurating hukmron shakllari, ijtimoiy va sinfiy o'zaro munosabatlar, siyosiy madaniyat va tafakkur turlarining majmui diktatura shakllaridan
siyosiy tizim	политическая система	<b>political system</b>	siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi vositalari bo'lgan davlat, davlat tashkilotlari va munosabatlarning yig'indisidir.
sotsial hokimiyat	социальные правительства	<b>social government</b>	sotsial zinapoyadagi o'rinnlarni — maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi
sotsial resurslar	социальные ресурсы	<b>social resources</b>	sotsial stratifikatsiyadagi sotsial maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayishi qobiliyatidir
sotsial-reformizm	социальный реформизм	<b>social-reformism</b>	evolyutsion rivojlanish, demokratik sotsializm va unga islohotlar orqali erishishga yo'nlagan ijtimoiy

			— siyosiy ta'lomit va harakat davlat tuzumi, boshqaruvi, usuli
tartibot	режим	<b>regime</b>	siyosatning davlatlar va xalqlar o'tasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi turi tushuniladi.
tashqi siyosat	внешняя политика	<b>foreign policy</b>	har bir saylovchi, u kim bo'lishidan qat'iy nazar bir ovozga ekanligini bildiradi
tenglik	равенство	<b>equality</b>	yakka hukmdor va kollegial davlat rahbariyatining mavjudligi; davlat rahbari va boshqa davlat hokimiyati oliy organlarining muayyan muddatga saylab qo'yilishi; davlat hokimiyatining o'z irodasiga ko'ra emas, balki xalq xohishi bo'yicha amalga oshirilishi; qonun bilan ko'zda tutilgan hollarda davlat rahbarining yuridik javobgarlikka tortilishi
teokratik monarkiyalar	теократическая монархия	<b>theocratic monarchy</b>	ilohiy g'oyaning va cherkov g'oyasining individ va davlatdan ustun turishidir
Teokratiya	теократия	<b>theocracy</b>	eng buyuk va eng shavf-qatsiz qullikka asoslangan hokimiyat
tiraniya	тирания	<b>tyranny</b>	tizim ma'lum aloqa tufayli birlashgan elementlar yig'indisi
Tizim	система	<b>system</b>	siyosiy terror va qo'rquvdan nafaqat haqiqiy yoki tasavvur qilingan dushmanlarni qo'rkitish va mahv etish, balki ommani boshqarishning kundalik odati yositasini sifatida foydalilanadi
totalitar rejim	Тоталитарный режим	<b>totalitarian regime</b>	

<b>unitar davlat</b>	<b>Унитарианско-го государство</b>	<b>unitarian state</b>	bu ma'muriy-hududiy, qism-larga bo'lingan yaxlit, bir butun markazlashgan davlat shaklidir
<b>ustunlik</b>	<b>преимуществ о</b>	<b>superiority</b>	siyosatda biror siyosiy kuch yoki davlatning boshqa siyosiy kuch yoki davlatlarga nisbatan kuchliroq boshqa mavqeni egallashi
<b>utilitar resurslar</b>	<b>утилитарные ресурсы</b>	<b>utilitarian resources</b>	bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir
<b>veda bitiklari</b>	<b>надпись веды</b>	<b>inscription of veda</b>	hindistonda siyosiy g'oya-larning asosiy manbai bo'lib xizmat qilgan manba.
<b>Xristianlik</b>	<b>христианство</b>	<b>christianity</b>	milodning boshlarida iso payg'ambar tomonidan asos solingan bo'lib, unga ko'ra, xudo yagonadir, ammo u muqaddas uchlik (troitsa)da namoyon bo'ladi.
<b>YEXHT</b>	<b>ОБСЕ</b>	<b>OSCE</b>	Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. O'zbekiston 1992 yil fevral oyida bu tashkilotga a'zo bo'ldi
<b>модерни-зация</b>	<b>Модерниза-ция</b>	<b>Moderniza-tion</b>	jamiyat tizimi xususiyatlarining o'zgarishi jaryoni sifatida uning eng muhim sohalarining qayta qurilishini va murakkabrok, ammo moslashuvshan turmush tarzining shakllanishini nazarda tutadi
<b>xalqaro konsor-sium</b>	<b>Международ-ный консорциум</b>	<b>Internatio-nal consortium</b>	mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, bиргаликдаги tadbirlar orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash,

			moddiy-tabiyy boyliklardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida tuzilgan xalqaro birlashma
<b>Yaqin Sharq</b>	<b>Ближний Восток</b>	<b>Middle East</b>	Yaqin Sharq - Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasida joylashgan. Bundan tashqari geosiyosiy ahamiyati jihatidan Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo bilan birgalikda chegaradosh sifatida qaralib, geostrategik va geosiyosiy imperializmda, shu jumladan AQSh gegomonlik loyihasida juda muhim o'rinnegallaydi.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	3
<b>O'QUV KURSINING PREDMET VA VAZIFALARI.....</b>	5
<b>1-BOB. JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI</b>	
<b>XALQARO MUNOSABATLARDA.....</b>	14
1.1. Hindiston zamonaviy xalqaro munosabatlarda.....	14
1.2. Pokiston zamonaviy xalqaro munosabatlarda .....	41
<b>2-BOB. SHARQIY OSIYO DAVLATLARI</b>	
<b>XALQARO MUNOSABATLARI.....</b>	64
2.1. Hozirgi davrda Yaponiya tashqi siyosati.....	64
2.2. Koreya Respublikasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda.....	86
2.3. Koreya Yarimorolidagi muammolarni umumjahon xavfsizligiga ta'siri .....	104
<b>3-BOB. JANUBI-SHARQIY OSIYO DAVLATLARI</b>	
<b>XALQARO MUNOSABATLARI.....</b>	115
3.1. Janubi-Sharqiy Osiyoning mintaqaviy xavfsizligini ta'minlash muammolari.....	115
3.2. ASEAN Janubi-Sharqiy Osiyoda siyosiy muloqotning markaziyl institutsional mexanizmi sifatida .....	126
3.3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi doirasida Janubi-Sharqiy Osiyoni mintaqaviy rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollari.....	138
<b>4-BOB. YAQIN VA O'RTA SHARQ DAVLATLARINING</b>	
<b>XALQARO MUNOSABATLARI.....</b>	151
4.1. Fors ko'rfazi mintaqasida barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlash muammolari.....	151
4.2. Saudiya Arabistoni Podshohligi tashqi siyosati shakllanishining asosiy jihatlari .....	160
4.3. Eron Islom Respublikasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida .....	197
<b>GLOSSARIY .....</b>	217

Qaydlar uchun:

**MUHAMMADOLIM MUHAMMADSIDIQOV**

# **SHARQ MAMLAKATLARI XALQARO MUNOSABATLARI**

**O‘quv qo‘llanma**

Bosishga ruxsat etildi 10.08.2017 yil.  
Formati 60x84 Garnitura Times New Roman  
Shartli bosma tabog‘i 15 b.t.  
Adadi 50 nusxa. Buyurtma №

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti,  
100197, Toshkent sh., Shahrissabz ko‘chasi, 25-uy.